ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2024

$4^{/1}$-son
(May-Iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
S. Yuldashev	4	STEAM xalqaro tadqiqotini qo'llashda fanlararo integratsiyaning ahamiyati
R. Umarova	9	Intellektual salohiyat: mohiyati, tasnifi va rivojlanish yo'nalishlari
Sh. Mirzayeva	12	Pedagogik dasturiy vositalar asosida talabalarni kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish tendensiyalari
O. Muxidova	15	Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining transversal kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni
K. Abrorxonova, N. Kamolova	18	Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy tafakkurini shakllantirish
		TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
Sh. Nurullayeva	21	Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda loyiha metodidan foydalanish
D. Yusupova	25	Tibbiyot oliygohi talabalarining klinik tafakkurini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlardagi kichik guruhlarda ishlashning afzalliklari.
D. Baxritdinova	28	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini steam yondashuvga tayyorlash metodikasini takomillashtirish
G. Muhiddinova	31	Rus tilini o'qitishda matnlar ustida ishlash metodikasi
G. Umarova	34	Alisher Navoiyning tarixiy va lirik asarlarida Hakim obrazi komillik timsoli sifatida
Z. Niyazova	41	Isajon Sulton hikoyalarida tabiat hodisalari assotsiatsiyasi
Z. Muhammadiyeva	45	Ishoqxon To'ra Ibrat asarlarida etnografik ma'lumotlar
O'. Bozorov	49	Zararli odatlarga qarshi sog'lom turmush tarzining roli
B. Abdullayev	52	O'qitishning innovatsion usullarini ta'lim jarayoniga joriy etish orqali o'quvchilarda fikrlash faolligini rivojlantirish
		TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT
D. Xayrullayev, Sh. Shoymardonova	57	Raqamli ta'lim muhitida talabalarning kasbiy sifatlarini rivojlanganlik darajalarini diagnostikalash, o'quv-uslubiy ta'minotini rivojlantirishning dolzarb masalalari
G. Nurullayeva	62	Ta'lim sifatini baholashda xalqaro tadqiqotlardan foydalanish
		ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
K. Umirova	65	Rus tilini fanlararo integratsiya orqali o'rganishning asoslari
A. Rajabov	68	O'quvchilar orasida axborotni saralash ko'nikmasini hosil qilish qilishda pedagogik hamkorlik
G. Yakubova	72	Ta'lim integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijtimoiy munosabatlarini shakllantirish
S. Ismatov, D. Abduraximova	74	Rus tili fanlarini o'zlashtirishda mustaqil ta'limning ahamiyati va dolzarbligi
		TA'LIMDA MENEJMENT
N. Maxamadjanova	77	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida masofaviy boshqaruvning ahamiyati
		KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH

Yu. Daminova, M.X. Xursandova	83	Aholining ish bilan band bo‘lmagan qatlamini kasb-hunarga o‘rgatishning ilmiy asoslari
		HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA
A. Xayrullayev	87	O‘smir yoshdagi o‘quvchilarning huquqiy axborot madaniyatini rivojlantirish
		JISMONIY TARBIYA VA SPORT
X. Maxmarizayev	90	Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarin kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish
S. Tursunova	92	Kichik yoshdagi bolalarni yengil atletika turlariga jismoniy va psixologik tayyorlash
F. Mirzayeva	95	Sportchilarda musobaqa oldi va musobaqa musobaqadan keyingi psixologik holatini o‘rganish
		MAKTABGACHA TA’LIM
S. Raximova	98	Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiatshunoslik va ekologiya asoslari bilan tanishtirish texnologiyasi
		QIYOSIY PEDAGOGIKA
X. Qodirova	102	Boshlang‘ish sinf o‘quvchilarining sportga qadriyatli-motivatsion munosabatini shakllantirish masalasi (Turkiya tajribasi misolida)
F. Xushnazarov	106	Jismoniy madaniyatni o‘quvchilar orasida samarali shakllantirishda xorijiy tajribaning o‘rni
		ILM, MA’RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR
S. Toshtemirova	110	Rus tili panxronik korpusi va qidiruv tizimi
		PSIXOLOGIYA
I. Rasulova	113	“Ota-ona va farzandlar” munosabatlari kontekstidagi nizolar va ularning ijtimoiy-psixologik determenantlari
A. Xamidov	117	O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishda gender yondashuvdan foydalanishning pedagogik-psixologik o‘ziga xos xususiyatlari
G. Salohiddinova	123	Oilalarda o‘smir yoshdagi bolalarning ijtimoiy-siyosiy faolligi ilmiy muammo sifatida
		XALQ PEDAGOGIKASI
Z. Muhammadiyeva	126	Buxoro xonligida madrasa va masjidlar faoliyati
		TAJRIBA MAKTABI
Sh. Hamroyev	130	Boshlang‘ich sinflarda savol-javob o‘yinlarini o‘tkazish tajribasidan
		СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ
Н. Кобилова	138	Преподавания русского языка в общеобразовательной школе на современном этапе

Sodiq YULDASHEV,
Qarshi davlat universiteti dotsenti

STEAM XALQARO TADQIQOTINI QO'LLASHDA FANLARARO INTEGRATSIYANING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada steam xalqaro tadqiqotini qo'llashda fanlararo integratsiyaning ahamiyati, dars jarayonida fanlararo integratsiyani ta'minlash, hayotiyligi va amaliy ahamiyati yuqori, zamonaviy to'garak mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish bilan bir qatorda o'quv-tarbiya jarayonini sifat jihatidan yanada yaxshilash, nazorat materiallarini kompetentlik va ijodiy fikrlashini baholashga qaratish, o'quvchilarning natijalarini doimiy tahlil qilib borish kabi dolzarb vazifalarni bajarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tayanch so'zlar. Steam xalqaro tadqiqoti, innovatsion ta'lim, uzluksiz ta'lim, o'quvchining qiziqishlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari, shaxsiy sifatlari, intellektual xususiyatlari, S – science, T – technology, E – engineering, A – art, M – mathematics.

В статье рассматривается важность междисциплинарной интеграции в применении международных исследований steam, обеспечение междисциплинарной интеграции в процессе урока, имеющей высокую жизнеспособность и практическую значимость, создание современных кружковых занятий, а также качественное улучшение учебно-воспитательного процесса, ориентация контрольных материалов на оценку компетентности и творческого мышления, выполнение актуальных задач по непрерывному анализу результатов учащихся. будет.

Ключевые слова. Steam International Research, инновационное образование, непрерывное образование, интересы, потребности, способности, личные качества, интеллектуальные характеристики учащегося, S – science, T – technology, E – engineering, a – art, M – mathematics.


The article examines the importance of interdisciplinary integration in the application of international steam studies, ensuring interdisciplinary integration in the lesson process, which has high viability and practical significance, creating modern circle classes, as well as qualitative improvement of the educational process, focusing control materials on assessing competence and creative thinking, performing urgent tasks for continuous analysis of student results. will be.

Key words. Steam International Research, innovative education, continuing education, interests, needs, abilities, personal qualities, intellectual characteristics of the student, S – science, T – technology, E – engineering, a – art, M – mathematics.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoniga ko'ra innovatsion ta'lim jarayoniga o'tish, zamonaviy kadrlarga bo'lgan ehtiyojni inobatga olgan holda intensiv til, AKT va ta'lim berishning yangi metodlarini o'rganish, STEAM pedagogika asoslarini o'zlashtirish, yangi kasbiy kompetensiyalarni o'zlashtirish uchun zarur bilimlar bazasini shakllantirish kabi masalalar vazifa qilib olindi. Shuningdek, Konsepsiyada O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib o'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qa-

toriga kirishiga erishish to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash va ta’lim samaradorligini oshirishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur: har bir o‘quvchining qiziqishlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari, shaxsiy sifatlari, intellektual xususiyatlarini aniqlash, o‘quvchilarda o‘qishga sog‘lom, kuchli va ta’sirchang motivasiyani shakllantirish; iqtidorli va iste’dodli o‘quvchilarni tanlash va individual yondashish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish; yoshlarni tarbiyalsh va ularning bandligini ta’minlashda maktabdan tashqari ta’limning zamonaviy usullarini va yo‘nalishlarini joriy etish; o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish.

Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda STEAM texnologiyasini qo‘llash ko‘zlangan natijaga erishish imkonini beradi. STEAM – hozirgi kunda dunyo ta’lim tizimining eng asosiy urf bo‘lgan innovatsion metodlardan biri hisoblanadi. Bir qaraganda STEAM abbreviaturasi juda murakkab ko‘rinadi, lekin uni alohida ko‘radigan bo‘lsak sodda va aniq ekanligini ko‘rishimiz mumkin, ya’ni:



STEAM xalqaro baholash dasturini qo‘llash uchun maktab ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyani amalga oshirish lozimdir. STEAM – fanlararo integratsiya yondashuvga asoslangan o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorligidagi faoliyati hisoblanadi. STEAM o‘quvchilarda muammolarni keng qamrovli tushunish, ijodiy fikrlash, muhandislik yondashuv, tanqidiy fikrlash, ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash, dizayn asoslarini tushunish kabi muhim xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

STEM ta’limi yo‘nalishida o‘tkaziladigan xalqaro tadqiqotlar haqida ma’lumotlarni bilishi hamda ularni amaliyotda qo‘llash uchun malakalarga ega bo‘lishlari zarur bo‘ladi.

Zamonaviy maktablarda robot dizayni, modellashtirish va dizayn loyihalashtirishishlari yetakchi o‘rinni egallamoqda.

Mamlakatimizning raqobatbardoshligini oshirish uchun ko‘proq texnik ta’lim talab etilayotganligi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Bugungi kunda STEM ta’limi jamiyat va davlatning rivojiga katta hissa qo‘shadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash imkonini bermoqda.

Ma’lumki, zamonaviy ta’lim tizimi, an’anaviy ta’limdan farqli o‘laroq, amaliyotda o‘rganilayotgan ilmiy-nazariy va metodik uslubni kundalik hayotda qanday qo‘llash mumkinligini ko‘rsatishga imkon beradigan aralash muhit hisoblanadi. Matematika

va fizika bilan bir qatorda o‘quvchilar robototexnika va dasturlashni o‘rganadilar. Bu jarayonda o‘quvchilar aniq va tabiiy fanlardan olgan bilimlarini amaliyotdagi natijasini shaxsan ko‘rib turadilar.

• STEM ta’limi o‘quvchilarning muammolarga fanlararo nuqtai nazardan qarashga va ta’limning yaxlit yondashuvi bilan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishga imkon beradi.

• STEM ta’limi, maktabgacha bo‘lgan ta’limdan oliy ta’limgacha bo‘lgan butun ta’lim jarayonini qamrab oladigan fanlararo yondashuv sifatida qabul qilingan.

STEM ta’limining muhimligi shundaki, haqiqiy fan sohasida ta’lim sifatining pastligi, moddiy-texnika bazani yetarli darajada emasligi, o‘qituvchilar va o‘quvchilarning sust motivatsiyasi – bularning barchasi ta’lim tizimining eng katta muammosidir.

Shu bilan birga, bosqichma-bosqich rivojlanib borayotgan davlatimiz yuqori texnologiyalar sohasidagi fanlarning turli xil ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi.

Shu munosabat bilan, bugungi kunda STEM ta’limi birinchi o‘rinda turadi. Bu esa kelajakda texnologik jarayonni rivojlantirish va mamlakatimizda ilmiy va muhandislik kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qoplanishiga yordam beradi.

STEM atamasi ilk bor AQShda maktab dasturiga kiritilgan bo‘lib, o‘quvchilarning ilmiy-texnika yo‘nalishlaridagi kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Keyinchalik bu yo‘nalish kengaytirilib, atamaga qo‘shimcha harflar kiritildi. Jumladan, unga “R” – robotics – robototexnikani qo‘shib, STREM deb “A” - art - san’atni qo‘shib, STEAM deb atala boshlandi.

Bugungi davr talabi dunyo ta’limi oldiga katta vazifani qo‘ymoqda. Bu esa o‘quvchilarni jamiyatda yashashga tayyorlay olishi kerak. Bunda birinchi navbatda tez o‘zgarayotgan axborot bilan ishlaydigan kasblar bilan bog‘liq xususiyatlarni o‘quvchida shakllantirish lozim. Axborotni olish, qayta ishlash va amaliyotda foydalanish STEM ta’limi dasturining asosini tashkil qiladi.

STEM ta’limi texnologiyasi loyihalash metodiga tayangan holda uning asosida bilash va ijodiy izlanish yotadi. Bunday izlanish amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni olish, ulardan amaliyotda qayta foydalanish, ya’ni o‘yinlarda turli konstruksiyalar tuzish, texnik ijodiyot elementlarini qo‘llab, bilim olishga oid tadqiqot ishlarida amalga oshiriladi.

STEM ta’limi o‘quvchining rivojlanishini tashqi olam bilan bevosita bog‘laydi. Ma’lumki, texnalogiya fani kundalik hayotimizda doimiy qo‘llaniladi, muhandislik esa uylar, yo‘llar, ko‘priklar va mashina mexanizmlarda o‘z aksini topgan biror bir kasb, kundalik mashg‘ulotlarimiz ozmi-ko‘pmi matematik hisob-kitoblar bilan bog‘langandir.

STEM ta’limiy yondashuvi o‘quvchilarga dunyoni tizimli ravishda o‘rganishga, atrofda ro‘y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o‘zaro aloqani anglab yetishga, o‘zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni ochishga imkon beradi. Qandaydir yangilikni kutish orqali o‘quvchida qiziquvchanlikni rivojlantiradi. O‘zi uchun qiziqarli masalani aniqlab olishni, uning yechimini topishning algoritmini ishlab chiqishni, natijalarini tanqidiy baholashni, fikrlashni muhandislik stilini shakllantirishga olib keladi. Jamoaviy faoliyat olib borish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bularning barchasi o‘quvchi rivojlanishining yuqori bosqichga ko‘tarilishini va kelajakda to‘g‘ri kasb tanlashga zamin yaratadi.

Shunga ko‘ra dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida STEM ta’limiy yondashuvga katta e’tibor berilmoqda. Jumladan, Yevropaning 10 dan ortiq mamlakatlari (Avstriya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Norvegiya, Angliya, Irlandiya, Ispaniya va boshqalar) milliy strategiya va tashabbuslarida bu hisobga olingan.

STEM ta’limni amalga oshirish uchun davlat ta’lim standartlariga o‘zgartirishlar kiritish lozim. Masalan, bunda AQSH tajribasidan ijodiy ravishda foydalanish mumkin.

STEM ta’limining afzalliklari:

– ta’limni o‘quv fanlari bo‘yicha emas, “mavzular” bo‘yicha integratsiyalash;

– ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo‘llash;

– texnik tafakkurni rivojlantirish va muammolarni yechish;

– o‘z kuchiga ishonish hissini ortishi;

– faol kommunikatsiya va jamoada ishlash;

– texnik fanlarga bo‘lgan qiziqishlarni rivojlantirish;

– loyihalarni ishlab chiqishda kreativ va innovatsion yondashuv;

– ta’lim va karyera orasidagi ko‘prik;

– o‘quvchilarni texnologik rivojlangan dunyoda yashashga tayyorlash;

– STEM to‘garaklarida amaliy ishlarni bajarish orqali o‘z bilimlarini mustahkamlash.

STEM dasturlari 7-14 yoshdagi o‘quvchilarning muttasil ravishda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarga qiziqishlarini orttiradi. Masalan, texnologiya fani darslarida STEM ta’limi bilan o‘zaro integratsiyalashgan holda harakatlanuvchi raketalar, avtomobillar, robototexnika va boshqa amaliy ishlarni bajarish orqali o‘z bilimlarini mustahkamlaydilar.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan texnologiya fanini mazmunan modernizatsiyalash hamda ta’lim sifati va samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Texnologiya fani insonlar hayotida muhim o‘rin tutuvchi amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko‘rishga yordam beruvchi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar voyaga yetib qaysi kasbni egallashmasin, kim bo‘lmasin, texnologiya fanidan olgan bilim va ko‘nikmalarini uyda, oilada, ish faoliyatida albatta foydalanadi.

O‘quvchilartexnologiya fani darslaridamateriallarga ishlov berish, asbob-uskunalar,moslamalar va ulardanfoydalanishga oid bilimlarni o‘zlashtiradilar. Mahsulot ishlab chiqarish va uy-ro‘zg‘or buyumlarini ta’mirlashga oid bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar.

Bizning darsliklarimiz mazmunan “Texnologiya va dizayn”, “Servis xizmati” “Qishloq xo‘jaligi texnologiyalari” yo‘nalishlari asosida mavzular berilgan. Darslikka kiritilgan bo‘limlar bo‘yicha o‘quvchilar uchun kasb-hunarlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Rivojlangan davlatlar Texnologiya fani darsliklari mazmuni o‘rganilib, tahlil qilinganda ma’lum bo‘ldiki, ulardagi mazmun to‘laqonli bizning darsliklarimiz mazmuniga mos holda berilgan. Farqli jihati shundaki, ularda bizdagi barcha yo‘nalish va bo‘limlar alohida darsliklar sifatida nashr qilingan. Bu esa birinchi tomondan o‘quvchilar uchun foydalanish jihatidan qulay, ikkinchi tomonidan esa mazmunan ko‘proq ma’lumotlarni kiritish imkoniyatiga egaligidir.

“Integratsiya” so‘zi lotincha integratio-tiklash, to‘ldirish, “integer” butun so‘zidan kelib chiqqan. Integratsiya tushunchasi quyidagi ikki xil jarayon sifatida talqin etiladi: birinchidan, tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarining bog‘liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon; ikkinchidan, tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Integratsiyaning turli darajalari ajratiladi: boshlang‘ich, tabiat haqidagi elementar bilimlarni birlashtiradi; oraliq – predmetlar bo‘limlarini bo‘lish integratsiyasi; yakuniy – tabiatshunoslikni o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan ta’limninng oxirgi bosqichi integratsiyasi. Shu bilan birga, tabiiy-ilmiy ta’limni to‘liqroq va kengroq integratsiyalash imkoniyati ham inkor etilmaydi. Maktab ta’limini integratsiyalash jarayonining psixologik asosi sifatida

psixolog Y.A.Samarinning assotsiativ tafakkur to‘g‘risidaga fikrlari asos qilib olinishi mumkin. Bu fikrlarniig mazmuni shundaki, har qanday bilim bu o‘xshatish, bilimlar tizimi esa o‘xshatishlar tizimidir. Y.A.Samarin o‘xshatishlarning quyidagi turlarini ajratadi: lokal (mahalliy, ma’lum bir joy, narsa bilan chegaralangan), biror tizimga tegishli bo‘lgan, tizim ichidagi, tizimlar orasidagi va aqliy faoliyat darajalarini o‘xshatishlarining mos keladigan darajasiga birlashtirish xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Integratsiyani yo‘lga qo‘yishda quyidagi prinsiplarga amal qilinadi:

birinchidan, gumanitarlash, ya’ni tabiiy-ilmiy va gumanitar bilimlarni “tabiat va inson” tizimida integrallash;

ikkinchidan, tabiatdagi mavjud aloqalarni o‘quvchilarga o‘rgatish orqali shaxsni shakllantirish;

uchinchidan, o‘quvchilar tafakkurida tabiat haqidagi konkret bilimlarni shakllantirish ustuvorligi;

to‘rtinchidan, kelgusida ilmiy izlanishga mos keluvchi turli sohalardan materialni tanlash.

Integratsion kursning maqsad va vazifalari maktab tabiiy-ilmiy ta’lim tizimida tavsiflanadi. Bilimning integratsiyalashgan (ko‘rgazmali) tarmog‘ida integratsiyalashning usuli va vositalari: ta’lim rejasidagi o‘qitish joyida vaqtning hajmiga qarab, shu kursni to‘la o‘zlashtirish vaqti o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi – ko‘p maqsadli va rang barangliligi hamda ko‘p funksiyaga egaligi bilan tavsiflanadi.

Xulosa shuki, maktab mashg‘ulotlari mazmunini tadqiqotlarga tayyorgarlikka yo‘naltirish, maktab pedagog jamoasi va o‘quvchilar orasida ijodiy muhitni kuchaytirish, dars jarayonida fanlararo integratsiyani ta’minlash, hayotiyligi va amaliy ahamiyati yuqori, zamonaviy to‘garak mashg‘ulotlarini yo‘lga qo‘yish bilan bir qatorda o‘quv-tarbiya jarayonini sifat jihatidan yanada yaxshilash, nazorat materiallarini kompetentlik va ijodiy fikrlashini baholashga qaratish, o‘quvchilarning natijalarini doimiy tahlil qilib borish kabi dolzarb vazifalarni bajarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.

2. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholash (matematika fani o‘qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma) / Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. – T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2019. – 112 b.

3. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma) / U.N.Tashkenbayevning umumiy tahriri ostida. – T.: Sarq, 2019. –91 b.

4. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb-sayti: www.markaz.tdi.uz.

5. Ivanova M.I. Razvitie nauchno-obrazovatelnoy sistemы Germanii v yedinom yevropeyskom obrazovatelnom prostranstve. Diss. ... kand. ped. nauk. –Rostov D., 2000. – 239 s.

6. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.–279b.

Ra’noxon UMAROVA,
Andijon davlat universiteti PhD

INTELLEKTUAL SALOHIYAT: MOHIYATI, TASNIFI VA RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI

Annotatsiya

Maqola mamlakatimiz ta’lim tizimida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlanish darajasi asosan yuqori sinflarda amalga oshirish, o‘quvchilarda intellektual faoliyat ko‘nikmalari bir qadar shakllantirish, muntazam holatda nimanidir qurish, yaratish, loyihalashga qaratilgan. Muallif vaziyatni tahlil qilar ekan, o‘z navbatida, shaxsiy qarashlari va fikr-mulohazalari bilan ham o‘rtoqlashadi.

Tayanch so‘zlar. Ta’lim, ta’lim siyosati, axborot axborotlashtirish, axborot-texnologiyalari, internet, multimediya resurslari, kasbiy omilkorlik, o‘quv-laboratoriya jihozlari, malaka, dastur, masofaviy ta’lim.

Статья посвящена уровню развития интеллектуального потенциала учащихся в системе образования нашей страны в основном в старших классах, формированию у учащихся навыков интеллектуальной деятельности, построению, созданию, конструированию чего-либо в рутине. Анализируя ситуацию, автор, в свою очередь, также делится своими личными взглядами и мнениями.

Ключевые слова. Образование, образовательная политика, информационная информатизация, информационные технологии, Интернет, мультимедийные ресурсы, профессиональная факторизация, учебно-лабораторное оборудование, квалификация, программа, дистанционное обучение.

The article is aimed at implementing the level of development of intellectual potential of students in the educational system of our country mainly in the upper classes, slightly shaping the skills of intellectual activity in students, building, creating, designing something in a regular state. While analyzing the situation, the author, in turn, also shares his personal views and opinions.

Key words. Education, Educational Policy, Information informatization, information technology, internet, multimedia resources, professional factorism, educational and laboratory equipment, qualifications, program, distance education.

Mamlakatimizning dunyo miqyosida o‘zining yuqori o‘ringa ega bo‘lishi, bugungi kun yoshlari, xususan umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularning zamon talablari darajasida bilim va malakalarni egallashlari, ta’lim-tarbiya tizimining zamon talabalariga hamda kelajakdagi strategik maqsadlarga asosan tashkil etilishiga bevosita bog‘liq jarayondir. Shu bois har bir jamiyat kelajagi uning ajralmas bo‘g‘ini bo‘lgan ta’lim tizimining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan bugungi kunga qadar uzluksiz ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, unga ilg‘or axborot texnologiyalarini tatbiq etish hamda ta’lim berish jarayonini sifat va samardorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi bejizga emas. Xususan, bu borada davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning: “Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoni-

yatlarini safarbar qilamiz”[1], − degan shijoatli ta’kidlari tadqiqotimiz mavzusini yanada dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Maktab ta’limida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlanish darajasi asosan yuqori sinflarda amalga oshiriladi, negaki, 8-9-sinf o‘quvchilarida intellektual faoliyat ko‘nikmalari bir qadar shakllangan bo‘ladi. Ular muntazam holatda nimanidir qurish, yaratish, loyihalashga intiladilar.

Ma’lumki, har bir o‘quvchi kelajakda qaysi soha vakili bo‘lmasin o‘zining intellektual salohiyati va o‘z sohasining mahoratli mutaxassisi sifatida millat, jamiyat rivojiga o‘z ta’sirini ko‘rsata olishi lozim. Intellektual salohiyat, kreativlik, o‘quvchi-yoshlarni bilimdonligi, yuksak ong asosida jamiyat hayotiga tayyorgarlik darajasini ta’minlovchi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, intellektual rivojlanishining mezoni vazifasini o‘taydi.

Intellektual salohiyat, uni shakllantirish va rivojlantirish muammosi bir qator izlanuvchilarning tadqiqot obyektiga aylangan.

Hozirgi kunda ilm-fan foydalanadigan intellekt nazariyasi 100 yil oldin paydo bo‘lgan. Intellektual ko‘nikmalarga bugungi davrda samarali fikrlash va ma’lumot bilan ishlash qobiliyati sifatida qaralmoqda. Buning yaqqol misoli sifatida halqaro baholash tadqiqotlarining konsepsiyalarini keltirishimiz mumkin. Tadqiqotlarda asosan o‘quvchilarning ma’lum bir fan bo‘yicha bilimi emas, balki kompleks tahlil qilish kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini tekshirishga ustuvorlik berilmoqda. O‘zbekiston respublikasining mazkur tadqiqotlarda ishtirok etishi ta’lim tizimida o‘quvchilarning intellektual salohiyatni rivojlantirishning yangi intellekt nazariyasiga muvofiq tashkil etilishi sifatida baholanadi.

O‘quv jarayonida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda fanga doir ma’lumotlarni bir shakldan boshqasiga (matn, jadval, diagramma, grafik, rasm va hk.) o‘zgartira olish va eng qulay shaklni tanlash, axborot bilan ishlash, uning tarkibini ixchamlashtirilgan yoki kengaytirilgan shaklda yetkazish (matn rejasini tuzish, tezislar, eslatmalar va boshqalar) kabilarni qo‘llanilishiga katta e’tibor qaratilmoqda.

Bizningcha intellektual salohiyat – bu kognitiv qobiliyatlar va ijodkorlikning mosligini hisobga olib, maqsadga erishish uchun o‘z harakatlarini rejalashtirish, tartibga solish va boshqarish qobiliyatidir. Intellektual salohiyat axborotlashib borayotgan jamiyatda uzluksiz yangilanib boradi. Har bir faoliyat turi o‘ziga xos axborot makonini tashkil qiladi. Uni o‘qitish va foydalanish usuli intellekt faoliyatini tashkil etish tamoyillariga asoslanadi. Axborot makoniga yangi ma’lumotlarni kiritishni tashkil etish tamoyillari, saqlash va ko‘paytirish usullari ham intellekt ishining o‘ziga xos xususiyatlariga, ya’ni xotirani tashkil etishga mos keladi. Shu sababli, axborot makoni ham intellektual makondir, chunki u allaqachon rejalashtirish, unumli foydalanishni tashkil etish va maqsadga erishish uchun bosqichma-bosqich boshqarish tamoyillarini o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilar intellektual salohiyatining muhim xususiyatlari bu qiziquvchanlik va ong chuqurligi, uning moslashuvchanligi va harakatchanligi, izchillik, dalillarga asoslangan fikrlash, to‘g‘ri xulosalash, tanqidiy fikrlash hamda tafakkur kengligidir.

Ta’limni axborotlashtirish sharoitida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish quyidagi jihatlar bilan bog‘liq:

---

1 Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanalari marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / – T.: O‘zbekiston, 2017. – 56-b. (– B. 13-14.) http://naveconomy.uz/hujjatlar/33-prezident-sh-mirzieevning-asarlari.html.

1. Zamonaviy axborot texnologiyalari o‘quvchilarga axborotni noan’anaviy manbaalariga murojaat qilishga, mustaqil ishlar samaradorligini oshirishga va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishlariga keng imkoniyat yaratadi. Ularda kreativlik va intellektni rivojlantiradi.

2. Axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va yangi axborotni yaratish bilan shug‘ullanuvchi texnologiyalarni kompyuter asosida joriy etish, yangi axborot texnologiyalarini vujudga keltiradi. Shuningdek, yangi STEAM va SMART ta’lim yondashuvlari yordamida ta’lim tizimida intellektual salohiyatli yoshlarning rivojlantirish usul va vositalarini ishlab chiqish hamda amaliy jarayonga tatbiq etishga shart-sharoit yaratadi.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda intellektual o‘sishga doir turli vazifalar va harakatlarning amalga oshirilishi maktab ta’lim tizimi o‘quvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi. Umumta’lim maktablarini boshqarish tizimining harakatchanligi va dinamikasini ko‘tarish, o‘qituvchilar malakasini va kasbiy mahoratini oshirish, tegishli motivatsiyani rivojlantirish orqali o‘quvchilarni ilmiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishlarini yuzaga chiqarish, rag‘batlantirish, kreativligini oshirish, shuningdek, o‘quv-uslubiy va dasturiy ta’minotni takomillashtirish o‘quvchilarda intellektual salohiyatni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanalari marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / – T.: O‘zbekiston, 2017. – 56-b. (– B. 13-14.) http://naveconomy.uz/hujjatlar/33-prezident-sh-mirzieevning-asarlari.html.

2. https://www.verywellmind.com/theories-of-intelligence-2795035

Shaxlo MIRZAYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR ASOSIDA TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya

Maqolada jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan axborotlashtirish davri ta’lim sohasida ham o‘ziga xos muammolarni qo‘yilayotgani xususida so‘z yuritilib, zamonaviy ta’limni axborotlashtirish va texnologiyalashtirishning eng muhim vazifalaridan biri ochiq axborot tizimlaridan foydalanish hisoblanishi, shuningdek, hozirgi vaqtda ushbu muammoni hal qilish uchun pedagogik dasturiy vositalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular o‘qitishda yangi yondashuvlarni qo‘llash imkonini berishi, lekin ular har doim ham zamonaviy talablarga javob bermasligi tahlil qilinadi. Hamda pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish va turli ta’lim muassasalari tajribasini o‘rganish o‘quv fanlari bo‘yicha pedagogik dasturiy ta’minot bilan amaliyotga yo‘naltirilgan ta’minlanmaganligini ko‘rsatishi qayd etiladi. Ushbu kuzatish pedagogik dasturiy ta’minotni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Tayanch so‘zlar. Pedagogik dasturlar, electron darsliklar, internet tizimlari, IT, ta’lim oluvchi, sifat, nazorat.

В статье отмечается, что период информатизации, охватывающий все стороны жизни общества, ставит уникальные проблемы в сфере образования, и что одной из важнейших задач информатизации и технологизации современного образования является использование открытых информационных систем, а также для решения этой проблемы разработаны современные педагогические программные средства и проанализировано, что они позволяют использовать новые подходы в обучении, но не всегда отвечают современным требованиям. При этом отмечается, что анализ педагогической литературы и изучение опыта различных образовательных учреждений показывают отсутствие практикоориентированного обеспечения педагогического обеспечения учебных предметов.

Ключевые слова. педагогические программы, электронные учебники, интернет-системы, информационные технологии, обучающийся, качество, контроль.

The article mentions that the period of informatization, which covers all aspects of society, poses unique problems in the field of education, and that one of the most important tasks of informatization and technologicalization of modern education is the use of open information systems, as well as the current Pedagogical software tools have been developed to solve this problem, and it is analyzed that they allow using new approaches in teaching, but they do not always meet modern requirements. At the same time, it is noted that the analysis of pedagogical literature and the study of the experience of various educational institutions show the lack of practice-oriented provision of pedagogical software for educational subjects.

Key words. Pedagogical programs, electronic textbooks, Internet systems, IT, learner, quality, control.

Pedagogik dasturiy ta’minot kompyuter texnologiyalari va Internet vositalaridan foydalanishga asoslangan integral didaktik tizim bo’lib, o‘quv jarayonini boshqarish bilan individual va optimal o‘quv dasturlari bo’yicha o‘qitishni ta’minlashga qaratilgan. Pedagogik dasturiy ta’minotni ishlab chiqishni boshlashda birinchi navbatda pedagogik dasturiy ta’minotning asosiy tushunchalari, tasnifi va turlarini o‘rganish kerak.

“Pedagogik dasturiy ta’minot” tushunchasi turlicha talqin qilinadi, lekin ko‘pchilik

mualliflarning fikrlari o'xshash. Masalan, Kukhtin D.V. Pedagogik dasturiy ta'minot bu o'quv fanini o'rganish jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan individual dasturlar va dasturiy komplekslar ekanligini aytadi. Gorlushkina N.N. Pedagogik dasturiy ta'minot kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan ta'lim jarayonini texnologik ta'minlashdir.

Pedagogik dasturiy ta'minot uchta asosiy blokni o'z ichiga oladi, ularning nomi ularning maqsadini ko'rsatadi:

– ma'lumot va ma'lumot bloki;
– o'quv boshqaruv bloki;
– diagnostika bloki.

Pedagogik dasturiy ta'minotning mohiyatini hisobga olgan holda, mualliflar ularning tasniflarining butun majmuasini ajratib ko'rsatishadi. Biroq, o'qituvchilar o'z qarashlarida farq qiladi. Bu, birinchi navbatda, yaratilish, mazmun, dizayn va hokazo maqsadlarning xilma-xilligi bilan bog'liq. Shuningdek, ushbu masalada muhim omil – ko'plab mavjud pedagogik dasturiy vositalarning aniq belgilangan aniq ta'rifining yo'qligi, bundan tashqari, dizayn maqsadini to'liq hisobga olmaydi va hokazo.

Pedagogik dasturiy ta'minotni grafik imkoniyatlari, integratsiyalashuv darajasi, chiqish materiallarini taqdim etish shakli va boshqalarga ko'ra tasniflash mumkin.

Mashhur rus o'qituvchisi B.S. Gershunskiy o'z tasnifini maqsad tamoyiliga asoslagan. Muallif o'qituvchilar tarkibini quyidagi mezonlar bo'yicha ko'rib chiqishni taklif qiladi:

– menejerlar;
– diagnostika;
– namoyish qilish;
– hosil qiluvchi;
– operatsiya xonalari;
– modellashtirish va boshqalar.

Har bir tasniflash guruhi ma'lum turdagi quyidagi elektron o'quv resurslarini o'z ichiga oladi:

– elektron terminologik lug'at;
– bilimlarni baholash uchun nazorat-o'lchov materiallarining elektron fondi;
– elektron o'quvchi;
– elektron darslik;
– elektron vizual yordam;
– elektron ustaxona;
– elektron simulyator;
– ma'ruzalarning elektron kursi;
– elektron darslik;
– elektron o'quv kursi;
– ochiq ta'lim resurslari.

Sanab o'tilgan resurslar ma'lumotlar bazalarida mavjud bo'lgan va ta'lim dasturlarini amalga oshirishda foydalaniladigan ma'lumotlardan va ularni qayta ishlashni ta'minlaydigan axborot texnologiyalaridan, texnik vositalardan, shuningdek ko'rsatilgan ma'lumotlarning uzatilishini ta'minlaydigan axborot va telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalangan holda ta'lim faoliyatini tashkil etishga yordam beradi. aloqa liniyalari orqali axborot – e-learning.

Elektron ta'lim resurslaridan foydalangan holda o'qitish maqsadlarga qarab bir necha usulda tashkil etiladi:

– aralash ta’lim (sinfdagi ish va o‘quvchilar va o‘qituvchilarning elektron axborot va ta’lim muhitidagi faoliyati kombinatsiyasi);

– Veb-qo‘llab-quvvatlanadigan trening (asosiy o‘quv jarayoniga qo‘shimcha);

onlayn ta’lim (sinfda o’qitishsiz elektron ta’limdan foydalangan holda fanni o‘zlashtirish.

Pedagogik dasturiy ta’minotni ishlab chiqish jarayonida tamoyil va talablarni ham hisobga olish zarur. Gorushkinning tamoyillari orasida N.N. 4 ta guruhni ajratadi:

– talabalarning psixofiziologik xususiyatlari;

– kompyuter texnikasining texnik imkoniyatlari;

– dizayn bo’yicha pedagogik tavsiyalar;

– yaratilgan pedagogik dasturiy ta’minotga tizimli yondashish.

I.Rober pedagogik dasturiy ta’minotni yaratishga qo‘yiladigan asosiy talablar sifatida quyidagilarni sanab o‘tadi:

– pedagogik talablar;

– texnik talablar;

– ergonomik talablar;

– estetik talablar;

– hujjatlarga qo‘yiladigan talablar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Асмолов, А.Г. Как проектировать универсальные учебные действия в начальной школе. От действия к мысли/Бурменская Г.В., Володарская И.А. – М.: Просвещение, 2011. – 152с.

2. Верещагина И.Н. Английский язык. Рабочие программы. – М.: Просвещение, 2012. – 96с.

3. Примерные программы по учебным предметам. Начальная школа. В 2 ч. Часть 2. – М.: Просвещение, 2011. – 231с.

4. Презентация на тему: «Развитие познавательных УУД на уроках иностранного языка Автор:Бебякина Е.В., учитель английского языка

5. http://nsportal.ru/nachalnaya-shkola

6. http://nsportal.ru/shkola/inostrannye-yazyki

Olima MUXIDOVA,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA O‘QITUVCHILARINING TRANSVERSAL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Annotatsiya

Maqola axborot va media ko‘nikmalarining zamonaviy ta’lim muhiti uchun zarur bo‘lgan transversal kompetentsiyalarni rivojlantirishga ta’sirini o‘rganadi. Tahlil so‘nggi paytlarda olib borilgan ta’lim tadqiqotlari va pedagogik nazariyaga asoslangan bo‘lib, texnologik ta’limda ushbu kompetensiyalarning zarurligini ta’kidlaydi.

Tayanch so‘zlar. Transversal kompetensiya, texnologik ta’lim, raqamli ko‘nikmalar, axborot resurslari, elektron dastur, tanqidiy va innovatsion fikrlash.

В статье рассматривается влияние информационных и медиа-навыков на развитие трансверсальных компетенций, необходимых для современной среды обучения. Анализ основан на недавних исследованиях в области образования и педагогической теории, которая подчеркивает необходимость этих компетенций в технологическом образовании.

Ключевые слова. Трансверсальная компетентность, технологическое образование, цифровые навыки, информационные ресурсы, электронная программа, критическое и инновационное мышление.

The article examines the impact of information and media skills on the development of transversal competences required for modern learning environments. The analysis is based on recent educational research and pedagogical theory that emphasises the need for these competencies in technology education.

Key words. Transversal competence, technology education, digital skills, information resources, e-programme, critical and innovative thinking.

Zamonaviy ta’lim o‘qituvchilardan nafaqat o‘z fanini bilishni, balki ta’lim jarayonida axborot va media resurslardan samarali foydalana bilishni ham talab qiladi. Shu jumladan texnologik ta’lim nafaqat kasb-hunar bilan bog‘liq texnik ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi, balki axborot va media-texnologiyalarni boshqarish va ulardan samarali foydalanish uchun pedagogik qobiliyatni ham talab qiladi. Raqamli vositalar va ommaviy axborot vositalarining ta’lim muassasalarida o‘sib borayotgan o‘rni barcha o‘qituvchilarni, shu jumladan texnologiya o‘qituvchilarini ham ushbu sohada malakali bo‘lishini talab qiladi. Bu ko‘nikmalar nafaqat bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy profilini boyitibgina qolmay, balki ularning ta’lim jarayonining tez o‘zgaruvchan sharoitlariga moslashishiga yordam beradi.

Transversal kompetensiyalar – yumshoq ko‘nikmalar sifatida ham tanilgan, bular ma’lum bir ish yoki sohaga xos bo‘lmagan, ammo turli rollar va vaziyatlarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ko‘nikmalardir. Ushbu ko‘nikmalar shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun zarur bo‘lib, mehnat bozorida ish beruvchilar tomonidan yuqori baholanadi.

Raqamli savodxonlik bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining asosiy transversal kompetensiyalaridan biri bo‘lib, u tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki tex-

nologiya fani ta’lim va sanoatda muhim rol o‘ynashda davom etmoqda.

Axborot ko‘nikmalari turli raqamli vositalar va resurslardan foydalangan holda ma’lumotlarni samarali qidirish, tahlil qilish, baholash, foydalanish va taqdim etish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu ko‘nikmalar o‘qituvchiga nafaqat texnologiyaning so‘nggi yutuqlaridan xabardor bo‘lish, balki o‘quvchilar uchun dolzarb va qiziqarli bo‘lgan o‘quv materiallarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mediasavodxonlik endi ixtiyoriy emas, balki raqamli avlodni jalb qilish va ilhomlantirishni maqsad qilgan o‘qituvchilar uchun asosiy ko‘nikmalardir, texnologiya o‘qituvchilari nafaqat axborot iste’molchilari, balki AKT va media savodxonligi bo‘yicha chuqur bilim talab qiladigan media-kontentni yaratuvchisi ham bo‘lishi kerak.

Transversal kompetensiyalar, jumladan, tanqidiy fikrlash, muloqot qobiliyatlari, raqamli savodxonlik, muammolarni hal qilish, ijodkorlik va moslashuvchanlik zamonaviy ta’lim jarayonining asosidir. Ushbu ko‘nikmalar axborot va media savodxonligi bilan sezilarli darajada to‘ldiriladi. Ma’lumotlariga ko‘ra, bu kompetensiyalar o‘qituvchilarga tez o‘zgaruvchan ta’lim muhitiga moslashish va yuqori sifatli ta’lim berish imkonini beradi.

Lu va Cherchill (2014) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kuchli axborot va media ko‘nikmalariga ega bo‘lgan texnologiya o‘qituvchilari qiziqarli, dolzarb va innovatsion o‘quv materiallarini ishlab chiqa olishga qodir. Ushbu ko‘nikmalar o‘qituvchilarga ma’lumotni tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirishga va samarali qo‘llash imkonini beradi, bu jarayon texnologik ta’limda o‘qitish strategiyalarini doimiy ravishda moslashtirish uchun juda muhimdir.

Amaliy nuqtayi nazardan, axborot va media vositalari an’anaviy texnologiya darslarini boyitilgan o‘quv tajribasiga aylantirishi mumkin. Masalan, dars jarayonida interfaol metodlar va raqamli vositalardan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning faollik darajasini oshiradi, balki ularining axborot kompetensiyalarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining transversal kompetensiyalarni rivojlantirishda ayniqsa elektron dasturlarning o‘rni beqiyosdir.

Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilishda axborot va media savodxonligi axborotga tanqidiy qarashni rag‘batlantiradi va zamonaviy ta’lim oldida turgan murakkab va ko‘p qirrali muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Jumladan, texnologiya fani bo‘yicha ko‘pgina elektron dasturlarda analitik fikrlash va muammolarni hal qilish yondashuvini talab qiladigan vazifalar va loyihalar mavjud. Bu bo‘lajak o‘qituvchilarga muvaffaqiyatli o‘qitish uchun zarur bo‘lgan muhim tanqidiy va tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Turli xil media formatlari bilan ishlash va turli kontekstlarda ma’lumotlarni taqdim etish qobiliyati samarali muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa, zamonaviy elektron dasturlar ko‘pincha guruh ishini qo‘llab-quvvatlaydi, hamkorlik va muloqot uchun vositalarni taqdim etadi. Bu bo‘lajak o‘qituvchilarni jamoada ishlashga, bilim va tajriba almashishga o‘rgatadi, bu esa kasbiy faoliyatining muhim qismidir.

Elektron dasturlar eng yangi ta’lim texnologiyalari va dasturiy ta’minotdan foydalanishni ta’minlaydi, bu esa malakali texnologiya mutaxassislarini yetishtirish uchun juda muhimdir. Elektron dasturlarda ko‘pincha interaktiv modullar, simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar mavjud bo‘lib, ular bo‘lajak o‘qituvchilarga nafaqat nazariy materialni o‘rganish, balki uni amaliyotda qo‘llash imkonini beradi. Bu materialni yaxshiroq o‘zlashtirishga va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Shuningdek, elektron dasturlar bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘zlari uchun qulay vaqt va jadvalda o‘qish imkonini beradi, bu ayniqsa o‘qishni ish bilan birlashtirishda muhim sanaladi. Shu qatorda u o‘z bilimi uchun mustaqillik va mas’uliyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Axborot texnologiyalari va media resurslarni o‘zlashtirish o‘quv jarayonini yanada moslashuvchan va qulay qiladi, eng so‘nggi texnologik yutuqlarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish imkonini beradi. Texnologiya o‘qituvchilari video darslar, interaktiv testlar va virtual sayohatlarni o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan multimedia darslarini yaratish uchun axborot va media ko‘nikmalaridan foydalanishlari mumkin. Texnologik loyihalarini rejalashtirish va vizualizatsiya qilish uchun raqamli dizayn dasturlari va onlayn vositalardan foydalanish, jumladan, raqamli eskizlar, prototiplar va naqshlarni yaratish mumkin. Bunday usullar nafaqat o‘quv materialini tushunishni yaxshilaydi, balki o‘quvchilarning media savodxonligini rivojlantirishga ham yordam beradi.

O‘z o‘rnida shuni aytish joizki, axborot va media ko‘nikmalarini muntazam yangilab turish o‘qituvchilarning doimiy kasbiy o‘sishiga yordam beradi, bu esa yuqori sifatli ta’limni saqlab qolish uchun zarurdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, axborot va media ko‘nikmalari bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining transversal kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim jarayonini boyitish va jadal rivojlanayotgan dunyo o‘zgarishlariga moslasha oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlashga hissa qo‘shishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu kompetensiyalar o‘qituvchilarga nafaqat ta’lim muhitidagi o‘zgarishlarga munosib javob berish, balki ushbu muhitni faol ravishda shakllantirish imkonini beradi, bu esa ularning kasbiy faoliyatini yanada ham samaraliroq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muxidova O. N. (2023). O‘qituvchining transversal kompetensiyasi – uning kasbiy va shaxsiy sifatlarining namoyandasi sifatida. “Ta’lim, fan va innovatsiya” jurnali 3-son, 300-302.

2. Muxidova O. N. (2023). Oliy ta’lim muassasalarida transversal kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlari. “Xalq ta’limi” jurnali. 3-son, 14-16.

3. Jenkins, H. (2006). “Confronting the Challenges of Participatory Culture: Media Education for the 21st Century”. MIT Press.

4. McKnight, K., O‘Malley, K., Ruzic, R., Horsley, M. K., Franey, J. J., & Bassett, K. (2016). Teaching in a Digital Age: How Educators Use Technology to Improve Student Learning. Journal of Research on Technology in Education, 48(3), 194-211.

5. Churchill, D., Lu, J., & Chiu, T. K. F. (2014). Integrating mobile technologies, social media and learning design. Educational Media International, 51(3), 163–165.

6. O.Qo‘ysinov. Texnologiya fani bo‘yicha “O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim milliy o‘quv dasturlari” T-2021.

7. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qo‘ysinov Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi, Kasb tanlashga yo‘llash. Darslik, T-2014.

8. Muxidova O. N. (2023). Ta’lim tizimida transversal kompetensiyaning ahamiyati. Pedagogik mahorat 3-son, 38-41.

9. Mukhidova O. N. (2023) The importance of transversal competencies in the training of future teachers (2023) Science and innovation 2 (B3), 328-332.

Kamolaxon ABRORXONOVA,
Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi mudiri,
pedogogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Nodirabegim KAMOLOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Boshlang‘ich ta’lim fakulteti, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

MA’NAVIY-MA’RIFIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH ORQALI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING AQLIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinflarda ma’naviy-marifiy tadbirlarni tashkil etish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy tafakkurini shakllantirish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy tafakkurini shakllantirishdagi o‘rni, tadbir jarayonlarida turli raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va o‘rni kabi masalalarda fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar. Aqliy tafakkur, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, axborot, texnologiya, ta’lim, multimedia, innovatsiya, tarbiyaviy ishlar.

В статье рассматриваются такие вопросы, как формирование умственного мышления младших школьников через организацию духовно-просветительской деятельности в начальных классах, Роль духовно-просветительской деятельности в формировании умственного мышления младших школьников, значение и роль использования различных цифровых технологий в процессах деятельности..

Ключевые слова. Мысленное мышление, духовно-просветительские мероприятия, информация, технологии, образование, мультимедиа, инновации, просветительские работы.

The article reflects on such issues as the formation of mental thinking of Primary School students through the organization of spiritual and educational events in primary classes, the role of spiritual and educational events in the formation of mental thinking of Primary School students, the importance and role of using various digital technologies in event processes..

Key words. Mental thinking, spiritual and educational events, information, technology, education, multimedia, innovation, educational works.

Bugungi kunda yurtimizda ta’lim tizimiga qaratilayotgan e’tibor, ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar yurtimizning istiqbolini ta’minlab beruvchi asosiy omil sifatida jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilmoqda. Har tomonlama barkamol insonni tarbiyalash jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda ta’lim tizimiga qaratilayotgan e’tiborning yorqin misoli sifatida yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonunning qabul qilinishi, har yili ta’lim tizimida yangi islohotlarning amalga oshirilishi, ta’lim tizimiga oid masalalarning prezident darajasida ko‘rib chiqilishini ko‘rishimiz mumkin. Bu kabi islohotlarning maqsadi kelajakda har tomonlama yuksak salohiyatga ega, raqobatbardosh, bilimli va salohiyatli, jahon talablari darajalariga javob bera oladigan yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Buning asosini esa, shubhasiz, maktab ta’lim tizimi tashkil etadi.

Umumta’lim maktablarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat, jamoada ishlash va shu kabi ijobiy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar bilan turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni

tashkil etish ham ularning individual xususiyatlarini ochib berishga, jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga, axloqiy sifatlarni rivojantirishga yordam beradi.

Yurtimizda umumta’lim maktablarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, yoshlarning intelektual salohiyatini, dunyoqarashini rivojlantirish va ularni millatparvarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 3- oktabrdagi 558-son qarori asosida tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi” qabul qilingan va bu boradagi ko‘plab vazifalar belgilab qo‘yilgan.

O‘quvchilarni ma’naviy barkamol yoshlar qilib tarbiyalash, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishni ta’minlash maqsadida umumta’lim maktablarida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etiladi. Ushbu tadbirlarni tashkil etish jarayonida o‘quvchilarda ko‘plab kompetensiyalar shakllanib boradi, shu bilan birga tadbir mavzusi yuzasidan ham ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Bu kabi tadbirlar o‘quvchilar o‘rtasida artdizayn, robototexnika, tarix, san’at, matematika, adabiyot va shu kabi sohalarga qiziqishlarni aniqlashga ham yordam beradi. Bugungi kunda sinfdan tashqari ishlarni amalga oshirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan, metodlardan va zamonaviy axborot komunikatsiya vositalaridan foydalanish talab etiladi. Bugungi kunda o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, buyuk ajdodlar merosini o‘rganish kabi masalalar juda muhim hisoblanadi.

Ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyati haqida ko‘nikmalar hosil qilish, ularga kitob insonning eng yaqin do‘sti ekanligi, undan ko‘p narsalarni o‘rganish mumkinligi kabi ma’lumotlarni singdirish maqsadida ham turli kitobxonlik kechalarini, kitobsevarlik targ‘ib etilgan tadbirlarni tashkil etish va ushbu tadbirlarda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ularda kitobga muhabbat uyg‘otish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bundan tashqari buyuk ajdodlarimizning tavvalludlariga bag‘ishlab o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni o‘z millatini sevish, ajdodlariga hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiya qilishda muhim omil sanaladi. Bu tadbirlarda o‘quvchilar o‘z bobolari haqida, ularning hayoti, faoliyati haqida ko‘plab ma’lumotlar olishadi va bular o‘quvchilar uchun ibrat maktabi bo‘ladi.ma’naiy-marifiy tadbirlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga buyuk bobolarimiz faoliyatiga doir masalan matematik olim Al-Xorazmiy haqidagi multimediali taqdimot yoki videorolik taqdimotini namoyish etib, aynan bu malumotlarni bizga namoyish etayotgan kompyuter texnologiyari han Al-Xorazmiy yaratgan algoritm asoslari orqali vujudga kelishi haqida ma’lumot berish o‘quvchilarda bir vaqtning o‘zida ham tarixiy, ham bugungi kundagi muhim bilimlarni beradi. Ularning shu sohaga bo‘lgan qiziqishini shakllantiradi.

Bugungi inson faoliyatining ko‘p qismida eng yaxshi ko‘makchiga aylangan raqamli texnologiyalar muhitida o‘quvchilarga bu kabi texnologiyalardan foydalanishni cheklash juda murakkab vazifa. Biz bu texnologiyalar faoliyatini cheklash orqali emas, balki bu texnologiyalardan maqsadli foydalanish ko‘nikmalarini o‘quvchilarda shakllantirishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bizning maqsadimiz jahon hamjamiyatida o‘z orniga ega bo‘lgan, barcha sohalarda yetuk mutaxassislarni tarbiya qilishdan iborat.

Ma’naviyati barkamol, sog‘lom fikrli, mustaqil fikri va harakatiga, orzu va maqsadlariga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash uchun albatta bugun hayotimizga kirib kelayotgan barcha fan sohalari yuzasida o‘quvchilarda yetarlicha tushuncha paydo bo‘lishi lozim. Zamonaviy fan sohalaridan ajralmagan holda milliy qadriyat urf-odat va ananalarga sodiq qolgan holda rivojlanish eng munosib yo‘l. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantirilgan kompetensiyalar, berilgan bilimlar ularga hayotlari davomida

asqotadi. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar faqatgina o‘quvchilarning vaqtini mazmunli tashkil etish, yangi bilimlarga ega bo‘lish uchun emas, balki, ularning kelajakda faol shaxslar, jamiyatda faol fuqarolar bo‘lib yetishishlari jihatidan ham ahamiyatli. Shu bilan birga maktablarda ma’naviy-ma’rifat tadbirlarda o‘quvchilarning qobiliyat va iqtidorini aniqlash ham oson.

Tadbir jarayonida o‘quvchilar bir-biri bilan muloqot qiladi, fikr almashadi, raqobatlashadi. Bu esa ularning muloqot madaniyatini ham rivojlantiradi. Jamoaviy tarzda tashkil etilgan tadbirlarda ular birgalikda fikrlashni, do‘stlarining fikrlarini tinglashni, mustaqil qarorlar qabul qilishni o‘rganadi. Bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda ma’naviy-marifiy tadbirlarni tashkil qilish ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi”.

2. “Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini oshirish muammolari: Innovatsiya, raqamli texnologiyalar va xalqaro tajribalar”-Buxoro 2022 .

3. “Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya – sog‘lomlashtirish tadbirlarining pedagogik xususiyatlari”-Ismoilov. T . U-2010.

4. Sharipov Sh.S. Maktab o‘quvchilari ijodkorlik faoliyatini tashkil qilish usullari. “Xalq ta’limi” jurnali. 2003 yil №4.

5. “Umumiy o‘rta ta’lim maktablardagi ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning tarbiyaviy ahamiyati”. E’zozaxon Qobilova. Qo‘qon davlat pedagogika instituti.

6. “Ta’limda zamonaviy pedogogik texnologiyalar”-Hamroqulov.T-2022.

Shaxlo NURULLAYEVA,
Qarshi davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHDA LOYIHA METODIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada oliy ta'lim jarayonida mustaqil ta'limini ratsional tashkil etish talabalar faoliyatini samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi. Kredit-modul tizimiga ko'ra talabalarning mustaqil ta'limiga auditoriya soatlariga nisbatan ko'proq soat ajratilganligi mustaqil faoliyatni tashkil etishga ijodiy yondashuvni talab etadi. Shu nuqtayi nazarga ko'ra maqolada loyihalashtirish metodi va undan talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda foydalanish yo'llari, amalga oshirish bosqichlari, afzalliklari va kamchiliklari haqida ma'lumot berilgan.

Tayanch so'zlar. Talaba, mustaqil ta'lim, loyiha, loyihalashtirish metodi, modellashtirish, monoloyiha, predmetlararo loyiha, amaliy loyiha.

В статье рациональная организация самостоятельного обучения в процессе высшего образования служит эффективной организации деятельности учащихся. Тот факт, что на самостоятельное обучение студентов по кредитно-модульной системе отводится больше часов, чем на аудиторные часы, требует творческого подхода к организации самостоятельной деятельности. С этой точки зрения в статье представлена информация о методе проектирования и способах его использования в организации самостоятельного обучения учащихся, этапах реализации, преимуществах и недостатках.

Ключевые слова. Студент, самостоятельное обучение, проект, методика проектирования, моделирование, монолог, межпредметный проект, практический проект.

In the article, the rational organization of Independent Education in the process of Higher Education serves to effectively organize student activities. The fact that according to the credit-module system, more hours are allocated to independent education of students in relation to audience hours requires a creative approach to the organization of independent activities. From this point of view, the article provides information about the design method and the ways, stages of implementation, advantages and disadvantages of using it in the organization of Independent Education of students..

Key words. Student, Independent Education, Project, Design Method, modeling, monoloyiha, inter-subject project, practical project.

Har qanday tajribali pedagog modellashtirish va loyihalashtirishning bir biriga o'xshash tomonlarini topadi. Loyihani yaratish qandaydir tizim, holatning modelini ishlab chiqish, yaratish, tadqiq qilishga asoslanadi. Lekin, o'tmish tajribani yanada chuqurroq o'rganish maqsadida modellashtirishdan farqli ravishda loyihalash kelajak jarayon va holatlarning modelini yaratishga xizmat qiladi. Loyihaviy faoliyatning komponentlari sifatida aniq modellar yoki modullar (masalan, ta'lim tizimining unsurlarini birlashtiruvchi funksional bog'lanmalar) ko'rsatiladi.

Loyiha tizim sifatida modelning tizimosti qismi, va aksincha, loyihalashtirishning o'zi kichkina modelchalardan tarkib topishi mumkin. Demak modellashtirish va loyihalashtirish atamalari chambarchas bog'liqdir. Shu o'rinda, loyihalashtirish xususiy modellarning yaratilishini nazarda tutsa, modellashtirish elementlar jamlanmasi, jumladan, loyihalashtirish nazariyasini ham o'ziga qamrab oladi.

Loyiha metodi dastlab amerika Qo‘shma Shtatlarida XX asrning 20-yillarida J.Dyui va uning shogirdi V.X.Kilipatrik tomonidan tavsiya etilgan bo‘lib, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishlari asosidagi faol harakatlariga tayanuvchi jarayon sifatida tashkil etishni nazarda tutishgan.

Loyiha metodining asosini “loyiha” tushunchasining mohiyati yotadi. Ya’ni, u yoki bu nazariy yoki amaliy muammoni hal etish orqali olinadigan natijaga pragmatik yo‘nalganlik asosida tashkil etiladi. Qo‘lga kiritilgan natijani real vaziyatda qo‘llash mumkin bo‘ladi. Natijani qo‘lga kiritish uchun esa talabalar mustaqil ishlashi, topshiriqlarni mustaqil bajarishi, hamkorlikda yechim izlashi talab etiladi.

Loyiha metodi nazariy bilimlarni amalda qo‘llashga, muammo yechimida turli fanlar integratsiyasini amalga oshirishni, turli hayotiy vaziyatlarga doir muammolar yechimini izlashni nazarda tutadi. Loyiha nazariy muammolarga bag‘ishlangan bo‘lsa, albatta uning aniq yechimi bo‘ladi, agarda amaliy muammolarga bag‘ishlangan bo‘lsa, albatta uning natijasi bo‘ladi. Nazariy muammo yechimi, amaliy muammolar natijasi real vaziyatda qo‘llash uchun tayyor holga keltiriladi.

Loyiha bir qancha tipik xususiyatlarga ega bo‘lib, ular quyidagilardan iboratdir:

Loyihani amalga oshirishda tadqiqiy, izlanuvchan, ijodiy, amaliy, rolli, ko‘rgazmali kabi faoliyat turlaridan biri yoki bir nechtasi ustuvorlik qiladi.

Loyiha mazmuniga ko‘ra monoloyiha – bir sohaga aloqador yoki fanlararo mazmunda bo‘lishi mumkin;

Loyihani boshqarishning bevosita yoki bilvosita xarakterdaligi;

Mashtabiga ko‘ra sinf doirasida, maktab doirasida yoki shahar yoki viloyat doirasida amalga oshirilishi mumkin;

Loyihani bir talaba, juftlikdagi talabalar, kichik guruhdagi talabalar yoki katta jamoa bo‘lib amalga oshirilishi mumkin;

Loyihani amalga oshirish davomiyligiga ko‘ra qisqa muddatli (bir dars davomida), o‘rta muddatli (bir necha kun yoki hafta davomida), uzoq muddatli (bir necha oy yoki o‘quv yili davomida) bo‘lishi mumkin.

Ushbu belgilariga ko‘ra loyihalar turlari ustida to‘xtalib o‘tamiz.

Tadqiqiy mazmundagi loyihalar – mantiqiy jihatdan tadqiqiy mazmunda bo‘lib, qisman yoki to‘liq ilmiy tadqiqot bosqichlariga va mazmuniga mos keladi. Mazkur loyiha ishida berilgan topshiriqlar talabalarni aniq belgilangan maqsad va struktura asosida nazariy tadqiqot olib borish va uni amalda sinovdan o‘tkazib natijalarni rasmiylashtirishni talab etadi. Bundan tashqari bunday tadqiqiy loyihalar empirik yo‘nalishda ham bo‘lishi mumkin. Empirik yo‘nalishdagi tadqiqiy ishlarda tajriba-sinov o‘tkazish asosida qo‘lga kiritilgan natijalarga ko‘ra nazariy xulosalar chiqariladi. Bunday tadqiqiy loyihalar empirik bilimlar o‘zlashtirishga qaratiladi.

Ijodiy loyihalar – ijodiy mazmundagi ish turini talab etishi bilan xarakterlanadi. Bunday loyihalar turli tadbirlarning dasturi, ssenariysi, rejasini ijodiy yondashgan holda tuzish, turli dizaynlar tayyorlash, turli muammolarni sahnalashtirish orqali yechimini taqdim etish kabi topshiriqlarni o‘z ichiga oladi.

Rolli-o‘yinli loyihalar – talabalar ma’lum bir rolni ijro etishlari talab etiladi. Bunday loyihalar turli mazmunda bo‘lishi, aniq biror muammoni sahnalashtirish, turli o‘yinlar tashkil etish tarzija ham tashkil etilishi mumkin. Asosiysi bu loyiha o‘yin tarzida tashkil etilib, ishtirokchilar biror bir rolda loyihada ishtirok etadilar.

Axborot loyihalar – biror-bir jarayon, vaziyat yoki muammoga doir axborotlar to‘plash, ularni tahlil qilish, tizimlashtirish va umumlashtirishga qaratilgan topshiriqlarni qamrab oladi. Talabalar aniq topshiriq va yo‘nalish asosida kuzatish ishlarini olib boradilar. Kuzatishlar va izlanishlar asosida axborotlar to‘pdanadi.

Amaliy loyihalar – loyiha ishtirokchilarining amaliy faoliyatiga asoslanishi bilan tav-

siflanadi. Ya'ni talabalarga aniq belgilangan maqsad doirasida vazifalar taqsimlanadi va mazkur vazifalarni amalga oshirish davomida ishtirokchilar o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amalda qo'llashni o'rganib boradilar. Mazmuniga ko'ra loyihalar monoloyihalar va predmetlararo loyihalarga ajratiladi.

Monoloyihalar – bitta o'quv predmeti doirasida aniq bir yo'nalishda amalga oshiriladi. Monoloyihalar uchun ushbu o'quv predmetiga doir murakkab mavzu yoki bo'lim tanlab olinadi. Loyihalar metodi ushbu murakkab mavzuni o'zlashtirishda talabalarga nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash orqali muammoga doir bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashga yordam beradi. Monoloyihalar tanlangan o'quv predmetiga ko'ra badiiy loyihalar, tabiiy-ilmiy loyihalar, geografik loyihalar, matematik loyihalar, lingvistik loyihalar, ijodiy loyihalar, pedagogik loyihalar, psixologik loyihalar tarzida bo'lishi mumkin.

Predmetlararo (yoki integrativ) loyihalar – aniq bir yo'nalishda o'quv rejasiga kiritilgan ikki yoki undan ortiq o'quv predmetlarini o'zaro integratsiyalash asosida amalga oshiriladigan loyihalar hisoblanadi. Ushbu loyihalar uchun topshiriqlar tizimini ishlashda tegishliligiga ko'ra bir nechta mutaxassislar ishtiroki talab etiladi. Loyiha uchun tanlangan muammo turli fanlar nuqtayi nazaridan o'rganiladi va har bir ishtirokchining o'zi uchun mo'ljallangan individual topshiriqlari qamrab olinadi. Bunday loyihalar loyiha rahbaridan kuchli koordinatorlik salohiyatini talab etadi. Koordinator loyiha doirasida tashkil etiladigan ko'plab ijodiy, tadqiqiy guruhlar faoliyatini muvofiqlashtirish, oraliq va yakuniy taqdimotlarni tayyorlashni talab etadi.

Loyiha metodi bir qancha bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich: O'qituvchi aniq muammo yechimiga qaratilgan topshiriq ishlab chiqadi. Topshiriqni bajarish davomida amalga oshiriladigan harakatlar ketma-ketligi ham tavsiya sifatida ishlab chiqiladi;

2-bosqich: talabalar guruhlarga ajratiladi. Guruhlarga ajratishda turli prinsiplarga amal qilish mumkin (masalan, ma'lum bir ketma-ketlik bo'yicha guruhlarga ajratish, qiziqishlariga ko'ra guruhlarga ajratish yoki loyiha mavzusiga qiziqishlariga ko'ra guruhlarga ajratish mumkin);

3-bosqich: talabalarga loyihani bajarishga doir topshiriqlar tarqatiladi. Umumiy ko'rsatmalar beriladi va talabalar topshiriqni bajarishga kirishadilar;

4-bosqich: Topshiriqni bajarish jarayoni o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va natijaga doir taqdimot tayyorlanadi;

5-bosqich: Guruhlar loyiha natijalari bo'yicha taqdimot o'tkazadilar, g'oliblar, ijobiy natijaga erishgan va birdamlikda faol ishlagan jamoalar rag'batlantiriladi.

1-topshiriq:

Jamoa uchun nom va logotip (futbolka, kepka kabi) tanlash.

Tanlangan nom va logotip pedagogik faoliyat muammosiga mos bo'lishi lozim.

2-topshiriq:

"O'qituvchi – sharafli kasb!" mavzusida kichik sahna ko'rinishi tayyorlang.

Sahna ko'rinishiga qo'yiladigan talablar:

Sahna ko'rinishi davomiyligi 10 daqiqadan oshmasin.

Sahna ko'rinishi dolzarb pedagogik muammoga bag'ishlangan bo'lsin.

Sahna ko'rinishida barcha loyiha a'zolari ishtirok etsin.

Sahna ko'rinishida iloji boricha satira, yumor komponentlari ko'proq ishtirok etsin.

3-topshiriq:

"Pedagoglar olami" mavzusida kvest tuzish

Kvestga qo'yiladigan talablar:

Kvest topshirig'i o'zaro bog'liq 4 bosqichdan iborat bo'lishi lozim.

1-topshiriq bajarilgach topshiriq javobi 2-topshiriq joylashgan joyga ishora qilishi

kerak (masalan, 201-xonadagi 1-shkafni tokchasida).

2-topshiriqni topib kelib bajarilgach javob 3-topshiriq yashirilgan joy haqida ma’lumot aniqlashtirib olinadi.

3-topshiriq bajarilgandan so‘ng g‘oliblar uchun sovg‘aning nomi kelib chiqishi kerak.

Topshiriqlar savollari krossvord, rebus, boshqatirma, topishmioq shaklida bo‘lishi mumkin.

Topshiriqlar rang-barang, turli rasmlar bilan bezatilgan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Kvestni bajarishda sovg‘ani birinchi bo‘lib topgan jaoma g‘olib bo‘ladi.

4-topshiriq:

Boshlang‘ich sinf darsliklaridan bitta mavzu uchun ko‘rgazmali qurollar tayyorlash. (Har bir ishtirokchi bittadan).

Ko‘rgazmali qurolga qo‘yiladigan talablar:

Mavzu doirasida bo‘lishi lozim.

O‘quvchilar diqqatini o‘ziga tortadigan rang-barang, bo‘lishi kerak.

Qo‘l mehnati bilan tayyorlangan bo‘lishi shart.

Loyiha metodini qo‘llashda quyidagi pedagogik talablarga amal qilish lozim bo‘ladi:

Loyiha topshirig‘i nazariy va amaliy bilimlar hamda turli fanlar integratsiyasiga qaratilgan bo‘lishi lozim;

Natijalarning nazariy, amaliy ahamiyatga egaligi;

Talabalarning individual, juftlikda va jamoa bo‘lib ishlash ehtiyojining mavjudligi;

Loyiha mazmunining tarkiblashtirilganligi va aniq tartib bilan tizimlashtirgan holda amalga oshirilishi;

Ma’lum bir tadqiqiy faoliyatni amalga oshirishga qaratilgan tadqiqiy faoliyatni amalga oshirishga yo‘nalganligi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Возгова З.В. Деятельностный подход к моделированию региональной системи непрерывного повишения квалификации научно-педагогических работников: дисс... док.пед.наук. – Москва, 2015. – 388 с., 78-б.

2. Barakayev M. va boshqalar. Mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasi.O‘quv – uslubiy qo‘llanma . T., “Istiqlol” Nuri”. 2017.

3. Назаров С.А. Педагогическое моделирование личностно-развивающей информационно-образовательной среды вуза / С.А.Назаров // Научная мысль Кавказа. Спецвыпуск. – 2006. - №2. - С. 69-71.

4. Nurullayeva Sh.U. Oliy ta’lim tizimida talabalar metodik-tadqiqiy tayyorgarligini takomillashtirish muammolari. “Ta’lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari: dolzarbligi, muammolari va istiibollari” mavzusidagi xaliaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Qarshi, 2024. 362-368 b.

5. Nurullayeva Sh.U. Pedagogik amaliyot – bo‘lajak o‘qituvchilar metodik-refleksiv tayyorgarligining asosiy tashkiliy shakli sifatida. Yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashning dolzarb muammolari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Termiz, 2024.

6. Nurullayeva Sh.U. Pedagogik ta’lim jarayonini modellashtirish va loyihalashtirish yo‘llari. Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim: innovatsiyalar, muammolar va rivojlanish yo‘llari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Termiz. 2023. B. 23-27.

Dildora YUSUPOVA,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, ‘‘Fiziologiya’’ kafedrasi o‘qituvchisi

TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINING KLINIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA AMALIY MASHG‘ULOTLARDAGI KICHIK GURUHLARDA ISHLASHNING AFZALLIKLARI

Annotatsiya

Maqolada amaliy mashg‘ulotlarning talabalar o‘rtasidagi birdamlikni, hamkorlikni, shaxslar aro muloqot va o‘zaro munosabat kabi ko‘nikmalar hosil qilishga yordam berishi shuningdek,mashg‘ulotlarini kichik guruhlarda o‘tilishi talabalarning darsga faol qatnashishlari haqida fikr yuritilgan,

Tayanch so‘zlar. Trening, fikr, amaliy mashg‘ulotlar, guruhlar, talabalar, o‘yinlar, debat, interfaol metodlar.

В статье рассматривается, как практические занятия могут помочь сформировать у учащихся такие навыки, как сплоченность,сотрудничество, межличностное общение и взаимодействие, а также как проведение занятий в малых группах способствует активному участию студентов в занятиях

Ключевые слова. Тренинг, обратная связь, практические занятия, группы, ученики, игры, дебаты, интерактивные методы.

The article considers that practical training helps to generate student solidarity, cooperation, skills such as interpersonal communication and interaction,as well as that the passage of their training in small groups is an active participation of students in the lesson

Key words. Training, thought, practical training, groups, students, Games, debate, interactive methods.

Kichik guruhlarda ishlash – bu interfaol o‘qitishning eng keng tarqalgan strategiyasi bo‘lib, ko‘pgina interfaol metodlarning ajratib bo‘lmas qismi hisoblanadi, masalan debat, trening, rolli o‘yinlar, imtatsiya va boshqalar. Kichik guruhlarda ishlash yangi mavzuni bayon qilishda, talabalarning amaliy o‘zlashtirganlik darajasini tekshirishda, amaliy mashg‘ulotlarda yoki yakuniy mashg‘ulotda qo‘llanilishi mumkin.

Kichik guruhlarga taqsimlab o‘tilgan mashg‘ulotlar talabalarning hamkorlik, shaxslararo muloqat, o‘zaro munosabat kabi ko‘nikmalalarini hosil qilishga yordam beradi. Bundan tashqari bunday mashg‘ulotlar talabalararo bo‘lishi mumkin bo‘lgan kelishmovchiliklarni oldini oladi, chunki odatda talabalar orasida muomala ko‘nikmasiga ega talabalar ko‘p bo‘lmaydi.

Guruhda talabalar o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtiradilar, vaziyatli muammoli masalalarni yechadilar yoki guruhga berilgan mavzuni himoya qilish uchun hisobot-proekt tayyorlaydilar (og‘zaki hisobot, rasm chizish, model tayyorlash, prezentatsiya va h.k.).

Guruhda qatnashchilar soni turlicha bo‘lishi mumkin, 2-6 talaba. Amaliy mashg‘ulotlarda kichik guruhlarda mashg‘ulotni olib borish ancha samarali, chunki talabalar tezrok mavzuni o‘zlashtiradilar, tashkiliy ishlarda faol qatnashadilar, har bir talabaning fikrini bilish osonlashadi, hech qaysi talaba pedagogning diqqatidan chetda qolmaydi.

Talabalarni guruhchalarga taqsimlashning bir nechta turlari mavjud. Undan quyidagilarni misol keltiramiz:

– guruhni avvaldan taqsimlab ruyxatini ko‘rsatib quyishingiz mumkin, bunda siz guruh tarkibini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lasiz;

– talabalarni guruhlarga taqsimlashning eng sodda usuli- bu “ bir- ikki...” deb sanashlarini so‘rash bilan guruhni tashkillashtirish. Bu eng qulay usul bo‘lib, pedagoglar tomonidan ko‘p qo‘llaniladi.Bunda bir xil raqamli talabalar bitta guruh bo‘ladi. Shuningdek sanashdan tashqari rangni aytish, yil fasllarini aytish yoki davlatlarni nomlarini aytishdan foydalanish mumkin;

– talabalarning xoxishiga asosan (pozitsiyaga asoslangan) taqsimlash usuli. Bu tartibda tashkil etilgan guruhda talabalarning ishlashi osonlashadi, sababi ularning fikrlari kup holarlarda bir xil bo‘ladi.

Amaliy mashg‘ulotlardagi kichik guruhlarda ishlashda talabalar quyidagi rollarni bajaradilar:

– Fasilitator (tashkilotchi- guruh faoliyatini tashkillashtiradi).

– Registrator (ishning, guruh faoliyatining natijalarini yozib boradi).

– Jurnalist (guruh faoliyatini yoki ishini mukammalroq o‘rganish maqsadida savol beradi, bu savollar guruhni yanada yaxshiroq ishlashga, mavzuni mukammalroq o‘zlashtirishga yo‘naltiradi. Shunga o‘xshash savollarni qarama-qarshi guruh berishi mumkin).

– Faol tinglovchi (guruh qatnashchilarining fikrini oddiy tilda bayon qila oladi).

– Kuzatuvchi (guruh qatnashchilarining har biriga ball quyadi).

– Xronometrist (belgilangan vaqtni kuzatib borib, vaqtdan samarali foydalanishni nazorat qiladi).

Shuningdek, kichik guruhlarda ishlashda boshqa rollardan ham foydalanish mumkin, asosiysi guruhda har bir qatnashchining faol ishtirok etishini ta’minlash lozim.

Pedagoglar ba’zida guruh tarkibini uzoq vaqt o‘zgartirmasdan saqlab qolishni afzal biladilar. Buning afzalliklari shundaki, talabalar uzoq vaqt bir guruhda ishlaganlarida bir-birlari bilan ishlashlari osonlashadi, masalalarning yechimi tezroq topiladi, ishning samaradorligi oshadi, vaqtdan unumli foydalaniladi.

Dars davomida vaqtni to‘g‘ri taqsimlash maqsadida, kichik guruhga qo‘yiladigan talablar, yechimini kutayotgan masalalar, ular hal qilish lozim bo‘lgan test yoki muammoli vaziyatli masalalar, guruhning faoliyat rejasi, guruhdagi har bir qatnashchining ish rejasi va h.k.larni yozilgan qog‘oz holatdagisini guruhga taqdim etish mumkin.

Guruh faoliyatining eng muhim natijalaridan biri-bu guruhning yakuniy xulosasini himoya qila bilish. Xulosani bayon qilish va berilayotgan savollarga aniq va mukammal, tushunarli tilda javob berishdir.

Xulosalar muhokamasining keng tarqalgan usullaridan bir bu “akvarium”, yumaloq stol, diskussiya, disput, debatlardir.

“Akvarium” metodida pedagog talabalarni 2 yoki 4 ta kichik guruhlarga bo‘ladi. Keyin guruhlardan bittasi o‘rtaga o‘tib o‘zining kichik guruhchasini“ akvarium” ni tashkil qiladi va quyidagilarni amalga oshiradi:

Vaziyat bilan yoki berilgan topshiriq bilan tanishish.

Berilgan topshiriqni diskussiya usulidan foydalanib muhokama qilish.

3-5 daqiqada umumiy, yagona xulosaga kelish.

Qolgan barcha talabalar muhokamaga qatnashmasdan faqat tinglashlari va kuzatib turishlari kerak. 3-5 daqiqadan keyin “akvarium” dagi guruhcha o‘z joyini egallaydi, qolgan talabalar quyidagi reja buyicha vaziyatni muhokama qiladilar:

– Guruhning xulosasiga qo‘shilasizmi?

– Oxirgi xulosa yetarlicha oydinlashtirib berildimi?

– Xulosani oydinlashtirishda qo‘llanilgan argumentlardan qaysilarini ishonchli deb bilasiz?

Har bir guruh “akvarium” bo‘lishi kerak, har bir “akvarium”dagi guruhchaning xulosalari auditoriyada muhokama qilinishi lozim. Kichik guruhlarda ishlash talabalarning o‘z-o‘zini, shuningdek guruhdagi boshqa qatnashchilarni nazorat qilish imkoniyatin kengaytiradi, chunki faqat kichik guruhdagina talabalar refleksiyaga ya’ni o‘zlariga chetdan qarash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Buning uchun o‘z-o‘zini yoki guruhning faoliyatini baholash varaqalaridan foydalanish mumkin. O‘quv mashg‘ulotlarini kichik guruhlarda o‘tilishi talabalarning darsga faol qatnashishlarini, har bir talabaning pedagogning diqqat markazidan chetda qolmasligini ta’minlaydi, shuningdek talabalarning bir-birlari bilan o‘rtoqlashishlariga imkoniyat yaratadi.

Kichik guruhda o‘tilayotgan darsning afzalliklari:

– darsda talabalarning davomati yaxshilanadi;

– o‘qish, o‘rganishga bo‘lgan motivatsiya shakllanadi;

– har qanday talaba yoki qatnashchini fanga qiziqtirish mumkin;

– talaba yoki qatnashchi darsga qatnashibgina qolmasdan o‘zligini taniy oladi, kerakli vaqtda fikrini bildira oladi;

– talabalar o‘rtasida o‘zaro hurmat shakllanadi;

– guruhda ya’ni kollektivda psixologik komfort shakllanadi;

– turli musobaqalarda kuzatilishi mumkin bo‘lgan negativ holatlar bo‘lmaydi va h.k.

Kichik guruhchalar ishini tashkillashtirishning turlari:

– kichik guruhlarning har biriga bir xil vazifa beriladi.

– guruhlar turli vazifa oladilar.

– guruhlar turli xil vazifa oladilar, lekin natija bir xil bo‘lishi kerak.

– guruh qatnashchilari almashinib turadi.

– guruh “estafeta” prinsipida ishlaydilar.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, tibbiyot oliygohlarida klinik amaliy mashg‘ulotlarni kichik guruhlarda o‘tilishi, talabalarning klinik tafakkurini rivojlangan, keng qamrovli bo‘lishida ahamiyati kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Methods of teaching obstetrics and gynecology to medical university students using innovative technologies. Yusupova Dildora Uktamovna.

2. Y.D Uktamovna Pedagogical Conditions for the Formation of Students Clinical Thinking.

3. Talabalarning klinik tafakkurini rivojlantirishda simulyasioni yoki imitatsion metoddan foydalanishning afzalliklari. D. U. Yusupova.

4.Кардиотоксические осложнения у патсиентов онкогематологического профиля. Юсупова Д.У.

Dilobar BAXRITDINOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI STEAM YONDASHUVGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqola STEAM texnologiyasi xususida bo‘lib, unda STEAM yondashuvining mazmun-mohiyati va STEAM yondashuvlaridan foydalanish haqida shuningdek, nazariy bilimlarni hayot bilan bog‘lab olib borish haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar. STEAM, STEM, STREAM, fan, texnologiya, muhandislik, san’at, matematika.

Статья посвящена технологии Steam, в которой рассматривается сущность подхода Steam и использование подходов Steam, а также теоретические знания, связанные с жизнью

Ключевые слова. STEAM, STEM, STREAM, наука, технологии, инженерия, искусство, математика.

The article is about STEAM technology, which focuses on the content of the STEAM approach and the use of STEAM approaches, as well as the conduct of theoretical knowledge in connection with life

Key words. STEAM, STEM, STREAM, science, technology, engineering, art, maths.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son farmoniga ko‘ra innovatsion ta’lim jarayoniga o‘tish, zamonaviy kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni inobatga olgan holda intensiv til, AKT va ta’lim berishning yangi metodlarini o‘rganish, STEAM pedagogika asoslarini o‘zlashtirish, yangi kasbiy kompetensiyalarni o‘zlashtirish uchun zarur bilimlar bazasini shakllantirish kabi masalalar vazifa qilib olindi.

STEAM – Ta’limni haqiqiy hayot bilan bog‘lovchi texnologiya. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi Massachusets Texnologiyalar Instituti (MIT). Bu mashhur universitetining shiori “Mind and hand” – “Aql va qo‘l” dir. Massachusets Texnologiya instituti STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hatto ba’zi o‘quv yurtlarida STEAM ta’lim markazlari yaratildi.

STEM atamasi AQSH da ilk bor maktab dasturiga kiritilgan bo‘lib o‘quvchilarning ilmiy-texnika yo‘nalishlarida kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Keyinchalik bu yo‘nalish kengaytirilib atamaga qo‘shimcha harflar kiritildi.

Jumladan, unga “R” – robotics – robototexnikani qo‘shib STREM deb yoki “A” – art –san’atni qo‘shib STEAM deb atala boshlandi.

STEAM so‘zini harflab izohlansa:

S – science (fan)

T – technology (texnologiya)

E – engineering (muhandislik ishi)

A – art (san’at)

M – mathematics (matematika)

STEAM o‘quvchilarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga

yordam beradi.

Muammolarni keng qamrovli tushunish.

Ijodiy fikrlash.

Muhandislik yondashuv.

Tanqidiy fikrlash.

Ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash.

Dizayn asoslarini tushunish.

STEAM – ta’limi texnologiyasi loyihalash metodiga tayangan holda uning asosida bilish va badiiy izlanish yotadi. STEAM – ta’limi bolaning rivojlanishini tashqi olam bilan bevosita bog‘laydi. STEAM – yondashuv bolalarga dunyoni tizimli ravishda o‘rganishga, atrofda ro‘y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o‘zaro aloqani anglab yetishga, o‘zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni ochishga imkon beradi.

STEAM asosida ta’lim berishni o‘quv fanlari bo‘yicha emas, balki “ mavzu” lar bo‘yicha integratsiyalab olib boriladi.

STEAM – ta’limida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo‘lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muhandislik ijodiyotga va matematikaga integratsiya qilish yotadi. Bunda muhandislik bilan bog‘liq kasblarga bo‘lgan tayyorgarlik amalga oshiriladi.

STEAM – ta’limida amaliy mashg‘ulotlar yordamida, bolalarga ilmiy-texnik bilimlaridan real hayotda foydalanish namoyish qilinadi. Har bir darsda o‘quvchilar zamonaviy industriya modellarini ishlab chiqadi, quradi va modelni rivojlantiradi.

STEAM – dasturi, bolalar kundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda zarur bo‘ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, bolalar tez yuradigan mashina modelini yig‘adilar, so‘ngra uni sinovdan o‘tkazadilar. Birinchi sinovdan so‘ng, kutilgan natijaga erishilmasa uning sabablari haqida o‘ylaydilar va topadilar. Balkim, g‘ildiraklarining kattaligi yoki aerodinamikasi to‘g‘ri kelmagandir. Har bir sinovdan so‘ng ular kamchiliklarni bartaraf etib boradilar.

Bolalar ko‘prik qurish, mashina va samolyot modelini ishga tushirishda har safar maqsadiga yaqinlasha boradilar. Har bir sinovdan so‘ng modelni takomillashtiradilar. Oxirida barcha muammolarni o‘z kuchlari bilan yengib maqsadiga erishadilar. Bu bolalar uchun ruhlanish, g‘alaba va quvonch demakdir. Har bir g‘alabadan so‘ng ular o‘z kuchlariga yanada ishonadilar.

STEAM – dasturi faol kommunikatsiya va guruhda ishlash bilan farqlanadi. Muloqot davrida o‘z fikrini bayon qilish va bahs-munozara olib borish uchun erkin muhit vujudga keltiriladi. Ular gapirishga va taqdimot o‘tkazishga o‘rganadilar. Bolalar doimo o‘qituvchi va sinfdoshlari bilan muloqatda bo‘ladilar. Bolalar jarayonda faol qatnashsalar, mashg‘ulotni yaxshi eslab qoladilar .

Boshlang‘ich ta’limda STEAM – ta’limning vazifasi, o‘quvchilarni tabiiy va texnik fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishdan iborat. Bajaradigan ishini sevib bajarish, qiziqishlarini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

STEAM – mashg‘ulotlari juda dinamik va qiziqarli bo‘lganligidan bolalar mashg‘ulot paytida zerikmaydilar va vaqtning qanday o‘tganligini sezmay qoladilar.

STEAM – ta’limi oltita bosqichdan iborat: savol(vazifa), muhokama, dizayn, qurish, sinovdan o‘tkazish va rivojlantirish. Bu bosqichlar tizimli loyihalash yondashuvining asosi hisoblanadi.

STEAM ta’limining afzalliklari:

– mavzular bo‘yicha emas, balki mavzular bo‘yicha integratsiyalashgan mashg‘ulotlar;

– ilmiy va texnik bilimlarni real hayotda qo‘llash;

– tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va muammolarni hal qilish;

– o‘ziga ishonchni shakllantirish;

– faol aloqa va jamoada ishlash;

– texnik fanlarga qiziqishni rivojlantirish;

– loyihalarga ijodiy va innovatsion yondashuvlar;

– har bir bolaning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalar faoliyati orqali texnik ijodkorlik motivatsiyasini rivojlantirish;

– dastlabki kasbiy rahbarlik.

– bolalarni hayotdagi texnologik yangiliklarga tayyorlash.

STEAM ta’limi oltita bosqichdan iborat: savol (vazifa), muhokamalar, dizayn, qurilish, test va takomillashtirish. Ushbu 6 bosqichlar muntazam ravishda loyiha yondashuvining asosidir.

STEAM yondashuvining asosiy g‘oyasi quyidagicha: amaliyot nazariy bilim kabi muhimdir. Ya’ni, o‘rganayotganda biz nafaqat miyalarimiz bilan, balki qo‘llarimiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf devorlaridagi ta’lim tez o‘zgaruvchan dunyo bilan hamqadam bo‘lmaydi. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bu yerda bolalar ko‘plab fanlarni muvaffaqiyatli o‘rganish uchun miyalaridan va qo‘llaridan foydalanishadi.

Ta’limda STEAM-yondashuv umumta’lim maktablarida sinf-dars tizimidan loyihaviy faoliyatga tomon o‘tish, fundamental bilimlarni funksional bilimlarga ko‘chirish, ularni amaliyotda faol qo‘llash jarayoni orqali fanlar integratsiyasi, kesishmasida muammolar yechimining yangicha yo‘llarini izlash, lozim topilsa, kashf etishga yo‘naltirish kabi vazifalarni qo‘yadi. Tabiiy fanlar standart ko‘rsatkichlari bolaning tabiat va undagi hodisalar haqidagi tasavvurga ega bo‘lish, ularni farqlay olish, tavsiflab berish, amalda qo‘llay olishga o‘rgatish bilan belgilanadi. Ushbu jarayon bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun avvalo, didaktik shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Darsning samaradorligini oshirish, beriladigan bilimlar saviyasini ko‘tarish, nazariy bilimlarni hayot bilan bog‘lab olib borishda STEAM yondashuvlaridan foydalanish o‘quvchilarda tabiiy bilimlarni o‘zlashtirishga yanada qiziqish uyg‘otadi, ular bilimini mustahkamlashga yordam beradi.

Ta’lim jarayonida STEAM texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarni kelajakda hayotiy muammolarni hal etishga o‘rgatish mumkin. Shunday ekan, har bir o‘qituvchi dars samaradorligini oshirish, beriladigan bilimlar saviyasini ko‘tarish, nazariy bilimlarni hayot bilan bog‘lab olib borish uchun STEAM yondashuvlaridan o‘rinli foydalanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Geografiya fani bo‘yicha “O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim milliy o‘quv dasturi”. – T., 2021.

2. https://t.me/milliymarkaz

3. https://t.me/s/uztdi

4. http://uzviylik.tdi.uz/

Gulirano MUHIDDINOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

RUS TILINI O‘QITISHDA MATNLAR USTIDA ISHLASH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy hayot talabadan tilni yaxshi bilishni, turli vaziyatlarda, noqulaylik hissini boshdan kechirmasdan, turli odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatini talab qilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, fikrni og‘zaki va yozma shaklda izchil ifodalash, yozilganlarni tahlil qilish va takomillashtirish, muhokama qilinayotgan masala yuzasidan malakali fikr bildira olish qobiliyatini shakllantirish o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri ekanligi mulohazaga olindi.

Tayanch so‘zlar. Rus tili, bilim, ko‘nikma, fikr, metod, takomillashtirish, muloqot, zamonaviy pedagogika.

В статье анализируется, как современная жизнь требует от ученика хорошего знания языка, умения общаться с разными людьми в разных ситуациях, не испытывая чувства дискомфорта. Также было высказано соображение, что одним из важнейших направлений развития устной речи учащихся является формирование умения последовательно выражать мысль в устной и письменной форме, анализировать и совершенствовать написанное, грамотно высказывать мнение по обсуждаемому вопросу.

Ключевые слова. Русский язык, знание, умение, мышление, метод, совершенствование, общение, современная педагогика.

The article analyzes the fact that modern life requires the student to be fluent in the language, the ability to communicate with different people in different situations, without experiencing a feeling of discomfort. It was also considered that the formation of the ability to consistently express the opinion in oral and written form, analyze and improve what is written, and be able to give qualified feedback on the issue under discussion is one of the important areas of development of students' oral speech..

Key words. Russian language, knowledge, skill, thought, method, improvement, communication, modern pedagogy.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, kompyuter va telefonlarga haddan tashqari qiziqqan zamonaviy maktab o‘quvchilari o‘zlarining muloqotlarida jarangli iboralar va qisqartirilgan so‘zlarni ko‘proq ishlatadilar, ko‘pincha jonli, madaniy nutqni mimika va imo-ishoralar bilan almashtiradilar. Bunday bolalar mustaqil izchil og‘zaki, ayniqsa yozma bayonotlar yaratish qiyin. Shuning uchun ishonch bilan aytishimiz mumkinki, maktab o‘quvchilari o‘rtasidagi madaniy muloqot muammosi bugungi kunning eng muhim muammolaridan biridir. Axir, bu kommunikativ kompetentsiya asosiy rol o‘ynay boshlaydi, kasbiy tayyorgarlik va mehnat faoliyatida yordam beradi. Rus tili darslarida matn bilan ishlash talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularning so‘z boyligini to‘ldirish va nutq sifatini yaxshilash imkonini beradi. Matn rus tili darslarida rivojlanayotgan nutq muhitini yaratish uchun asosdir. Rus tilini o‘rganishda matndan foydalanish maktab ta’limining o‘quvchilarni o‘z ona tilining ma’naviy boyligi va go‘zalligi bilan tanishtirish, so‘zga ehtiyotkorlik va mulohazali munosabatda bo‘lish kabi muhim muammolarni hal qilishni ta’minlaydi.

Guruhda mashaqqatli, doimiy matn bilan ishlash, menimcha, rus mumtoz adabiyoti

asarlari asosida olib borilishi kerak. Matnlar zamonaviy maktab o‘quvchisini ma’naviy va axloqiy rivojlantirishga qaratilgan ta’lim va tarbiyada shaxsning: xotira madaniyati, o‘tmish, bugun va kelajakka munosabat, milliy an’analar, ekologik muammolar alohida rol o‘ynaydi. Matnlar bilan ishlash, ikki matnni solishtirish, o‘quvchilar matnni idrok etish va tushunchasi orqali o‘z ifodasini, kompozitsiyasini yaratishga boradi, bu esa o‘quvchilarning diqqatini, tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Nazorat ishi paytida talabalarga matn bilan ishlashdan keng foydalanish va o‘quv, ilmiy-ommabop va jurnalistik matnlarni oqilona o‘qish ko‘nikmalarini mashq qilish tavsiya etiladi. Bu usul orqali kitob bilan ishlash, matn tahliliga o‘rgatish, tilning estetik vazifasiga e’tibor berishda umumiy ta’lim ko‘nikmalarini shakllantiriladi. Shuning uchun (ayniqsa, o‘rta maktabda) matnning ko‘p qirrali tahlilini o‘tkazish juda muhim, masalan, kompozitsion va mazmun (mavzuni, matnning asosiy g‘oyasini aniqlash, mikro-mavzularni aniqlash va boshqalar); stilistik (matnning nutqning ma’lum bir uslubiga tegishliligini asoslash, uslubga xos bo‘lgan lingvistik vositalar va stilistik vositalarni ajratib ko‘rsatish); tipologik (matndagi nutqning etakchi turini ajratib ko‘rsatish, matndagi turli tipik bo‘laklarning kombinatsiyasini ko‘rsatish); alohida matn elementlarini lingvistik tahlil qilish (fonetik, orfoepik, so‘z yasalishi, ko‘rsatilgan so‘zlarning leksik, morfologik tahlili, ibora va gaplarning sintaktik tahlili); alohida so‘zlarning imlosi va gaplarning tinish belgilarini tahlil qilish (imlo va tinish belgilarini tahlil qilish) ta’limda samara beradi.

Zamonaviy rus tili darsining asosiy vazifasi – turli xil, shu jumladan muammoli vaziyatlarda mustaqil, mas’uliyatli va samarali harakatlarga qodir bo‘lgan shaxsning muhim mulki sifatida matnli kompetentsiyani shakllantirish. Talabalarda matnli kompetentsiyani shakllantirish o‘qituvchini matn bilan ishlash tizimini tushunishga qaratilgan. Bu kommunikativ muammolarni hal qilishda o‘quvchilarning faoliyatini bashorat qilish imkonini beradi. Muvaffaqiyatli yozma nutqni shakllantirish va takomillashtirish muammosi doirasida kommunikativ aks ettirish asoslaridan foydalanish, turli kommunikativ muammolarni hal qilish uchun nutq vositalaridan etarli darajada foydalanish, og‘zaki va yozma nutqni o‘zlashtirish, shuningdek, kommunikativ universal ta’lim faoliyati yangilanadi.

Qo‘llanmaning ushbu bo‘limida zamonaviy o‘quv mashg‘ulotlarida dolzarb bo‘lgan va qo‘llanmaning birinchi qismida keltirilgan maqolalarda bayon etilgan filologiya darslarida matn bilan ishlash uslub va usullaridan amaliy foydalanish masalalari ochib berilgan. Mualliflar rus tili va adabiyoti darslarida matn bilan ishlashning mavjud usullarini tahlil qilishni maqsad qilmaganlar. Asosiy maqsad – bu usullarning sinflarda qanday qo‘llanilishini ko‘rsatish. Rus tili darslarida matn “eng yuqori didaktik birlik” (T. M. Paxnova). Matn bilan to‘g‘ri tashkil etilgan ish quyidagi maqsadlarga erishishga yordam beradi.

1. Maktab o‘quvchilarida lingvistik, lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish. Lingvistik kompetentsiyani rivojlantirishda matn til birliklari, ularning til tizimidagi faoliyati va rivojlanishini tasvirlash, kuzatish, tushunish va tahlil qilish uchun kontekst sifatida ishlatiladi. Til kompetensiyasini shakllantirish jarayonida matn o‘quvchilarning lug‘at boyligi va grammatik tarkibini boyitish, tilning stilistik, grammatik, tinish belgilari va boshqa me’yorlarining mos kelishini nazorat qilish va ular bilan tanishtirishning zaruriy manbai hisoblanadi. Kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishda matnning xususiyatlari va tuzilishini, uning turi va uslubini, ijodiy ishlarni “yaratish” ni tahlil qilishga qaratilgan vazifalar yetakchi ro‘l o‘ynaydi.

2. Shaxsning axloqiy fazilatlarini tarbiyalash. Matnlarning tarbiyaviy salohiyatini e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak: matnni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilarda qiy-

mat munosabatlari shakllanadi va baholash va fikrlash kabi muhim tartibga soluvchi harakatlar takomillashtiriladi. Matn bilan ishlash qadriyatlar tizimini shakllantirish va hissiy intellektni rivojlantirish imkonini beradi.

3. Maktab o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirish, axborot bilan ishlashga o‘rgatish: izlash, qayta ishlash, sharhlash va baholashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Виноградов В. В. Проблемы русской стилистики. – М.: Высшая школа, 1981. 320 с.

2. Клычникова З. Н. Психологические особенности обучения чтению на иностранном языке: пособие для учителя. Изд-е 2-е, испр. – М.: Просвещение, 1983. 207 с.

3. Кулибина Н. В. Зачем, что и как читать на уроке. Художественный текст при изучении русского языка как иностранного. СПб.: Златоуст, 2001. 264 с.

4. Кулибина Н. В. Читаем по-русски: кн. для учителя. Рига: Retorika, 2008. 128 с.

5. Лотман Ю. М. Анализ поэтического текста: структура стиха. – М.: Искусство, 1970. 384 с.

Gulmalika UMAROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika institutu doktoranti

ALISHER NAVOIYNING TARIXIY VA LIRIK ASARLARIDA HAKIM OBRAZI KOMILLIK TIMSOLI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, Layli va Majnun, Saddi Iskandariy dostonlarida Suqrot obrazi alohida o‘rin tutadi Sharq mumtoz adabiyotida an’anaviy obrazlar mavjud bo‘lib, ular hikoya, afsona, doston va umuman ijod namunalarida takrorlanadi va barchaga ma’lum va mashhur bo‘lib kelgan. Bunday obrazlardan biri hakim obrazidir. Yaqin va O‘rta sharq mamlakatlari adabiyoti va tarixiy kitoblarida hakim,donishmand nomlari bilan atalib kelinadi.

Tayanch so‘zlar. Sharq mumtoz adabiyotida, hakim, Arastu, Aflotun, Bilgamish dostoni.

В статье образ Сократа занимает особое место в эпосах Алишера Навои “Фархад и Ширин”, Лейли и Меджнун, Садди Искандарии. В восточной классической литературе существуют традиционные образы, которые повторяются в рассказах, легендах, эпосах и примерах. творчество в целом известно всем и пользуется популярностью. Одним из таких изображений является образ судьи. В литературе и исторических книгах стран Ближнего и Среднего Востока он упоминается под именами правителя и мудреца.

Ключевые слова. В восточной классической литературе Хаким, Арасту, Платон, эпос Бильгамиш

The article, the image of Socrates occupies a special place in Alisher Navoi’s epics “Farhad and Shirin”, Layli and Majnun, Saddi Iskandarii. There are traditional images in Eastern classical literature, which are repeated in stories, legends, epics and examples of creativity in general, and are known to everyone. lum and has been popular. One of these images is the image of the judge. In the literature and historical books of the Near and Middle Eastern countries, he is referred to by the names of ruler and sage.

Key words. In Eastern classical literature, Hakim, Arastu, Plato, Bilgamish epic.

Alisher Navoiy, “Saddi Iskandariy”, doston, Suqrot va Farfinyus (Faysog‘urs), Navoiyning “Farhod va Shirin”, Layli va Majnun, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, Layli va Majnun ,Saddi Iskandariy dostonlarida Suqrot obrazi alohida o‘rin tutadi. “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida ham Navoiy Suqrotni hakimlar qatorida tilga oladi: Suqrot hakim Buqrotisning shogirdidur va Humoy binti Bahman zamonida erdi. Va anin so‘zlaridindurkim, nodong‘a tavozu qilmoq hanzalg‘a suv bermakdurkim, necha ko‘p ichsa, talxroq bo‘lur. Sa’y ishikim, o‘z yerinda bo‘lmag‘ay, qilur ishda kohilliddin yomonroqdur va dushman bila mashvarat qilib va dushmanlig‘in bilsa bo‘lurkim, ne poyadadur.

She’r:

Cheksa dushman sening salohingga til,
Mahzi afsod bo‘lg‘usidur bil.

Ularning barchasida u donoyi daryozamir, zamiri xirad hikma tobodi, zohiru botin ilmidan voqif, asror xazinasi, pokqalb, hikmat ahlining ustodi sifatida ta’riflangan. Navoiy boshqa biror bir qahramoniga bunday sifatlarni barqaror qo‘llamaydi. Suqrot “Farhod va Shirin”, “Saddi Iskandariy” dostonlarida qahramon taqdirining hal qiluvchi pallalarida namoyon bo‘ladi, hech kim yecha olmagan mushkul masalalarni hal etadi. Muallifning

bunday yondashuvlari Suqrotni komil inson qiyofasida tasavvur etishga asos bo‘ladi.

Suqrotning “Farhod va Shirin” dostonida tutgan o‘rni navoiyshunoslikda jiddiy tadqiq etilgan[1]. Ammo bu Navoiy asarlarida Suqrotning komil inson sifatidagi yagona talqini emas. “Xamsa” ni xotimalovchi dostonning XV bobida Suqrot komil inson timsoli sifatida gavdalanadi. Bobning tarkibiy qismlari “Mulohaza”, “Hikoyat”, “Hikmat” va “Voqea” lar shunday fikrga asos bo‘ladi.

Voqealarda tasvirlanishicha, Iskandarning quruqlikdagi safariga Arastu boshchilik qilsa dengiz safariga Suqrot rahnamolik qiladi. Bu Suqrotning haqoyiq bilimdoni, piri komil ekanligidan dalolat. Chunki tasavvuf adabiyotida suv muayyan haqiqatlarni anglatuvchi ramz sifatida qo‘llanadi. Sulaymon Uludog‘ning “Tasavvuf terminlari lug‘ati” da suv (ob) ning majozan husn, jamol, latofat, go‘zallik ma’nolarini ifodalashi; tasavvufiy mazmunda esa

1. Ma’rifat, ilohiy fayz, vujud, zot;

2. Ismlar va mazharlarning mazhari bo‘lgan komil nafs, qulliy aql, Ruhi a’zam[2] mazmunini anglatishi e’tirof etilgan. Shuningdek, dengiz – borliq, komil inson ramzi ekanligi ta’kidlangan.

Suqrot Iskandarga (solikka) maqsadga yetish yo‘lini ko‘rsatadi, uning past-balandidan ogoh etadi, buni dengizning tuzilishi, jaziralar haqidagi xabarlarida ko‘rish mumkin. Zero Suqrot dengiz ilmini (ma’rifatni) mukammal biladigan ustod. Iskandar tarbiya olgan uch ustozni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Naqumohis – Iskandarning shariat ilmidagi ustozi, piri. Uning tarbiyasi natijasida Iskandar haqiqatni ilm ul yaqin darajasida anglaydi.

2. Arastu – Iskandarning tariqat ilmidagi yo‘lboshchisi, piri. Iskandar uning tarbiyasi natijasi o‘laroq haqiatni ayn ul yaqin darajasida idrok etdi;

3. Suqrot – Iskandarning haqiqat martabasida rahnamosi, piri. Iskandar uning tarbiyasi bilan haqiqatni haqq ul yaqin darajasida mushohada qiladi.

Suqrotning xabar berishicha, yer sharsimon shaklda, suv bilan qoplangan, ma’lum qismi holi va u jahon deb ataladi. Ammo holi joy o‘z holicha ochiq bo‘lmay, kurrasi suv bilan ihota qilingan. Yerni qoplab turgan suvning bosh manbasi – Bahri Muhit. Bahri Muhitdan yetti dengiz ajralib chiqadi:

Rumu Farang dengizi
Mag‘rib dengizi
Zangu Xabash dengizi
Hind dengizi
Chin-Xitoy dengizi
Duving dengizi
Mashriq dengizi

Yetti dengizda 12 ming jazira bor. Ular ajoyibotlar bilan to‘la.

Burun yeti daryog‘a azm etti jazm,
Bulardin so‘ng etmak Muhit ichra azm.

Suqrotning dengiz ilmi bayonidagi ma’lumotlari yetti qavat osmon, 12 burjni eslatadi. Bahri Muhit Haq, birlamchi manba. Basit bahrning mehvariga yetib borish uchun yetti dengiz, o‘n ikki ming jazirani fath etish, ya’ni asl maqsadga yetishish uchun yetti falak ilmini riyozat bilan o‘rganish, 12 ming jazira singari ko‘p bo‘lgan osmon asrorini kashf etish, ulardan nazaran yuksala boorish va maqsad manziliga yetishish kerak.

1 Komilov N. Xizr chashmasi. – T: “Ma’naviyat”, 2005. 182-192

2 Sulaymon Uludog‘ning “Tasavvuf terminlari lug‘ati”, turk tilida, -Istanbul, 1995. 11-bet

Garchi Suqrot bu borliqni gorizontal yo‘nalishda tasvirlasada. Aslida, bunda solik ruhning ma’rifat manzillaridan maqsad sari vertical harakatini tasavvur etish mumkin. Biroq anglashning bunday tarzi o‘z-o‘zidan yuz bermaydi. Dastlab, solik diqqati gorizontal yo‘nalishda bo‘lishi, ma’lum haqiqatlar anglangach, mazkur harakat vertikal tus oladi. Ya’ni dunyoni bilmay turib Haqni bilish mumkin emas. Ammo bu bilmaslik, g‘ofillik oqibati emas, chunki birinchi yo‘l bosib o‘tilmasdan ikkinchisiga o‘tib bo‘lmaydi. Demak, bu yo‘l – tabiiy qonuniyat.

Hikoyadagi ganj topgan kishi – haqiqatni kashf etishni maqsad qilgan orif inson. Mashriqda topgan birinchi xazinasi – dunyoviy ilmlar (dunyoni tanishi, o‘zini tanishi); xazina eshigi ikkinchi xazina haqidagi maktubning osilganligi – to‘g‘ri va mukammal egallagan dunyo ilmi ikkinchi xazinadan xabar berishiga ishora; inson topishi kerak bo‘lgan ikkinchi xazina – Iloh sirlari ganjinasi, baqo olamidir. Farog‘attalab inson orif topgan birinchi xazinasi juda ozligini, arzimas ekanligini bilgach, behisob, tuganmas ikkinchi xazina sari jo‘naydi. Yo‘l – mashaqqatli va olis. Birinchi xazina Mahriqda (bu dunyoda), ikkinchi xazina Mag‘ribda (u dunyoda). Ammo mashaqqat, azob uqubat bilan dunyolar arzigulik xazina topganida umri tugab qoladi. Fano tariqi shu yerda tugab, u baqo olamiga rixlat qiladi. Mazkur irfoniy haqiqatlar Navoiydan qariyb ikki yarim asr ilgari Mavlono Rumiy tomonidan aytilgan bo‘lsa, Navoiydan salkam VI asr keyin jahon adabiyoti vakili ijodida zamonaviy ko‘rinishda qayta bosh ko‘tardi.

Alisher Navoiy ilmni, ma’rifatni doimo ulug‘lab qadrlovchi donishmand inson bo‘lgan. Uning ko‘plab asarlarida hakimlar donishmandlar obrazini ko‘rish mumkin. “Xamsa” tarkibida barcha dostonlarda esa, hakimlar obrazi qayta-qayta kiritilgan. Masalan, “Hayrat ul abror” dostonida hikoyatlar ichida hakimlar hayotidan misollar joy olgan bo‘lsa, “Farhod va Shirin” dostonida Chin xoqonining saroyida har biri Aflotundek keladigan to‘rt yuz olim xizmat qilishini aytadi. Farhodning atrofida Suqrot, Suxaylo, Mulkoro, Moniy, Boniy, Qoran kabi hakimlar, donishmandlar obrazi keltiriladi. “Layli va Majnun” hamda “Sabbayi sayyor” dostonalarida ham hakimlar va donishmandlarni uchratish mumkin. “Xamsa” dostonlaridagi shohlar obrazining barchasi dono va hakim sifatiga ega zotlar bilan maslahatlashib ish yuritadi. Faqatgina “Sabbayi sayyor” dostonida Bahrom obrazi tevaragida hakimlar obrazini kiritishdan Navoiy tiyilgan, tabiiyki, shohlik va ishqni o‘z o‘rniga qo‘yolmagan obraz yaratish uchun maslahatgo‘y hakimlarning bo‘lmasligi dostonning maqsadini yanada oshiradi.

“Tarixi anbiyo va hukamo” kitobining o‘zida Navoiy yigirmaga yaqin hakimlar obrazini keltiradiki, bu ham uning olimu ulamolar faoliyatiga beparvo emasligini ko‘rsatadi.

“Saddi Iskandariy” dostoni esa Navoiyning hakimlar obrazini yaqqol nomoyon etgan asari hisoblanadi. Naqumojis (Naqumohis, Nikomaxos, dostonda Aratuning otasi), Arastu (Aristotel), Filotun-Aflotun (Platon), Suqrot (Sokrat), Asqalinus (Iskilinus), Buqrot (Gippokrat), Hurmus (Germes) va Faysog‘urs (Pifagor) lardir. Ma’lumki, qadim zamonlardan boshlab, antik yunon olimlari va faylasuflari, ayniqsa, Aristotel, Sokrat, Gippokrat va boshqalar Yaqin va O‘rta Sharq xalqlariga ham yaxshi ma’lum edi, ularning ko‘pgina asarlari arab tiliga tarjima qilingan va O‘rta Osiyo hamda boshqa mamlakatlarning olimlari tomonidan sharhlangan, tahlil qilingan va ayrimlari ijodiy qayta ishlangan edi. Aristotel, Platon va boshqalar haqida afsona va rivoyatlar, badiiy asarlar paydo bo‘lgan edi. Shubhalsiz, Navoiy bularning ko‘pi bilan mukammal tanish edi. Biroq Navoiy “Saddi Iskandariy” da yunon olimlari va faylasuflarining tarixiy obrazlarini yaratish yoki ularning ilmiy faoliyati haqida ma’lumot berish, ijtimoiy falsafiy qarashlarini yortish maqsadini o‘z oldiga qo‘ymagan. Asarning g‘oyaviy-estetik maqsadi buni talab ham

qilmas edi. Navoiy an'analarga amal qilib olimlarning nomlarini oladi-yu biroq ularning obrazlari orqali o'z davrining ijtimoiy-siyosiy muammolarini, ta'lim-tarbiya masalalarini yoritmoqchi bo'ladi. U Iskandarni antik dunyodan o'z davriga to'g'rirog'i, o'z davrining progressiv xayol va orzular olamiga ko'chirgani kabi, olimlarni ham zamoni va zaminiga ko'chiradi. "Saddi Iskandariy" dagi olimlar o'z dunyoqarashi va ijtimoiy-siyosiy ideali bilan Navoiy davrining taraqqiyparvar mutafakkirlaridir. Ularning tilidan bayon etilgan fikr-mulohazalar Navoiyning o'z fikr-mulohazalaridir.

Hakimlar dostondagi voqealarda, dostonning g'oyaviy motivlari rivojida juda katta o'rin tutadilar, dostonning bosh qahramoni Iskandar obrazini to'ldiradilar, takomillashtiradilar. Iskandar har bir masalada hakimlar bilan kengashadi, oqilona fikr-mulohazalariga amal qiladi, ularning ko'magi bilan muammolarni hal etadi, xavf-xatarlarni yengadi. Shu zaylda, "Saddi Iskandariy" dagi hakimlar o'z ilmiy faoliyatlari qobig'iga o'ralib qolmay, ijtimoiy-siyosiy hayotda faol qatnashadilar, ilm-fan, tafakkurning hayotiy, amaliy natijalari uchun kurashadilar. Navoiy ilm-ma'rifat ahllarining shunday bo'lishlarini istar, orzu qilar edi.

Davlat boshliqlari ilm-ma'rifat ahllarining, donishmandlarning kengashi va maslahati bilan ish olib borishi lozim degan g'oyani ilgari surgan Navoiy bir qator ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta'limiy masalalarni olimlarning tili bilan bayon etadi. Bu ko'proq Iskandarning savoli va Arastuning javobi tarzida beriladi.

Dostonning xotimasida yetti hakim tilidan aytilgan so'zlar bu fikr-mulohazalarni to'ldiradi, takomillashtiradi: podshoh elga mushfiq va marhamatli bo'lishi (Arastu); sipohni lutfi bilan shod, raiyatni adli bilan obod qilishi (Filotun); ulusning osoyishtaligi uchun kurashmog'i (Suqrot); yaramas kishilarga nisbatan siyosat qo'llashi, qattiqqo'l bo'lishi (Buqrot); og'zi so'zi, ko'ngli va ko'zi pok (Faysog'urs); himmatli va saxovatli bo'lishi kerak (Hurmus); Adolatparvar hamda obod qiluvchi shohni el ham suyadi (Asqalinus);

Navoiy Iskandar hamda hakimlar obrazining munosabatlarini shunday yaqinlikda ifodalaydiki, ular shoh va mulozim emas balki yaqin do'stlardek tasvirlanadi. Iskandar istedodli olim, ilm-ma'rifatning jarchisi va homiysi edi. Yoshligida Naqumojisdan ta'lim olgan Iskandar butun umr bo'yi Arastu va Aflotun kabi olimlar bilan birga bo'ladi, ularning maslhati bilan ish tutadi, ilmiy faoliyatlariga homiylik qiladi. Chin hoqoni hadya qilgan oyinayi Chindan ilhomlangan Iskandar olimlarni yangi ilmiy ixtirolarga ruhlantiradi. Aflotun va Suqrot boshchiligida olimlar yulduzlar olamini usturlobni, Arastu va Buqrot rahbarligidagi olimlar yer yuzidagi turli hodisalarni ko'rsatib beruvchi oyinayi jahonnamoni kashf qiladilar. Iskandarning tashabbusi bilan o'lkalarning tabiiy va geografik xususiyatlari o'rganiladi, joylarda masofa ko'rsatuvchi belgilar o'rnatiladi. Bu ishlarning barchasini birma-bir sanashdan Navoiyning maqsadi har bir hukmdorga ilm-ma'rifatga, ta'lim-tarbiyaga e'tibor berish kerakligini va bu bilan har qanday davlat yuksalishini uqtirishga harakat qiladi. Hakimlar obrazini keng tarzda yoritishdan ko'zlangan maqsad ham aslida shu bo'lgan. Yuqoridagi aytilgan fikrlardan kelib chiqib shunday xulosaga kelindi:

1. Abdurahmon Jomiyning "Xiradnomayi Iskandariy" va Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonlari deyarli bir davrda, ya"ni 1485-yilda yaratilgan. Hazrat Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni hajman ancha yirik bolib 7215 baytdan iborat. Bu Jomiy dostoni bilan taqqoslaganda 3 baravar katta demakdir. Abdurahmon Jomiy o'z dostonida Iskandarning jahongirligiga emas, balki uning donishmandligiga asosiy e'tiborini qaratgan bo'lsa, Alisher Navoiy esa adolatli shoh haqidagi orzularini Iskandar timsolida gavdalantiradi.

2. Iskandar Zulqarnayn ham hakim darajasidagi inson chunki bu donishmandlarni bir joyga to‘plab, ularga turli xil narsalarni kashf qilishni topshirganining o‘zi ham uning hakimligidan darak beradi.

3. Hakimlar hayotda turli davrlarda yashagan bo‘lsalarda asarda aynan bir davrning olimlari tarzida ifodalangan. Bu esa Navoiyning turli hakimlarning yashagan davri emas, ularning yaratgan ilmlari har doim kerakli ekanligini uqtirgandek go‘yo.

4. Navoiy har qanday shoh atrofida hakimlar bo‘lishi va ularning maslahati bilan ish qilishi lozim ekanligini ushbu dostonida aytib o‘tgan.

Navoiy Arastu obraziga “Lison ut-tayr” masnaviysida ham e’tibor qaratgan bo‘lib, dostonda ushbu timsol shogirdiga haqiqiy muhabbat tashqi ko‘rinishda emas, balki ma’naviy go‘zallikda bo‘lishini isbotlagan dono ustoz va komil inson sifatida talqin etgan. Navoiy o‘zining “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida ham Arastu obraziga murojaat etgan bo‘lib, undagi hikmatlar Aristotelning “Axloqi kabir” asaridagi fikrlar bilan hamohangligi ahamiyatlidir.

Muqaddas yettilik tushunchasi yer yuzidagi deyarli barcha xalqlar uchun birdek e’tiborli hisoblanadi. Chunki bu raqam sehrli raqamlaming eng mashhuri bo‘lib, ayniqsa, Sharqda juda e’zozlangan. Bu raqamning kelib chiqishi va sayyoralar bilan bog‘lanishi haqida ma’lumot berar ekan, S.Hasanov Bobilning janubida yashagan shumerlaming diniy e’tiqodlari bilan bog‘liq holda deb tushuntiradi. Zoir Ziyotov “Shumerlar va Turon qavmlari” kitobida shumerlar aslida O‘rta Osiyo xalqlarining ajdodlari degan fikrni o‘rtaga tashlaydi. Bu xalqning ijodiyoti namunasi hisoblanmish “Bilgamish” dostonida yettilik ahamiyatli obrazlardan sanaladi. Jumladan, “Shumerlarnnig epik poeziyasida muhabbat ilohasi Inanna Yer osti olamiga yetti darvoza oldidan o‘tadi, diniy ibodatxonadagi kohinlar yetti darajaga bo‘linishadi va hokazo. Bu davrda hali Bobilning kuchli madaniyati, uning mashhur yetti sayyora – yetti asosiy iloh g‘oyasi shakllanmagan edi. Shumerlaming madaniyatini o‘zlashtirib, rivojlantirgan Bobil tamaddunida astronomiya ham asosiy o‘rin egallab, yer atrofidagi yetti sayyora (o‘sha davrdagi tasavvur bo‘yicha) olam va inson hayotiga ta’sir o‘tkazuvchi yetti iloh deb qabul qilindi. Yettilikka asoslangan hafta kunlari shakllandi. Yetti iloh kunlaming har birining homiysi deb belgilandi. Adabiyotshunos Zuhra Mamadaliyevaning “Lison ut-tayr obrazlari: ramz va majoz olami” kitobida bu haqida quyidagicha ma’lumotlar bor: “Islom dinining yakkaxudochilik g‘oyasi – Tavhid ta’siri Musulmon Sharqi tasavvurlarida olam muvozanati masalasida yettilik garmoniyasi diniy-ilohiy ahamiyatini pasaytirdi. Bobil diniy qarashlari va madaniyati orqali o‘zlashgan qahramonlar endi ilohlar emas, shunchaki sayyoralar sifatida talqin qilina boshlandi. Biroq bu garmoniya Sharq xalqlari ongiga shunchalik singib ulgurgan ediki, uni xalq tafakkuri va iste’molidan butunlay chiqarib tashlashning iloji bo‘lmadi. Bundan tashqari yettilik islom dinida ham o‘z e’tiboriga ega bo‘lmoqda edi. Yagona tangri – Ollohni dunyoni yetti kunda yaratganligi, yetti do‘zax-u undan bitta ko‘p jannat, osmon va yerning yetti qavatliligi tushunchasi me’rojnomalar bilan bog‘liq holda tasvirlanayotgan edi. Yetti sayyora haftaning yetti kuniga, yetti iqlimga va kishilar ongiga ta’sir o‘tkazishi, homiylik qilishi, xosiyatli yoki xosiyatsiz ekanligi va hokazolar haqidagi qarashlar Musulmon sharqi astrologiyasida ham saqlanib qoldi. Garchi endi ular ma’budlar tugul, ilohiy kuchga mustaqil ega farishtalar darajasida bo‘lmasalar ham, me’rojnomalarda tasvirlanishicha, islom payg‘ambarining rikobini o‘pib, uning qadamining yetganidan faxrga to‘lsalar ham, har qalay, yashab qoldilar.

Aytish mumkinki, mumtoz adabiyotning ajralmas qismi bo‘lmish tasavvuf adabiyotida ham “yetti” raqami ramziy ma’noga ega deb qabul qilindi. Tasavvufda “yetti maqom”,

“yetti hol” kabi atamalarga muvofiq ravishda “yetti iqlim”, “yetti sayyora”, “yetti olam” kabi ramziy timsollar paydo bo‘la boshlagan. Tasavvufning avvalgi bosqichlarida to‘rtga bo‘lib tasniflangan nafs martabalarini naqshbandiylar yettita deb belgiladilar. Ular quyidagilardir: nafsi ammora, nafsi lavvoma, nafsi mulhama, nafsi mutmainna, nafsi roziya, nafsi marziya va nafsi komila (sofiya).

So‘fiylar – yetti qavat osmonni insonning yetti sifatiga muqoyasa qilishgan. Bunda ham aynan yetti raqamining ifodalanishi osmonning yetti qavatligi haqidagi mifologik tasavvur bilan bog‘lanadiki, tasavvufda bu timsol, ko‘rganimizdek, o‘ziga xos qayta ishlanganligiga, ya’ni ilohiyotning mazhari inson bilan bog‘langanligiga guvoh bo‘lamiz. Demak, so‘fiylar talqinidagi afloki ta’baga insonning quyidagi sifatlari muqoyasa qilinadi: hayot, ilm, eshitish, ko‘rish, qudrat, kalom, iroda. Ko‘rganimizdek, yuqoridagi barcha sifatlar, avvalo, Yaratganning sifatlari hisoblanadi. Uning insonga mansub deb anglanishi nafaqat Inson Yaratganning halfasidir, degan islom tushunchasiga, balki inson Yaratganning bir qismidir, Unda bor narsa, bunda ham mavjuddir, degan umumtasavvufiy e’tiqodga bog‘lanadi. Adabiyotshunos olima Sofiya Jumayevaning “O‘zbek mumtoz she’riyatida raqam ramzlari va ularning talqini” nomli dissertatsiyasida ma’lumot berilishicha, so‘fiylar ruhning martabalarini yettita deb bilishgan. Bular: 1) hayoti hayvoniya; 2) ruhi izofiya; 3) hayoti nurya; 4) ruhi kasif; 5) ruhi latif; 6) ruhi altof; 7) ruh ul ruh. Ushbu darajalar tasavvuf bosqichlari kabi ruhning kamoloti va oqibatda, Xoliq dargohiga vosil bo‘lishi bilan izohlanadi. Mana shunday salmoqli merosdan daho shoir Alisher Navoiy “Sab’ai sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlarida mohirona foydalangan. “Saddi Iskandariy” da Iskandarning musohiblari ham yetti mutafakkir donishmandlar hisoblanadi. “Yetti donishmand” tushunchasi qadimgi xalqlardagi yetti iloh tushunchasidan kelib chiqqanligi haqida folklorshunos olimlar M.Jo‘rayev va K.Xolmuhamedovning “Yetti iqlimdagi yettilar” kitobida ma’lumot berishgan. Falsafashunos olimlar S.Ro‘zimurodov va A.Karimovlaming “Falsafiy fikrlar taraqqiyotining ibtidosi xususida” nomli maqolasida qadimgi yunonistondagi yetti donishmand haqida quyidagicha ma’lumot keltiradi: Qadimgi Yunonistonda “Yetti donishmand” degan tushuncha mavjud bo‘lib, unda o‘z davrining yetuk faylasuf olimlari, notiq va qonunshunoslar bu yettilikdan o‘rin olgan. Bu yetti donishmand orasida Fales, Salon, Suqrot, Pifagor, Anaksagor va albatta Anaharsis ham nazarda tutilgan”. Bu faylasuflar bir davrda yashamagan va bu hisob ham shartli bo‘lib, ba’zi manbalar boshqacha ma’lumot berishlari ajablanarli emas.

Alisher Navoiy asarlarida yunon faylasuflarining o‘ziga xos o‘rni va talqini mavjud. Bu talqinlar o‘zining protatipiga – asliyatiga g‘aroyib tarzida o‘xshaydiki, biz bu obrazlaming talqinlarini o‘rganish orqali Navoiy dahosining yana bir qirrasini – uni yunon falsafasi va faylasuflaridan atroflicha xabardorligini bilib olamiz. Ulug‘ shoir ijodida yunon faylasuflaridan Aflotun, Arastu, Suqrot va Farfinyus (Faysog‘urs) lar alohida ahamiyat kasb etadi. Iskandar haqidagi dostonlarda Iskandarning ustozi Arastu haqidagi qarashlari mavjud edi, lekin Jomiyning “Xiradnomai Iskandariy”ga kelibgina yetti donishmand motivi shakllandi. Navoiy Iskandar haqidagi dostonini ustozi Jomiy kabi “xiradnoma” shaklida yozishi mumkin edi. Biroq unda turkiy tilda ananaviy “Xamsa” yozish imkoni yo‘q, degan qarashlar paydo bo‘lishi mumkin edi. Shuning uchun Navoiy Iskandarning harbiy yurishlari, fath-u zafarlarini ham kuylashga qaror qildi. Biroq dostonda yetti donishmand obrazi ahamiyatli obrazlar qatorida qoldirildi. Navoiy o‘z dostonida Iskandarni komil inson obrazida tasvirlashni xohlagan va shuning uchun Iskandarni donishmanlar orasida, ulardan nasihat tinglaydigan, savollar berib, javob oladigan va ularga amal qiladigan adolatli shoh etib tasvirlagan. Navoiyning yetti do-

nishmandi quyidagicha: Aflotun (Filotun), Suqrot, Balinos, Buqrot, Hurmus, Farfmyus va Arastu. Dostonda Iskandar yonida jami besh yuz hakim borligi aytilib, shundan o‘ntasi doimiy tarzda uning yonida ekanligi aytiladi:

Bor erdi janobida besh yuz hakim,
Alardin o‘ni kecha-kunduz nadim:
Filotun, Arastu, Balinos ham,
Yana Arashmidus, Shaminos ham.
Qilinmunu Volisu Farfurnus
Ki, Suqrotu Hurmus kibi xokbo‘s.

Garchi bu yerda o‘nta deyilgan bo‘lsa-da aslida asosiy yettilik vazifasi boshqalardan farqlidir. Dostonda ushbu yeti hakimlar ichida eng ko‘p tilga olingan donishmandlar Arastu hamda Suqrot obrazidir.

Arastu – yunon faylasufi Platonning shogirdi bo‘lgan Arestotelning Sharqona nomi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari ham Aleksandr Makedonskiy Iskandar Zulqarnayn emasligiga o‘zlarining “Zikr ahlidan so‘rang” kitoblarida shunday javob beradilar: “Misol uchun, ba’zilar: “Qissadagi Zulqarnayndan murod makedoniyalik Iskandar” deyishgan. Bu gap umuman noto‘g‘ri, chunki u mushrik odam bo‘lgan, butlarga, yulduzlarga sig‘ingan. Makedoniyalik Iskandarning nomi Aleksandr Makedonskiy bo‘lib, taxminan miloddan 330 yil oldin o‘tgan va Arastuning shogirdi bo‘lgan. Dunyoning ko‘p yerlarini ishg‘ol qilgan, Forsda urush olib borgan. Podshoh Doroni yengib uning qiziga uylangan va hokazo. Imom Shavkoniy ushbu ma’lumotlarga xulosa yasab, Aleksandr Makedonskiy Qur’oni Karimdagi Zulqarnayn degan gapga raddiya beradi: “Bu juda ham mushkul! Chunki u kofir bo‘lgan. Arastuning shogirdi bo‘lgan, ko‘rinib turibdiki, Zulqarnayn solih banda bo‘lgan. Alloh unga keng mulkni bergan va bunga Qur’on ishora qilgan”. Zulqarnayn mag‘rib va mashriqning chekka joylarigacha borgan, Yajuj va Ma’juj qavmiga yo‘liqib, ularni to‘g‘on bilan to‘sib qo‘ygan. Aleksandr Makedonskiyni mazkur narsalarning birortasiga muyassar bo‘lgani tarixda ma’lum emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 19-oktabrdagi “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-4865-sonli Qarori // https://lex.uz/docs/5054929

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigi // 2018-yil, 07-avgust.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Turkiya Respublikasi Prezidenti devoni Xalq kutubxonasining tantanali ochilish marosimidagi nutqi // Xalq so‘zi, 2020-yil, 21-fevral.

4. “Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at” / Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. 2 jildlik. 1-jild. – Toshkent: Sharq, 2016. – 536 b.

5. “Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at” / Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. 2 jildlik. 2-jild. – Toshkent: Sharq, 2016. – 480 b.

6. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / Mas’ul muharrir: B.Valixo‘jayev. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004. – 264 b.

7. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2011. – 352 b.

Zilola NIYAZOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti doktoranti

ISAJON SULTON HIKOYALARIDA TABIAT HODISALARI ASSOTSIATSIYASI

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek adabiyotining taniqli vakili Isajon Sulton hikoyalarida tabiat tasviri-tabiiy hodisaning tutgan o‘rni, yozuvchining assotsiativ maydonida peysaj yaratishda ijodkorning o‘zigagina xos tasvir usullari haqida mulohazalar mavjud va tabiat tasviviri voqealar rivojida asarning asosiy qismi bo‘lib xizmat qilgani haqida aytiladi.

Tayanch so‘zlar. Peysaj, dinamik peyzaj, sujet, kompozitsiya, kontrast, badiiy til, umumxalq tili, hissiy bo‘yoq, apokalipsis, poligarmoniya, politasvir.

В статье рассказывается о роли образа природы-природного явления в рассказах выдающегося представителя узбекской литературы Исаджона Султана, содержатся размышления о своеобразных способах изображения Творца при создании пейзажа в ассоциативном пространстве писателя, говорится о том, что образ природы служил основной частью произведения в развитии событий.

Ключевые слова. Пейзаж, динамичный пейзаж, сюжет, композиция, контраст, художественный язык, общенародный язык, эмоциональная окраска, апокалипсис, полигармония, политипизм.

The article, the role of nature-landscape in the stories of Isajon Sultan, a well-known representative of Uzbek literature, there are comments about the artist’s unique methods of creating a landscape in the associative space of the writer, and it is said that the nature image served as the main part of the work in the development of events.

Key words. Landscape, dynamic landscape, subject, composition, contrast, artistic language, universal language, emotional paint, apocalypse, polyharmony, politasvir.

O‘zbek adabiyotining iste’dodli vakili Isajon Sultonningning har bir hikoyasida peyzaj tabiat ta’sviri eng muhim rolni o‘ynaydi. Uning “Sofiya”, “Suvdagi kosa”, “Bog‘i eram” kabi hikoyalarida tabiat tasviviri asarning boshidan oxirigacha muhim o‘rin tutadi. Chunki asarning bosh qahramoni ham, asardagi yetakchi obrazlar ham tabiatdagi hodisalar hisoblanadi. Yozuvchi hayotdagi har bir narsani, voqea hodisani tabiat bilan bog‘laydi.

Isajon Sultonning “Sofiya” hikoyasi xuddi shunday hikoyalaridan biridir. Hikoyaning so‘z boshida yaqindagina ro‘y bergan, tabiatni yakson etib, shiddatli sellar paydo qilgan dovul mahali chaqmoq urgan bir kishining holidan xabar bermoqchiman. Chunki avvalboshda oddiygina tuyulgan shu hikoya bir oz vaqt o‘tgach, nazarimda boshqa ma’no kasb eta boshladi. “Sofiya” so‘zi yunonchada yuksak ilohiy donolik, imon, umid va muhabbat ma’nolarini anglatar ekan. Bir oz mushohada qilib ko‘rgach, to‘satdan... unda o‘zimiz bilgan oddiy dovul emas, tamomila boshqa hodisa tilga olinganini, to‘fonning sirayam to‘fon emas, balki muhabbat dolg‘alari ekanini tushunib qoldim. Ishq inson hayotiga shu tarzda, bo‘ron yanglig‘ kirib kelishi ham mumkin-ku? Mana shu nuqtadan turib nazar tashlasam, dala hovli bor-yo‘g‘i inson muvaqqat turadigan makon ekani ayon bo‘ldi, chaqmoq urgan kishi qiyofasi birdaniga o‘zgarib, umidsiz, ishonchsiz, muhabbatsiz bir xilda hayot kechirayotgan odamning iztiroblari yuzaga qalqib chiqdi. Kim bilsin, balki u Sofiya ismli ayoldan bahs etgandir? Shu ism anglata-

yotgan xislatlarga ega bir ayol, balki, inson hayotida mana shunday ulkan o‘zgarishlar sodir qilar? “Sofiya” hikoyasini o‘qiyotganimda o‘shandagi voqeani eshitganimni aniq bilaman. (qachondir kuchli chaqmoq chaqib, tog‘da ovuliga,yoki boshpanasiga qayta olmagan insonni jalada qolib daraxt panasida himoyalangan chog‘da, daraxt bilan birga chaqmoq urgani) Hikoyadagi tasvir xuddi shu holatni badiiy talqini, sofiya shamoliga mahliyo bo‘lib ushbu dovulni,to‘fonni sevib, orziqib,uning tabiatga qilayotgan har bir o‘zgarishlaridan zavqlanib, baxtga to‘lib borayotgan inson oxir-oqibat o‘zi mahliyo bo‘lgan o‘sha dovul bag‘ri-la qolib chaqmoq urishidan halok bo‘lgani tasvir etiladi. O‘quvchi asarni o‘qib chiqar ekan xuddi buyuk yozuvchi Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hikoyasi qahramoni Turg‘unboyning asar boshi va so‘ngidagi holati kontrast usuliga yaqin holatni tuyadi o‘zida.

Tasvirga e’tibor bering:G‘oyat go‘zal va entiktiruvchi esishlaring ostida, ajab xushbaxtlik va saodat ichra chirsillab-chirsillab yonaman men ham!..Hikoya “men” tilidan hikoya qilinadi. Yozuvchi ijodidagi yana bir ko‘zga ko‘ringan tasvir vositasi bu – qahramon “men” haqida boshqalarning o‘sha “men” ning hayotiga kuzatuvchi, ba’zan loqayd tomoshabin bo‘lib xulosa berish usuli.Yozuvchi hikoyaga xuddi shu tomoshabinlar nutqi bilan yakun yasaydi

Biroq, u odam yo‘q edi.
Hech qayerda yo‘q edi,
tamom-vassalom...

Yozuvchi hikoyani tasvirlashda peyzajdan ham mohirona foydalanadi. Hikoyalardagi tabiat tasviri voqealar rivojida asarning asosiy qismi bo‘lib xizmat qilgan. Kundalik hayotimizda, ayniqsa qishloq hayotining har bir qadamida uchrovchi tabiat tasvirlari, voqea-hodisalar asarning kompozitsiyasida ayricha ifodasini topgan. “Qo‘riqchi” hikoyasi qishloq hayotida dalalarda eng kerakli va taqdiri hech kimni qiziqtirmaydigan yasama qo‘riqchining yashash tarzi, uning qalbidagi hech kim eshitmaydigan dil so‘zlarini qiziqarli tarzda ochib bergan. Qishloq tasviri, atrof-muhit bir jonsiz qo‘riqchi ko‘zi bilan idrok etiladi, tasvirlanadi.” Tabiat hodisalari, manzaralariga Isajon ramziy ma’no yuklaydi. Tabiat tasviri uning asarlarida shunchaki qahramon ruhiyatini aks ettiradigan qo‘shimcha bir vosita emas, balki maqsaddir. U tabiat hodisalari tilida bu olamning inson xayollari yetadigan joyigacha bo‘lgan hikmatini aks ettirishga harakat qiladi. To‘g‘rirog‘i, yozuvchi tabiat hodisalarini shunday ma’noli va ta’sir usulda tasvirlay oladiki, biz bu manzaralarni o‘qib butun borliqni boshqarib turgan Ollohning irodasini rosmana his etamiz”, – deya e’tirof etadi adabiy tanqidchi Rahimjon Rahmat o‘z izlanishlarida

Asar tili, badiiy til umumxalq tiliga asoslanadi, uni butkul yangi hodisa deb qaramaslik kerak. Biz kundalik muloqotda ishlatib yurganimiz odatiy so‘zlardan badiiy so‘z o‘sib chiqadi. So‘zning bevosita, odatiy manosi badiiy asar matnida yangidan yangi qirralarini namoyon qiladi, uning ma’no sig‘imi benihoya kengayadiki, buni badiiy asarda tasvirlangan xususiy faktdan katta bir badiiy umumlashma kelib chiqishiga o‘xshatsa bo‘ladi. Badiiy tilning tasviriyligi nasriy (epik) asarlarda yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. Lirik asarlarda tasvirlangan tashqi manzara lirik qahramon ichki olamiga olib kiruvchi vositagina (ya’ni, unda voqelikning shu maqsadga yetish uchun zarur fragmentlarigina qalamga olinadi) bo‘lsa, epik asarlarda tasvirlangan badiiy voqelik o‘zicha mustaqil, obyektivlashgan manzaradir. Shu bois ham epik asarlarda tasvirlangan ijodkor ko‘zi bilan ko‘rilgan voqelik o‘quvchi xayolida ham jonlanadi. O‘quvchi asar voqealari yuz berayotgan joy, qahramonlarning xatti-harakatlarini go‘yo ko‘rib turadi. Lirik asar tilining emotsionalligi ko‘proq lirik qahramonning konkret paytdagi (lirik asarda badiiy vaqtning juda qisqaligi, “hozir” bilan belgilanishini e’tiborga olish zarur) kayfiyati, holati, kechinmalari bilan bog‘liq bo‘lsa, epik asarda emotsionallikning namoyon bo‘lishi o‘zgacharoq tarzda kechadi. Bundagi emotsionallik birinchi galda tasvirlanayotgan

predmet mohiyati bilan bog‘liqdir. Epik asarda tasvirlanayotgan narsa, voqeaning o‘zgarishi barobari emotsionallik ham o‘zgarib boradi.

Isajon Sulton qishloq hayotida ulg‘aygan adiblarimizdan biri bo‘lib, uning hikoyalarining deyarli barchasida qishloq hayotining go‘zal tarovatli manzarali odamni havasini keltiruvchi so‘lim go‘shalari hamda odmigina yashasada hech ham hayotidan nolimaydigan mehnatsevar insonlar tasvirlangan “Sog‘inch” hikoyasida oyga qishlog‘idan boshqa joyga ishlagani kelgan hikoyaning bosh qahramoni musichalarga g‘amxo‘rlik qilgan bir kishi misolida ko‘rishimiz mumkin. Bunda yozuvchi insoniy sog‘inch hissini, yaqinlarga mehr-muhabbat tuyg‘usini tabiatdagi jonzotlarga, o‘simliklar olamiga munosabatlar asosida ko‘rsatib beradi. Ba’zan esa tabiat ayni insoniy tuyg‘ularni yodga soluvchi, insonni ruhan poklanishga chorlovchi vazifasini bajaradi.

Yozuvchining hikoyalari zamirida teran mazmun mohiyat yotadi. Hikoyalarni qayta- qayta o‘qiganimizda uning mazmun - mohiyati, hayot haqiqati qanchalar ochib berilganini uqishimiz mumkin. Bunday hikoya yozish anchagina mahorat va mashaqqat talab qiladi ijodkordan. Ijodkor bitta asari bilan minglab insonlari fikrlashga undaydi. Asarni ochilmagan qirralarini ochilishiga, undagi yutuq va kamchiliklarni topishga va asarnning mazmun mohiyatidan ma‘naviy ozuqa olib, insonlarni hayotga muhabbat ruhida yashashga undaydi. Umrning qadriga yetishga, faqat yaxshilik qilish, o‘zgalarni atrofidagi insonlarni qadrlashga shu kabi yaxshi insoniy fazilatlarni qalbida va ongida uyg‘otishga chorlaydi. Uning har bir hikoyasida qo‘llagan detallari o‘ziga xos vazifani bajaradi. Isajon Sultonning “Ayvon” ya‘ni (“Qismat”) hikoyasida badiiy detal asar nomi darajasiga ko‘tariladi. O‘zbek xonadonini ayvonsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, ayvon inson hayotidagi bo‘lib o‘tgan har bir voqea hodisaga guvoh bo‘lgan tilsiz tirik guvoh hisoblanadi.

Hikoyada ayvon ustuni, chumolilar, arilar, cho‘p savatdagi quritilgan non, qurit, tomorqa, terak, zovur, tilla baliq singari detallar hikoyaning tasvir obyekti hisoblanib, ularning har biri alohida muhim vazifa bajaradi. Asar sujeti o‘ziga xos tuzilishga ega bundagi voqelar noreal tarzda yozilgan. “Bog‘i Eram” hikoyasi qahramoni – onasi yopgan issiq nonlarni ariqning zilol suviga botirib o‘ynayotgan bolakayga keksalik ufqiga yetib borgan Xolmuhammad buva ro‘para keladi. “E voh, o‘zim ham ariqdagi suvday oqdim ketdim” – dedi chol va o‘ksinib xo‘ngrab yig‘lab yubordi”. Hikoya so‘ngida yana o‘sha charxpalakka duch kelamiz – endi qahramonimizning o‘zi qartayadi, qartayganicha ko‘rgan-kechirgan turmush ikir-chikirlarigacha yozuvchi to‘xtalmaydi, ular kundalik mayda-chuyda tashvishlar qatorida e‘tiborini tortmaydi, hozir esa, qahramonning o‘zi qariya, gavdasi egik madori ketgan kunshuvoqda oftobda isinib o‘tiradigan holda.

Bu tuproq ko‘chadan hassasiga tayanib borayotganida, ariqda o‘ynayotgan ikki bolaga – kelajak avlodga duch keladi. “Axir men ham bir mahallar onam yopgan nonlarni sizlar kabi ariqda oqizib yer edim… E voh, o‘zim ham ariqdagi nonday oqdim-ketdim-ku ” degan o‘sha gapning xayolda hosil bo‘lish sababiga yetib kelamiz: “Dilimda esa bu g‘alat charxpalakning haybatidan hosil bo‘lgan g‘alati qo‘rquv….“Asar deyarli tabiat tasviri asosiga qurilgan. Bolalar non oqizib o‘ynayotgan jannatmonand go‘sha tasviri jannat tasviri bilan uyg‘unlashib ketgandek go‘yo.

Tasvirdagi yorqin, oq ranglar, nurlar inson qalbi kengliklaridagi chin mohiyatni ochib yoritib beradi. Isajon Sultoning hikoyalarida poligarmoniya, politasvir diqqatni tortadi. Yozuvchi hech qachon, bitta holat bitta masala yopishib olmaydi. Inson ko‘nglida shamday zaif miltillab turadigan qiyomat kunining sodir bo‘lishini doim sezib yuradigan bir hisning to‘satdan alangalanib, kishining butun bir ichki olamini qamrab oladi. Go‘yo yonib turgan shamdan alanga chiqib butun boshli uy yonib ketgandek. Insonning ko‘ngil uyiga o‘t ketgan. Inson ko‘nglida favqulodda vaziyatlarda ana shunday yong‘in sodir bo‘lib turadi. Buni “apokalipsis” deyishadi g‘arbliklar. Ya‘ni kishi nazarida rostdan ham

qiyomat sodir bo‘lib, olamning Olloh yaratgan azaliy muvozanati uyg‘unligi tartibsiz ravishda parchalana boshlaydi. To‘plamdagi “Sofiya” hikoyasida shu nom bilan aytiluvchi to‘fonning qisqa muddat ichida qutirishi, asov toyday ko‘kka intilishi , toshqin daryoday yutoqib-yutoqib po‘rtana urishi, adadsiz kuch bilan og‘ochlarni qars-qurs sindirishi, chaqmoq chaqib, g‘aramlar, daraxtlarni lov-lov yondirishi tasvirlanadi. Hikoyadagi sofiya to‘foni inson ichki olamining tasviridir. Yozuvchi kuchli to‘fonni ayollarning go‘zal ismi bilan aytaydi. Asarda to‘fon mayda detallarigacha tasvirlanadi. Yeru osmonning to‘fondagi holati juda ta’sirli bayon etiladi. Bu tasivrlar ham asli ramziy bo‘lib, inson ruhiy olamidagi evrilishlarning ifodasidir. Isajon Sulton hikoyalarida peyjaz tasviri asar kompozitsiyasidan muhim o‘rin egallab, asarning bayon uslubiga yorug‘ tasvirlar, romantik ruhiyat olib kirish barobarida, ramziy ma’no ifodalashga ham xizmat qiladi.

Yozuvchining boshqa ijodkorlardan peyzaj yaratish mahorati shundaki, u butun bir asarni to‘laligicha peyzaj asosiga qurishi mumkin. Bunda har bir detal, tasvir ramziylik asosida bo‘lib, chuqur hayot falsafasi, umr haqida xulosa aks etadi. Peyzaj asardagi tabiat tasviri va voqea-hodisa sodir bo‘lgan joy haqida ma’lumot beradi. Isajon Sultoning hikoyalaridagi peyzajda poligarmoniya, politasvir diqqatni tortadi. Yozuvchi hech qachon, bitta holat bitta masalaga yopishib olmaydi. Yozuvchining “Tilsim lashkari” hikoyasida peyzaj tasviri voqealar sodir bo‘layotgan, joy, vaqt haqida ma’lumot berish barobarida muhim-badiiy estetik vazifa bajargan. Asar davomida peyzaj tasvirlarining bo‘lib-bo‘lib berib borilishi dinamik peyzaj yaratish usulidir. Bundan tashqari peyzaj asardagi qahramonlar ruhiyatini ochib berishga xizmat qilgan. Joy tasviri (undagi “rang”lar) personaj ruhiyati bilan uyg‘unlik kasb etishi ham, unga kontrast tasvirlanishi ham mumkin. Bu funksiyalarning qay birini asosiy o‘ringa o‘tishi esa muallifning konsepsiyasiga bog‘liq.

Shuni xulosa qilamizki, Isajon Sulton hikoyalarida voqeabandlik, hikoya qilib berish kam. Yozuvchida voqeadan ko‘ra ko‘ngilni kashf qilishga urininsh sezgilari uchraydi. Isajon ko‘ngilni kashf qilish orqali o‘quvchi ruhiga kirib boradi, unga huzur baxsh etadi. Yozuvchining har bir hikoyasida peyzaj- tabiat ta’sviri eng muhim rolni o‘ynaydi. Uning “Sofiya”, “Suvdagi kosa”, “Bog‘i eram” kabi hikoyalarida tabiat tasviviri asarning boshidan oxirigacha muhim o‘rin tutadi, ya’ni asarning sujeti vazifasini bajargan, desak xato bo‘lmaydi. Chunki asarning bosh qahramoni ham, asardagi yetakchi obrazlar ham tabiatdagi hodisalar hisoblanadi. Yozuvchi hayotdagi har bir narsani, voqea hodisani tabiat bilan bog‘laydi. Hikoyalardagi tabiat tasviri voqealar rivojida asarning asosiy qismi bo‘lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahimjon Rahmat. “Munojat”dan “Boqiy darbadargacha. So‘ngso‘z o‘rnida// Boqiy darbadar.T.,O‘zbekiston,2011.B.262.

2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T., 2020.B-174.

3. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: Fan, 2004

4. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. Monografiya va maqolalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2002.

5. http://ziyo.uz <o‘zbek-nasri> http://uzsmart.ru.asarlar.

6. http: //kitob.uz O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

Zulayho MUHAMMADIYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Ijtimoiy fanlar fakulteti
Tarix yo‘nalishi talabasi

ISHOQXON TO‘RA IBRAT ASARLARIDA ETNOGRAFIK MA’LUMOTLAR

Annotatsiya

Maqolada Ishoqxon Lo‘ra Ibratning bir necha asarlaridagi etnografik masalalar ko‘zga tashlanadi. Xususan, “Mezon uz-zamon”, “Tarixi Farg‘ona”, “Jome ul-xutut”, “Ajoyib ul-buldon” kabi asarlari orqali hududlarning tarixiy-geografik joylashuvi, tili, turmush tarzi va urf-odatlari haqida so‘z boradi. Har bir asar turlicha yondashuv va turli xil ruhda yozilgan.

Tayanch so‘zlar. Etnografik, tarixiy-geografik joylashuv, “Mezon uz-zamon”, urf-odat, o‘zbek xalqi, matbaa.

В статье рассматриваются этнографические вопросы в нескольких работах Исаак-хана Тора Ибрата. В частности, в таких произведениях, как “Мезон уз-Заман”, “Тарихи Фергана”, “Джоме уль-хутут”, “великолепный уль-бульдон” говорится об историко-географическом положении, языке, образе жизни и обычаях территорий. Каждая работа написана с разным подходом и в разном духе.

Ключевые слова. Этнографическое, историко-географическое положение, “Мезон уз-Заман”, традиция, узбекский народ, печать.

The article, ethnographic issues in several works of Isaac Torah Hebrew are prominent. In particular, through such works as “Mezon uz-Zamin”, “Historia Fergana”, “Jome ul-khutut”, “Marvelous ul-buldon”, the historical geographical location, language, lifestyle and customs of the regions are discussed. Each work is written in a different approach and a different spirit.

Key words. Ethnographic, historical-geographical location, “Meson uz-modern”, tradition, Uzbek people, printing house.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak. Bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”. Jadidlar faoliyati, ularning xalqni ma’rifatli qilishga qaratilgan harakatlari tug‘risida ko‘plab ma’lumotlar mavjud. Xususan, D.Alimova o‘z asarlarida bu haqida ma’lumotlar berib o‘tgan. Tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, uning shaxsiy kutubxonasida rus va o‘zbek tilidagi mahalliy gazeta, jurnal boylamlari va kitoblardan tashqari Rossiyada nashr etilgan “Niva”, “Literaturnaya Niva” kabi adabiy jurnallar boylamlari, “Turkcha-frantsuzcha lug‘at”, V.Nalivkin, M.Nalivkinalarning “Sartovsko-russkiy slovar”, “Russko-Sartovskiy slovar”, “Krat-Kaya istoriya Kokandskogo xanstva” asarlari, V.V.Bartold, V.V.Radlov, G.Vamberi kabi atoqli sharqshunos olimlarning o‘nlab asarlari bo‘lgan. Bular Ibratning Yevropa tillari va adabiyoti, rus va jahon sharqshunoslarining ilmiy asarlari bilan qiziqqanligidan, ularni mukammal o‘rganganligidan dalolat beradi. Ishoqxon Ibrat ma’rifatparvar shoir, atoqli tilshunos, tarixshunos olim, ilk o‘zbek matbuotchilaridan biri, publitist va progressiv pedagogdir. U 1862-yilda Namanganga yaqin To‘raqo‘rg‘on tumanida bog‘bon oilasida tug‘ildi. U dastlabki ma’lumotni onasi Huribibi maktabida oldi va bu haqida uning o‘zi shunday deydi “avvalgi vaqtdagi mahalla maktabida banda o‘zum necha

yilda 3 adad muallimda o‘qib oxiri savodim chiqmay, keyin o‘z uyimizda joriy qizlar maktabida, volidayi marhumamda o‘qub savod chiqordim. Ikki sana qiblagohimda husnixat mashq etdim”,[1] so‘ngra 1878-1886-yillarda Qo‘qondagi Madrasai Muhammad Siddiq Tunqatorda tahsil ko‘rdi.

1887-1895-yillarda Ibrat chet el safarida bo‘ldi: Istanbul, Sofiya, Afina, Rim kabi Yevropaning Markaziy shaharlarida, Sharqning Qobul, Jadda, Makka, Kalkutta, Bombay kabi yirik shaharlarida istiqomat qildi. Safardan qaytgach, “Lug‘ati Sitti-as-sina” (1901), “Jome’ul xutut” (1913) ilmiy asarlarini, “Ilmi Ibrat” she’riy to‘plamini bosmadan chiqardi. Ibrat o‘qituvchi kadrlar tayyorlash, xotin-qizlarni ilm-ma’rifatga jalb qilishda faol qatnashdi hamda ijodiy ish bilan mashg‘ul bo‘ldi. Ibratni Andijon qamoqxonasiga olib ketish oldidan hovlisida o‘tkazilgan tintuv paytida ko‘pgina kitoblar daliliy ashyo sifatida mashinaga yuklangan. Qo‘lyozmalar hamda xorijiy mamlakatlardan keltirilgan kitoblar, fotosuratga tushiruvchi ashyolar 6-8 metr chuqurlik kavlatilib, ko‘mib tashlangan.

Yana shu narsa ma’lumki, Ibratning Parosmondagi bog‘iga o‘z davrining yetuk shoirlari yig‘ilishgan va she’rxonliklar qilishgan. Bunday suhbatlarda hattoki vodiyning ko‘zga ko‘ringan insonlari ishtirok etishgan deyishadi.

1. Ishoqxon Ibrat o‘z asarlarida o‘zbek xalqiga xos etnologik jarayonlarni ham tasvirlagan. Uning yirik tarixshunos olim sifatida xalqimiz tarixiga bag‘ishlangan eng yirik va keng qamrovli asari “Tarixi Farg‘ona” yilnomasidir. Muallif ushbu asarini yaratishda ko‘zda tutgan asosiy maqsadini shunday ifodalaydi: “Tarixi Farg‘ona” ni yozmoqdin maqsad izhori hunar yoki Musannif qatoriga kirmak yoki ta’mini tiriklik yo‘lida bo‘lmay balki Bani basharning tiriklik qilish, sanoat va ziroatlari, madaniyat va badaviyatlarini xalqlarga ko‘rsatmak bizdan keyin keladurgon o‘tganlarning turmush va qilmush va bilmush ishlaridan ibrat olsun” [2] deya ta’kidlaydi. Bu esa o‘z navbatida xalq o‘zligidan an’analarian ayirmagan holda rivojlantirish demakdir. Endi esa ushbu asardagi etnologik va etnografik jarayonlar qanday tasvirlanganligiga e’tibor qaratamiz.

“Farg‘ona mamlakati serhosil keng diyordir. Bog‘lari katta turli ne’matlarga to‘la. Unda havosi musaffoligi, suvlari mazzaligi, mevalari shirinligi, muqaddas mozorlari bilan mashhur O‘sh shahri bor. U yerda Baroka va Hanaf degan ikki muqaddas tog‘ bor. Barokaning yaqinida abroru aslaflarning mozorlari, Sulaymon bin Dovud (a.s.) ning vaziri Asaf bin Burayxo qabri joylashgan. Qutayba ibn Muslimning qabri esa unga (O‘shga) tegishli Gulcha qishlog‘ida. Silon Bopisid degan joyda lashkarboshilar va askarlar dafn qilingan ikki mozor bor. Aytishlaricha, xalifa Usmon ibn Affon buyrug‘i bilan Muhammad ibn Jarir boshchiligida 1700 sahoba va tobeinlar bu erga yuborilgan. Ularning barchalari shahid bo‘lib, shu erga dafn qilinganlar. Abdulloh bin Jabal qabri Quva va O‘sh shaharlari orasidagi Nov shahrida, Abdulloh bin Ali bin Husayn bin Ali bin Abi Tolib qabri esa Qo‘qonda, Sayhun yaqinida. Yana Beshariq va Elik Najr qadimda ulardagi qabrlari bilan mashhur edilar. Olloh Vuzjanddagi qishloqlarni ham obod aylasin”[3]. Asarning ushbu qismida dafn qilish bilan bog‘liq ya’ni shahid ketish va bunday odamlar nima sababdan shahid ketganligi va buni etnografik marosim sifatida tasvirlangan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

2.“Ajoyib ul-buldon” da masturdurki, Farg‘ona iborati har xonadur. Hazrat Iskandar zamonlarida aqsoi sharifga borgonlarida Farg‘ona yerida bir-ikki adad forsisondin muhojir bo‘lib kelib, o‘lturgon bechora dehqoni bodiyanishinlar bor ekon. Podshohga arzi ahvol qilmoq bo‘lib, peshkash uchun non-tuz o‘rnig‘a bisotlaridagi tovuqlarini pishurub non ilan hazrat Iskandarga tutgon ekonlar. Anda hazrat Iskandar savol qilib-

1 Is’hoqxon Ibrat.Mezon uz-zamon. I daftar, 36-bet

2 Is’hoqxon Ibrat . Tarixi Farg’ona. Qo’lyozma. O’zRFA SHI Qo’lyozmalar xazinasi , inv. 11080, 3-4betlar

3 Is’hoqxon Ibrat . Tarixi Farg’ona. –T., 2005 yil. 3 bet

durlarki: “Bu nimadur?” deb. Anda arz qilguvchi forsiylar javob beribdurlarki: “Murg‘u non”. Ya’ni tovuq ilan non deganlarida, podshoh Iskandar: “Arzlaringiz nimadur?” deganda, “Arzimiz: bul turgon joyimizni shahar qilib bersangiz ekon” degonlarida umarolari ichindan bir bofarosat sohibi aql kishini ta’yin qilib, shahar qilmoqqa amr qilgon ekonlar. Ul kishini oti Farg‘ona Bahodir ekon ul kishi necha yillar harakat qilib, har shahardan, har xonadan odam olib o‘tquzub, otini har xona deb qo‘yub, har xonani parg‘ona deb o‘qub va ham ul muassis kishini ismi(ni) qo‘ymoq bo‘lib, Farg‘ona shuhrat topgan, Ammoki alholda Marg‘inon derlar. O‘shal tovuq ilan non tutgan erdur Marg‘inon shahri ismi bo‘lib, Farg‘ona umumiy iqlimiga ismdur. Chunonchi, munga dalil Marg‘inonda podshoh Iskandar degan iydgoh mazor bordur. Ul kishi tushgan erlar budur” 4. Asarning ushbu qismi orqali oddiy avom xalq o‘z ishini bitirish uchun o‘zlari yashab turgan joyni alohida shaharga aylantirish uchun hazrat Iskandarga “pora” sifatida tovuq va non olib keladi (biz bundan bilshimiz mumkinki bu ham urf-odat bo‘lib kimnidir rozi qilish sifatida sovg‘a berilgan) va bunda bir aqlli amaldor bunga rozi bo‘lishiga ko‘ndiradi va bu amaldor nomiga Farg‘ona deb nomlashadi. Lekin keyinchalika bu voqealar sodir bo‘lgan hudud Marg‘ilon (tovuq va non) deb nomlanadi.

3.“Munda bir oz ilovai kalom bo‘ldi. Xayr ul-kalom, Farg‘ona bir mamlakati qadim va aholiyi nadim o‘lib, avvali vaqtlarda mo‘g‘uliyadan so‘ng ediki, har sanada necha ming so‘mlik mansuhot ifak, atlas va adras va beqasab va shohi atrof-aknofga torqolmoqda edi. Buxorodan to Hindiston va Arabistongacha bu Farg‘ona ashyolari joriy edi. Bu Farg‘ona ahlida bir xil kalimlari bo‘lurki, ismini Xidir shohi derlar. Qiymatda, rangda, mahkamlikda va tozalikda Koshg‘aru Qipchoqiy, Qirg‘iziy va Qoraqalpoqiy kalimlardan ikki chand bahoda sotilur. Rusiya davlatiga o‘tgandan so‘ng bu ishlar ham chandon rivojda bo‘lib, tijorati taraqqiy topdi. Bu mamlakat favokihot jihatida hammadan yaxshi. Ammoki bunga ahamiyat berub, bog‘dorlikni rivojlanduradurgon kishilar aholida kam, balki yo‘q desa bo‘lur. 1334 hijriyda bog‘dorlar ko‘rgan manfaat va foydalarini bilib, emdi yanadan bog‘dorlikka tushtilar. Bo‘lmasa, uzumni chiqorib, paxta ekkon edi. Erlari zarxez, Hinduston va Arabiston mevalaridan bo‘lak hamma meva mavjuddur[5]”. Asarning ushbu qismida esa Farg‘ona xalqi qanaqa matolardan kiyingani va nima mashg‘ulot bilan shug‘ullangani haqida bayon qilingan.

Isoqxon To‘ra Ibrat: “Salla o‘ragan mo‘ysafid yahudiyga ixlos asarida ham etnografik” Bizni xalqni umumiy hammasida bir xeyli zotiy fe’llaridur, o‘z shaharlarining libosidin boshqa mamlakat libosini ko‘rsalar, ichi bilan ishlari yo‘q, sallasi bo‘lsa, majusiyni ham musulmon deb ushlab, e’tiqod qilurlar. Ammoki, telfak yoki shilfa, yo fas yo bo‘lak xil to‘ffi kiygan bo‘lsa, ani Boyazid yoki shul kishi Bahouddin desangiz, albatta nafrati qilurlar. Bir kishi hajga borub, anda turub qolub, mururi zamoni musofirot arabcha ko‘ylak kiyib kelgan ekan, aning o‘g‘li nafrat qilib, “Otamiz hajdan buzulub kelibdur”, – deganlar. Bir vaqtlar Namangondan bir mo‘ysafid yahudiy katta salla o‘rab, mo‘ylabni oldurub, katta tasbih ushlab tog‘da, qirg‘izda Buxorodan yangi kelgan katta shayx deb shuhrat bo‘lub, ko‘b oqchalar jamlab turganda bir shinos kishi tanib: “Ey, faloniy yahudiy-ku”, deb, ul yahudiy: “Ey, sadag‘a shum, aybni oshkor qilma”, deb iltijo qilib qochgan ekan. Bizning xalqning ixlosi libosga, odamga emas. Ushbu hikoyasini tahlil qilar ekanmiz milliyligimiz aks etgan kiymlardan voz kechilib yangi zamonaviy kiyimlar va bosh kiyimlarga o‘tilgani bu esa xalq tomonida salbiy qaralgani haqida aytib o‘tilgan.

4.“Xatti Davrondan suryoniy chiqorib, suryoniydan ko‘fiy chiqorib, ko‘fiydan sulsni, sulsdan ta’liqni, suls ila ta’liqdan nasta’liq kitob xatimizdurki, 900-hijriyda Eronda shahri Tabriz degan baldada Xo‘ja Mir Ali Tabriziy chiqarganlar. Nasx ila ta’liqdan

4 Is’hoqxon Ibrat . Tarixi Farg‘ona. –T., 2005-yil. 3-4 bet

5 Is’hoqxon Ibrat . Tarixi Farg‘ona. –T., 2005-yil. 6 bet

murakkab uchun nasta’liq ism qo‘yganlar. Bu xat Arabistonda joriy emas. Hindiston va Buxoro, Turkiston, Farg‘ona, Koshg‘ar ahli Islom oralarida joriydur. Bunga sabab bu mulklarga Eron podsholarining ixtiloti bo‘lub, Buxoro bo‘laklarni olib, ul vaqtlarda joriy qilingan ekan”[6].

Ibrat yozuvlar tarixini o‘rganar ekan, tovush-harf yozuv tizimi birinchi marta Finikiya xalqlari tomonidan yaratilgan va boshqa qo‘shni xalqlar: Yahudiy, Suriya, Arab yozuvlari Finikiya yozuvlari asosida vujudga kelgan, degan ilmiy xulosaga keladi. Muallif ushbu asarida Arab yozuvlari tarixi, ularning rivojlanish evolyusiyasiga alohida to‘xtaladi.

5.“Mezon uz-zamon” asar nomiyoq e’tiborni tortadi - zamon tarozusi. Olim bu asarida zamondagi evrilishlar va ularga millatdoshlarining munosabati masalasiga diqqatni qaratadi. O‘z ta’biri bilan aytganda, bu mezon ila u o‘z asrini tortadi. Chunki, “avvalgi zamon va keyingi zamonlarning bo‘lak tarozusi bor”. Asar shartli ravishda to‘qqiz mezondan tashkil topgan bo‘lib oltinchi mezonda aholimiz orasida Xudo va payg‘ambar buyurmagan mashaqqat va sarflarga duchor bo‘lub, rasm-rusum, urf-odat deya ortiqcha sarf-harajatga yo‘l qo‘yishlik haqida fikr bildiriladi.

6.“So‘ngra janoza o‘qurlar. Isqotiy imomlar munda hozir bo‘lurlar. Mayyitni(ng) bechora sag‘iralari “Voy otam,voy onam” birla ovora, o‘shal kuni besh yuz sarf bo‘lsa, bir yil ichinda yana besh yuz sarf bo‘lur. Chunonchi, uch kundan so‘ng ma’raka ishlari, katta sarf bo‘lur. Mahalla va g‘ayri mahalla xotunlari kelib, azo qilodur. Har kim o‘lganini aytub yig‘lar. Uchinchi kuni etti degan ish. Xotunlarga munda ham yig‘isig‘i, tavajjuhgirlar kelur. Munda yana sarf. Panjshanba kuni kelib, shabi panjshanba degan osh emdi o‘likka.[7]” Asarda janoza marosimi tasvirlangan. Bunda bu marosimda qancha sarf harajatlar ketishi va bu harajatlar esa ortiqcha deya ta’riflanganini ko‘rishimiz mumkin.

7. To‘yda bo‘ladigan urf odatlar esa quyidagicha tasvirlanadi “To‘y o‘tib tamom bo‘lur. Avom xalqi faloniy yaxshi to‘y qildi, uloq, poyga, tamosholik to‘y bo‘ldi, demaklari bas. Shuhrat domi bularning niyatlariki, maktab, madrasa imdodiga dor ulaytom, dor ul-ojizin, musofirxona degan so‘z hech kimda yo‘q va so‘zlamaydurlar. Nimagaki, o‘zlari musofirotni ko‘rub, aning binosi xalqulloh foydasi ekanligi bularga malum emas. Jaridalarda o‘qub, eshitganlarga Amriko shahrida bir millaner boy necha million aqchasini jinni, devonalar foydasiga qo‘ygan ekan. Nimaga munday qildingiz? deganda, man jinnilardan ko‘b naf ko‘rgan edum, qaytarib turubman, degan ekan. Bular o‘z aqchalarini o‘ziga qaytarub, millat nafiga bir bino qilmoqlari daynlarining adosi edi. Yo‘q, varasaga qoldururlar. Halol-harom erlarga sarf qilur, hisobi ma’xazasiga ari javobgar bo‘ladurlar.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, Is’hoqxon Ibrat asarlarida etnografik ma’lumotlar barcha asarlarida turlichadir. Masalan, “Tarixi Farg‘ona” asarida Farg‘ona vodiysidagi hududlarni tasvirlagan bo‘lib, har bir hudud qanday vujudga kelganligi va bu hududlarda aholi nima bilan shug‘ullanganligi va qanday liboslar kiyganligini tasvirlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Is’hoqxon To‘ra Ibrat. Mezon uz-zamon. –T., 2005y.
2. Is’hoqxon Ibrat. Tarixi Farg‘ona. –T., 2005y
3. Jadidlar. Is’hoqxon To‘ra Ibrat. Yoshlar nashriyot uyi. –T., 2022-yil
4. Alimova D. Jadidchilik fenomeni. –T., 2022-yil
5. Is’hoqxon Ibrat “Lug‘ati sittati al-sina” 1901.

6 Is’hoqhon Ibrat “Lug’ati sittati al-sina” 1901.

7 Is’hoqxon To’ra Ibrat.Mezon uz-zamon. –T., 2005- yil. 10-11 betlar

O‘tkir BOZOROV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

ZARARLI ODATLARGA QARSHI SOG‘LOM TURMUSH TARZINING ROLI

Annotatsiya

Maqolada sog‘lom turmush tarzi masalalari, uning sog‘lom avlodni tarbiyalashdagi o‘rni tahlil qilinadi va ushbu kontseptsiya bilan bog‘liq bir nechta ta’riflar berilgan. Ushbu tushunchalar sog‘lom turmush tarzi va unga kiritilgan tushunchalar haqida ma’lumot berish orqali tahlil qilinadi. Sog‘lom turmush tarzi va salomatlik tushunchalari o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rib chiqiladi. Sog‘lom turmush tarzining O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosat bilan bog‘liq jihatlari ijtimoiy-falsafiy tahlil qilindi va tegishli fikrlar ilgari surildi.

Tayanch so‘zlar. Sog‘lom turmush tarsi, ijtimoiy-falsafiy, kontseptsiya, salomatlik, tarbiya.

В статье анализируются вопросы здорового образа жизни, его роль в воспитании здорового поколения, а также дается несколько определений, связанных с этим понятием. Эти концепции анализируются путем предоставления информации о здоровом образе жизни и связанных с ним концепциях. Рассмотрена взаимосвязь здорового образа жизни и представлений о здоровье. Аспекты здорового образа жизни, связанные с реализуемой в Узбекистане политикой, были проанализированы социально-философски и высказаны соответствующие мнения.

Ключевые слова. Здоровый образ жизни, социально-философская концепция, здоровье, образование.

The article analyzes the issues of a healthy lifestyle, its role in raising a healthy generation, and gives several definitions related to this concept. These concepts are analyzed by providing information about healthy lifestyle and the concepts involved in it. The relationship between healthy lifestyle and concepts of health is considered. Aspects of a healthy lifestyle related to the policy implemented in Uzbekistan were analyzed socio-philosophically and relevant opinions were put forward.

Key words. Healthy lifestyle, socio-philosophical, concept, health, education.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti Nizomiga muvofiq salomatlik-jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan osoyishtalik holatidir. Sog‘lom kishigina o‘zining asosiy vazifasi-mehnat qilish qobiliyati bilan shug‘ullana oladi, oilasini boqadi, jamiyat va davlatga foyda keltiradi. Bas shunday ekan, salomatlik har bir kishi uchun nemat, baxt saodat, mehnat unumdorligini, mamlakat iqtisodiy qudratini va xalq farovonligini oshirishning zaruriy shartidir. Sanalogiya-salomatlik haqidagi ta’limot bo‘lib, jamiyat salomatligini, sog‘liqni saqlash vazifalarini va ularni amalga oshirish yo‘llarini o‘rgatadi. Axoli salomatligiga tasir etuvchi yoki xavf tug‘diruvchi omillar xilma xilligi, shu bilan birga bir vaqtning o‘zida tasir ko‘rsatishi bilan belgilanadi.

O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda barkamol avlodni tarbiyalash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Barkamol avlodni tarbiyalash masalasi esa jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishga bevosita bog‘liqdir. Sog‘lom turmush tarzi jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan barcha o‘zgarish va yangilanish jarayonlarining asosini tashkil etadi. Jamiyat hayotida inson

salomatligini ta’minlash tabiiy atrof-muhit holati bilan bir qatorda, ijtimoiy hayot, inson tarbiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan jarayondir. Falsafiy ma’noda inson biopsixo-sotsial tizim bo‘lib hisoblansa, insonning biologik, psixologik va ijtimoiy salomatligini ta’minlash jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish asosida amalga oshiriladi.

Yoshlarimizni jismoniy sog‘lom, ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash uchun besh muhim tashabbus doirasida ko‘plab stadionlar, suv havzalari, sport majmualari va saroylari barpo etilmoqda, deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Eng muhimi, farzandlarimiz o‘rtasida sport bilan muntazam shug‘ullanadigan, sog‘lom turmush tarzini o‘z hayotiy maqsadiga aylantirgan yigit-qizlar safi kengayib bormoqda. Sog‘lom turmush tarzi – bu insonning xatti-harakatlarining individual tizimi bo‘lib, unga haqiqiy muhitda (tabiiy, texnogen va ijtimoiy) jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik va uzoq umr ko‘rishni ta’minlaydi. Sog‘lom turmush tarzi fiziologik va ruhiy jarayonlarning normal borishi uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratadi, bu turli kasalliklarning ehtimolini kamaytiradi va insonning umr ko‘rish davomiyligini oshiradi. Sog‘lom turmush tarzi bizning maqsad va vazifalarimizni amalga oshirishga, rejalarimizni muvaffaqiyatli amalga oshirishga, qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Insonning o‘zi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan va mustahkamlangan yaxshi sog‘liq, unga uzoq va quvonchli hayot kechirishga imkon beradi. Salomatlik har bir insonning, umuman, butun jamiyatning bebaho boyligidir. Inson salomatligini asrash va mustahkamlash, qolaversa, uzoq umr ko‘rishning garovi sog‘lom turmush tarzi ekanligi bugun barchaga ayon haqiqat. Zero, har birimiz, eng avvalo, o‘z sog‘lig‘imizni o‘ylashimiz darkor. Ana shunda xotirjam va farovon hayot kechirgan, ko‘plab asoratli xastaliklarning oldini olgan bo‘lamiz.

Olimlarning fikricha, sog‘lom turmush tarzi olti asosiy shartga amal qilishga asoslanar ekan, – dedi N. Sagdullayeva. Ulardan:

Birinchisi, to‘g‘ri ovqatlanish bo‘lib, kundalik iste’mol qilinadigan oziq-ovqatlarni organizmning fiziologik, biologik talablari asosida tanlash va iste’mol qilishdir.

To‘g‘ri ovqatlanish shunday tashkil etilishi kerakki, u o‘zining fizik, kimyoviy hamda biologik xususiyatlari bilan inson tanasiga og‘irlik qilmasin, aksincha, tez va oson hazm bo‘lib, organizmni kerakli ozuqaviy moddalar bilan ta’minlasin.

Ikkinchi shart, doimo harakatda bo‘lish. Kishi kundalik hayotda jismoniy mashqlar, sport o‘yinlari, badanni chiniqtiruvchi muolajalar bilan ko‘proq shug‘ullansa, organizmdagi fiziologik, biologik jarayonlar faollashadi. Natijada, kayfiyat ko‘tarilib, ishchanlik qobiliyati ortadi. Shubhasiz, bu salomatlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga egadir.

Uchinchi shart, kun tartibi va ishni biologik rejim asosida tashkil qilish. Koinotda tabiiy hodisalar ma’lum bir tartib asosida takrorlanadi. Xususan, quyoshning har kun ma’lum vaqtda chiqishi va botishi, yil fasllarining har yili takrorlanishi tabiatdagi barcha harakatlar ma’lum bir tartibga bo‘ysunishidan dalolatdir. Va inson ham bundan ustasno emas.

Misol uchun, inson tanasidagi faollik kunduzi ortadi, kechasi susayadi. Shu bois ham ish kuni, dam olish vaqti to‘g‘ri rejalashtirilgan bo‘lishi kerak.

To‘rtinchi shart, ruhiy osoyishtalikni ta’minlash. Ma’lumki, bizning tanamiz, ichki a’zolar faoliyati asab tizimiga bevosita daxldor. Ularning me’yoriy faoliyati ruhiy holatimiz, kayfiyatimizni belgilaydi. Shu ma’noda huda-behudaga jizzakilik qilmay, yaxshi narsalar haqida o‘ylab, oqilona fikrlash, yomonliklardan tiyilish, nafsga erk bermaslik, xushfe’l, xushmuomala bo‘lish sog‘liqni saqlash va mustahkamlashning garovidir.

Talabaning sog‘lom hayot tarzini chekish, alkogol ichimliklari va giyohvand moddalarni iste’mol qilishdan qatiyan voz kechishsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ular sog‘liqni

va ishchanlikni eng xavfli dushmanidir. Yuqoridagi holatlar ish va ijodiyotga manfiy ta'sir qiladi, natijada turli kasalliklar va ijtimoiy turmush tarzi tushib ketish holatlari kelib chiqadi. Bu esa odam, uning oilasi va butun jamiyat uchun og'ir asoratlarga olib keladi.

Chekish. Tamaki chekish organizm uchun ehtiyoj emas. Odam ichkilik ichishga qanday o'rganib qolsa, chekishga ham xuddi shunday o'rganib qoladi. Chekish jarayonining o'zi maza matrasini bilish va segareta, papirosni so'rishdan tarkib topadi. Tamaki tutuni chekuvchiga ma'lum bir lazzatlanish hissini beradi. Odam ichkilik ichganida va to'yib ovqat yeganidan keyin odatda chekish istagi kuchliroq bo'ladi. ba'zan odamlar bir chekib olinsa, oilaviy hayot, ishdagi ko'ngilsizliklar, diqqatvozlik bir qadar nari ketgandek bo'ladi deb o'ylashadi. Tamaki tutunida juda kuchli narkotik modda-nikotingina emas, balki uglerod (II) oksid vodorod sulfid va boshqa birikmalar ham bor. Biroq tutundagi organizmga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy modda nikotindir. Odam shu moddaga o'rganib qoladi. Odam chekish munosabati bilan qilinadigan ma'lum xatti-harakatlar: sigaretani ezish, alohida bir tahlitda tutun chiqarish, segaretani ushlashga ham o'rganib qoladi. Chekish ta'siri ostida qon tarkibi o'zgarib, undagi eritrotsitlar soni kamayadi, tomirlar chekmaydigan odamlardagiga qaraganda ancha tezroq qaribqoladi, o'pka raki uchraydi.

Tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish inson sog'lig'i uchun xavfli hisoblanadi. Tamaki chekuvchi insonning o'z sog'ligigagina salbiy ta'sir qilib qolmay, balki yon-atrofdagi uni o'rab turgan kishilarga ham zararli hisoblanadi.

Chekish-bu zararli va xavfli odat hisoblanadi. Ba'zi bir insonlar chekish aqliy va xavfli odat hisoblanadi. Ba'zi bir insonlar chekish aqliy va ish qobiliyatini oshiradi deb hisoblaydi. Ba'zi olib borilgan natijalar shuni ko'rsatdiki, tamaki boshmiya faoliyatiga ta'sir etib, narv hujayralari faoliyatining susayishiga olib keladi, yana nerv tolalarini qo'zg'alish holatiga keltirish uchun, tamaki iste'mol qilishga to'g'ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: O'zbekiston, 2019. – 400 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: "O'zbekiston", 2020. – 400 b.

3. Arziqulov R.U. Sog'lom turmush tarzi asoslari. T.; I-II jild. 2005.- 256, 245 bet.

4. Брехман И.И. Валеология – наука о здоровье. – М.: Физкультура и спорт, 1988. – С. 108.

5. Вайнер Э.Н. Валеология. – Учебник для вузов. М. Флинта: Наука, 2002. - 416 с.

6. Искандаров Т.И.. Исаханов В.И. Здоровый образ жизни: восточные традиции и современность. – Т., 1989. – С.118. 5. Kolbanov V.V.. Boshlang'ich maktablarda valeologik ta'lim.// J. Boshlang'ich maktab. №4, – M.: 1999 y.

Baxtiyor ABDULLAYEV,
Guliston davlat pedagogika instituti

O‘QITISHNING INNOVATSION USULLARINI TA’LIM JARAYONIGA JORIY ETISH ORQALI O‘QUVCHILARDA FIKRLASH FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy o‘qish usullari asosida o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini shakllantirish va kreativ sifatlarni faollashtirish metodikalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada zamonaviy o‘qitish usullari asosida o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini va shaxsiy kretiv sifatlarni faollashtirishning ijodiy o‘qitish usuli muhokama qilingan.

Tayanch so‘zlar. Ta’lim jarayoni, muammoli o‘qitish, fikrlash faolligi, tajriba, kuzatish, xulosa chqarish.

В статье важное значение приобретает разработка методик формирования интеллектуальных способностей учащихся и активизации творческих качеств на основе современных методов обучения. В статье рассмотрен творческий метод обучения активизации интеллектуальных способностей учащихся и личностно-творческих качеств на основе современных методов обучения.

Ключевые слова. Учебный процесс, проблемное обучение, мыслительная активность, опыт, наблюдение, заключение.

The article emphasizes the formation of students ‘ intellectual abilities on the basis of modern reading methods and the development of techniques for activating creative qualities. The article discusses the creative teaching method of activating students’ intellectual abilities and personal cretive qualities based on modern teaching methods.

Key words. Educational process, problem teaching, thinking activity, experience, observation, conclusion.

Umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturida maktab o‘quvchilarga bilim berishda ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish orqali mamlakatimiz iqtisodiy jihatdan dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga kirishida, ya’ni iqtisodiyot, fan va texnika yo‘nalishi bo‘yicha jahonda yetakchi davlatlarning biriga aylanishiga zamin yaratishda muhim bo‘lgan strategik sharti ekanligi ta’kidlanilgan.

Mamlakatimizda ta’lim sohasini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan me’yoriy hujjat (Davlat ta’lim standarti, o‘quv reja, fan dasturi va boshqa)larda jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichiga ustoz va shogird o‘zaro harakatlarining har xil o‘qitish usullariga e’tibor qaratilganligi hamda o‘quv jarayonini faollashtirish, zamonaviy o‘qitish usullari asosida o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini va shaxsiy kretiv sifatlarni faollashtirish yo‘llarini izlash zarurati uqtirilgan.

Tarixan o‘qitish usullari haqida so‘z yuritiladigan bo‘lsa, didaktikada o‘qitishning dogmatik turidan so‘zli-ko‘rgazmali (an’anaviy) va undan esa rivojlantiruvchi o‘qitish turiga izchil o‘tish yuz bergan. Rus olimasi N.F.Talizina ana’naviy ta’limni axborot beruvchi, ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi yaqindan ta’sir qilish doirasida, dogmatik va boshqaruvga asoslanmagan ta’lim sifatida ta’riflaydi. “Rivojlantiruvchi o‘qitish” iborasi ilmiy pedagogik apparatga V. V. Davidov tomonidan kiritilgan. Rivojlantiruvchi o‘qitish naza-

riyasi ilk bor I. G. Pestalotssi, L. S. Vigotskiy va boshqalarning ishlarida o‘rganilgan. Bu an’anaviy o‘qitish (izohlovchi-namoyish) usuli o‘rniga kelgan yangi rivojlantiruvchi faol-faoliyatli o‘qitish turi bo‘lib, unda o‘quvchi shaxsini rivojlantirish qonuniyatlari keng inobatga olingan. Rivojlantiruvchi o‘qitish (muammoli o‘qitish) usuli o‘quvchilarda aqliy va eng avvalo ijodiy tafakkurini, mustaqil o‘rganish faoliyatiga kirishishda muhim ahamiyat kasb etadi. 1-jadvalda turli ko‘rinishdagi dars turlarida bilim olishning o‘ziga xos jihatlari keltirilgan.

1-jadval

Dars turi	Dars mohiyati	O‘ziga xoslik
Dogmatik tur	Matnlar va qoidalarni yodlab olish	Reproduktiv tafakkurni rivojlantiradi
An’anaviy o‘qitish	Ko‘rgazmali vositalardan foydalangan holda tasviriy izohlash	Bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiradi
Rivojlantiruvchi o‘qitish	Muammoli vaziyatlarda bilimlarni qo‘llash uchun sharoitlar yaratish	O‘quvchilarning ijodiy tafakkuri rivojlantiriladi.

Bugungi kunda jahonda sanoat texnologiyasi keskin rivojlanib borayotgan bir davrda, dunyo iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan raqobatlar, yangi innovatsion go‘yalarning yetakchiligi, mehnat bozoriga va ta’lim oluvchilarga bo‘lgan munosabatlarning keskin o‘zgarishi o‘z navbatida ta’lim tizimiga nisbatan yangi talablarni qo‘ymoqda. Shu o‘rinda, bunday muammoning yechimi yo‘lida mamlakatimizning bir qator pedagog olimlar ta’lim oluvchlarda ijodiy fikrlashini hamda ularda izlanuvchanlik, tadbirkorlik, tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning shakl va usullarini ilshlab chiqish va amaliyotga joriy etish borasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishmoqda.

O‘quv fanlarini o‘qitish nazariyasi metodikasiga oid bo‘lgan o‘quv metodik adabiyotlar, monografiyalar, ilmiy tadqiqot ishlarida o‘qitish metodikasi uchta turidagi faoliyatlari keltirilgan. Bular: reproduktiv-algoritimli, tushuntiruvchi-qisman izlanishli va muammoli-izlanishli (evristik). Mazkur o‘qitish usullarining har biri o‘ziga xos jihatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Masalan, reproduktiv-algoritimli o‘qitish usulida o‘quvchi o‘qituvchining bayonini tinglab yoki o‘quv darsligida berilgan ma’lumotlardan sezgi organlari orqali nuxsa oladi. Mavzu mazmuniga tegishli bo‘lgan rasm, jadval, matematik ifodalar, namoyishli tajriba ishlarini bajarish algoritmi esa aksariyat holda o‘qituvchi tomonidan ishlanadi. Darsning bunday algoritmi ta’lim oluvchilarda reproduktiv-standart fikrlashini ta’minlaydi. O‘zbek tili izohli lug‘atida fiklash – biror narsaga nisbatan munosabatni, uni baholashni ifodalaydigan hukm u to‘g‘risida xulosa (muloha)za kelish imkoniyati, rus tili izohli lug‘atlarida fikrlash bilimlarni maqsadga yo‘naltirilgan holda qo‘llash, rivojlantirish va kengaytirish, tafakkurning mavjud aniq mahsuliga obyektiv mansub bo‘lgan ziddiyatlarni hal qilishga yo‘naltirilgan bo‘ladi deb tavsiflangan.

Izohlovchi-izlanish usullari o‘quvchilarning o‘quv materialini mustaqil tushinishi, uni o‘zgartirishi va o‘zlashtirishini nazarda tutadi. Shu asnoda reproduktiv-variativ tafakkurga turtki beriladi, erishilgan ko‘nikmalar asosida odatiy bo‘lmagan sharoitlarda vazifalarnit qo‘llash bilan bog‘liq malakalar shakllana boshlaydi. Mazkur bosqichda, o‘quvchilar o‘qituvchi hamkorligida o‘quv materialni muhokama qiladi va buning mahsuli yuzaga kelgan munozara jamoaviy izlanishni nazarda tutuvchi hamkorlik shakliga aylanadi.

O‘quvchining ijodiy tafakkuri, uning tashabbuskorligi va mustaqilligini rivojlantirishni o‘qituvchi muammoli-izlanish usuli yordamida amalga oshiradi. Muammoli-izlanishli o‘qitish yangi tushunchalarni mustaqil umumlashtirish bilan bog‘liq aqliy amaliyotlar xususiyatiga o‘zgarishlar olib kiradi. Bunday fikrlash mustaqil, ijodiy fikrlash deb ataladi. O‘quvchilar ijodkorlarga aylanadi. O‘qituvchi ular bilan birgalikda o‘rganish muammosini shakllantiradi, o‘quvchilar qo‘yilgan muammoni hal qilishga qaratilgan o‘ziga xos g‘oyalarni muntazam ilgari suradilar hamda yuksak tashabbuskorlik va mustaqillik namoyon etgan holda ularni hayotga tatbiq etish usullarini izlaydilar. Pedagog o‘quvchilarga ijodiy izlanish faoliyatini tashkil etishda o‘z-o‘zini mustaqil boshqarishga, imkon yaratadi va o‘quvchilar faoliyatining yakuniy natijalarini nazorat qilish bilan cheklanadi. Bu o‘quvchilarda, yuksak mas’uliyat, ijodkorlini va tashabbuskorlikni tarbiyalaydi.

Mazkur maqolada zamonaviy o‘qitish usullari asosida o‘quvchilarning intellektual (xayoliy tajriba o‘tkazish, intuisiya, muloqatga kirishish, olgan bilimlarini taqdimot qilish) qobiliyatlarini rivojlantirish va kreativ sifat (bilim olishga bo‘lgan qiziqish, divergent fikrlash)larni faollashtirish usullari va metodikasini yoritish maqsad qilingan. O‘quvchilarda ilmiy bilishning elementlari (kuzatish, tajriba o‘tkazish, xulosa chiqarish)ni “Bug‘lanish va kondensatsiya. Qaynash” mavzusi bo‘yicha tayyorlangan dars ishlanmasi misolida qarab chiqamiz. Darsni tashkil etish rejasida quyidagilarga e’tibor qilinadi.

1. O‘quv darsning maqsadi belgilanadi, ya’ni o‘quvchida bug‘lanish, kondensatsiya, qaynash, sublimatsiya va solishtirma bug‘lanish issiqligi, qaynash temperaturasi haqida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.

2. Darsni samarali olib borish uchun ta’lim resurslari darslik, mavzuga oid taqdimot, tarqatma materiallar, elektr isitkichi, probirka, idishga quyilgan suv, yopiq idishdagi suv, tarozi, termometr namoyish stoli ustiga qo‘yiladi.

3. Innovatsion metodlardan foydalanish: aqliy hujum, muammoli ta’lim va savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, namoyishli tajriba (tasavvurni rivojlantirish).

4. O‘quvchilar darsda erishishi lozim bo‘lgan yakuniy o‘quv natijalarga erishish. O‘quvchilar darsda erishishi lozim bo‘lgan yakuniy o‘quv natijalar mazmuni 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

O‘quv natijalar

Bilim, ko‘nikma, malaka	Kompetensiya (bilimlarni amalda qo‘llash)	Munosobatlar
Bilim – bug‘lanish jarayonini biladi; – kondensatsiya jarayonini biladi; – qaynash jarayonini biladi; – suyuqlikni bug‘lanishi uchun zarur bo‘lgan issiqlik miqdorini hisoblash formulasini biladi; – suyuqlikning solishtirma bug‘lanish issiqligining birligi va ma’nosini biladi; – suv va boshqa suyuqliklarning solishtirma bug‘lanish issiqligi qiymatini jadvaldan olishni biladi; – suvning qaynash va muzlash temperaturasini biladi.	– suvning suyuq holatdan bug‘ holatga o‘tishini va suv bug‘ining suyuq holatiga o‘tishi jarayonini tushuntiradi; – tarozi yordamida suyuqlikning massasini o‘lchaydi; – termometr yordamida suyuqlikning temperaturasini o‘lchaydi; – matematik formula yordamida m massali suyuqlikdagi issiqlik miqdorini va suyuqlikni to‘liq bug‘lantirish uchun zarur bo‘lgan issiqlik miqdorini hisoblaydi.	– atrofdagi moddalarni o‘rganishga qiziqish o‘yg‘otish; – namlikning saqlab qolish choralarini qidirish; – kundalik hayotimizda suvni tejashga undash.

Darsning bilimlarni faollashtirish va rag‘batlantirish (motivatsiya) bosqichi. Sinf o‘quvchilari ikki guruhga ajratiladi va guruhlarda muhokama qilinadi. Ikkita bir xil idish-


ga bir xil miqdorda suv solinib birinchisi qopqoq bilan berkitildi, ikkinchisi esa ochiq qoldirildi. Bir necha kundan so‘ng qanday hodisaning guvohi bo‘lasiz? O‘quvchilarning fikri tinglanadi va muhokoma qilinadi. O‘qituvchi o‘quvchilarni namoyish stol ustiga idishga quyilgan suv va og‘zi berkitilgan idishdagi suvga e’tiborini qaratadi. Qopqoq bilan berkitilgan idishdagi suv (jumladan suyuqlik, masalan atir) uzoq vaqt tursa-da, vaqt o‘tishi bilan uning miqdori o‘zgarmasligi, agar idish qopqog‘i ochiq holda qoldirilsa uning ichidagi suyuqlik miqdorining kamayishi hamda butkul yo‘qolish sababi tushuntiriladi. Bug‘lanish jarayoniga ta’rifi beriladi.

Yangi bilimlarni kashf etamiz. Darsning bu bosqichida o‘qituvchi bug‘lanish jarayonini atrofimizdagi yoki kundalik turmushimizda uchraydigan hodisalarga qarab tushuntiradi. Masalan, yomg‘irdan so‘ng hosil bo‘lgan ko‘lmakdagi suvning qurib qolishi, moddaning suyuq holatdan gaz holatga o‘tishinatijasida, ya’ni suyuqlikning bug‘lanib ketganini bildiradi. Harorat oshgan sari bug‘lanish tezlashadi. Buni suv qaynayotgan choynakdan chiqayotgan bug‘ misolida ko‘rish mumkinligi tushintiriladi. Bug‘lanish tezligi uch omilga bog‘liqligi (temperaturaga, shamol va suyuqlikning sirt yuzasiga) misollar asosida tushuntiriladi. Masalan, ho‘l kiyimni silkitib turilsa yoki ho‘l sochga shamol berilsa, suv quyilgan idish yuzasi katta bo‘lsa suv tez bug‘lanib ketadi. Darsning bu bosqichida kondensatsiya va qaynash jarayonlariga oid tushunchalar hamda kondensatsiya paytida ajralgan issiqlik miqdorini hisoblash ifodasi haqida ham ma’lumotlar beriladi.


O‘quv jarayonida o‘quvchilarga muammoli savol singari muammoli tajribaning tavsiya qilinishi ularda kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantiradi. Muammoli tajribani o‘tkazish uchun bir qator shartlar mavjud: tajribaning mazmuni o‘quvchilar tomonidan ilgari o‘rganilgan hodisalarga asoslanishi kerak; muammoli tajribani namoyish etishdan oldin maktab o‘quvchilarda mavjud bo‘lgan bilimlari asosida osonlik bilan tushuntirilishi mumkin; tajriba asosida yuzaga kelgan muammoli vaziyat nafaqat qarama-qarshilikni, balki o‘quvchini ajablantirishi lozim.

Birinchi tajriba. Muz bo‘lagini biror jismga bog‘lab probirkaga solamiz. Probirkaga sovuq suv qo‘yib uni tepa qismidan isitib turamiz. Probirkadagi suvning yuqori qatlami qaynaydi, lekin pastki qismi sovuq bo‘lib turadi hatto muz bo‘lagi erimaydi. O‘qituvchi o‘quvchilarning biriga probirkaning pastki qismini qo‘l bilan ushlab ko‘rishni tavsiya qiladi va uning javobi “probirkaning pastki qismi issiq emas” ekanligini aytadi.

Ikkinchi tajriba (muammoli). Probirkaga suv quyiladi. Suv ustiga bir bo‘lak muz qo‘yilib suv pastdan isitiladi. Probirkadagi suv qaynaydi va muz eriydi.



1-rasm



2-rasm

Bu ikki tajribadan so‘ng, o‘quvchilarning o‘zlari tushuntirishlari kerak bo‘lgan muammoli vaziyat yuzaga keladi: nima uchun probirka qizdirilganda suvning butun mas-

sasi pastdan qaynaydi va nima uchun yuqoridan qizdirilganda uning yuqori qatlami qaynaydi? Ma’lum va noma’lum bo‘lgan ma’lumotlar ajratiladi. Nima uchun birinchi tajribada probirkaning yuqori qismidagi suv qaynasada uning pastki qismi sovuq bo‘lib turibdi? Muz nega erimadi?

Aksariyat o‘quvchilar suvning issiqlik o‘tkazuvchanligi yomon degan xulosani berishadi. Bunda o‘quvchilar oldindan olingan bilimlari kuzatilgan hodisani tushuntirish uchun yetarli emasligini va “Konveksiya” mavzusi bo‘yicha muhokama qilinadigan yangi bilimlarni o‘rganish zarurligini tushunishga yordam beradi.

O‘qituvchi muammoli savolga javobni to‘ldiradi. Suv yuqoridan isitilganda konveksiya vujudga kelmasligi, suvning isigan qatlami birmuncha og‘ir bo‘lgan sovuq qatlamdan pastga tusha olmasligi hamda suv pastki qatlamining isishi uchun uzoqroq vaqt talab qilinishini tushuntiradi.

Darsning yangi bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash bosqichi. Tarqatma material tarqatiladi.

1. Bir kosada yog‘li, ikkinchi kosada yog‘siz sho‘rva bor. Ularning qaysi biri sekin soviydi? Bu jarayonni izohlab bering.

2. Suv qaynaganda ba’zi choynaklar hushtak chaladi, bu qaysi hodisaga asoslangan?

3. Suvni qizdirmasdan qaynatish mumkinmi?

O‘quvchilarning javobi tinglanadi. O‘quvchilarning javoblari to‘liq bo‘lmasa o‘qituvchi tomonidan to‘ldiriladi. Mavzuni mustahkamlash uchun masalalar yechiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturi. Fizika va astronomiya fanlari dasturi. (https://t.me/dastur muhokamasi – 2020)

2. Талызина Н.Ф. Педагогическая психология. – М. 1998.

3. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. – Москва. Педагогика. 1986. –240 с.

4. Maxmudova S.Yu. Fizikadan muammoli tajribalar bajarishda o‘quvchi o‘quv-ijodiy faoliyatini faollashtirishning uslubiy asoslari. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2008.–180 b.

5. Hamdamova N.M. O‘quvchilarning texnik ijodkorligini muqobil energiya manbalari qurilmalari vositasida rivojlantirish. Ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori dis. avtoreferati. Buxora. BDPU, 2021.–48 b.

6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliyev tahriri ostida.– Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. 1-jild. – 680 b.

7. Мижериков В.А. Словарь-справочник по педагогике– Москва: ТЦ. Сфера, 2004.–448 с.

Dilshod XAYRULLAYEV,
Shahnoza ShOYMARDONOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchilari

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA TALABALARNING KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANGANLIK DARAJALARINI DIAGNOSTIKALASH, O‘QUV-USLUBIY TA’MINOTINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli ta’lim muhitida ishlash uchun kasbiy sifatlarini shakllantirish jarayonini modellashtirish mezon-baholash apparatini qurish va ishlatish bilan sifatlarni ilmiy asoslangan baholashni ham, o‘z-o‘zini baholashni ham talab qiladi. Shuningdek maqolada ham raqamli ta’lim muhitida talabalarning kasbiy sifatlarini rivojlanganlik darajalarini diagnostikalashning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Tayanch so‘zlar. Raqamli ta’lim, modellashtirish, o‘qituvchi, baho, kasbiy sifat, o‘qituvchilar.

В статье моделирование процесса формирования профессиональных качеств будущих педагогов для работы в цифровой образовательной среде требует как научно обоснованной оценки качеств, так и самооценки с построением и использованием критериально-оценочного аппарата. В статье также говорится о важности диагностики уровней развития профессиональных качеств учащихся в цифровой образовательной среде.

Ключевые слова. Цифровое образование, моделирование, учитель, оценка, профессиональное качество, учителя.

The article modeling the process of forming the professional qualities of future teachers to work in a digital educational environment requires both a scientifically based assessment of qualities and self-assessment with the construction and use of a criterion-based assessment apparatus. The article also talks about the importance of diagnosing the levels of development of professional qualities of students in a digital educational environment.

Key words. Digital education, modeling, teacher, assessment, professional quality, teachers.

Nazariy tadqiqotlar, meyoriy, ilmiy-uslubiy va psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish “baholash” bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli ta’lim muhitida ishlash uchun kasbiy sifatlarni rivojlantirish darajalarini nazorat qilish usuli sifatida ishlaydi.

Pedagogik yo‘nalishlar bo‘yicha bakalavrlarni tayyorlash bo‘yicha meyoriy hujjatlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, talabalarning shaxsiy bilimlarini baholash faqat o‘quv va darsdan tashqari ishlar natijalari nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Nazorat kasbiy kompetensiyalarni o‘zlashtirish va tayyorgarlik (oraliq va yakuniy attestatsiya) darajalarida amalga oshiriladi. Raqamli ta’lim muhitida ishlash uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy sifatlarini o‘z-o‘zini baholash masalasi ko‘rib chiqilmaydi. Talaba kasbiy va pedagogik harakatlarni keyingi tahlil qilish, kasbiy muammolarni hal qilish va raqamli ta’lim muhitida ishlashda tanlangan ta’lim metodlari, shakllari va vositalarini yetarli da-

rajada baholash uchun o‘zini o‘zi baholash tajribasiga muhtoj.

Ko‘pgina tadqiqot ishlarida o‘z-o‘zini baholashdan foydalanish nuqtayi nazaridan o‘qituvchilarni tayyorlash masalasi taklif qilingan (R.G.Buyankin, L.I. Dudar, P.A.Yemetss, I.N.Zayseva, YE.V.Zamiralov, D.N.Mingazov N.I.Movchan, R.G.Romanova, O.A.Sokolova, M.V.Sokolovskaya, V.F.Sopin). Bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy sifatlarinini o‘z-o‘zini baholashning yetarli darajasiga tayyorlash pedagogika OTM tizimida yo‘q deb tan olingan.

O‘z kasbiy sifatlarini baholash vositasi sifatida o‘z-o‘zini baholashni o‘rganish mahalliy va xorijiy o‘qituvchilarning ishida yoritib berilgan (N.A.Barskaya, P.Y.Brel, I.V.Yegorov, I.S.Kon, I.D.Kseneva, S.B.Mironova, S.L.Rubinshteyn, A.V.Xutorskoy, Chiyeu Txi Xyung va boshqalar). Olimlarning fikr-mulohazalarida talabalarning o‘z-o‘zini baholashi, ularning imkoniyatlari, sifatlari, malakalari, kasbiy faoliyatdagi o‘rni va kasbiy-pedagogik faoliyatini o‘z vaqtida moslashtirish imkoniyatlari o‘xshashligi mavjud.

Bir qator mualliflar o‘z-o‘zini baholashni qilishni quyidagi tarzda belgilaydilar:

– shaxsning o‘z-o‘zini anglash shakli sifatida (V.A.Gorbacheva, V.F.Safin);

– o‘z kuch va imkoniyatlarini baholash (refleksiya), o‘z oldiga boshqa maqsad qo‘yish qobiliyati sifatida (N.V.Bely, L.I.Ruvinskiy, R.N.Mayzub);

– turli xil insoniy munosabatlarning subektiv sintezi sifatida (S.F.Buinova, I.P.Volkov);

– insonning o‘zini o‘zi baholash qobiliyatidagi shaxsiy ta’lim sifatida (A.V.Zaxarova, V.Klenovskiy);

– yo‘nalish va faoliyatni aks ettiruvchi kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlar sifatida (D.N.Mingazova, V.F.Safin).

M.N.Prozorova bo‘lajak mutaxassisning o‘zini o‘zi baholashining o‘rni, roli va ahamiyati nuqtayi nazaridan ta’rifni aniqlashtirishni taklif qiladi

1. O‘z-o‘zini baholash o‘z-o‘zini anglashning bir qismidir.

2. O‘z-o‘zini baholash va tushunish - dars sifati va ta’lim jarayoni natijalari o‘rtasidagi ta’lim bog‘liqligini aniqlash mexanizmi.

3. Boshqalar qatorida kasbiy sifatlarni bilish, ularning ijobiy siflatlarida qoniqish mavjudligi va ularni mustahkamlash zarurati, rivojlanmagan sifatlarga salbiy munosabat va yaxshi tomonga o‘zgarish istagi.

R.M.Maizub o‘z-o‘zini baholashni talabalarning ta’lim olishining muqobilligi nuqtayi nazaridan, ta’lim maqsadlarini belgilash, keyingi monitoring, o‘z ta’lim jarayonini, shu jumladan natijalarni baholash orqali ko‘rib chiqadi. Talaba tomonidan ularning harakatlarini baholash va o‘z-o‘zini baholashning obyektivligi, uchta jihatni hisobga olgan holda amalga oshirish mumkin:

1. Talaba va o‘qituvchi o‘rtasida kelishilgan o‘z-o‘zini baholash mezonlarining mavjudligi.

2. Talaba va o‘qituvchi o‘rtasida dialog (munozara) mavjudligi.

3. Talabaning baholash mulohazalarini isbotlash.

O‘z-o‘zini baholash, professionallik nuqtai nazaridan, bir qator oqibatlarga olib kelishi mumkin: o‘z yutuqlaridan qoniqish yoki norozilik, o‘z harakatlarini baholashning realligi va virtualligi, o‘z natijalariga tanqidiy yoki haddan tashqari baholangan munosabat.

Raqamli ta’lim muhitida ishlash uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish darajasini baholash muammosi mezonlar va ko‘rsatkichlarni tanlash

masalasi bilan bog‘liq. Dastlabki natijalarni bilmasdan turib, keyingi ishlarni rejalashtirish yoki kasbiy sifatlarni rivojlantirish jarayonini boshqarish mumkin emas. Binobarin, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy sifatlarini rivojlanganlik darajalari bo‘yicha mezonlar va ko‘rsatkichlarni ishlab chiqishning obyektiv ehtiyoji mavjud.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish asosida, bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli ta’lim muhitida ishlash uchun aniqlangan kasbiy sifatlari guruhlari asosida biz quyidagi mezonlarni aniqladik: motivatsion-emotsional, gnostik, operatsion va refleksiv.

“Mezon” D.N.Ushakovning izohli lug‘atidagi ta’rifga ko‘ra, biror narsani baholash, ta’riflash, tasniflash belgisidir. O‘z navbatida, indikator mustaqil konsepsiya bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchining raqamli ta’lim muhitida ishlash uchun tuzilgan kasbiy sifatlar guruhi mavjudligini ko‘rsatadi (P.I.Pidkasistga ko‘ra).

S.A.Mavrik “mezon” atamasining quyidagi talqinini taklif qildi - pedagogik voqelik omillari tasniflanadigan va baholanadigan belgi. Mezonning miqdoriy ifodasi ma’lum bir mezonga muvofiqlik darajasini diagnostika qilish uchun foydalaniladigan ko‘rsatkichlardir.

Raqamli ta’lim muhiti uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning rivojlangan kasbiy sifat darajalari dinamikasini aniqlash uchun ishlab chiqilgan mezon-baholash apparati quyidagi talablarga javob beradi:

– mezonlar raqamli ta’lim muhiti uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish dinamikasini aks ettirishi kerak (bilishni xohlash - bilim - bilimga ega bo‘lish - refleksiya);

– sifat va miqdor ko‘rsatkichlarining birligi;

– mezonlar va o‘rganilayotgan tizimning barcha komponentlari o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligi;

– mezonning baholash imkonini beradigan ko‘rsatkichlarning sifat xususiyatlarining mavjudligi.

Quyida raqamli ta’lim muhitida ishlash uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish mezonlarining xususiyatlari keltirilgan:

– kasbiy sifatlarni rivojlantirishning motivatsion-ehtiyojli mezoni, raqamdi ta’lim muhitida pedagogik faoliyatdan xabardorlik uchun motivatsiya darajasini, tanlangan faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini tushunish darajasini; talabalarning kelajakdagi o‘quv faoliyatiga qadriyatli munosabatini belgilaydi.

– kasbiy sifatlarni rivojlantirishning gnostik mezoni, talabaning raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak kasbiy faoliyati (kasb qiyofasi), nazariy BKMni shakllantirish, o‘quv materialini integratsiya qilish qobiliyati haqidagi g‘oyasini belgilaydi.

– kasbiy sifatlarni rivojlantirishning operatsion mezoni, talabalarning raqamli ta’lim muhitida ishlash uchun o‘zlarining kasbiy sifatlarini kasbiy faoliyat turlarida foydalanish bilan bog‘lash qobiliyatini aniqlaydi.

– o‘z-o‘zini baholash, raqamli ta’lim muhitida ishlash uchun kasbiy sifatlarni prognozlash va baholashni o‘z ichiga oladi, qo‘shimcha ravishda kasbiy faoliyatga tayyorligini baholash.

Raqamli ta’lim muhitida ishlash uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy sifatlari komponentlari o‘zaro bog‘liqdir. Har bir mezonning mohiyatini aniqlash asosida ularga mos keladigan ko‘rsatkichlar, darajalar va vositalar aniqlandi.

Raqamli ta’lim muhitida ishlash uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy sifatlarini

rivojlantirish mezonlari, ko‘rsatkichlari, darajalari va vositalari.

Mezonlar	Ko‘rsatkichlar	Darajalar	O‘lchov vositalari
Motivatsion-ehtiyojli	Raqamli ta’lim muhiti doirasida pedagogik faoliyat uchun motivatsiyaning mavjudligi, kasbga doimiy qiziqish, muvaffaqiyatli kasbiy rivojlanish istagi.	Yuqori-raqamli ta’lim muhiti doirasida pedagogik faoliyat uchun yuqori darajadagi motivatsiya, kasbga doimiy qiziqish, raqamli resurslardan foydalangan holda muvaffaqiyatli malaka oshirish istagi.	1. Raqamli ta’lim muhitida ishlash uchun “o‘qituvchi” kasbini olish motivlari so‘rovnomasi. 2. “Pedagogika” OTMga kirish uchun motivatsiya so‘rovnomasi. 3. O‘zgartirilgan metodologiya “o‘z-o‘zini qabul qilish darajasi”
		O‘rtacha- raqamli ta’lim muhiti doirasida pedagogik faoliyat uchun motivatsiyaning mavjudligi, raqamli muhitda kasbga qiziqish, raqamli resurslardan foydalangan holda muvaffaqiyatli kasbiy rivojlanish istagi.	
		Past raqamli ta’lim muhiti doirasida kasbiy faoliyat uchun motivatsiyaning yetishmasligi, raqamli muhitda kasbga zaif qiziqish bildirilganligi, kasbiy rivojlanish istagi yo‘qligi.	
Gnostik	O‘quv fanlarini rivojlantirish natijalari, amaliy mashg‘ulotlar, bo‘lajak o‘qituvchining raqamli ta’lim muhitida ishlash uchun asosiy ko‘nikmalarini bilish	Yuqori- raqamli ta’lim muhitda kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan yuqori darajadagi bilim: “o‘qituvchi” kasbining o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq tushunish, kasbiy vazifalarni tushunish	1. Test savollari 2. O‘quv faoliyati attestatsiyasi 3.Amaliy ishlar
		O‘rtacha - raqamli ta’lim muhitida kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilimning o‘rtacha darajasi	
		Past - kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan past bilim darajasi	
Operatsion	Kasbiy sifatlarni o‘zlashtirish darajasi	Yuqori-raqamli ta’lim muhitida ishlash uchun kasbiy sifatlarni rivojlanishining yuqori darajasi.	1. Auditoriyadan tashqari ishlar 2. Kasbiy sifatlar monitoringi
		O‘rtacha-raqamli ta’lim muhitida ishlash uchun kasbiy sifatlarni rivojlanishining o‘rtacha darajasi.	
		Yuqori-raqamli ta’lim muhitida ishlash uchun kasbiy sifatlarni rivojlanishining past darajasi.	

Refleksiv	Raqamli ta'lim muhitida kasbiy sifatlarni rivojlanganligini o'z-o'zini baholash	Yuqori (haddan tashqari) –raqamli ta'lim muhitida ishlash uchun o'z kasbiy sifatlarini, turli pedagogik vaziyatlarda talaba tomonidan qobiliyat va fazilatlarni ortiqcha baholash.	1. O'z-o'zini baholash kartalari 2. O'z-o'zini baholash metodikalari
		O'rtacha (yetarli) – raqamli ta'lim muhitida ishlash uchun uning kasbiy sifatlarini baholashning o'rtacha darajada rivojlanganligi	
		Past – raqamli ta'lim muhitida ishlash uchun uning kasbiy sifatlarini baholashning past darajada rivojlanganligi	

Raqamli ta'lim muhitida ishlash uchun bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish darajasini o'lchash uchun pedagogik hodisalarni obyektiv baholash va o'z-o'zini baholash imkonini beradigan mezonlarga asoslangan baholash vositalaridan foydalanilgan:

– raqamli ta'lim resurslaridan foydalangan holda o'quv va darsdan tashqari ishlar jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning faoliyatini pedagogik kuzatishlar;

– bakalavrlarning auditoriyadan tashqari faoliyati natijalarini monitoring qilish;

– rivojlangan nazariy BKM diagnostikasi va bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini kuzatish;

– raqamli ta'lim resurslaridan foydalangan holda talabalar faoliyati mahsulotlarini tahlil qilish (tadqiqot, loyihalash, kasbiy-pedagogik).

Ishlab chiqilgan mezonlar, ko'rsatkichlar va o'lchov vositalari bo'lajak o'qituvchilarning raqamli ta'lim muhitida ishlash uchun kasbiy sifatlarni rivojlanishining uchta darajasini ajratib ko'rsatishga (yuqori, o'rta va past) imkon berdi. Bo'lajak o'qituvchilarning o'z-o'zini baholashini o'lchash uchun darajalar ekvivalenti: haddan tashqari, yetarli va past. Har bir mezon o'z baholash va o'z-o'zini baholash vositalariga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiton Pespublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalarni tasdiqlash to'g'risida"gi 343-sonli qarori. https://lex.uz/dos/361387

2. O'zbekiton Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha Davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 124-sonli qarori. https://lex.uz/dos/2165717

3. O'zbekiton Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-maydagi "2013-2016 yillarda ta'lim muassasalarining chet tillari kabinetlarini zamonaviy axborot-kommunikasiya, o'qitishning texnik vositalari va anjomlari bilan jihozlashni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 143-sonli qarori. https://lex.uz/dos/2175837

4. O'zbekiton Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 31- dekabrdagi 352-sonli "Chet tilini bilish darajasini aniqlash va malaka sertifikati berish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 352-sonli qarori. https://lex.uz/dos/2314783

Gulnora NURULLAYEVA,
“Turon universiteti” Nodavlat oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi

TA’LIM SIFATINI BAHOLASHDA XALQARO TADQIQOTLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada xalqaro baholash dasturi talablari va ularni ta’lim tizimiga joriy etish haqida so‘z yuritiladi. PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, EGRA va EGMA xalqaro baholash dasturlarining muhim belgilari xorijiy olimlar fikrlariga, ilmiy-tadqiqot ishlariga tayangan holda ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Ta’lim tizimi, xalqaro baholash dasturlari, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, EGRA va EGMA, xorijiy tajribalar, ta’lim sifatini baholash milliy markazi, kasbiy kompetentlik, o‘qish savodxonligi, tushunish darajasi.

В статье рассматриваются требования международной программы оценки и их внедрение в систему образования. Выявлены существенные признаки международных оценочных программ PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, egra и EGMA с опорой на мнения зарубежных ученых, научно-исследовательские работы.

Ключевые слова. Система образования, международные программы оценки, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, egra и EGMA, зарубежный опыт, Национальный центр оценки качества образования, профессиональная компетентность, грамотность чтения, уровень понимания.

The article will talk about the requirements of the International Assessment Program and their introduction into the educational system. Important signs of the international assessment programs PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, EGRA and EGMA are revealed, relying on the opinions of foreign scientists, research work.

Key words. Education system, international assessment programs, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, EGRA and EGMA, foreign experiences, National Center for quality assessment of education, professional competence, reading literacy, level of understanding.

Hozirda yurtimizda yuz berayotgan keskin yangilanish va tub o‘zgarishlar xalqimiz hayotidagi hamma sohalarni globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari, yangicha qarashlar, tushunchalar va munosabatlar bilan qayta ko‘zdan kechirishni talab qilmoqda. Bugungi kunga kelib butun dunyo bo‘ylab har bir sohada globallashuv va integratsiya jarayonlari ro‘y bermoqda. Shu qatorda ta’lim ham davlat siyosatining ustuvor sohasiga aylanmoqda va ta’limni zamonaviy innovatsion g‘oyalar asosida rivojlantirish bo‘yicha islohotlar olib borilmoqda.

Hayotimizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar ta’lim tizimiga ham yangicha innovatsion yondashuvni, ta’lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini yanada tezlashtirishga asos bo‘lmoqda. Yurtimizda ta’lim sifati va samaradorligini oshirish uchun xorij tajribalarni o‘rganish, tizimga xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, tizimda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro loyihalarni o‘zimizga joriy qilish, jahon talablariga javob bera oladigan milliy baholash tizimini qo‘llash muhim sanalmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

Ta’kidlash joizki, o‘quv kursi, talabalarning tayyorgarlik darajasi va boshqa omillarni hisobga olgan holda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning o‘ziga xos usullari va shakllari o‘qituvchining ijodiy faoliyati jarayonida belgilanadi, shuning uchun bu tavsiyalar da’vo qilmaydi. universal bo‘lish. Ularning maqsadi o‘qituvchiga mustaqil ishni tashkil qilish uchun o‘z ijodiy tizimini shakllantirishga yordam berishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хуторской А. В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты: доклад на отделении философии образования и теории педагогики РАО 23 апр. 2002 г. [Электронный ресурс] / А. В. Хуторской; Центр “Эйдос”.

2. http://eidos.ru/journal/2002/0423.htm

3. Власенко А.А., Соболева Н.В., Соболев С.В., Петряева И.Ю. роль самостоятельной работы в учебном процессе студента института физической культуры, спорта и туризма сфу // Современные проблемы науки и образования. – 2014. – № 5.

4. Коваль И.В., д.соц.н., доцент, кафедра теории и методики медико-биологических основ и БЖ, Красноярский государственный педагогический университет им. В.П. Астафьева, г.Красноярск.

Nozima MAXAMADJANOVA,
A.Avloniy nomli pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti doktoranti

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA MASOFAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada hozirgi davrda mamlakatimizda ta’limning sifatini oshirish, raqobatbardoshlik, o‘quv dargoxlari menedjmenti orqali o‘qituvchilar faoliyati boshqaruv jarayoniga ochiqlik va shaffoflikni kiritish bo‘yicha orqada qolishga sabab bo‘layotgan ta’limni raqamlashtirish masalalari va uning dolzarb muammolari o‘rganilmoqda. Yuqori sifatli ta’limga bo‘lgan talab ortib borayotgan davrda maktabni samarali boshqarishning ahamiyati juda aniq bo‘ldi. Har qanday muvaffaqiyatli ta’lim muassasasining asosi sifatida maktabni boshqarish tizimi nafaqat o‘quvchilarning ta’lim natijalariga, balki o‘quvchilar va o‘qituvchilarning butun ta’lim tajribasiga ta’sir qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar. Maktablar, ta’lim, pedagogik, raqobatbardoshlik, masofaviy boshqaruv, evolyusiya, malakali mutaxassislar.

В статье рассматриваются актуальные проблемы цифровизации образования, которые в настоящее время вызывают отставание в вопросах повышения качества образования, конкурентоспособности, внедрения открытости и прозрачности в управленческий процесс деятельности педагогов через управление учебными заведениями в нашей стране. В эпоху растущего спроса на высококачественное образование важность эффективного управления школой стала очень очевидной. Как основа любого успешного учебного заведения, система управления школой играет важную роль в влиянии не только на образовательные результаты учащихся, но и на весь образовательный опыт учащихся и учителей.

Ключевые слова. Школы, Образование, Педагогика, конкурентоспособность, дистанционное управление, эволюция, квалифицированные специалисты.

The article examines the current problems of digitalization of education, which currently cause a lag in improving the quality of education, competitiveness, and the introduction of openness and transparency in the management process of teachers through the management of educational institutions in our country. In an era of increasing demand for high-quality education, the importance of effective school management has become very obvious. As the foundation of any successful educational institution, the school management system plays an important role in influencing not only the educational outcomes of students, but also the entire educational experience of students and teachers.

Key words. Schools, education, pedagogical, competitiveness, distance management, evolution, qualified specialists.

Raqamlashgan asrga ishonchli o‘tish uchun zarur shart-sharoitlar va intellektual zaminni ta’minlash muxim omil bo‘lib, bunda “raqamli texnologiyalar”ga mos keladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Shunga ko‘ra, bu ta’lim tizimida ta’lim dasturlari, ta’lim va boshqaruv metodlari va tashkiliy shakllarini o‘zgartirish, raqamli vositalar va kommunikatsiyalarni raqamli muhit orqali ta’lim faoliyatiga keng joriy etish va ulardan foydalanish, odamlarga ta’lim berish kabi tub o‘zgarishlar zarurligini taqozo etadi.

Jahon bo‘ylab masofaviy boshqaruv bugungi raqamli aloqaga ega global ishchi kuchida tobora ommalashib borayotgan amaliyotga aylandi. Ushbu boshqaruv uslubining evolyusiyasi va tarqalishi texnologik taraqqiyot, mehnatga nisbatan ijtimoiy me’yorlarning o‘zgarishi, huquqiy tartibga solish kabi so‘nggi global voqyealar bilan katalizator bo‘ldi. Ayniqsa, 2020-yilning boshlanishi yana butun dunyoni ta’limni raqamlashtirish masalasiga murojaat qilishga majbur qildi. Bu qiziqish raqamlashtirish sohadagi muhim ilmiy va texnologik taraqqiyot, shuningdek, pandemiya paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. YuNESKOning raqamli transformatsiya bo‘yicha 2020-yilgi hisobotida qayd etilishicha, butun dunyo bo‘ylab o‘quvchilarning qariyb 89 foizi yoki 1,54 milliard bola, jumladan, 743 millionga yaqin qiz COVID-19 yopilishi sababli ta’lim va uni boshqarish raqamlashgan transformatsiya jarayonida alohida o‘rin tutadi. Bunga javoban, maktab boshqaruvi uchun raqamli platformalar ushbu qiyin paytlarda masofaviy o‘qitish va ta’lim uzluksizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynadi.

Maktab ehtiyojlarini to‘liq qondiradigan, maktabni masofaviy boshqarish tizimi (LMS – Learning Management System) xavfsiz, samarali, ishonchli va arzon maktab boshqaruv tizimini yaratish bugungi maktablarda muhim ahamiyatga ega. Uning asosiy maqsadi maktab ma’muriyati, o‘qituvchilari va xodimlari uchun maktabning bolalar va ota-onalar bilan o‘zaro munosabatlarini boshqarishdir. Amerika Qo‘shma Shtatlari va yevropada Google Classroom, Seesaw, Microsoft Teams for Education, Scoology ta’lim to‘plamining ajralmas qismi bo‘lib, kurslarni yaratish, o‘quv dasturlarini boshqarish, baholash va muhokamalarni qo‘llab-quvvatlaydi. Yevropada Moodle, Edmodo ma’muriyat, pedagogik xodimlar va ota-onalar bog‘lanishi va hamkorlik qilishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy tarmoq muhitini taqdim etadi. Ushbu platformalar o‘qituvchilar, talabalar va umumiy ta’lim landshaftining o‘zgaruvchan ehtiyojlarini qondirish uchun doimiy ravishda rivojlanmoqda.

Hozirgi davrda mamlakatimizda ta’limning sifatini oshirish, raqobatbardoshlik, o‘quv dargoxlari menedjmenti orqali o‘qituvchilar faoliyati boshqaruv jarayoniga ochiqlik va shaffoflikni kiritish bo‘yicha orqada qolishga sabab bo‘layotgan ta’limni raqamlashtirish masalalari va uning dolzarb muammolari o‘rganilmoqda. Shu borada ta’lim va uni boshqaruvi samarasini oshirish; ta’lim tizimlari murakkab o‘quv extiyojlarini qondiradigan pandemiyaga qarshi choralar bilan duch kelishganda maktab ta’limi jarayonini yo‘lga qo‘yish va uni boshqarish maqsadida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va Kundalik kompaniyasi tomonidan elektron platforma 2019-yilda yaratildi. Ta’lim sohasidagi yangiliklar bir nechta farmonlar asosida yaratilmoqda, jumladan: “O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini radikal isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-sentyabrdagi PQ-3151-sonli qarori, “O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini mazmun-metodik jihatdan jamiyat va ish bozori talablariga moslashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ-4300-sonli Qarori, “O‘zbekiston Respublikasida boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va sertifikatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-iyundagi PQ-4349-sonli Qarori, “O‘zbekiston Respublikasida ta’lim muassasalari infrastrukturasini yaxshilashtirish va ta’lim xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan davlat dasturini 2020-2024 yillarga rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-fevraldagi PQ-4665-sonli qarori, “O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan 2020-2022-yillarga davlat dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyuldagi PQ-4751-sonli Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-xuquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Raqamlashtirish jamiyat hayotining barcha sohalariga, jumladan, ta’lim sohasiga va boshqaruvga ham ta’sir ko‘rsatib, jamiyatning o‘zi va ijtimoiy munosabatlar rivojlanishining asosiga aylanmoqda. Respublikada raqamli industriyani jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida hududlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari strategik ishlar olib borilmoqda[9].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida raqamli ta’limni rivojlantirish, raqamli idora orqali menedjmentni yo‘lga qo‘yishni takomillashtirish, axborot xavfsizligini ta’minlash vazifalari oldinga surilgan. Mamlakatimizda ta’limning sifatini oshirish, raqobatbardoshlik, o‘quv dargoxlari menedjmenti orqali o‘qituvchilar faoliyati boshqaruv jarayoniga ochiqlik va shaffoflikni kiritish bo‘yicha orqada qolayotgan ta’limni raqamlashtirish masalalari va uning dolzarb muammolari o‘rganilmoqda. Ularga yechim topishda prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o‘z ma’ruzalarida qayta-qayta ta’kidlaganidek, O‘zbekistonni izchil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan biri AKT va raqamli texnologiyalarni keng joriy etishdan iborat. Prezident Sh.Mirziyoyevning 2020-yil yanvar oyida O‘zbekiston parlamenti va xalqiga Murojaatnomasida raqamli rivojlanish masalalariga markaziy o‘rinlardan biri berildi. Aynan shu davrda raqamli islohotlarning huquqiy asosini yaratgan fundamental hujjatlar qabul qilindi. Shu jumladan, O‘zbekiston Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-son qarori qabul qilindi. Ushbu hujjatda mamlakatimiz korxonalari va davlat xizmatlari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, IT-mutaxassislarini tayyorlash, IT-tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va boshqa ko‘plab dolzarb masalalar belgilab berilgan[8]. Muhim hujjatlar qatorida davlatimiz rahbarining 2020-yil 17-martdagi “Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini ham alohida ta’kidlash mumkin. Qaror bilan tasdiqlangan Rivojlanish konsepsiyasi va “Raqamli Toshkent” kompleks dasturi O‘zbekiston poytaxtini har tomonlama raqamli rivojlantirishga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli Farmoniga ko‘ra “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bu boradagi ishlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Keng ko‘lamli dasturiy hujjat iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari va hududlarini raqamli transformatsiyaga o‘tkazish bo‘yicha yo‘l xaritalarini o‘z ichiga oladi: mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda: ta’lim va uning boshqaruvi, davlat boshqaruvi, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish. Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan[7]

Maktab ta’lim sifatini rivojlantirish bo‘yicha Respublikamizda prezidentimiz boshchiligida ko‘plab farmon va loyihalar ishlab chiqilmoqda. Shulardan biri, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-sonli 2022 – 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida farmon bandalarida maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, maktab ta’limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, 2022 –2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur tasdiqlandi.

O‘zbekiston respublikasi maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Prezident qarori loyihasini e’lon qildi. Hujjatda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni tasdiqlash taklif etiladi. Konsepsiyada Maktabgacha va maktab ta’limi va maktab boshqaruvi sohasidagi mavjud muammolar sifatida mahalliy hokimiyat organlari maktablarga yordam ko‘rsatmasligi qayd etilgan. Hujjat loyihasida umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi metodik ta’minlashda kamchiliklar mavjudligi; darsliklarning o‘zgaruvchanligi tizimi mavjud emasligi; maktablarni moddiy-texnik jihozlash, moliyalashtirish borasida ham muammolar mavjud. Konsepsiya Maktabgacha va maktab ta’limi tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi, xujjatga ko‘ra, ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish, maktabgacha va maktab ta’lim tizimidagi tarkibiy o‘zgarishlar va sifatli ta’limdan teng foydalanishni ta’minlash rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi. Bolalarning kasb tanlash va kasbiy faoliyatini mustaqil rejalashtirish, talab qilinadigan zamonaviy kasblarni egallashga tayyorlash qobiliyatini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratilishi kutilmoqda. Konsepsiya doirasida maktabgacha va maktab ta’limtizimida o‘qituvchilar va rahbar xodimlarning rag‘batlantiruvchi ustamalaridan foydalangan holda, ularning faoliyati samaradorligi va zamonaviy mehnat intizomidan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini hisobga olgan holda mehnatga haq to‘lashning yangi tizimini joriy etish ko‘zda tutilgan. Ta’lim yutuqlarini baholashni xalqaro o‘rganish dasturi (PISA) doirasida qo‘llaniladigan ta’lim yutuqlarini baholash metodologiyasidan foydalangan holda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida sifatini baholashning milliy tizimi yaratiladi.

Hozirgi kunda, konsepsiya doirasida ta’lim muassasalarini, ayniqsa, chekka qishloqlarda joylashgan ta’lim muassasalarini resurs bilan ta’minlash sifatini oshirish, shuningdek, barcha o‘rta ta’lim muassasalarining Internet tarmog‘i ta’lim jarayoniga kirishini ta’minlash va axborot texnologiyalarini kompyuterlashtirish darajasini oshirish chora-tadbirlari, chekka qishloqlarda joylashgan umumta’lim muassasalarida pedagoglar mehnatining jozibadorligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish ko‘zda tutilmoqda. Konsepsiyani amalga oshirish natijasida O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta’lim maktablaridaning zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan, STEAM fanlarini hisobga olgan holda, axborotni yodlash va ko‘paytirishga emas, balki asosiy e’tiborga ega bo‘lgan yangi davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari joriy etilmoqda. Ushbu maktablarning natijadorligi maktab boshqaruvi va uning ma’muriyat faoliyatida olib boriladigan ishlar bilan uzviy bog‘liq. Ta’lim muassasalarining ma’muriy sohasi bir nechta rollar, mas’uliyat va munosabatlarning murakkab tarkibidir. Bular orasida di-

rektor o‘rinbosarining roli, maktab rahbariyati va sinflar o‘rtasida o‘tkazuvchi vazifasini bajaradigan o‘ziga xos va muhim mavqyega ega. Ko‘pincha yetakchilik, pedagogik tushuncha va boshqaruvning keskinligi bilan ajralib turadigan ularning funksiyasi maktabning ta’lim sifatiga sezilarli darajada ta’sir qiladi. Maktab rahbariyatining ta’lim sifatiga ta’siri haqidagi ilmiy ma’ruzalardan tortib, Prezident qaror va farmonlari hamda respublika bo‘yicha loyihalarni joriy etishda o‘z aksini topgan.

Ta’lim menedjmentida innovatsion yondashuvlarni isloh qilish bizning olimlarimiz tomonidan nazariy-amaliy bilimlar ilmiy ish va kitoblarida yoritilgan. R.Djuraev, S.Turg‘unovning “Ta’lim menedjmenti”da umumiy o‘rta ta’lim maktablarida muassasalarida boshqaruvi haqida maktabni boshqarishga zamonaviy yondashuvlar, yangilik kiritish va ularni ommalashtirish, innovatsiyaning asoslanganlik darajasi, ularning ahamiyatliligi, innovatsiyalarni vujudga keltirish, amaliyotga tatbiq etish va ommalashtirish faoliyatlari bilan bog‘liq. Innovatsion salohiyatiga ko‘ra yangiliklar; modernizatsiya, rivojlanish bilan bog‘liq bo‘lgan modifikatsion elementlarining yangi tizimga birikishini nazarda tutuvchi birikkan innovatsiyalar; o‘xshashlikka va umumiylikka ega bo‘lmagan radikal innovatsiyalar islohotlarning asosi sifatida belgilanadi. Pedagogik jamoa a’zolarini innovatsion jarayonga jalb etish alohida bir jamoa a’zosining faoliyatiga yoki butun jamoa faliyatiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Innovatsiyalarni tatbiq etishning natijaviyligini tekshirish ularning samaradorligini baholash masalalarni hal etishni talab etadi va bunga quyidagilar misol bo‘lishi ta’kidlab o‘tiladi: pedagogik jamoaning kasbiy mahorati o‘sishi; jamoada ijtimoiy-psixologik muhitning mustahkam va ijobiy xususiyatlari; ta’lim va tarbiya jarayonini yangilashga jamoaning tayyorligi; jamoaning ilmiy va ilmiy-metodik salohiyatini oshirishga moyillik; pedagoglar o‘rtasida axborotlar sifatining o‘sishi; o‘quvchilarni ta’lim tizimining turli bosqichlarida o‘qishni davom ettirishlari uchun tayyorlash sifati[1]

1900-yillardan hozirgi kungacha texnologiyaning rivojlanishi masofaviy ta’limni ta’lim tizimlashtirilganligi masofaviy (virtual) boshqaruvni ham yo‘lga qo‘yish imkonini berdi. yevropa kontekstida masofaviy boshqaruv amaliyoti madaniy me’yorlar, texnologiyani qabul qilish va qonunchilik asoslari kabi omillar ta’sirida turli mamlakatlarda farqlanadi. Misol uchun, Shimoliy va G‘arbiy yevropa mamlakatlari, shu jumladan Gollandiya, Shvetsiya va Germaniya masofadan ishlashni yuqori darajada qabul qilishini ko‘rsatdi. Ushbu mamlakatlar ko‘pincha ish va hayot muvozanatining kuchli madaniyatini va moslashuvchan ish tartibini rivojlantiradilar[2]

Aksincha, Janubiy va Sharqiy yevropa mamlakatlarida an’anaviy ofisga asoslangan ish keng tarqalgan bo‘lib qolmoqda va masofadan ishlash kamroq tarqalgan, ammo bu asta-sekin o‘zgarib bormoqda[3].

Mamlakatdan qattiy nazar, masofaviy boshqaruv o‘ziga xos mahorat va strategiyalarni talab qiladi. Menejerlar muntazam ravishda jismoniy aloqada bo‘lmagan jamoani boshqarishning murakkabliklarini yengib o‘tishlari kerak. Bu samarali muloqotni qo‘llab-quvvatlash, raqamli vositalardan foydalanish, jismoniy mavjudlikdan ko‘ra natijalarga e’tibor qaratish va masofaviy xodimlar o‘rtasida ishonch va avtonomiya tuyg‘usini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Yevropa Ittifoqining raqamli yagona bozor strategiyasi va umumiy ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi nizom masofaviy boshqaruv uchun zarur raqamli infratuzilmani qo‘llab-quvvatlaydi, samaradorlikni ta’minlash uchun noyob yetakchilik qobiliyatlari va strategiyalarini talab qiladi. Ushbu qonunlar chegaralar bo‘ylab uzluksiz onlayn aloqa va hamkorlikni osonlashtiradi, shu bilan birga ma’lumotlar maxfiyligi va xavfsiz-

ligini ta’minlaydi[4].

Masofaviy ish tendensiyasi kuchayishda davom etar ekan, masofaviy boshqaruv tashkilot boshqaruvining muhim qismi bo‘lishi mumkin. Masofaviy boshqaruv tizimlarini qo‘llash texnologik taraqqiyot, madaniy dinamika va qonunchilik asoslari kabi omillar ta’sirida turli mamlakatlarda farqlanadi. Bu erda uchta mamlakat – AQSh, Germaniya va Yaponiyadagi masofaviy boshqaruv tizimlarining tahlili mahalliy kontekstlarning ushbu tizimlarga ta’sirini ta’kidlaydi. Qo‘shma Shtatlarda masofaviy boshqaruv mamlakatning texnologik qobiliyatlari va mehnat madaniyatida moslashuvchanlik va avtonomiyaga e’tibor qaratilishi tufayli keng qo‘llanilgan. Twitter va Facebook kabi kompaniyalar masofaviy ishlashni qo‘llab-quvvatladilar va bu o‘z xodimlari uchun doimiy imkoniyatga aylandi[5]. Kuchli raqamli infratuzilma bilan masofaviy guruhlarni boshqarish uchun turli xil aloqa va hamkorlik vositalaridan foydalaniladi, masalan, Zoom, Class va Microsoft Teams. Biroq, ushbu model menejerlardan o‘z xodimlariga ishonch hosil qilishni talab qiladi, natijaga yo‘naltirilgan ish muhitini talab qiladi. Germaniyaning masofaviy boshqaruvga yondashuviga uning qattiq mehnat qonunlari va qoidalari va an’anaviy mehnat madaniyati ta’sir ko‘rsatadi. Mamlakat mustahkam texnologik infratuzilmaga ega bo‘lsa-da, to‘g‘ridan-to‘g‘ri, yuzma-yuz muloqot qilish va qarorlar qabul qilish uchun madaniy afzallik tufayli uzoqdan ishlashni to‘liq qo‘llashga hali ham qarshilik mavjud. Bu menejerlardan uzoqdan ishlashning afzalliklarini kuchli aloqa va qaror qabul qilish tuzilmalarini saqlash zarurati bilan muvozanatlashini talab qiladi. Yaponiyada madaniy me’yorlar va ish atrofidagi ijtimoiy talablar tufayli masofaviy boshqaruvni qabul qilish AQSh va Germaniyaga nisbatan sekinroq. Yaponiyaning mehnat madaniyati uzoq ish soatlari va ofisda jismoniy mavjudligini qadrlaydi, bu majburiyat va sodiqlik ko‘rsatkichlari sifatida ko‘riladi[6]

Mamlakatimizda masofaviy boshqaruvga o‘tish pandemiya paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Bu yil aprel oyining oxiriga kelib 188 mamlakatda maktablarning yopilishi, dunyo bo‘ylab o‘quvchilarning 90 foiziga ta’sir ko‘rsatganligi aniqlandi. Aynan shu sababli ta’lim sifatini ko‘tarish, uni boshqarish raqamlashgan transformatsiya jarayonida alohida o‘rin tutadi. Unga ishonchli o‘tish uchun zarur shart-sharoitlar va intellektual zaminni ta’minlash muxim omil bo‘lib, bunda “raqamli texnologiyalar”ga mos keladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Shunga ko‘ra, bu ta’lim tizimida ta’lim dasturlari, ta’limning metodlari va tashkiliy shakllarini o‘zgartirish, raqamli vositalar va kommunikatsiyalarni raqamli muhit orqali ta’lim faoliyatiga keng joriy etish va ulardan foydalanish, odamlarga ta’lim berish kadrlar tayyorlash sifatini oshirish kabi tub o‘zgarishlar zarurligini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Djuraev R., Turg‘unov S. “Ta’limda menedjment”. – T., 2006

2. Blok, M., Groenesteijn, L., Schelvis, R., & Vink, P. (2020). The effects of a corporate office concept on workers’ health and performance. Ergonomics, 63(3), 245-260.

3. Felstead, A., & Henseke, G. (2017). Assessing the growth of remote working and its consequences for effort, well-being and work-life balance. New Technology, Work and Employment, 32(3), 195-212.

4. European Commission. (2020). Shaping Europe’s digital future. Retrieved from https://digital-strategy.ec.europa.eu/en

Yu. DAMINOVA,
Qarshi davlat universiteti Phd falsafa doktori
M.X XURSANDOVA,
tadqiqotchi

AHOLINING ISH BILAN BAND BO‘LMAGAN QATLAMINI KASB HUNARGA O‘RGATISHNING ILMIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada katta yoshlilar ta’limi, andragogika va adragogik ta’lim tushunchalari, andragogik ta’limning ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik hususiyatlari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Aholini ish bilan band bo‘lmagan qatlami, katta yoshlilar ta’limi, andragogika, andragogik ta’lim, adragog, kompitentlik, kasbiy rivojlanish.

В статье рассматриваются понятия образование взрослых, андрагогика и андрагогическое образование, а также социально – психологические и педагогические аспекты андрагогического образования.

Ключевые слова. Образование взрослых, андрагогика, андрагогическое образование, компетентность, андрагог, профессиональное развитие.

The article is devoted to andragogics, education of adragogics. As well there is considering the issues of social – psychology and pedagogical aspects of andragogics.

Key words. Andragogy, providing andragogical education, competence, creativity, adult educators, professional development.

Har qanday mamlakatning barqaror taraqqiyoti uning raqobatbardoshligini ta’minlash ishchi kuchi bozorining tez o‘zgaruvchi ehtiyojlarini hisobga olgan holada aholini, ayniqsa ish bilan band bo‘lmagan qatlamini doimiy ravishda kasb-hunarga o‘qitish va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli, bugungi kunda O‘zbekiston uchun ish bilan band bo‘lmagan aholini o‘qitish va unga ta’lim berishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Sh. Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi so‘zlagan nutqida ta’kidlaganidek, “… migrantlar masalasi umum jahon muammosiga aylangan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash, ularni eng yangi istiqbolli kasb-hunarga o‘rgatish, buning uchun mamlakatimizda barcha shart-sharoit yaratish…” muhimligiga to‘xtalib o‘tdi.

O‘zbekiston faqat ta’limni rivojlantirib hamda eng muhimi bunga aholining barcha qatlamlarini jalb qilish orqali yuksak marralarga erishish mumkinligini inobatga olib, 2020-yil 23 – sentabrda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning yangi taxriri Prezident tomonidan imzolandi va kuchga kirdi. Mazkur Qonunning 2-bob (Ta’lim tizimi, turlari va shakllari) 19 – moddasi “Katta yoshlilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish” deb nomlangan bo‘lib, unga ko‘ra katta yoshlilarni o‘qitish va ta’lim berish butun umr davomida o‘qitishning markaziy tarkibiy qismi ekanligi ta’kidlandi. Ta’lim berish va o‘qitishning jamiyat hayotida va mehnat faoliyatida katta yoshlilarning ishtirok etishini ta’minlashga qaratilgan barcha shakllarni o‘z ichiga oladi, shuningdek rasmiy, norasmiy va informal o‘qitish jarayonlarining butun majmuini qamrab oladi.

Katta yoshlilar kimlar? Ma’lumki, raqobatga asoslangan bozor munosabatlari aholining ish bilan band bo‘lmagan qatlamini vujudga keltirib chiqaradi. Kuzatish natijalari shuni ko‘rsatadiki, aholining ish bilan band bo‘lmagan qatlamining aksariyatini katta yoshli kishilar tashkil etadi. Katta yoshli deganda yoshi 30 dan oshganlar, nafaqadagilar nazarda tutiladi. Ammo hozirgi kunda bu qatlamga o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan va mustaqil pul topishni boshlagan har qanday inson katta yoshli hisoblanadi, ya’ni bu toifaga ishni endigina boshlamoqchi bo‘lgan yoshlar ham, ma’lum bir mutaxasislikka ega o‘rta yoshlilar ham, yangi kasb hunarni o‘rganishni (garchi oliy ma’lumotli bo‘lsa-da) yoki o‘z kasbini o‘zgartirish (masalan: karyera uchun)ni xoxlovchilar ham, shuningdek aholining zaif qatlamlari, xususan ijtimoiy himoyaga muhtojlar, mehnat muxojrlari, mahkumlar, nogironlar, qariyalar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar va boshqalar kirishi mumkin.

Katta yoshlilarni o‘qitish boshqalardan farq qiladi. Shu soha mutaxasislarining fikricha inson psixologiyasi va falsafiy qarashlar hamda kattalarni o‘qitish bo‘yicha o‘sib borayotgan ilmiy izlanishlar va nazariyalarga asoslanib katta yoshlilarni o‘qitishda quyidagi omillarni hisobga olish lozim:

Psixofiziyoligik omil. Ba’zi yoshi katta odamlarda yangi bilimlarni o‘zlashtira olishi borasida shubha bo‘ladi. Bu shubhalar yosh ulg‘ayishi bilan insonda aqliy salohiyat sekinlashishi, xotiraning pasayishi haqidagi qarashlar bilan bog‘liq. Lekin olimlar tomonidan hamma yoshda ham o‘qish, o‘rganish mumkinligi isbotlangan.

Ijtimoiy – psixologik omil. Katta yoshlilarning ta’lim jarayonidan kutayotgan natija va maqsadining aniq bo‘lishi, ularda o‘qish o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyaning kuchliligini ko‘rsatadi, ammo ba’zilar qaytadan “o‘quvchilik” maqomiga tushish layoqatsizdek ko‘rinib qolishdan qo‘rqishadi. Ular bu jarayonlarga har doim ham ruhiy jihatdan tayyor bo‘lmaydilar.

Ijtimoiy to‘siq omili. Katta yoshli odam ta’lim jarayonida ishtirok etar ekan, u ta’limning sifatli bo‘lishiga nafaqat jiddiy e’tibor qaratadi balki, o‘zi uchun qiziqarli yoki kerak bo‘lmagan bilimlarni ochiqlik bilan rad etadi, o‘z munosabati yoki noroziligini ochiq bildiradi, chunki o‘rganilayotgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishdan uning o‘zi manfaatdorligini yaxshi tushinadi. Bu esa ta’lim sifatiga yangi talablarni qo‘yadi. Shu sababli katta yoshlilar ta’limi bilan shug‘illanuvchi – andragog (referent, tashkilotchi yoki trener) ta’lim berish jarayonida katta yoshli o‘quvchining o‘ziga xosligi, dunyoqarashi, ijtimoiy maqomi, hayotiy tajribaga ega ekanligi va boshqa jihatlariga e’tibor qaratishi zarur.

Psixologik – pedogagik omil. Ba’zida odamlarda umr bo‘yi o‘qib o‘rganishi karakligi haqidagi qarashlarning shakllanmaganligi yoki inson o‘zini umr bo‘yi o‘qib o‘rganishga, yangiliklarni qabul qilishiga layoqatli ekanligini to‘g‘ri baholay olmasligi kuzatiladi. Shuning uchun ham katta yoshlilar ta’limi jarayonida ularning o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon etishlari uchun qulay shart – sharoit yaratilishi lozim. Bunda jarayon erkin, interfaol muloqot maydoni muvoffaqiyatga yo‘naltirilgan bo‘lishi, o‘qitishda amaliy ishbilarmonlik o‘yinlari, terninglar, debatlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Yuqorida qayd etilgan omillar katta yoshlilar ta’limiga boshqacha yondoshishni taqazo etadi. Jahon tajribasida katta yoshlilarni o‘qitish nazariyasi va amaliyoti bilan andragogika (adult education) shug‘ullanadi. Andragogika fan sifatida shakllanganganga qadar bir necha bosqichlarni bosib o‘tgan. Xususan, XIX asrning 30-yillaridan boshlab Yevropa va Amerikaning ko‘pgina davlatlarida bu davrda ishlab chiqarishning tez o‘sishi, jamiyat va ijtimoiy hayotning rivojlanishi negizida kattalarni o‘qitishning dastlabki tajribalari to‘plana boshladi.

XX asr boshlarida katta yoshlilarni o‘qitish muammosi olimlar tomonidan insonni o‘rganuvchi fanlar tizimiga kiritilgan. Birinchi navbatda bu insonning turli yosh davrla-

ridagi ruhiy rivojlanishi jarayonlari bilan bog‘lanadi. Ammo bu vaqtda inson hayotining hamma bosqichida ham ta’lim olish mumkinligi haqidagi qarashlarni asoslash zarurati vujudga keldi.

1950-1960-yillarda bir qancha horijiy mualliflarning ishlarida kattalarni o‘qitishning dedaktik va metodik yondashuv muammolari ko‘rib chiqilgan. Jumladan, aksariyat horijiy tadqiqotchilar katta yoshlilarni o‘qitishning pedagogik tamoyillar asosida talqin etib, kattalarni o‘qitishning o‘ziga hos hususiyatlarini “ kattalar pedagogikasi ” deb ataganlar1.

1960-1970-yillarda bir qancha olimlar (M. Ogrizovich, F. Peggeler, G. Xonselmana va boshqalar) ilmiy ishlarida “andragogika” iborasi paydo bo‘ldi. Bu mualliflar andragogikaning pedagogikadan farqlarini aniqlashga harakat qildilar. Andragogikaning alohida fan sifatida shakllanishi va tanlanishi 1970-yilga to‘g‘ri keladi, aynan shu yili kattalar ta’limining amerikalik nazariyachi va amaliyotchi olimi M. SH. Noulzning “Kattalar ta’limining zamonaviy amaliyoti. Andragogika yoki pedagogika” nomli fundamental ishi chop etildi.

1981-yilda Nobel mukofoti lauriyati amerikalik Robert Sperri tomonidan “Split Brain Theory” (miyaning ikki yarim sharlari nazariyasi) ning yaratilishi katta yoshlilar ta’limi jarayoniga boshqacha yondoshishga turtki bo‘ldi. Sperri konsepsiyasiga ko‘ra miyaning ikki yarim sharlari turli funksiyalarga ega bo‘lib, o‘ng va chap yarim sharlar fikrlash holatida turli xil jarayonlarga asoslanadi.

Ta’lim olish mobaynida yangi bilimlarni o‘rganishda insonlar bir qator bilish jarayonlariga murojaat qilishlari tabiiy. Bu jarayonlar inson yosh xususiyatlariga qarab takomillashib boradi. Shu sababli ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi bu jarayonlardagi o‘z vazifalarini aniq bilib olishlari lozim.

Inson voqeylik to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlarni sezgilar orqali oladi. Sezgilar insonni voqeylik bilan bog‘lovchi vosita hisoblanadi. Bu bog‘lanish sezgi turlarini o‘rniga qarab, bir necha turga bo‘linadi. Ko‘rish, eshitish, hid bilish, tam bilish, teri – tuyish sezgilari aynan bilishni boshlang‘ich vositalari hisoblanadi. Sezish hali ma’lumotlarni o‘zlashtirish degan so‘z emas, bunda sezgilar orqali ma’lumotlar bir necha hussusiyatlariga ko‘ra yaxlit holga olib kelinadi. Bu esa ma’lumotlarni idrok qilish deyiladi. Idrok qilingan ma’lumotlar hotiradagi oldingi ma’lumotlar bilan sentez, analiz qilinib, guruhlanadi, yaxlitlanadi va tizimga solinadi. Bu ma’lumotlar inson miyasida qayta ishlanadi, ta’savvur qilinadi va ma’lum bir xulosaga, natijaga keladi.

Umuman olganda o‘zlashtirish murakkab jarayon bo‘lib, uning natijasi bilim olishda sezgi turlarining ishtirokiga bog‘liq bo‘ladi. Shu soha mutaxasislari, psixolog olimlarning fikricha verbal (og‘zaki) o‘qitish usullaridan (ma’ruza, hikoya, tushintirish) foydalanilganda ta’lim oluvchilarda ma’lumotlarning 5 foiz o‘zlashtirishlari isbotlangan.

Kitob o‘qish orqali ma’lumotlarning 10 foiz o‘zlashtirish imkoni mavjud. Video film, rasm, ko‘rgazmali qurollarni ko‘rish, ko‘rgan ma‘lumotlatning 20 foizni o‘zlashtirishini ta’minlaydi.

Loyihalash usuli, turli xil harakatli o‘yinlar, mashq va mustaqil ishlarni bajarish (masalalar yechish) o‘rganilayotgan ma’lumotning 75 foizni, o‘quv amaliy mashg‘ulotlarida ta’lim oluvchilarning bevosita ishtirok etishi undan ko‘ra samarali hisoblanadi. Masalan, mustaqil dars o‘tish yoki boshqalarni o‘qitish orqali 90 foiz ma’lumot o‘zlashtirilishi etirof etilgan.

Katta yoshlilar ta’limi jarayoning o‘ziga hos jihatlaridan biri bu o‘zlashtirilayotgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar tizimining kasbiy yoki hayotiy jarayonda o‘z o‘rnini topishga qaratilganligining ongli ravishda anglanishi, maqsadning aniqligi, o‘qish-o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyaning kuchliligi bilan tasiflanadi. Bu esa ta’lim jarayonida o‘ziga hos differensial yondashuv, andragogik tamoyillar, zaruriy pedagogik shart-sharoitlar

hamda o‘qitish texnologiyalarini talab qiladi.

Katta yoshlilar ta’limi bilan shug‘ullanuvchi andragog (referent, tashkilotchi, trener) ning faoliyati quyidagi tamoyilga asoslanadi.

Tenglik tamoyili. Bu yerda katta yoshlilar ta’limi bilan shug‘ullanuvchi andragog yoki referent o‘zi ham boshqalar kabi guruh ishrokchisi ekanligini ko‘rsatishi kerak. Buning uchun auditoriyada shunday shart-sharoit yaratilishi kerakki, u yerdagi barcha ishtirokchilar o‘zlarini shu muhitda erkin, faol va hamkordek his etsinlar.

Faol ijod tamoyili. Har birimiz ega bo‘lgan tajribalar, qoliplashgan tasavvurlar (steriotiplar) yaratishga olib keladi va istalgan yangi narsani biz “eskichasiga” ya’ni o‘zimiz o‘rganib qolganimizdek tushinishga hamda bajarishga harakat qilamiz. Bu steriotipni o‘zgartirish va miyamizni yangi bilimlarni qabul qilishga, g‘oyalarni ishlab chiqishga tayyorlash uchun guruhda maxsus muhitni yaratish kerak.

Shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish tamoyili. Ta’lim jarayonida ishtirokchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, har bir kishiga uning barcha injiqliklariga qaramasdan hamdard bo‘la olish (impatiya) kabilar nazarda tutiladi.

Qulaylik tamoyili. Uzoq vaqt harakatsiz o‘tirish, faqat bitta mashg‘ulot bilan band bo‘lish hayolning buzilishiga olib keladi. Shuning uchun vaqti – vaqti bilan kichik tanaffuslardan, qo‘l-oyoqning chigalidan foydalanish yaxshi natija beradi. Katta yoshli insonga refleksiya (yaxshi axborotni o‘ylash) uchun pauza kerak, shunday ekan tanaffusni bekorga yo‘qotilgan vaqt deb o‘ylamaslik kerak.

Yuqorida qayd etilgan tamoyillar katta yoshlilar ta’limini boshqaruvchi andragog referentning faoliyatini belgilab beradi.

Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, mamlakatimizda katta yoshlilarni o‘qitish va ularga ta’lim berishda adragogik yondashuv to‘laqonli amalga oshirilsa, aholining eng katta qatlamini jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etishini taminlash bilan bir qatorda shaxsning har tomonlama kamol topishi, uning turli sohalardagi tezkor o‘zgarishlarga va jamiyat talablariga moslashuvi hamda ularning dunyoqarashi va faol hayotiy pozitsiyasining mustaxkam rivojlanishida o‘zining ijobiy natijalarini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1 Колесникова И.А. Основы андрагогики. -М.: «Академия», 2007. -С. 120.

2 Poggeler F. Einführung in die Andragogik. Düsseldorf, 1957. Xonselmana G. Andragogik: Wesen, Moglichkeiten, Grenzen der Erwachsenenbildung. Ziirich, 1951.

2. “Ta’lim to‘g‘risida” Qonun T. O‘zb – 2020y – 47 b.

3. Turdiyev E.J. Katta yoshlilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish texnologiyasi. Monografiya Qarshi “Intelekt”-2023. -122 b.

4. Змеев С. И. Основы анрагогики. Учебное пособие для ВУЗов. – М.: «Флинта: Наука», 1999. -С. 150.

5. Knowles M. S. The Modem Practice of Adult Education. Andragogy versos Pedagogy. -N. Y.. 1970.

6. Katta yoshlilar ta’limi. (Xalq universitetining nemis uyushmasi xalqaro aloqalar instituti) Bonn. Golden Pages 2004.

7. Турдиев Э.Ж. Технологическая подготовка учащихся в процессе дифференцированного профессионального обучения. Монография . -Карши «Насаф» - 2021. -с 104.

Axror XAYRULLAYEV,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchi

O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARNING HUQUQIY AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida o‘quvchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ‘ibotning ilg‘or va ta’sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan foydalanish asoslari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. O‘smir, o‘quvchilar, huquqiy savodxonlik, qonun, ta’lim tizimi, pedagog.

В статье освещаются основы использования инновационных методов повышения правосознания и правовой культуры читателей, передовых и действенных средств пропаганды, положительного опыта зарубежных стран в этой области в период современной глобализации, научно-технического прогресса.

Ключевые слова. Подросток, ученики, юридическая грамотность, право, система образования, педагог.

The article covers the basics of using innovative methods of raising the legal consciousness and legal culture of students in the current era of globalization, scientific and technical progress, advanced and influential means of propaganda, positive experiences of foreign countries in this regard.

Key words. Teenager, pupils, legal literacy, law, education system, educator.

Bugungi XXI asrda ijtimoiy munosabatlar shu darajada tezlashdiki, buning natijasida insonlarning axborotlarni qabul qilishi, bu ijtimoiy munosabatlarga huquqiy idealistik kayfiyat bilan munosabatda bo‘lishligi qiyinlashib bormoqda. Bu esa barcha insonlarning amaldagi huquq me’yorlari bilan talab darajasida tanish bo‘lishligini taqozo etadi. Ayni vaqtda yurimiz ta’lim muassasalarida huquqiy ta’limning ahvoli qanday? Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar va ularning huquqiy asosiga keng aholi vakillari qanday munosabatda bo‘lishmoqda? Bugungi huquqiy ta’limimiz jadal rivojlanayotgan iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar vaqtida mahoratli kadrlar bilan qay darajada ta’minlamoqda?”.

O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi bosqichida mamlakatda islohotlar ko‘lami to‘g‘risida to‘xtalib davlatimiz rahbari shunday deydi: “Jamiyatni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlarimiz natijasida yangi O‘zbekiston shakllanmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizdagi demokratik o‘zgarishlar ortga qaytmaydigan tus oldi

Joriy yil 7-fevralda Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta’lim dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingani ulkan voqea bo‘ldi. Qarorda mamlakatimizda inson huquqlari sohasidagi ta’limni yanada takomillashtirishga oid dolzarb vazifalarni samarali va o‘z vaqtida amalga oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilab berildi.

Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta’lim dasturining asosiy maqsadi:

– Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari sohasida ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi deklaratsiyasi qoidalari va Inson huquqlari sohasidagi Jahon ta’lim dasturining to‘rtinchi bosqichini amalga oshirish;

– Aholi barcha qatlamlarining inson huquqlari va erkinliklari to‘g‘risidagi milliy va

xalqaro standartlar to‘g‘risida xabardorligini, ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini yanada kuchaytirishdir.

Bugungi kunda aksar yoshlar huquq va erkinliklarini bilmaganlari sabab mukammal bilim egasi bo‘lishda intilishlari ortga surilmoqda. Ushbu yo‘lda bu Dastur ularning huquqiy bilimlarini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Yoshlarning inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xabardorligini oshirish, bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish nihoyatda ulkan ahamiyatga ega. Ayni chog‘da, inson huquqlari sohasidagi Milliy ta’lim dasturida ayni yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari ham qamrab olingan.

Huquqiy madaniyat uchun huquqiy ong zaruriy element ekanligini hisobga olgan holda shuni e’tirof etish kerakki, huquqiy ong bo‘lishi uchun avvalo huquqiy savodxonlik juda zarurdir. Huquqiy savodxonlik fazilati shaxs – jamiyat – davlat munosabatlariga muhim ta’sir ko‘rsatadi, hayotda mehnat faoliyatida yoki boshqa bir sohada yuzaga keladigan muammolarni adolatli va xolis hal qilish imkonini beradi. Yuridik adabiyotlarda huquqiy savodxonlik tushunchasiga yakdil ta’rif berilmagan bo‘lsa-da, ulardan quyidagicha tushuncha hosil qilish mumkin: huquqiy savodxonlik – bu yuridik matnlardagi atamalarni tushunish, ulardan umumiy xulosalar chiqarish va bu bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish qobilayatidir.

Xorijiy yuridik adabiyotlar ham shunga yaqin mazmunni ifodalaydi, ya’ni shaxsning o‘z huquq va majburiyatlarini tanishi, qaysi holatlar yuridik nizo ekanligini bilishi va ularga qonuniy yechim topa olishi, huquqiy axborotni qayerdan topishni, yuridik yordamni qayerdan va qanday qilib olishni, qonunchilik tizimida qaysi choralar borligini hamda protsessual tartibni bilishi huquqiy savodxonlik belgilari hisoblanadi.

Yoshlar orasida huquqiy savodxonlikning pastligi nafaqat, ularning o‘zlari uchun, balki jamiyat va davlat uchun ham zararlidir. Huquqiy savodxonlikning yetarli emasligi yoshlarning o‘z huquqlaridan to‘laqonli foydalana olmasliklariga, majburiyatlaridan bexabar qolishlariga sabab bo‘ladi. Majburiyatlardan bexabarlik yoki harakatlarining huquqiy oqibatini anglamaslik bugungi kunda yoshlar orasida huquqbuzarliklarning sodir bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Biz huquqiy-demokratik davlat qurishni oldimizga maqsad qilgan ekanmiz, buning uchun huquqiy ongi va madaniyati yuksak yoshlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bunga esa huquqiy savodxonlikni oshiribgina erishishimiz mumkin. Qisqasini aytganda, “Faqat chuqur o‘ylangan va tezkor davlat siyosatigina yoshlarning huquqiy madaniyatini ko‘tara oladi va ularning huquqiy ongi darajasini yuksaltirishga yordam beradi”

Yoshlarning huquqiy ta’lim-tarbiyasini rivojlantirishning hududiy dasturlarini yaratish ayni davrda juda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Viloyat va tumanlar miqyosidagi, o‘ziga xos dasturlarning bo‘lishi yoshlar orasida huquqiy savodxonlik ko‘lamining oshishiga olib keladi. Masalan, “Yosh huquqshunos” nomli tuman hokimi mukofoti, “Konstitutsiya bilimdonlari” nomli viloyat hokimi kubogi kabi yangicha tadbirlar yoshlar orasida huquqiy bilimlarga qiziqishning yanada oshishiga olib kelishi mumkin.

Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishda 3 tomon piramida “davlat – ota-ona – maktab – huquqni muhofaza qiluvchi organlar” tizimini joriy qilish lozim. Bunda davlat joylarda shart-sharoit yaratib bersa, o‘quv muassalari tadbirlarni tashkillashtiradi va ota-onalar bolalarni jalb qilishadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari esa tizimli tarzda yoshlarni o‘z huquqlarini himoya qilishda kerak bo‘ladigan huquqiy bilimlar bilan tanishtirib boradilar. Bu tadbirlar suhbat, munozara, taqdimotlar, filmlar namoyish qilish kabi ko‘rinishlarda o‘tkazilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 28- yanvar-

dagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni bilan yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi. Ushbu strategiyaning Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish deb nomlangan 5-ustuvor yo‘nalishida 70-maqsad: Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish borasida belgilangan vazifalardan biri “Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish” bo‘lib, unga ko‘ra tegishli muassasa va tashkilotlarning joriy masala bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishlari belgilab berilgan.

Bizning milliy huquqiy tizimimiz butunlay yangi asosda, jahon huquqiy jarayonining yutug‘i bo‘lgan demokratik prinsiplar negizida yangitdan yaratilganligi shubhasiz. Konstitutsiyadan boshlab deyarli barcha qonunlarimiz tub o‘zgarishga uchradi. Qonunlarimizda huquq mustaqil demokratik davlatning huquqi bo‘lgan bugungi kun voqeligi hisobga olindi. O‘zbekiston qonunlarida xalqaro huquqning jahonda tan olingan printsiplari va normalari o‘z ifodasini topdi va mustahkamlandi. Ular rivojlangan mamlakatlar huquqiy tizimining ilg‘or yutuqlarini davom ettirdi, qadimiy mamlakatimizning tarixiy-huquqiy tajribasini qamrab oldi.

Bugungi kunda olib borilayotgan islohotlar yoshlarni huquqiy savodxonligini yuksaltiriga hamda ularni qonun ijodkorligi faoliyatiga qiziqtirib huquqiy tashabbuskorlikka undamoqda. Oliy Majlis qoshida qonun ijodkorligi strategiyasini belgilash bilan shug‘ullanadigan, qonun loyihalarini ishlab chiqib, ekspertizadan o‘tkazadigan Qonunchilik ilmiy tadqiqot institutini tashkil etish zarur deb hisoblaymiz. Amaldagi qonunlar monitoringi instituti esa parlamentga qonunlarning

ijro etilishini nazorat qilishda yordam berishi, sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishi, qonunlarni o‘zgartirishga doir takliflarni ishlab chiqishi kerak.

O‘zbekiston demokratik huquqiy davlatni qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lidan dadil borib, jahon hamjamiyatida mustahkam o‘rin egallamoqda. Barqarorlik va tartib, millatlararo totuvlik va fuqarolar ahilligi tufayli yosh davlatimiz ishonch va hurmatga sazovor bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi o‘z rivojlanish istiqboli va yo‘lini belgilar ekan, o‘ziga xos siyosiy islohotlarni o‘tkazishi va uning natijasida ma’lum siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy o‘zgarishlarga yuz tutishi tabiiy.

Bugun O‘zbekiston demokratik huquqiy davlatdan fuqarolik jamiyatiga o‘tish yo‘lida ko‘plab salmoqli ishlarni amalga oshirmoqda. Bundan asosiy maqsad nafaqat yoshlarni balki barcha o‘zbekiston fuqarolarini huquq va erkinliklari, burch hamda majburiyatlarini anglab etishi, uni amaliyotda to‘g‘ri qo‘llay olishi bilan bir qatorda davlat hokimiyatini boshqarishda siyosiy salohiyatini yuksaltirishdan, jamiyatda munosib o‘rin egallashi nazarda tutib kelinmoqda. Vatanimizning ko‘p jihatdan rivojlanishi va islohotlarning muvafaqqiyati ko‘p jihatdan xalqning huquqiy ongi va huquqiy madaniayati darajasiga bog‘liqdir. Shaxsning siyosiy faolligi, uning chinakam fuqaroviy munosabati, demokratik islohotlarga intiluvchanligi belgilangan maqsadlarga erishishning muhim omilidir. Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligi ifodasidur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026” yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-conli farmoni / https://lex.uz/docs/5841063.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: 2020.

3. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyat tizimidan tubdan takomillashtirish to‘g‘risidagi PF. T. 2019.

Xurshid MAXMARIZAYEV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARIN KOGNITIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqola mazmuni jismoniy tarbiya o‘qituvchisi malakasini baholashning motivatsiyasi va qadriyatlarini rivojlantiruvchi komponent baholash sohasidagi shaxsiy muhim motivatsiyalar, ehtiyojlar, qiziqishlar va moyilliklarga alohida e’tibor qaratgan holda o‘qituvchining professional qadriyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Tayanch so‘zlar. Intellectual, kognitiv kompetensiya, samarali vositasi, intellectual, muvaffaqiyat.

Содержание статьи развивающий компонент мотивации и ценностей оценки квалификации учителя физической культуры направлено на развитие профессиональных ценностей педагога с особым вниманием к личностно значимым мотивациям, потребностям, интересам и склонностям в области оценки.

Ключевые слова. Интеллектуальная, когнитивная компетентность, эффективный инструмент, интеллектуал, успех.

The content of the article is aimed at the development of the professional values of the teacher, paying special attention to personal important motivations, needs, interests and inclinations in the field of evaluation of the component that develops the motivation and values of the qualification of the physical education teacher;

Key words. Intellectual, cognitive competence, effective tool, intellectual, success.

Bundan tashqari, ushbu professional fitnes jihatiga individual qiziqishlar. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi malakasini baholashning kognitiv komponenti o‘qituvchining baholashi uchun zarur bo‘lgan bilimlarni (baholash jarayonining vazifalari, usullari, vositalari va texnologiyalari; jismoniy tarbiya xizmatida baholash kompetensiyasining dizayni, mazmuni va unga qo‘yiladigan talablar va boshqalar) qamrab oladi. samarali va samarali. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi malakasini baholashning instrumental komponenti o‘qituvchining nazariy bilimlarini eng samarali baholash usullari va vositalaridan foydalangan holda amaliy o‘quv muvaffaqiyatini baholash jarayonida qo‘llash qobiliyatini anglatadi. Komponent quyidagi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi: missiyalar va obyektlar tomonidan talab qilinadigan baholash tartibi uchun maqsadlarni belgilash; mavzu sohasidagi rivojlanish bosqichlari bilan baholash jarayonini rejalashtirish; va baholash natijalarini tahlil qilish qobiliyatlari. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisini baholash kompetentsiyasining aks ettiruvchi komponenti baholash tartibini to‘g‘rilash uchun professional xizmatni o‘z-o‘zini baholash qobiliyatini o‘z ichiga oladi, komponent shaxsiy rivojlanish prognozlari bilan kasbiy rivojlanish kun tartibi uchun muhim ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisini baholash kompetentsiyasining yuqorida ko‘rsatilgan tuzilmasi ikkinchisining bosqichma-bosqich shakllantirilishini bir komponentdan keyin ikkinchisini anglatadi. R.M tomonidan asosli ravishda taqdim etilganidek. Chudinskiy va N.V.Lukyanchikovaning fikriga ko‘ra, baholash kompetensiyasi ham intizomiy, ham fanlararo asoslarda qo‘llaniladi, chunki bu kompetentsiya universal, ya’ni intizomga xos emas. Ushbu g‘oyalar “Zamonaviy akademik kadrlar”

maxsus o‘quv kursi sifatida “Pedagogik ta’lim” standart fanidan (jumladan, quyidagi modullar: Pedagogika fani va amaliyotiga kirish; Ta’lim nazariyasi; Pedagogika texnologiyalari) sinovdan o‘tkazish uchun amaliy baholash kompetentsiyasini shakllantirish modelini ishlab chiqishda foydalanilgan. Muallif dizaynining taraqqiyotini baholash usullari; Bundan tashqari, tinglovchilarga amaliy kasbiy didaktik tajriba va ko‘nikmalarni egallashga yordam beradigan kasbiy ta’lim amaliyoti.

Shu maqsadda: bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining pedagogik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslarini aniqlash;bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining pedagogik kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik usullarini aniqlash; Shakllanish yo‘llarining samaradorligini tekshirish vazifalari. bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining pedagogik kompetensiyasi amaliyot orqali, ilmiy-amaliy tavsiyalarni amaliy amaliyotda qo‘llashi aniqlanadi.Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-pedagogik tadqiqot usullaridan foydalanildi: ilmiy adabiyotlarni tadqiq qilish, tahlil qilish, taqqoslash, modellashtirish va hokazo nazariy daraja. usullari; shuningdek kuzatish, pedagogik eksperiment, savol-javob, so‘rov, pedagogik hujjatlarni o‘rganish va hokazo. Shunday qilib, o‘rganish davomida: “Jismoniy tarbiya va sport” mutaxassisligi bo‘yicha jismoniy tarbiya o‘qituvchisining pedagogik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari; jismoniy tarbiya o‘qituvchisining pedagogik malakasi modeli sinovdan o‘tkazildi va pedagogik usullar sifatida shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar.

Jismoniy rivojlanish jarayoni ham yosh gradatsiyasi qonuniga bo‘ysunadi. Bu jarayonni boshqarish uchun faqat tananing turli xil xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olinadi. Bundan tashqari, jismoniy rivojlanish organizm va atrof-muhitning birlik qonuni bilan bog‘liq bo‘lib, insonning yashash sharoitlariga, jumladan, geografik muhitga bog‘liq. Shuning uchun jismoniy tarbiya vositalari va usullarini tanlashda ushbu qonuniyatlarning ta’sirini hisobga olish kerak.

Ta’lim va kasbiy tayyorgarlikning yaxlit natijasi sifatida u insonning sog‘lig‘iga, jismoniy imkoniyatlari va qobiliyatlariga, turmush tarzi va kasbiy faoliyatiga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi va bilimlar, e’tiqodlar, qadriyat yo‘nalishlarining birligida va ularni amaliy amalga oshirishda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта: Учебное. пед. наук. Тирасполь, 2004.207.

2. Ушинский К. Д. Проект пособие. М.: Издательский центр “Академия”, 2000,- 480 с.

3. Хрестоматия по истории зарубежной педагогики /Сост. и автор вводных статей А.И. Пискунов. М., Просвещение, 1971. - 560с.

4. Хрестоматия по истории школы и педагогики в России (до Великой Октябрьской Социалистической революции): Учебное пособие для студентов педагогических институтов /Сост. и автор очерков С.Ф. Егоров. -М.: Просвещение, 1986. 432 с.

5. Хуторской А.В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты: Доклад на Отделении философии образования и теоретической педагогики РАО от 23.04.2002 г. www.eidos.ru/news/compet.htm, e-mail: info@eidos.ru”.

6. Устименко С.А. Проектирование инновационных дидактических технологий в высшей технической школе: Дисс. кандучительской семинарии // Избранные педагогические произведения. М.: “Просвещение”, 1968.

Surayyo TURSUNOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Ijtimoiy fanlar fakulteti
Jismoniy madaniyat yo‘nalish talabasi

KICHIK YOSHDAGI BOLALARNI YENGIL ATLETIKA TURLARIGA JISMONIY VA PSIXOLOGIK TAYYORLASH

Annotatsiya

Maqolada har bir kichik yoshdagi bolalarning ma’lum bir sport turiga qiziqishi mavjud bo‘lib, bolalardagi bu shijoat va qiziqishni to‘g‘ri, aniq yo‘naltirib olgan inson ya’ni ota-onasi ularga eng katta yordam bera oladi. Bolalar o‘zlariga ishonchni sezgandagiga, o‘z murabbiylarining psixologik va o‘yin orqali olib borayotgan metodlarining yo‘liga tushishadi. Murabbiygina kichik yoshdagi bolalardagi qiziqishni ma’lum yo‘nalishga yo‘naltirib, kelajakdagi mashhur bir sportchi bo‘lib yetishiga sababchi bo‘la oladilar. Demak, murabbiy kichik yoshdagi bolalarni psixologik kamol toptirib, ularni jismoniy buyuklikka eltadi.

Tayanch so‘zlar. Yengil atletika, uloqtirish, psixologik, jismoniy, motivatsiya, metod, kichik yosh.

В статье представлен интерес детей каждого младшего возраста к тому или иному виду спорта, человек, который правильно, точно направил этот энтузиазм и интерес у детей, то есть его родители, может оказать им наибольшую поддержку. Когда дети чувствуют уверенность в себе, они идут по пути психологических и игровых методов своих тренеров. Только тренер может направить интерес маленьких детей в определенное русло и стать причиной того, что они вырастут в будущего известного спортсмена. Это означает, что тренер психологически взрослеет маленьких детей и доводит их до физического величия.

Ключевые слова. Легкая атлетика, метание, психологическое, физическое, мотивация, метод, младший возраст.

The article presents the interest of children of every younger age in a particular sport, the person who correctly, accurately directed this enthusiasm and interest in children, that is, his parents, can provide them with the greatest support. When children feel confident in themselves, they follow the path of their coaches’ psychological and gaming methods. Only a coach can direct the interest of young children in a certain direction and become the reason that they will grow into a future famous athlete. This means that the coach psychologically matures young children and brings them to physical greatness.

Key words. Athletics, throwing, psychological, physical, motivation, method, younger age.

Pedagogik qarashlarim hamda jismoniy tayyorgarligim nuqtayi nazaridan, yurish, yugurish, sakrashlar va uloqtirishlarning sog‘lomlashtiruvchi ahamiyati juda ham kattadir. Yengil atletika yuqori mahoratni shakllantirish bazasidir, chunki u ommaviy sport turi hisoblanadi. Bolalar maktab yoshiga yetmasdan, har xil o‘yinlar, yugurish, sakrash va uloqtirishlarning sodda shaklda bajarilishini o‘rganadilar. Kichik maktab o‘quvchilarining yengil atletika mashqlari texnikasini o‘rganishi, harakat imkoniyatlarini kengaytirib, ularning boshqara olish qobiliyatlarini yaxshilabgina qolmay, keyinchalik sport-texnik mahoratlarini shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Yengil atletika mashqlari bilan shug‘ullanish yosh organizmning o‘sishi va shakllanishiga, har tomonlama jismoniy rivojlanishiga yordam beradi. Bolalar va o‘smirlar sport maktablarining yengil atletika mashg‘ulotlariga qatnashishni istagan bolalar, o‘zlaridagi jismoniy sifatlarni maktablarda jismoniy tarbiya darslarida ko‘rsatib borishadi. Ma’lum

sport turiga qiziqishi mavjud bo‘lgan bolada, aynan o‘zi qiziqqan sport turiga yaqin turdosh boshqa sport turida qobiliyat mavjud bo‘lsa, u boladagi bu qobiliyatni yanada rivojlantirish murabbiyning zimmasida bo‘ladi. Bu jarayonda murabbiy avvalo bo‘lajak sportchining qiziqishidan kelib chiqqan holda mashg‘ulot rejasini tuzib chiqadi. Reja asosida bolaning boshqa sifatlari ham rivojlantiriladi. Bu jarayonda bola yengil atletika sport turiga mehr qo‘ya boshlaydi.

Har bir jismoniy sifatlarni rivojlantirib borish mobaynida bolaning jismoniy layoqat darajasi va chempionatlarga tayyorgarlik jarayoni organizmida kechayotgan bo‘ladi. Shu bilan birga bolalarni yengil atletika sport turiga tanlab olishda va ularni qiziqtirishda bolalarning konstitutsional xususiyatlariga e’tibor qaratiladi. Ularning konstitutsiyasi yaxshi rivojlanayotgan va shifokor, murabbiy talablariga javob bera olishiga qarab yengil atletikaning ma’lum bir turiga yo‘naltiriladi.Bolalalarning bo‘ylari uzun, novcha ya’ni “astenik” dolioxomorf tipli bolalar asosan yengil atletikada qiziqishi mavjud bo‘lsa, ularni yengil atletikaning langarcho‘p bilan balandlikka sakrash, ko‘pkurash, uzunlikka sakrash, nayza uloqtirish, to‘siqlar osha yugurish kabi turlariga yo‘naltirib, o‘rgatish mumkin. Tana o‘lchovlari kenglik tomonga yaxshi rivojlangan bolalar ya’ni “giperstenik” braxiomorf tipli bolalar asosan yadro itqitish, disk uloqtirish, bosqon uloqtirish kabi turlarga yo‘naltiriladi. Har tomonlama yaxshi rivojlanayotgan yetuklikka erishayotgan bolalar ya’ni “normostenik” ya’ni mezomorf tipli bolalar yengil atletikaning barcha turlarida yaxshi natijalar qayd qila olishadi. Bu kabi konstitutsional xususiyatlar barcha sport turlari uchun juda muhim, qimmatli hisoblanadi. Shu bilan birga u kabi kichik yoshdagi bolalarda barcha sifatlarni rivojlantiraman deb unga zo‘riqish berib qo‘ymaslik lozim.Ya’ni yengil atletika bilan shu’gullanishni boshlagan bolalarga kuchli qilish maqsadida turli xil o‘g‘ir jismlarni ko‘tartirmaslik lozim. Organizmning shakllanishi bilan birga, bolaning suyak tizimi ham rivojlanadi.

To‘qimlardagi zich g‘ovak moddalar tuzilishi o‘zgaradi, suyaklar bo‘yiga va eniga o‘sadi. Davomli zo‘riqishlar, yerga sakrash tushish natijasida paydo bo‘ladigan kuchli siltanishlar, kuchi yetmaydigan turli xil o‘g‘ir jismlar ko‘tarish va tashlash umurtqa pog‘onasinig qiyshayishiga va diepifizor tog‘aylarning jarohatlanishiga olib keladi. Bu esa bolalarning bu sport turiga qiziqishini yuksaltirmasdan, uni so‘nishiga olib keladi. Shunga e’tiboran jismoniy yuklamalarni kichik yoshdagi bolalarda berishda o‘ta ehtiyotkor bo‘lmoq lozim. Har bir mashg‘ulot yuklamasini berib borishda sportchining zo‘riqishini oldini olib borish kerak. Kam-kam ammo sifatli mashg‘ulot jarayoni bola organizmi va tanasi uchun ham muhim hisoblanadi. Hamda uning yanada sog‘lom rivojlanishiga yordam beradi. Biror bir elementni o‘rgatguncha bolada avval u mashqning rivojlanishi uchun sekin astalikda malaka to‘plashi va keyinchalik unga moslashtirib yangi mashqlarni qo‘shib borsa bo‘ladi. Bir xil mashqni doimiy qaytarish esa bolada bu sport turiga nisbatan qiziqishni yo‘qolishiga olib keladi. Shuning uchun doimo yangicha uslubda yangicha mashqlar turlarining o‘ylanishi, tanada barcha sifatlarni rivojlantiruvchi mashqlarni qiziqarli o‘yinlar bilan o‘rgatib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Hozirgi zamonda jahon sporti uchun xos bo‘lgan xususiyatlar sifatida sport natijalarining izchilligi va sezilarli darajada o‘sishi, sport musobaqalari ishtirokchilari tomonidan nafaqat jismoniy, balki ayni vaqtda juda katta psixologik kuch – quvvat sarflashini aytib o‘tishim lozim. Agar sportchi shaxsining psixik funksiyalari va psixik xususiyatlari yaxshi kerakli darajada rivojlanmagan bo‘lsa, hatto jismoniy va texnik jihatdan juda yaxshi, mukammal tayyorgarlik ko‘rgan bo‘lsa ham musobaqada g‘alabaga erisha olmasligi mumkin.Jismoniy kamolotga har tomonlama yetgan yosh sportchida avvalo psixologik

tarafdan ham me’yoriy ko‘rsatgichlar miqdori yaxshi rivojlangan bo‘lishi lozim. Bu bilan ham albatta yosh sportchining murabbiyi shug‘ullanadi. Jismoniy sifatlari yaxshi rivojlangan ammo boshqa sportchilar va musobaqalar ichida o‘zini tuta olmaslik, qo‘rqish, qo‘llarnig titrog‘i, mushaklarning bo‘shashishi yoki qisqarib kengayman qolishi, tez-tez hojatga chiqishi kabi muammolarni oldini olish maqsadida ham yosh sportchilarga psixologik pedagogik bilim va ko‘nikmalar berib borish lozim. Bundan shunday xulosaga kelamiz-ki, sportchining takomillashuvida psixologik tayyorgarligi xuddi uning jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligi kabi o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Sportdagi jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlik jarayonida sportchi harakat faolligining barcha ko‘rinishlari ularni ongli ravishda boshqarish asosida rivojlantirilishi va takomillashtirishini ta’minlaydi. Psixologik tayyorgarlik jarayonida esa, aynan mana shu boshqaruv mexanizmlari rivojlanadi, ya’ni sportchining ongi takomillashadi. Psixologik tayyorgarlikning usul va vositalarini qo‘llash sportchida mustaqil ravishda takomillashib borish tuyg‘ularini shakllantirib, uni musobaqalashuv faoliyatining ekstremal sharoitlarida o‘z psixik holatini ongli ravishda boshqarishga o‘rgatadi.

Yosh sportchi ichidagi kuchli hayajon va qo‘rquvni mashg‘ulot davomida chiqarib tashlash lozim. Ota-ona ishonchi va murabbiyning yaxshi o‘tgan mashg‘ulotlaridan so‘ng yosh sportchi tanasini faqatgina o‘ziga ishonch qoplab oladi. Umumiy psixologik tayyorgarlik sportchining sport bilan shug‘ullangan ilk kunlaridan boshlanadi. Sport tayyorgarlik jarayonida sportda erishiladigan muvaffaqiyatlarda tutadigan o‘rni nihoyatda katta ekanligini, o‘z-o‘zlarni har tomonlama tahlil qila bilishlari, sportda mukammallikka va muvaffaqiyatga erishmoq uchun doimiy ravishda turli qiyinchiliklarni va to‘siqlarni yengib o‘tishga duch kelishlarini tushunishlarini belgilaydi. Yosh sportchi o‘zini anglay olsagina muvaffaqiyatga erisha oladi.

Psixologik tayyorgarlikning umumiy maqsadi sportchining sportda yuqori darajadagi yutuqlarga erishishi uchun zarur bo‘lgan psixik sifatlarni rivojlantirish, unda psixik barqarorlik va mas’uliyatli musobaqalarda ishtirok etishga tayyorlik holatini qaror toptirishdan iborat. Uning oldida faqatgina bu emas, balki jahon sport rekordlarini o‘rnatish uchun shart – sharoitlar yaratish, sport iste’dodlarini yetishtirish yo‘llarini izlash va shu kabi yana bir qator maqsadalrni ham qo‘yadi. Eng muhimi yosh sportchilarni musobaqalarga va ma’lum bir sport turiga jismoniy hamda psixologik tayyorlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘aniboyev I.B. Soliyev I.R. A.M. Baratov Yakkakurash, koordinatsion va siklik sport turlari” Yengil atletika” 2017-yil

2. Arziqulov D.N. Gapporov Z.G. Psixologiya va sport psixologiyasi 2021-yil

3. Rafiyev – Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi. Darslik. – T., 2012

4. Normurodov A.N , Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi, – T., 2011

5.To‘xtaboyev N.T – Jismoniy tarbiya mutaxassislarining kasbiy mahoaratini rivojlantirish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T., 2010

Farzona MIRZAYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Ijtimoiy fanlar fakulteti, Jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabasi

SPORTCHILARDA MUSOBAQA OLDI VA MUSOBAQA MUSOBAQADAN KEYINGI PSIXOLOGIK HOLATINI O‘RGANISH

Annotatsiya

Maqolada sportchilar o‘z darajasini aniqlab olish yoki o‘zi bilgan taktik usullarini qo‘llab ko‘rish va o‘zida kechadigan psixologik jarayonlarni raqibiga sezdirmaslik holatlarini musobaqa oldi murabbiysi shogirtlariga psixologik tavsiyalar berilgan. Shuningdek, sportchining musobaqadan oldingi va musobaqa jarayonidagi ruhiy holatini o‘rganish, sportchilarning noqulay ruhiy holatdan chiqib ketish yo‘llarini izlab topish, sportchining musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashishni ta’minlash uchun murabbiy va boshqa shaxslarning unga ta’sirini o‘rganish eng katta sabablari aytib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar. Sport psixologiyasi, murabbiy, psixologik, motivatsiya, metod, jismoniy sifatlar, musobaqa, harakter.

В статье даны психологические рекомендации ученикам предсоревновательного тренера в случаях, когда спортсмены могут определить свой уровень или поддержать знакомые им тактические приемы и не замечать психологических процессов, происходящих в себе. Также были названы основные причины изучения психического состояния спортсмена перед соревнованиями и в процессе соревнований, поиск путей выхода спортсменов из неблагоприятного психического состояния, изучение влияния на него тренера и других лиц для обеспечения успешного участия спортсмена в соревнованиях.

Ключевые слова. Спортивная психология, тренер, психология, мотивация, метод, физические качества, соревнования, характер.

The article provides psychological recommendations to the trainer shogirts who have received a competition for cases when athletes are able to determine their level or use tactical methods that they know and not notice the psychological processes that take place in them to their opponent. Also mentioned are the biggest reasons for studying the mental state of an athlete before and during the competition process, looking for ways for athletes to get out of an uncomfortable mental state, studying the influence of a coach and other individuals on him in order to ensure the successful participation of an athlete in competitions.

Key words. Sports psychology, coach, psychological, motivation, method, physical qualities, competition, character.

Sport psixologiyasi mashg’ulot va musobaqa jarayonlarining ajralmas qismidir. Zero, uning zamirida sportchining texnik-taktik va jismoniy tayyorgarligi samaradorligini oshirish, sportchi shaxsini shakllantirish, shuningdek, har bir sport turi uchun nihoyatda muhim bo‘lgan sportchining eng optimal holatini shakllantirish vazifalari mujassamdir. Shu sababli sport psixologiyasi bugungi kunda fanning rivojlanib borayotgan bir sohasiga aylanib, endi unga nafaqat psixologlar, balki, u yoki bu jihatdan sport bilan aloqador bo‘lgan barcha insonlar, sportchilar, sport murabbiylari, ma’muriy-tashkiliy soha va boshqaruv xodimlari ham katta qiziqish bildirmoqdalar. Buning ajablanarli joyi yo‘q, binobarin, sport amaliyoti sportchilarning muvaffaqiyatli chiqishlarida, ularning sport mahoratlarini oshirish uchun ichki imkoniyatlaridan foydalanishda hamda musobaqalarda g‘alabalarni qo‘lga

kiritish borasida psixologik omilning ahamiyati tobora oshib borayotganligini tasdiqlaydi. Sport psixologiyasi musobaqa oldi, musobaqa, musobaqa keyingi holatlarini tahlil qiladi. Sport psixologiyasi sportchilarning psixologik holatlarini, ijtimoiy-psixologik jihatlarini, sportdagi texnik tayyorgarlikning psixologik asoslarini o‘rganadi. Sportchi, sport murabbiysi, sport hakami, shaxsni shakllantirish va rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlarni tadqiq etish. Sportdagi shaxs psixologiyasi tushunchasi bilan inson xatti-harakatlarining betakrorligini, individual va o‘zligini xosligini o‘rganish va ikkinchi tarafdan aynan shunga o‘xshash holatlarda yuz beradigan psixik holatlar asosida yotuvchi farqlarni o‘rganish o‘zaro bog‘liqdir.

Harakat malakalarini shakllantirish va psixologik asoslarini o‘rganish. Ko‘pincha sportda muvaffaqiyat qozonishda asosiy sifat doimiy maxsus harakat malakalarini bajarishda namoyon bo‘ladi. Bunda sportchilarning psixologik holatlari bilan birgalikda olib boriladi. Har bir sport turida murabbiy o‘z faolyatini yuritadi. Murabbiy atamasi “Bola qalbida nish ura boshlagan umid g’unchalarining mehribon sohibidir” Albatta, bu murabbiy uchun eng go‘zal tariflardan biri hisoblanadi. Endi sportga qadam qo‘ygan bolalarning qalbida ongida men sport bilan shug‘llansam champion bo‘laman degan fikr bilan kelishida, va bu orzusini murabbiy bilan birgalikda amalga oshiradi. To‘gri chempion bo‘lish uchun ancha mashaqqat talab etadi. Mashg‘ulot davomida charchashlar, holsizlanish, og‘ir jarohat olish, sportchilarni orqaga chekinishi mashg‘ulotlarni tashlab qo‘yishlarni sportchilarda kuzatamiz. Bunda murabbiyning shogirtlariga psixologok tavsiyalar berib bu qiyinchiliklar ortidan g‘oliblikni qo‘lga kiritishini, hech qachon orqaga chekinmasligini faqat maqsadlari tomon olg‘a intilishi kerakligini aytib o‘tadi. Bu so‘zlar sporchilar uchun eng kerakli so‘zlar hisoblanib, o‘ziga bo‘lgan ishonchi yanada oshadi. Sportni albatta musobaqasiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Musobaqa bu sportchilar, oylar davomida qilingan mashg’ulotining mashaqqatli mehnatning mevasi hisoblanadi. Bunda natija ko‘rsatishi, sog‘lom raqobatni yuzaga kelishi raqibini taktik harakatlarini o‘rganishi keyingi musobaqasiga rekord natija qayt etishi kuzatiladi. Bu davrgacha murabbiy o‘z shogirtlarini qanday harakterga ega ekanligini yaxshi bilishi kerak. Bilamizki, insonda to‘rt xil temperament mavjuda bo‘lib bular: Xolerik, Sangvinik, Melonxolik, Flogmatik temperamentlaridan iborat. Bu temperamentlarni barchasini sportchilarimizda kuzatishimiz mumkin. Xolerik, Sangvinik temperamentli sportchilarimiz serharakat, chaqqon, va har qanday ishga qatnashish uchun tayyor bo‘ladi, boshlagan ishlarini oxiriga yetkazishga harakat qiladi. Melonxolik, Flogmatik temperamentli sportchilar harakatlanishi sekin kechad,lekin bironta natijaga erishishni astoydil hohlasa, sekin bo‘lsa ham amalga oshiradi. Shunday ekan murabbiylar har bir sportichilarning harakteridan kelib chiqqan holatda psixologik tavsiyalar beradi.

Murabbiylar sportchilarning yoshiga qarab 3 guruhga bo‘ladi, kichik, o‘rta va katta. Mashg‘ulotlarga endi kirib kelgan yosh sportchilarni kichik guruhga, yoshi, natijasi bilan farq qilgan sportchilar o‘rta guruhga, nechchi yillik tajribaga ega professional sportchilar katta guruhni tashkil etishadi. Sportchilarda musobaqa oldi, musobaqa holatlariga tayyorlashda sportchining shaxsiga xos psixologik xususiyatlar katta ahamiyat kasb etadi. Sortchilarning shaxsiga xos xususiyatlarni shakllanishida ijtimoiy omil, psixologik omil va biologik omil asos bo‘ladi. Ularning shaxsiga xos xususiyatlar ijobiy va salbiy jarayonlarga qarab o‘zgaradi. Sportchilarning shaxsiga xos xususiyatlar o‘zgarishiga ijobiydan salbiyga yoki salbiydan ijobiyga o‘tilishda murabbiyning, guruhdagilarning va ijtimoiy muhitning ta’siri katta.Birinchi og‘ir bosiq bo‘lgan bola keyinchalik sho‘x, kirishimlilik kabi xususiyatlarni o‘zida namoyon qilishi mumkin. Sport turlarining yengil

va og‘irligi sportchining yoshi va jismoniy qobiliyatiga qarab belgilanadi. Masalan, endi sportga kirib kelgan bola bilan professional sportchiga bir xil nagruzka berib bo‘lmaydi. 7-8 yoshli bolaga 2 kuruk yugurtirilsa, 10-12 yoshli bolani esa 4 yoki 5 kurug yugurtiriladi. Shifokorlar bolaning yoshiga psixologik va fiziologik xususiyatlarga qarab og‘ir yoki yengil sport turlariga berishni tafsiya beradi. Mashg‘ulot davomida sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda, ularning texnik va taktik holatlarini psixologik va fiziologik jihatdan takomillashtirishda o‘zining irodaviy holatlari ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan har bir sportchida o‘ziga bo‘lgan ishonch yuqori marralarga eltadi

Sportchilarning musobaqa oldi, musobaqa, musobaqadan keyingi holatlarini o‘rganishda sport psixologiyasining metodalri qo‘l keladi. Bu metodlar orqali o‘z raqibining taktik harakatlarini o‘rganib olib o‘ziga qarshi ishlatishi mumkin bo‘ladi.

Metod so‘zi yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib “metodos” bilish yoki tadqiqot yo‘li nazariya ta’limot degan ma’nolarni anglatadi. Voqelikni amaliy va nazariy egallash, o‘zlashtirish, o‘rganish, bilish uchun yo‘l-yo‘riqlar usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli ham hisoblanadi. Sportchilarga xos bo‘lgan metodlar quydagilar. Kuzatish, eksperiment, anketa, suhbat, test, biografik sotsiometriya metodlardir. Har bir metodning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, Kuzatish metodi sportchining har kungi mashg’ulot, musobaqa oldi musobaqadan so‘ngi holatini kuzatish, tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Eksperiment metodi sportchilarni mashg‘ulotlar jarayonlarida maxsus texnika va texnologiyalarni qo‘llash orqali biror bir natijaga erishish bo‘lib, sportchining jismoniy sifatlari, texnika va taktikasi, psixologik tayyorlash va rivojlantirishda sun’iy hosil qilingan sharoitda namoyon bo‘luvchi faolyatini tahlil qilishdan iboratdir.

Anketa metodi sportchilar psixikasini ommaviy so‘roq asosida o‘rganish. Bu metod yordamida turli sport sohadagi va yoshdagi sportchilarning psixologik xususiyatlari, munosabatlari o‘rganiladi.

Suhbat metodi sportchilar va murabbiylar o‘rtasida hamkorlikning bir ko‘rinishi bo‘lib, jamoada suhbat, individual suhbatga asoslanadi. Suhbat metodi tadqiqot davomida tekshirilayotgan sportchi shaxsining psixologik xususiyatlari, ya’ni ularning dunyo qarashlari qiziqishlari, jamoaga munosabati va o‘zining burchini anglashi kabilarni bilib olish uchun zarur bo‘ladi

Biografik metodi sportchi psixikasi tadqiq qilish uchun o‘zining faolyati, natijalari to‘g’risidagi og‘zaki va yozma ma’lumotlar biografik metod orqali o‘rganiladi.

G‘oliblikda ham sportchilar 2 ta tipga bo‘linadilar. G‘alabani og‘ir bosiqlik bilan qabul qiladigan, raqiblariga bo‘lgan hurmatini saqlab qoladigan,ayrim sportchilar esa g‘alabadan keyin o‘zidan kuchsiz raqiblarini mensimizdan ularga behurmat qilishi, o‘zidan yulduzlikni yasab olishi mumkin. Shunday ekan sportchilarga inson tarbiyasi, shaxslararo munosabati, ijtimoiy muhit omili katta ta’sir ko‘rsatadi. Umuman olganda sportchilarni har qanday vaziyatga psixologik tayyorlash kerak. Shundagina sportchilar yuqori natijalarga erishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pulatov J.A sport psixologiyasi [Matn]: O‘quv qo‘llanma – Toshkent: “umid Design”, 2021.y

2. Pulatov J.A yosh davrlar psixologiyasi [Matn]: Darslik. Toshkent: “umid Design”, 2022.y

3. Gapparov Z.G sport psixologiyasi [Matn]: Darslik. Toshkent: “umid Design”, 2011.y

Surayyo RAXIMOVA,
MTTDMQTMOI "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIATSHUNOSLIK VA EKOLOGIYA ASOSLARI BILAN TANISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni tabiatshunoslik va ekologiya asoslari bilan tanishtirish jarayonida "Atrof va men" texnologiyasidan foydalanish, mazkur texnologiyaning mazmun-mohiyati haqida yoritib berilgan. Bunda maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishiga ko'ra atrof-muhit haqidagi tushunchalarni rivojlantirish, qiziqqan narsasi bo'yicha bolalarning ehtiyojini qondirish, ko'rgan narsalari, kuzatgan hodisalari yuzasidan qiziqib bergan savollari yuzasidan bolalarga tasavvurlarini kengashtirish va mustahkamlash maqsadida bergan savollariga nazariy hamda amaliy tadqiqotlarga asoslanib, ko'rgazmali, amaliy, og'zaki uslublardan foydalanib javob berish haqida yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar. Tabiatshunoslik va ekologiya asoslari, "Atrof va men" texnologiyasi, ko'rgazmali uslub, amaliy uslub, og'zaki uslub, kuzatish, yuksak aqliy faoliyat, jonli va jonsiz tabiat, badiiy adabiyot.

В статье показано использование технологии "Окружающая среда и я" в процессе ознакомления детей с основами естествознания и экологии в дошкольной образовательной организации, а также сущность данной технологии. Основываясь на теоретических и практических исследованиях, вопросы, задаваемые детьми дошкольного возраста, направлены на развитие их понимания окружающей среды в соответствии с их интересами, удовлетворение потребностей детей в том, что их интересует, расширение и укрепление их воображения относительно вещи, которые они видят, наблюдаемые явления. Рассматриваются ответы с использованием визуальных, практических и вербальных методов.

Ключевые слова. Основы естествознания и экологии, технология "Окружающая среда и я", наглядный стиль, практический стиль, словесный стиль, наблюдательность, высокая умственная деятельность, живая и неживая природа, художественная литература.

The article shows the use of the "Environment and Self" technology in the process of introducing children to the basics of natural science and ecology in a preschool educational organization, as well as the essence of this technology. Based on theoretical and practical research, questions asked by preschool children are aimed at developing their understanding of the environment in accordance with their interests, satisfying children's needs for what interests them, expanding and strengthening their imagination about the things they see, observe phenomena. Answers are examined using visual, practical and verbal methods.

Key words. Basics of natural science and ecology, technology "Environment and I", visual style, practical style, verbal style, observation, high mental activity, living and inanimate nature, fiction.

Bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri – bu kelajak avlodni barkamol kishilar qilib tarbiyalashdir. Bu masala ijrosini ta'minlashda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiatshunoslik hamda ekologik tarbiya bo'yicha olib boriladigan ta'limiy faoliyatlar muhim rol o'ynaydi. Shunga ko'ra maktabgacha ta'lim

tashkilotlarida faoliyatlarini olib borayotgan tarbiyachilar oldida bolalarda tabiat go‘zalliklarini ko‘ra bilish, uni sevish, tabiatda yuz berayotgan voqea, hodisalar haqida to‘g‘ri tushunchalar hosil qilish, ularga ekologik ta’lim-tarbiya berishdek muhim vazifa turadi. Tarbiyachi bu jarayonda eng avvalo o‘zi tabiatni sevuvchi, jonli va jonsiz tabiat haqida aniq bilimlarga ega bo‘lishi lozim. Tarbiyachi tomonidan beriladigan ma’lumotlar har doim to‘g‘ri va aniq bo‘lishi kerak, berilgan ma’lumot va bilimlar bolalarni chalg‘itmasligi juda muhimdir. Tarbiyachi bolalarni tabiat bilan tanishtirish uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida berilgan tabiatga oid bilimlar bilan tanishib chiqqan va har bir yosh guruh uchun berilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalar haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi zarur. Tarbiyachi har bir faslda olib boradigan tabiat haqidagi bilimlarini to‘g‘ri rejalashtirishi, yer maydonchasidagi o‘simliklar, tirik burchakdagi xona o‘simliklari, akvariumda, terrariumda yashovchilarni parvarish qilish ko‘nikmalarini, qafasdagi qushlar va mayda sutemizuvchilar bilan tanishtirishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi zarur. Tarbiyachi bolalarni yuqoridagilar bilan tanishtirar ekan, ularning dunyoqarashini shakllantirib, jonli va jonsiz tabiatning xususiyatlarini o‘rganib, ular haqida dastlabki tushunchalar beradi.

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya sohasida keng rivojlanib borayotgan yo‘nalishlardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdan iborat. Ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o‘z bilim va tajribalarini o‘sib kelayotgan avlodga o‘rgatishdan iborat bo‘lib, bu jarayonda asosan inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan avlodga uzatish amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiya – bu o‘qitishga o‘ziga xos yangicha (innovatsion) yondoshuvdir. Pedagogning ta’lim-tarbiya vositalari yordamida bolalarga muayyan sharoit va izchillikda ta’sir ko‘rsatish hamda mazkur faoliyatning mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan maqsad bo‘yicha ta’sir o‘tkazish faoliyatidan iborat. Pedagogik texnologiya jarayonida pedagog rahbarligida bola mustaqil ravishda bilim oladi, o‘rganadi, o‘zlashtiradi. Bu faoliyatni amalga oshirish uni tashkil qilish, olib borish, takomillashtirish, tahlil qilish, tadqiq qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, boshqarish, nazorat, baholash kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Pedagogikada metod – pedagog va ta’lim oluvchining (bolaning) ma’lum ta’lim-tarbiyaviy natijasi: bilimlarni egallash, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish, qobiliyatlarni o‘stirish, axloqiy sifatlar, xulq odatlarni shakllantirishga erishish uchun yo‘llangan hamkorlikdagi faoliyatining usulidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni tabiatshunoslik va ekologiya asoslari bilan tanishtirish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiatshunoslik va ekologiya asoslari bilan tanishtirishda “Atrof va men” texnologiyasini qo‘llashda turli uslublarni qo‘llash nazarda tutiladi.

“Atrof va men” texnologiyasi orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni qiziqishiga ko‘ra atrof-muhit haqidagi tushunchalarni rivojlantirish, qiziqqan narsasi bo‘yicha bolalarning ehtiyojini qondirish, muloqot jarayonida mustaqil fikrlashga, o‘z fikrlarini erkin bayon etishiga, kuzatish natijasida paydo bo‘lgan savollariga mustaqil o‘zlari izlanishga, to‘g‘ri xulosa chiqarishlariga yordam berish, erkin holda bahslashuvga sharoit yaratish, muloqot qilishga o‘rgatish amalga oshiriladi.

Bolalarni uydan maktabgacha ta’lim tashkilotga kelguncha yo‘lda ko‘rgan narsalari, sayr jarayonida kuzatgan hodisalari yuzasidan qiziqib bergan savollari yuzasidan ularning tasavvurlarini kengashtirish va mustahkamlash maqsadida pedagoglar ko‘rgazmali uslubdan: kuzatish, rasmlarni ko‘rish, diafilm, kinofilm, ekskursiyalar; amaliy uslublardan: o‘yin, mehnat, oddiy tajribalar; og‘zaki uslubdan: tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlarni o‘qish, suhbatlardan foydalanib yondashishlari bolalarning qiziqqan narsa va hodisalari haqidagi tasavvurlarini, tushunchalarini yanada kengroq boyitishga,

yanada kengroq qiziqishlariga turtki bo‘ladi.

Metodlarni tanlashda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlari, psixologiyasi, bilimlari, dastur talablari, o‘z o‘lkasi iqlimining tabiati, pedagogik tamoyillarga moslashadi. Yuqoridagi metodlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning atrof-muhit to‘g‘risidagi qiziqishlariga ko‘ra intellektual bilish malakalariga, bilish jarayoniga poydevor qo‘yiladi, bola atrof-muhit haqida tushunchaga ega bo‘ladi, kuzatuvlar asosida xulosa qiladi va umumlashtiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muhit to‘g‘risidagi qiziqishlari, bolalarning kattalarga “Bu nima?”, “Nima uchun?”, “Qanday qilib?” kabi cheksiz savollari bunga misol bo‘la oladi. Bu o‘rinda pedagog savollarga javob topishda bolalarning o‘zlarini jalb qilishga harakat qilishi zarur.

Barcha hollarda kuzatish bolalarning yuksak aqliy faoliyatini rivojlantirishi, ularni fikrlashga, berilgan savollarga javob topishga undashi, shuningdek, ulardagi qiziqishlarni rivojlantirishi va tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni tarbiyalashi lozim.

Pedagog bolalarning savollarиga javob berishda, bolalarning yoshiga mos savol va topshiriqlar, narsani ushlab ko‘rish, qiyoslash, o‘yin harakatlaridan foydalanishlariga imkon yaratadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiatshunoslik va ekologiya asoslari bilan tanishtirishda badiiy adabiyotning o‘rni katta. Badiiy adabiyot bolalarni tabiatshunoslik va ekologiya asoslari bilan tanishtirishda qudratli, ta’sirchan qurol sifatida xizmat qiladi, shu bilan birga bola nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta’sir ko‘rsatadi.

Tarbiyachining vazifasi bolalarda badiiy adabiyot orqali tabiatga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish, tabiatning go‘zalligini, jozibasini his etishni o‘rgatish, bolalarda badiiy adabiyot orqali tabiatga bo‘lgan qiziqish va muhabbatini rivojlantirish, tabiatdagi nafosat va go‘zallikni his etish malakalarini shakllantirishdir.

Bolalarga jonli va jonsiz tabiat haqidagi jozibador rasmlar bilan bezatilgan ertak yoki hikoyani o‘qib berish ularga jonivorlarga, o‘simliklarga nisbatan qiziqish, mehr hislarini yanada kuchaytiradi, tabiatdagi hodisalarni aniq tasavvur qilishiga yordam beradi.

Tarbiyachi kuzatishni tashkil qila turib, kerakli ma’lumotlarni aytishi, kuzatiladigan obyektning muhim xususiyatlarini ajratishi zarur. Bolalarda kuzatishga nisbatan qiziqish uyg‘otish, kuzatilayotgan narsalarni estetik idrok etish uchun tarbiyachi she’rlar, topishmoq ва maqollardan, katta yosh guruhlarda esa badiiy asarlarni o‘qishdan foydalanadi.

Masalan, bola sayr vaqtida kapalakni ko‘rib qolib, qiziqish bilan kapalakni kuzatdi va pedagogga savol bilan murojaat qiladi. Kapalakni kuzatishda pedagog izchillikka rioya etib, bolalarning diqqatini “Nima qilyapti?”, “Qanday uchyapti?”, “Qanday gulga qo‘ndi?”, “Qanotlari qanday?”, “Qanotlari qanday ko‘rinishda?”, “Oyoqlari qanday - uzunmi yo qisqami?”, “Ko‘zlari qanday (shakli, rangi)?”, “Kapalaklarning qanotlari chiroylimi?” kabi savollar yordamida kapalakning xatti-harakatiga qaratadi.

Kattalar bolalarda kapalakga bo‘lgan qiziqish ishtiyoqini uyg‘otish uchun savollar berish, tarbiyachi hikoya, she’r ta’limiy o‘yinlar, kapalaklarning yashash tarzi haqidagi roliklarni ko‘rsatish bolaning qiziqqan narsasi haqidagi ehtiyojini qondirishga yaxshi samara beradi.

Kattalar bolalarga badiiy asarni o‘qib berar ekan bolalarning kapalak haqidagi “Nima uchun?”, “Nimaga shunday?”, “Qanday qilib?” va shu kabi savollariga javob беради, bolalarda kapalakka bo‘lgan qiziqish tarbiyalanib boradi.

Zafar Diyorning “Kapalak” she’rini o‘qib berish bilan bolalarda kapalakka qiziqish tarbiyalanadi, kapalak haqidagi tasavvurlari kengaytiriladi. Kapalakning nozik qanotlari va harakatlaridan zavq olish kuzatiladi.

Zafar Diyor

Kapalak

Hoy, kapalak, kapalak,
Qanotlaring ipakdak.
Muncha shoshib uchasan,
To‘xta, so‘zlayin andak.
Uchrataman har kuni
Seni har kun bog‘chamda,
So‘rib gullar sharbatin
O‘ltirasan olchamda.
Borib ushlay deganda
Shoshib darhol uchasan.
Sira tutqich bermasdan
Guldan gulga ko‘chasan.
Mendan aslo qochmagin,
Do‘st bilaman o‘zimga.
Pildir-pildir uchishing,
Oh, yoqadi ko‘zimga.
Uch, uchaver, uchaver,
Go‘zal bog‘cham-gulshanda.
Sira ozor bermayman
Sevgim, fikrim bor senda.
Kapalakjon, kapalak,
Qanotlaring ipakdak.
Do‘st bo‘laylik ikkimiz,
To‘xta, so‘zlayin andak!

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiatshunoslik va ekologiya asoslari bilan tanishtirishda xilma-xil ko‘rgazmali materiallardan ham foydalanish zarur. Bular tabiat jismlari, ob-havo kalendarlari, gerbariylar, illyustratsiyalardir. Ko‘rgazmalar qatorida bolalarning sezgi a’zolariga bevosita ta’sir etadigan, bolalar narsalarni ko‘rib, qo‘l bilan ushlab ko‘rishlari, eshitib, hidlab ko‘rishlari, ta’mini tatib ko‘rishlari, ya’ni ularning xususiyatlarini seza bilish imkoniyatlariga ega bo‘ladigan predmetlarning bo‘lishi muhimdir. Uyda, sayrda, o‘yinlarda va mehnatda, tabiatdagi narsa va hodisalarni bolalarga ta’sir etishi natijasida ularda seza bilish tajribalari to‘planib boradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bog‘chaga ketayotganlarida ko‘chadagi ob-havo sharoiti (sovuq, issiq, iliq va namlik)ni seza oladilar. Qo‘llarini yuvganlarida, cho‘milish vaqtida, o‘yinlarda suvning xususiyatlarini (sovuqligi, iliqligi, sachrashi, toshlarning suvda cho‘kishi yoki yog‘ochning suzib yurishi, suvning shildirashi)ni payqay oladilar. Hayvonlarni parvarish qilishda esa ularning harakatlarini, odatlarini bilib oladilar. Bola tabiat bilan yaqin munosabatda bo‘lishi natijasida, undagi narsa va hodisalarni yaqqol ko‘rib, idrok qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Lekin ko‘pincha bola narsalarni payqamay qolishi yoki muhim bo‘lmagan tomonlarga diqqat qilib, idrok qilgan narsalarini noto‘g‘ri tasvirlashi mumkin. 3-4 yoshdagi bola uchayotgan qushlarni hamma vaqt ham sezmasligi mumkin. Hayvonlarni uchratganda u birinchi navbatda uning kattaligiga e’tibor beradi, akvariumda suzib yurgan baliqni ko‘rsatib uni “uchayapti” yoki “qanotini silkitayapti”, - deb aytadi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, bolani tabiat bilan tanishtirishda unga hodisa yoki narsani ko‘rsatishning o‘zigina kifoya qilmaydi. O‘rgatish jarayonida maqsadga muvofiq rahbarlik qilinishi zarur. Bu esa tarbiyachining bola idrokini yo‘lga soladigan, diqqatini ko‘rish va eshitishi muhim bo‘lgan narsa va hodisalarga to‘g‘ri yo‘naltiruvchi so‘zlarida ifodalanadi.

Bundan tashqari topishmoqlar, she’rlar, qushlar ovozining yozuvlari foydalidir. Bu bolalarda qiziqayotgan narsa va hodisalariga nisbatan emotsional munosabat uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli Qaror. T., 2020.

2. Grosheva I.V., Yevstafeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova SH.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. ‘‘Ilk qadam’’ davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) – T., 2022.

3. “Ta’limdagi global hamkorlik” loyihasi doirasida 7 nomda kitob va qutidan iborat kitoblar to‘plami.

4. Ibrohimova Z. Kichkintoylar adabiyotining xususiyatlari. – T.: O‘qituvchi, 1994.

Xalimaxon QODIROVA,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti doktoranti PhD, v/b dotsent

BOSHLANG'ISH SINF O'QUVCHILARINING SPORTGA QADRIYATLI-MOTIVATSION MUNOSABATINI SHAKLLANTIRISH MASALASI (Turkiya talribasi misolida)

Annotatsiya

Maqolada Turkiya respublikasining yangi tasdiqlangan ya'ni "Turkiya asr ta'lim modeli" ("Türkiye yüzyili maarif modeli) da boshlang'ish sinf o'quvshilarining sportga qadriyatli-motivatsion munosabatini shakllantirishda qaratilgan infografika (Bilgi Görseli), "Bir umrlik ta'lim" (Hayat boyu öğrenme), "Fazilat" (ERDEM)ga yondashuviga ko'ra, "Qadriyat" (Değer) maqsadi sifatida Q.13"Sog'lom yashash" (Sağlıklı yaşam), "Harakat" (Eylem), "Vatanparvarlik" (Vatanseverlik) "Ijtimoiy mas'uliyat" (Sosyal Sorumluluk Programı) kabi yondashuvlar va maqsadlar shu bilan birga Turkiyada jismoniy tarbiya va sport ta'limi unga bo'lgan qadriyatli munosabatni shakllantirishga qaratilgan faoliyatga doir fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Tayanch so'zlar. Turkiya asr ta'lim modeli, infografika, bir umrlik ta'lim, fazilat, qadriyat, sog'lom yashash, harakat, vatanparvarlik, ijtimoiy mas'uliyat, sport, qadriyatli munosabat, jismoniy mashqlar.

В статье представлены отзывы об инфографике (Bilgi Görseli), направленной на формирование ценностно-мотивационного отношения младших школьников к Сорту в недавно утвержденной "Модели образования века Турции" ("Türkiye yüzyili maarif modeli) Турецкой Республики, согласно подходу "Пожизненное образование" (Hayat boyu öğrenme), "Достоинство" (ERDEM), в качестве цели "Ценность" (Değer) Q.13 Подходы и цели, такие как "Здоровый образ жизни" (Sağlıklı yaşam), "Движение" (Eylem), "Патриотизм" (Vatanseverlik), "Социальная ответственность" (Sosyal Sorumluluk Programı), в в то же время о деятельности по построению ценностного отношения к физическому воспитанию и спортивному воспитанию в Турции.

Ключевые слова. Модель образования века Турции, инфографика, пожизненное образование, достоинство, ценность, здоровый образ жизни, действие, патриотизм, социальная ответственность, спорт, ценностное отношение, физические упражнения.

The article, the infographics (Bilgi Görseli) aimed at forming the value-motivational attitude of primary school childrens to the sports in the newly approved "Türkiye Century Education Model" ("Türkiye yüzyili maarif modeli") of the Republic of Turkey, according to the "Lifelong Education" (Hayat boyu) öğrenme), "Dignity Virtue" (Erdem), as a goal "Value" (Değer) Q.13 Approaches and goals, such as "Healthy lifestyle" (Sağlıklı yaşam), "Movement" (Eylem), "Patriotism" (Vatanseverlik), "Social Responsibility Program" (Sosyal Sorumluluk Programı), at the same time about activities to build a value-based attitude towards physical education and sports education in Turkey.

Key words. Turkey century education model, infographics, lifelong learning, virtue, value, healthy living, movement, patriotism, social responsibility, sports, valuable attitude, physical exercises.

Turkiya dunyo mamlakatlari sirasida o‘z ta’lim modeliga ega bo‘lgan sifatli va samarador ta’lim tizimining o‘ziga xosligi, raqobarbardosh kadrlarni yetishtirish borasida o‘zining pozitsiyasiga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Turkiyada ta’lim Otaturk islohotlariga muvofiq tashkil etilgan milliy tizim bilan boshqariladi. Bu millatning ijtimoiy va iqtisodiy institutlari uchun mohir professional sinfni ishlab chiqarishga mo‘ljallangan davlat tomonidan nazorat qilinadigan tizim bo‘lib hisoblanadi[1].

Boshlang‘ich maktab (turkcha: İlköğretim Okulu) 4 yil davom etadi. Boshlang‘ich ta’lim 6 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan bolalarga qaratilgan ta’lim va o‘qitishni qamrab oladi, barcha fuqarolar, o‘g‘il bolalar yoki qizlar uchun majburiydir va davlat maktablarida bepul beriladi. Boshlang‘ich ta’lim muassasalari sakkiz yillik uzluksiz ta’limni ta’minlaydigan maktablar bo‘lib, uning yakunida bitiruvchilarga boshlang‘ich ta’lim to‘g‘risidagi diplom beriladi1.

Barchamizga ma’lumki, 2023-yilda Turkiya Respublikasi Mustaqilligining 100 yilligini nishonlardi. Shunga ko‘ra, ta’lim tizimini ammalga oshirish, sifat va nazoratni kuchaytirish, samarador ta’lim tizimini ta’sinlash, raqobatbardosh kadr tayyorlash nuqtai nazaridan “Türkiye yüzyili maarif modeli”[2] ya’ni “Turkiya asr ta’lim modeli” namunaviy o‘quv dasturlari 2024-yilda taxrirlanib, qayta tasdiqlandi. namunaviy o‘quv dasturlari 2024-yilda tahrirlanib, qayta tasdiqlandi.

Infografika (Bilgi Görseli) ga asosan o‘quvchi profili nazarda tutilgan bo‘lib, unga ko‘ra o‘quvchi sog‘lom sport bilan shug‘ullanishi va muntazam jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishi ko‘rsatigan.

Ochiq/tabiat/sinfdan tashqari ta’lim, tabiiy muhitlar: Ochiq havodagi mashg‘ulotlar va tabiatda o‘rganish uchun foydalaniladigan hududlar, badiiy, ilmiy, madaniy va sport maskanlari: muzeylar, ilmiy muassasalar va tashkilotlar, sport o‘quv markazlari, galereyalar va boshqalar haqida ma’lumotlar ko‘rsatmalar berilgan.

Bu nuqtayi nazar o‘quvchilarga jamiyatning bir qismi sifatida hayotni anglash va ular yashayotgan jamiyatning bir qismi sifatida ijtimoiy qadriyatlarga moslashishga yordam beradi.

“Bir umrlik ta’lim” (Hayat boyu öğrenme) yondashuvi orqali o‘quvchilarga sinfdan tashqarida ham ta’lim olishga va o‘rganishga muhabbatni ta’minlashga qaratilgan. O‘quvchilar o‘zlarini qiziqtirgan faoliyat bilan shug‘ullanishlari va butun hayoti davomida ushbu qiziqishlarni o‘rganishda davom etishlari tavsiya etiladi. “Bir umrlik ta’lim” bilan ta’minlangan boy ta’lim tajribasi o‘quvchilar uchun tashqi dunyoda nima sodir bo‘layotganini tushunish va xabardorlikni oshirish uchun muhim hisoblanadi. Badiiy faoliyat yoki sport kabi turli qiziqishlar bilan bog‘liq umrbod ta’lim faoliyatida ishtirok etish turli sohalarni o‘rganish va muvafaqqiyatlarini kashf etishga yordam beradi.

“Türkiye yüzyili maarif modeli” ya’ni “Turkiya asr ta’lim modelida o‘quvchilarning shaxsiy va faoliyatli yondashuviga qo‘yilgan “Fazilat” (ERDEM)ga yondashuviga ko‘ra, “Qadriyat” (Değer) maqsadi sifatida Q.13 “Sog‘lom yashash”, “Harakat” (Eylem) ga ko‘ra, sport to‘garaklarida ishtirok etish, F13.2.1. Sport va jismoniy mashqlarning shaxs rivojlanishiga ta’sirini tan olishi; F13.2.2. Sport, jismoniy mashqlar va mashg‘ulotlarning

1 Özelli, M. Tunç (January 1974). “The Evolution of the Formal Educational System and Its Relation to Economic Growth Policies in the First Turkish Republic”. International Journal of Middle East Studies (London: Cambridge University Press) 5 (1): 77–92. doi:10.1017/s0020743800032803

2 “Overview of the Historical Development of the Ministry of National Education“. National Education at the Beginning of 2002. Ministry of National Education. 2012-yil 23-oktyabrda asl nusxadan arxivlangan

jismoniy va ruhiy salomatlikka ijobiy hissasini bililishi; F13.2.3. Yoshi va jismoniy xususiyatlariga mos keladigan ijtimoiy va sport tadbirlarida qatnashishi nazarda tutilgan bo‘lib, sayohatni kuzatish, hamkorlikda o‘rganish, amalga oshirish va tajriba orqali o‘rganish, o‘quv o‘yini kabilar “Harakat” (Eylem) maqsadlarida o‘z aksini topgan.

Q.19 “Vatanparvarlik” (Vatanseverlik) yondashuvida Q.19.2.6. Ilm-fan, san’at, sport va madaniyat sohalarida o‘z mamlakatini namoyon etayotganlarni qadrlashi belgilangan.

“Ijtimoiy mas’uliyat” (Sosyal Sorumluluk Programı) dasturi o‘quvchilarga ijtimoiy muammolarni yechimini topishga yordam beradigan va ko‘plab loyihalar va tadbirlarni qo‘llab-quvvatlaydigan tuzilmadir. Ushbu loyihalar va tadbirlar; ta’lim, madaniyat, sport, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy ofatlar va favqulodda vaziyatlarni boshqarish kabi turli sohalarda amalga oshirilishi mumkin va talabalarning ijtimoiy mas’uliyat ongini rivojlantiradi.

Shu o‘rinda Turkiya ta’lim tizimiga qadriyatli munosabatga alohida to‘xtalib o‘tishni joiz deb bildik.

Turkiya konstitusiyasining 59-moddasida “Davlat barcha yoshdagi turk fuqarolarining jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilash uchun chora-tadbirlar ko‘radi va sportning ommalashishini rag‘batlantiradi. Davlat muvaffaqiyatli sportchilarni himoya qiladi”[3] - deya ta’kidlanadi.

Demak, bundan tushunish mumkinki, Turkiyada sport va jismoniy tarbiya bilan muntazam shug‘ullanishga davlat tarafidan siyosiy darajadagi o‘ziga xos yondashuv amalga oshirilishini nazarda tutuvchi munosabat shu bilan bir qatorda mamalakatda yoshu-qarining sportga ongli va qadriyatli munosabatini orttirishga qaratilgan jarayon taxsinga sazovor deyish mumkin.

Jamiyatda qonunlarni ishlab chiqish bilan jarayon o‘z-o‘zidan amalga oshib, natijaga yetishib bo‘lmaydi. Mazkur qonun ustuvorligida oliy ta’lim muassasalarida sport va jismoniy taribiya o‘qituvchilarini tayyorlash tizimning eng aosiy richaklaridan biri desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ta’limning ilk yillarida-yoq sportga muhabbatni uyg‘onishida jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining o‘rnini alohida e’tirof etish lozim albatta. Turkiyalik taqiqotchi Hakan Sunay “Turkiyada sport ta’limi va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash siyosati” nomli taqdimotida o‘quvchilarda sportga bo‘lgan qadriyatli munosabatni shakllanishiga xizmat qilishuvchi quyidagilarni muhim omillar sifatida e’tirof etadi:

– sportni jamiyatimizning, birinchi navbatda, bolalar va yoshlarimizning ajralmas ishtiyoqi va turmush tarziga aylantirish;

– sport bilan shug‘ullanishni rag‘batlantirish;

– insonlarda sportga mehrni uyg‘otish;

– chekish, ichish, qimor o‘yinlari kabi zararli odatlardan uzoqlashish;

– o‘z millatini sevadigan bag‘rikeng, ijtimoiy va mehnatsevar insonlar bo‘lib voyaga yetishi uchun sportni ilmiy tushunishga mos muhit va imkoniyatlarni ta’minlash uchun asosiy politik qarashlar talab etiladi[4].

Ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarining amaldagi soatlari bo‘yicha ho-

3 https://mufredat.meb.gov.tr/?fbclid=IwZXh0bgNhZW0CMTAAAR3x1Crr28qGzBQt6zMevuAnWGyELf2l01J0W_TMw6FgFhdNJeVZu4lKOFc_aem_ZmFrZWR1bW15MTZieXRlcw

4 TÜRKİYE CUMHURİYETİ ANAYASASI 1 2 3 4. Kanun Numarası Kabul Tarihi: 2709: 18/10/1982 Yayımlandığı Resmî Gazete: Tarih : 9/11/1982 Sayı: 17863 (Mükerrer) Yayımlandığı Düstur: Tertip: 5 Cilt: 22 Sayfa: 3, 19 ncu sayfa.

lati (Turkiya):

– turkiya davlatida boshlang‘ich va o‘rta ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport darslari majburiy hisoblanadi;

– majburiy jismoniy tarbiya va sport darslari har hafta boshlang‘ich sinflarda 1 soatdan, umumta’lim maktablarida 2 soatdan o‘qitiladi;

– jismoniy tarbiya va sport fani fakultativ fan sifatida, 8 yillik boshlang‘ich maktablarda oxirgi uch yilda haftasiga 2 soat, o‘rta ta’limda 2 (2+2) soat (tanlov darsi sifatida 2 soat va sinfdan tashqari 2 soat) o‘qitiladi. bepul ish);

– 8 yillik boshlang‘ich maktablarda oxirgi uch yilda haftada 2 marta va o‘rta ta’limda (2+2 ya’ni 2 soat tanlov dars, 2 soat darsdan tashqari bepul ta’lim) soatlari qo‘llaniladi;

– kasb-hunar maktablari va oliy o‘quv yurtlarida (kreditsiz) 2 soat tanlov dars sifatida o‘qitiladi;

– boshqa tomondan, o‘rta maktablarda o‘qitiladigan jismoniy tarbiya darslari doimiy ravishda o‘zgarib turadi.

Sebahattin Devejiog‘lu, Bilal Choban, Yunus Emre Karakayalarning “Turkiyada sport ta’limi sektorining istiqboli” mavzusidagi maqolasida mualliflar “Bolalar va yoshlarning alohida qiziqish va qobiliyatlarini yanada rivojlantirish uchun sifatli sport ta’limi (o‘qituvchilar yetishmovchiligini tugatish, kurslar sonini ko‘paytirish, sport zallari qurish va h.k.) bo‘yicha reja va dasturlar Milliy ta’lim vazirligi tomonidan xalqaro standartlarga keltirilishi kerak” degan fikrlar ilgari suriladi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiya Respublikasining “Türkiye yüzyili maarif modeli” ya’ni “Turkiya asr ta’lim modeli” namunaviy o‘quv dasturlarida boshlang‘ich sinfdanoq bolalarni atrof-muhitga, urf-odat va an’analarga, ijtimoiy mas’uliyatga, vatanparlikka shu bilan bir qatorda sport bilan aloqador shaklda hayotiy faoliyatini tashkil etishga alohida ahamiyat qaratilgan.

Mazkur dastur tom ma’noda inson shaxsining butun hayotini mustqil yo‘naltirishga qaratilgan, chuqur ma’no kasb etuvchi dastur desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu bilan birga Turkiya konstitutsiyasidan o‘rin oliganligi jismoniy tarbiya va sportga qaratilayotgan e’tibor, davlat tomonidan e’tirof etilishi va rag‘batlantirishi yuqori darajada deyish mumkin, shu bilan bir qatorda bunday chora-tadbirlar mamlakatda jismoniy tarbiya va sportga fuqarolarni boshlang‘ich sinflardanoq qadriyatli munosabat yanada yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Foydalilgan adabiyotlar

1. TÜRKİYE CUMHURİYETİ ANAYASASI 1 2 3 4. Kanun Numarası Kabul Tarihi: 2709: 18/10/1982 Yayımlandığı Resmî Gazete: Tarih : 9/11/1982 Sayı: 17863 (Mükerrer) Yayımlandığı Düstur: Tertip: 5 Cilt: 22 Sayfa: 3, 19 ncu sayfa.

2. “Overview of the Historical Development of the Ministry of National Education“. National Education at the Beginning of 2002. Ministry of National Education. 2012-yil 23-oktyabrda asl nusxadan arxivlangan

3. Camy J., Klein G., Madella A. ve Petry, K. (2006). Final Conclusion & Perspectives. In: Petry, K., Froberg, K. & Madella, A. (2006). Thematic Network Project AEHESIS - Report of the Third Year. Cologne.

4. Özelli, M. Tunç (January 1974). “The Evolution of the Formal Educational System and Its Relation to Economic Growth Policies in the First Turkish Republic”. International Journal of Middle East Studies (London: Cambridge University Press) 5 (1): 77–92. doi:10.1017/s0020743800032803

Faxriddin XUSHNAZAROV,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali

JISMONIY MADANIYATNI O‘QUVCHILAR ORASIDA SAMARALI SHAKLLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBANING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun jismoniy madaniyatning ahamiuati, uni rivojlantirishda ahamiyatdagi ahamiyatlin tomonlari o‘rganilgan. Shuningdek, xorijiy tajriba asosida jismoniy madaniyatni rivojlantirishda pedagogdan talab qilinadigan uslublar tahlil etilgan.

Tayanch so‘zlar. Sog‘lom turmush tarzi, jismoniy tarbiya, boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining jismoniy madaniyatini shakllantirish

В статье исследуется значимость физической культуры для учащихся начальных классов, ее значимость для развития. Также проанализированы приемы, которые требуются педагогу при развитии физической культуры на основе зарубежного опыта

Ключевые слова. Здоровый образ жизни, физическое воспитание, формирование физической культуры младших школьников

The article explores the importance of Physical Culture for elementary students, the significant aspects of its development. Also, on the basis of foreign experience, the methods required by the educator in the development of Physical Culture are analyzed

Key words. Formation of a healthy lifestyle, physical education, physical culture of Primary School students

Hozirgi kunda yosh avlod salomatligi davlat va jamiyat uchun alohida tashvish uyg‘otmoqda. Bolalar va o‘smirlarning gigiena va sog‘lig‘ini muhofaza qilish ilmiy-tadqiqot instituti va Rossiya tibbiyot fanlari Akademiyasining bolalar salomatligi ilmiy markazi ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi paytlarda sog‘lom maktabgacha yoshdagi bolalar soni 5 baravar kamaydi va bolalar sonining atigi 10 foizi maktabga kiradi. Sog‘lom turmush tarzi uchun motivatsiya, hayotning dastlabki yillaridan boshlab salomatlikni saqlash va targ‘ib qilish bo‘yicha bilim, amaliy ko‘nikmalar to‘laqonli shaxsni rivojlantirish uchun zarur shartdir. Shu bilan birga, sog‘liqni saqlash madaniyati ta’limining samaradorligi o‘quv va o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning uzluksizligi kuzatilganda mumkin.

Barqaror qimmatli sog‘liqni saqlash yo‘nalishlarini shakllantirish bolalarga giyohvandlikning salbiy tajribasini olishdan qochish, jismoniy faoliyatga bo‘lgan ehtiyojni saqlab qolish va o‘sib borayotgan tanasini mustahkamlash imkonini beradi. Ushbu ishning muvaffaqiyati maktabgacha ta’lim muassasasi va boshlang‘ich maktab o‘rtasidagi uzluksizlikni hurmat qilishga bog‘liq. Shu bilan bir vaqtda E. M. Kazin kabi tadqiqotchilar, N. G. Blinova, N. A. Litvinova va boshqalar sog‘liqni saqlash faoliyati samaradorligini oshirish, sog‘lom bola tarbiyasi uchun zahira imkoniyatlaridan foydalanish, izchillik va ketma-ketlikni hisobga olgan holda salomatlikka nisbatan qimmatli munosabatni shakllantirish jarayonini yaratish zarurligini ta’kidlamoqda. Bu bolalarda sog‘liqni saqlash madaniyati va sog‘lom turmush tarzining ustuvorligini oshirishga imkon beradi. Maktabgacha ta’lim bo‘yicha Federal Davlat ta’lim standartiga muvofiq,

maktabgacha ta’limning maqsadlariga quyidagilar kiradi: qiziquvchanlik, sabab-oqibat munosabatlariga qiziqish, o‘zi haqidagi asosiy bilimlar, bolalar adabiyotini bilish, tirik tabiat haqidagi elementar g‘oyalar. Shu bilan birga, bolani ta’lim munosabatlarining to‘laqonli ishtirokchisi sifatida tan olish muhimdir.

Maktab o‘quvchilarining jismoniy rivojlanish darajasi, jismoniy tayyorgarligi darajasi, kasallanish darajasi va o‘quv ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik asosida o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligi me’yorlari aniqlanadi, bu bolalarning maktabda o‘qishga tayyorligini belgilaydi. Sinovlar to‘plamiga quyidagilar kiradi: joyda turib uzunlikka sakrash, 30 sekund davomida devorga 1 m masofadan to‘pni otish va ushlash, qo‘llarga tayanib yotgan holda qo‘llarni bukish va yozish, arg‘amchi bilan sakrash, yotgan holda gavdani ko‘tarish va tushirish, o‘tirib turish. Ushbu testlar tizimi, muallifning fikriga ko‘ra, bolaning maktabda o‘qishga tayyorligini baholashga to‘liq imkon beradi.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish jismoniy tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

So‘nggi yillarda maktab o‘quvchilarining jismoniy tiklanishi jarayonida jismoniy holatni kuzatish tizimlarini joriy etish va ulardan foydalanishga qiziqish bo‘lganiga qaramay va bolalarning jismoniy holatining pastligini hisobga olgan holda, jismoniy holatni kuzatish tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish davom etmoqda va bu jarayon o‘z navbatida modernizatsiya yo‘lidagi o‘ta dolzarb muammolarni hal qilish va yechimlarni topishni talab qiladi.

Jismoniy tarbiya jarayonini boshqarish, bolalarning jismoniy holati to‘g‘risida muntazam ma’lumot berish, ta’lim va tarbiya jarayonini to‘g‘irlash orqali natijalarga ta’sir o‘tkazishga vaqt ajratish uchun eng muhim mexanizm bu bolalarning jismoniy holatini nazorat qilishdir.

Ayni vaqtda, bir qator mualliflarning fikriga ko‘ra, jismoniy tarbiya jarayonining samaradorligini baholash mezonlarini qayta ko‘rib chiqishning dolzarb muammosi mavjuddir. Hozirgi vaqtda jismoniy tayyorgarlikni sinovdan o‘tkazishning mavjud tizimi jismoniy rivojlanish darajasi, jismoniy salomatlikdarajasi, tana tizimlari va mushak-skelet tizimining funksional holati kabi ko‘rsatkichlarni hisobga olmaydi.

Sog‘liqni saqlash insonning muhim qadriyatlari orasida etakchi o‘rinni egallaydi, shuning uchun bolalarning sog‘lig‘ini saqlash muammosi doimo dolzarbdir. 2014-yilda Rossiyada sog‘liqni saqlash statistikasi ma’lumotlariga ko‘ra, maktabga kirgan bolalarning taxminan 35-40 foizi surunkali kasalliklarga chalingan, o‘quvchilarning 50 foizdan ortig‘i ba’zi funktsional anormalliklarga ega. O‘quv yili boshlanishi bilan boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining motor faolligi pasayadi, chunki talabalar uzoq vaqt stolda o‘tirishadi. Darsdan keyin zamonaviy bolalar kompyuter o‘yinlariga, turli xil gadjetlarga ko‘p vaqt ajratadilar, bu ham o‘quvchilarning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir qiladi. Shuning uchun boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining jismoniy madaniyatini shakllantirish, ularning sog‘lig‘ini mustahkamlash uchun shoshilinch ehtiyoj paydo bo‘ldi.

Maktabdagi jismoniy tarbiya darslari sizga kuch, epchillik, tezlik, moslashuvchanlik, e’tiborni rivojlantirish, sog‘lig‘ingizni yaxshilash, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Ammo maktab o‘quvchilari uchun jismoniy tarbiya darslarining o‘zi etarli emas, chunki ko‘pchilik o‘quvchilar bo‘sh vaqtlarida jismoniy mashqlar va mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanmaydilar. Shu munosabat bilan, yosh o‘quvchilarni jismoniy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini izlash, ularning motor faoliyatini optimallashtirish ham juda muhimdir.

Ko‘pgina olimlar jismoniy mashqlar, o‘yinlarning bolalarning jismoniy rivojlanishiga

ta’sirini o‘rganish bilan shug‘ullanishgan: o‘qituvchilar, psixologlar, fiziologlar. P. F. Lesgaft bolalarning jismoniy tarbiyasini, N. M. Amosov – jismoniy rivojlanishni, T. I. Osokin – jismoniy rivojlanish muammosini o‘rgangan. P. F. Lesgaft jismoniy tarbiya jarayonida bolaning maktabga moslashishi bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish mumkinligiga ishongan. K. D. Ushinskiy bolalarning yoshini, ularning intilishlarini, o‘qitishdagi qiziqishlarini hisobga olish zarurligini ta’kidladi. Uning fikricha, jismoniy mashqlar nafaqat tanani mustahkamlaydi, balki kasalliklarning oldini oladi, ularni davolaydi.

K. D. Ushinskiy jismoniy tarbiyani mehnat bilan chambarchas bog‘liq deb hisoblagan, chunki mehnat, uning fikriga ko‘ra, bolalarning aqliy, axloqiy va jismoniy rivojlanishining zaruriy shartidir. Keyinchalik maktab jismoniy madaniyatini o‘qitish metodikasini tashkil etgan asosiy qoidalarni yaratishga A. A. Zikmund, V. V. Belinovich, V. V. Gorinevskiy, G. A. Duperron, E. S. Piotrovskiy.

Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarda motor faolligi oshadi. Ular doimo yugurishni, sakrashni, sport o‘yinlarini o‘ynashni xohlashadi. Aynan shu davrda, 7 yoshdan 11 yoshgacha, jismoniy madaniyatni, sog‘lom turmush tarzi haqidagi bilimlarni shakllantirish, bolalarni sport bo‘limlarida mashg‘ulotlarga jalb qilish kerak. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining jismoniy madaniyatining rivojlanish darajasini bilish uchun biz L. V. Goloveshko tomonidan ishlab chiqilgan test shaklida diagnostika o‘tkazdik. Diagnostika zarur savollar bilan to‘ldirildi. Sinov 4 bo‘limga bo‘lingan: gigiena, kundalik tartib, sog‘liqni saqlash va jismoniy tarbiya. Tajriba 3-sinfda o‘tkazildi. Tadqiqotda 19 talaba ishtirok etdi. Yosh o‘quvchilarga o‘n beshta savol bilan anketalar berildi. Tadqiqotdan so‘ng biz barcha talabalar shaxsiy gigiena qoidalarini bilmasligini aniqladik.

Qiyinchiliklar eng yaxshi do‘stlar bilan qanday shaxsiy narsalarni baham ko‘rmaslik kerakligi va qanday hollarda qo‘lingizni yuvish kerakligi haqida savollar tug‘dirdi. “Muntazam” bo‘limidagi savollar orqali biz ba’zi talabalar (31%) sport bilan shug‘ullanmasligini aniqladik. Faqat ikkita talaba ertalabki mashqlarni bajaradilar. Aksariyat talabalar 8 soatdan kam uxlashadi va kun davomida ochiq havoda sayr qilish imkoniyati yo‘q. “Sog‘liqni saqlash” bo‘limidan biz o‘quvchilarning yarmidan ko‘pi sport bilan shug‘ullanish, sog‘lom turmush tarzi qoidalariga rioya qilish va sog‘lig‘iga qanday g‘amxo‘rlik qilishni bilish sog‘lom bo‘lish uchun sharoit ekanligini bilib oldik.

“Jismoniy tarbiya va sport” bo‘limidagi savollar yordamida biz barcha talabalar jismoniy tarbiya darslarida qatnashishlarini, estafetalarda qatnashishdan va isinishdan xursand bo‘lishlarini aniqladik. Uchinchi sinf o‘quvchilari bo‘sh vaqtlarida kitob o‘qishni, musiqa, munchoqlar yasashni, televizor ko‘rishni, ijtimoiy tarmoqlarda do‘stlari va do‘stlari bilan muloqot qilishni, kompyuter o‘yinlarini o‘ynashni afzal ko‘rishadi. Faqat ba’zi talabalar (37 foiz) raqs qilishni (qizlar), sport bo‘limlariga (o‘g‘il bolalar) borishni xohlashadi. Natijada, 13 nafar o‘quvchi jismoniy tarbiya rivojlanishining yuqori darajasiga, 6 nafar o‘quvchi esa jismoniy tarbiya rivojlanishining o‘rtacha darajasiga ega ekanligini bilib oldik.

Jismoniy tarbiya darajasini oshirish uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi tegishli faoliyatni amalga oshirishi kerak:

– sog‘lom turmush tarzi, shaxsiy gigiena, sport tadbirlarini tashkil etish mavzularida dars soatlarini o‘tkazish;

– maktab o‘quvchilarini maktablararo sport musobaqalarida, “quvnoq startlarda”, sport o‘yinlarida ishtirok etishga jalb qilish;

– har bir darsda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

– sportga yo‘naltirilgan to‘garaklar va seksiyalar shaklida qo‘shimcha mashg‘ulot-

lar tashkil etish;

– talabalarni sport va sog‘lomlashtirish mavzularida konferentsiyalar tashkil etishga jalb qilish, unda yosh o‘quvchilar har qanday sport turlari, taniqli sportchilar, jismoniy ko‘nikma va ko‘nikmalarni yaxshilash uchun turli xil usullar va mashqlar haqida qo‘shimcha ma’lumot berishlari mumkin. Shunday qilib, boshlang‘ich maktab o‘quvchilari sport va jismoniy madaniyatga qiziqishni oshiradilar, sog‘lom turmush tarziga nisbatan qadriyat munosabatini shakllantiradilar. Jismoniy tayyorgarlik barcha faoliyat turlarida (o‘quv, mehnat, sport) yuqori darajadagi ishlashni belgilaydi. Jismoniy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish shaxsning to‘liq, uyg‘un rivojlanishi, sog‘lig‘ini mustahkamlash, umr ko‘rish davomiyligini oshirish uchun juda muhim jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Круцевич Т.Ю. Контроль в физическом воспитании детей, подростков и юношей/ Т.Ю. Круцевич, М.И. Воробьов. – К., 2005. – 196 б. (Krucevich T.Yu. Control in physical education of children, adolescents and youth / T.Yu. Krucevich, M.I. Vorobyov. – K., 2005.- p.196.)

2. Кустова Н.Н. Методика педагогического контроля в процессе физического воспитания учащихся компенсирующих классов начальной школы: автореф. дис. ... канд. пед. наук: спец. 13.00.01 / Н.Н. Кустова. – СПб, 1998. – 25 б. (Kustova N.N. 3.Methodology of pedagogical control in the process of physical education of pupils of compensating classes of elementary school: author. dis. PhD: spec. 13.00.01 / N.N. Shrub. - SPb, 1998. -p 25.)

Sitora TOSHTEMIROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

RUS TILI PANXRONIK KORPUSI VA QIDIRUV TIZIMI

Annotatsiya

Maqolada rus tili panxronik korpusi, uning yaratilish tarixi, rus tili panxronik korpusining boshqa panxronik korpuslardan farqli jihatlari, korpusning tarkibiy qismlari, amaliy ahamiyati, ishlash va qidiruv tizimi haqida yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar. Rus tili milliy korpusi, panxronik korpus, fonetik qidiruv, grammatik qidiruv, semantik qidiruv.

В статье рассказывается о панхроническом корпусе русского языка, истории его создания, отличиях панхронического корпуса русского языка от других панхронических корпусов, компонентах корпуса, практическом значении, функционировании и поисковой системе.

Ключевые слова. Национальный корпус русского языка, панхронический корпус, фонетический поиск, грамматический поиск, семантический поиск

This article describes the history of the panchronic corpus of the Russian language, the features of the panchronic corpus of the Russian language that differ from other panchronic corpuses, the components of the corpus, practical importance, operation and search system.

Key words. National corpus of the Russian language, panchronic corpus, phonetic search, grammatical search, semantic search

Rus tili milliy korpusi rus tilidagi lingvistik jihatdan belgilangan matnlar to'plamini o'z ichiga olgan noyob axborot tizimidir. Bu korpus 2004-yildan beri faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Rus tili milliy korpusi har yili yangi binolar bilan boyib bormoqda. Shunday binolardan biri rus tili panxronik korpusidir. Panxronik korpus ma'lum bir til yoki til guruhining bir necha turli tarixiy davrlaridagi matnlarni ifodalovchi manba. Rus tili panxronik korpusi ustida 2020-yilda ish boshlangan bo'lib, u o'z ichiga o'rta asrlar (1020-yil)dan tortib hozirgi kungacha bo'lgan turli davrlardagi matnlari jamlangan. Rus tilida panxronik korpusga bo'lgan ehtiyoj, birinchi navbatda, turli xil tarixiy va zamonaviy korpuslarda lemmalar, orfografiya va grammatikani ifodalashning turli tamoyillari bilan belgilanadi.

Rus tili milliy korpusi jamosi mavjud boshqa panxronik korpuslardan farqli ravishda turli korpuslarni umumiy platformada birlashtirishga qaror qildi. Chunki panxronik korpus turli davrlardagi matnlarni o'z ichiga olganlanligi, matnlar orasidagi farqlarning mavjudligi bir qadar muammolarni keltirib chiqarishi tabiiy edi. Shu sababli D.V. Sitchinava panxronik korpus mutlaqo original ma'lumotlar bazasi bo'lishi mumkin emasligini, balki oldindan mavjud bo'lgan bir nechta teglangan matnlar to'plamlari birlashtirilgan va umumiy maxrajga keltiriladigan platforma bo'lishini ta'kidlaydi. Bu esa korpusdagi matnlarni stemlash, lemmalash va tokenlash jarayonlarini bir qadar osonlashtiradi. Rus tili panxronik korpusining birinchi versiyasi nashr etilishi 2022-yil noyabr oyida bo'lib o'tdi. Ushbu nashr Rus tili milliy korpusi tarkibida ilgari yaratilgan uchta tarixiy korpus – qadimgi rus, eski rus va qayin po'stlog'i matnlari korpusi va asosiy korpusni o'z ichiga oladi. 2023-yilda korpus tarkibiga Sharqiy slavyan epigrafiyasi korpusi ham qo'shildi.

Shundan so‘ng 2023-yilning oxirida rus tili panxronik korpusining ikkinchi nashri ishga tushirildi. Yangi nashr ishga tushirilgandan keyin quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

– omonimlardan biriga tegishli bo‘lgan mos ravishda bosh yoki kichik harf bilan omonim xos ism va umumiy ot mavjud bo‘lgan panxronik lemmalarni yozish (2022-yilgi nashrda omonim so‘zlar olib tashlangan edi);

– qisman o‘ziga xoslikni hisobga olgan holda turli korpuslardagi lemmalarni taqqoslash.

Asosiy korpusning dastlabki matnlari XVII-XVIII asrlarning boshiga to‘g‘ri keladi. Poetik korpus xuddi shu vaqt belgisidan boshlanadi, uning ham panxronik korpusga kiritilishi rejalashtirilmoqda. Panxronik korpusda har yili yangi ma’lumotlar bazasi kiritilishi belgilangan. Rus tili pnxronik korpusning dasturiy ta’minot arxitekturasi va qidiruvni amalga oshirish bo‘yicha ishlar I.I.Vinogradova, S.A.Gladilin, D.A.Morozov va V.G.Sizov tomonidan amalga oshirildi. Olga Lyashevskaya asosiy va eski Sharqiy slavyan korpusi ichida postkorrektsiya bilan omonimiyani olib tashlashning neyron tarmoq modeli bilan, Dmitriy Sitchinava umumiy korpus tushunchasi; algoritmlar va erta va kech eski Sharqiy slavyan lemmalarini tekshirish va grammatik xususiyatlar yozishmalar, tarixiy korpus orfografiyalari; kontseptsiya va izohni sinovdan o‘tkazish va yanada rivojlantirish, Timofey Arxangelskiy kech qadimgi Sharqiy slavyan, O‘rta rus va zamonaviy rus lemmalari o‘rtasidagi yozishmalarni qurish Anton Dyshkant har bir korpus uchun lemma yozishmalar jadvallarini algoritmlash va qurish ishlari bilan shug‘illandi.

Rus tili panxronik korpusning tarkibiy qismlari turli markalash standartlari va turli morfologik tavsiflar asosida belgilangan. Lemmalarni taqdim etish standarti tegishli davrning lug‘atiga bog‘liq. Panxronik korpusni yaratishda Qadimgi rus korpusi lemmalarining orfografiyasini va qayin po‘stlog‘i harflari korpusini (tegishli shriftlar bilan birga) to‘liq saqlashga qaror qilindi, ammo erta va kech qadimgi rus lemmalarining imlosi ishlatilgan qidiruv birlashtirilgan va soddalashtirilgan. Panxronik korpusning lemmalarini yozishda faqat zamonaviy alifbo va ѣ harflari ishlatiladi. Tarixiy korpusdagi kirill raqamlari uchun panxronik qidiruvda arab raqamlari ko‘rinishidagi lemmalar qo‘llaniladi. Qidiruv uchun ishlatiladigan barcha lemmalardagi tegishli nomlar bosh harf bilan yoziladi. Qidirishda katta va kichik harflar farqlanmaydi.

Panxronik korpusdagi grammatik belgilar majmuasi alohida korpus belgilaridan farq qiladi. Yangi korpusdagi grammatik belgilar barcha korpuslar uchun birlashtirilgan va izlanuvchi so‘zning har qanday shakli bo‘yicha qidiruvni amalga oshirishi mumkin. Foydalanuvchi o‘zini qiziqtirgan so‘zni qaysi shaklda qidirayotganini oldindan bilishi shart emas. Panxronik korpusda, lemma kiritilgach, qalqib chiquvchi maslahat paydo bo‘ladi, unda bir xil harflar bilan boshlanadigan lemmalar taqdim etiladi va foydalanuvchi o‘ziga kerakli bo‘lgan variantni tanlashi mumkin.

Matnlardagi so‘z shakllari va ularning ketma-ketligi so‘z shakllari bo‘yicha qidirishda topiladi. So‘z shakllarini asl imlosida yozish mumkin. Ammo turli davrlardan ko‘proq misollarni topish uchun zamonaviylashtirilgan imloda so‘z shakllarini kiritish (tarixiy harflar, yakuniy harflar, titloslar yoki qavslardan foydalanmasdan) maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zamonaviy tilda yo‘qolgan grammatik xususiyatlar tarixiy korpusda saqlanib qoladi, chunki ular bir nechta manba korpuslaridan muhim vaqt oralig‘ini qamrab oladigan ma’lumotli so‘rovni qurishga imkon beradi. Grammatik parametrlar turli korpuslardagi lemmalarni tanlashga ham ta’sir qiladi. Qadimgi rus korpusida va asosiy korpusdagi aksariyat matnlarda lemmalar va grammatik xususiyatlarni belgilash

neyron tarmoq mexanizmlari yordamida avtomatik ravishda amalga oshiriladi va bu belgilashda bir qator xatolar ham mavjud.

Semantik xususiyatlar tarixiy matnlarda hozirgi rus tilidagi tegishli so‘zlarning semantik sinflariga muvofiq belgilanadi. Panxronik korpusda semantik belgilarga asoslangan so‘rovni yaratish uchun so‘rovga kiritilgan har bir so‘zga semantika maydoni ilova qilinadi, unga nutqning muhim qismlari va olmoshlari uchun alohida sahifalari bo‘lgan shakl qo‘shiladi.

Rus tili panxronik korpusi tarkibida subkorpus ham kiritilgan bo‘lib, unda sanadan tashqari, matnning janr toifasi bo‘yicha ham aniqlash mumkin. Quyidagi toifalar mavjud: cherkov, kundalik hayot va xatlar, o‘quv va akademik, badiiy matnlar, rasmiy va biznes varia. Ular komponent korpusining janr izohiga asoslangan. Ming yillar davomida o‘zgaruvchan ijtimoiy-madaniy vaziyatni hisobga olgan holda, ushbu umumlashtirilgan toifalardan biriga matn berish taxminiy bo‘lishi mumkin. Bitta matn bir nechta toifalarga berilishi mumkin. Hozirgi kunda rus panxronik korpusi 384 mlndan oshiq so‘zni o‘z ichiga oladi. Bu korpusning yaratilishi nafaqat rus tilshunosligi rivoji uchun, balki ukrain va belarus tili va tilshunosligida ham katta ahamiyatga ega. Chunki bu tillar ayni bobo til oilalariga mansub bo‘lib, qadimgi davrlarda til grammtik va leksek xususiyatlari bir xil shaklda bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Савчук С.О., Архангельский Т.А., Бонч-Осмоловская А.А., Донина О.В., Кузнецова Ю.Н., Ляшевская О.Н., Орехов Б.В., Подрядчикова М.В. Национальный корпус русского языка 2.0: новые возможности и перспективы развития. Вопросы языкознания.№2 – Москва, 2024. С 7-34.

2. Сичинава Д. В. Панхронический корпус: интеграция исторических и современ- ных корпусных ресурсов. Труды Института русского языка им. В.В.Виноградова, №2 – Москва, 2024. С 336–353 .

3. https://ruscorpora.ru/

4. https://ruscorpora.ru/corpus/panchron

5. https://ruscorpora.ru/search?search=CgQyAggTMAE%3D

Iroda RASULOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti v.b. dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

"OTA-ONA VA FARZANDLAR" MUNOSABATLARI KONTEKSTIDAGI NIZOLAR VA ULARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMENANTLARI

Annotatsiya

Maqolada jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda shaxslararo zo'ravonlikning psixologik xususiyatlari, uning ko'rinishlari oldini olishi, kelib chiqishi omillari, sabablarini aniqlash masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilayotgani xususida tahlil qilinadi. Shuningdek, Oilada shaxsga nisbatan sodir etilgan zo'ravonlik va uni keltirib chiqaruvchi omillarning o'ziga xosligi, oilada shaxslararo zo'ravonlikka uchragan xalok bo'lgan yoki og'ir jarohatlangan jabrlanganlarga psixoprofilaktik yordam ko'rsatish, bugungi kunda ilmiy izlanishlarni yana ham chuqurlashtirishga imkon berishi tadqiq qilinadi.

Tayanch so'zlar. Zo'ravonlik, muloqot, o'spirin, oila, tarbiya, jism, ta'limot.

В статье анализируются психологические особенности межличностного насилия, профилактика его проявлений, факторы его возникновения, а также вопросы определения его причин в научных исследованиях, проводимых в мире. Также специфика насилия, совершаемого в отношении человека в семье, и факторы, его вызывающие, оказание психопрофилактической помощи жертвам межличностного насилия в семье, погибшим или получившим серьезные ранения, сегодня можно еще более углубить. будут изучаться научные исследования.

Ключевые слова: насилие, общение, подросток, семья, воспитание, тело, обучение.

The article analyzes the psychological characteristics of interpersonal violence, prevention of its manifestations, the factors of its origin, and the issues of determining its causes in the scientific research carried out in the world. Also, the specificity of the violence committed against a person in the family and the factors that cause it, the provision of psychoprophylactic assistance to the victims of interpersonal violence in the family who were killed or seriously injured, today, it is possible to further deepen scientific research. will be studied.

Key words. Violence, communication, adolescent, family, education, body, teaching.

Farzandlarni komil inson qilib voyaga yetkazishda oila instituti bosh omil hisoblanadi. Oilada bolalarga nisbatan zo'ravonliklarning sodir bo'lish holatlari, afsus hammamizni tashvishga soladi. Bunday holatlar ko'proq muammoli vaziyatga tushib qolgan oilalarda ro'y beradi.

Zo'ravonlik holatlari sodir bo'lishiga sabab bo'luvchi vaziyatlar:

1. Er o'z oilasini moddiy va ma'naviy jihatdan boshqara olmasligi.

2. Oila boshlig'ining spirtli ichimlikka, narkotik moddalarni iste'mol qilishga berilganligi.

3. Ayollarning o'z umr yo'ldoshlariga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lishi, hiyonatkorligi, oilada ayollik burchini his qilmasligi.

4. Er-xotin o‘rtasida o‘zaro hurmatning yo‘qligi, muomala madaniyatini bilmasliklari.

Oilada farzandga nisbatan zo‘ravonliklar ota-onalarning uquvsizligi, bolaga nisbatan beparvoligi, tarbiyalashda jazo usulini qo‘llashga o‘rganganliklari oqibatida sodir bo‘ladi. Beparvolik ba’zilarga unchalik yomon tuyulmasligi mumkin, lekin aslida yomon holatlar, fojealar, qotilliklarga sabab bo‘lishi mumkin.

Psixologiyaga doir tadqiqotlarda zo‘ravonliklarning natijasi – bolada qo‘rqoqlik, ruhiy tushkunlik – beparvolik paydo bo‘ladi, bularning natijasi esa yomonlikka – toshbag‘irlikka, qahri qattiqlikka, odam o‘ldirishga, qotillikka olib borishi mumkin. Bunga sabab xavf omili ota-onalarning bolaga nisbatan zo‘ravonlik ishlatishiga olib keluvchi ularning ijtimoiy izolyatsiyalanganligi hamda qadriyatlar tizimlari ekanligi aniqlanganligidir. 70-yillarda oilaning ijtimoiy modeli nuqtai nazaridan bolalarga nisbatan zulm va ehtiyotsiz munosabatlarning sababi ota-ona va bola o‘rtasidagi munosabatlarning buzilganligida deb qarala boshlandi.

Keyingi tadqiqotlarning natijasiga ko‘ra, individ oila va jamiyat darajasidagi xavf omillarini aniqladilar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni bitta omil emas balki ularning o‘zaro ta’siri keltirib chiqarishini isbotlab berdilar. Ular shuningdek, u yoki bu omilning mavjudligi zo‘ravonlik ishlatilayotganligini anglatmasligini, balki uning yuz berish ehtimoli yoki imkoniyati borligini ko‘rsatishini ta’kidlaydilar. Oilasida zo‘ravonlik ko‘rgan bolalarning 40 foizi keyinchalik o‘zlari shunday harakatni amalga oshirishga moyil bo‘lib qolishar ekan, hatto o‘zlari bevosita zo‘ravonlik qurboni bo‘lmasalarda, balog‘at yoshiga yetgandan keyin, yoki zo‘ravonlikka duch keladilar yoki o‘zlari shuni sodir etadilar.

BMT bolalar bo‘yicha ma’lumotlariga ko‘ra, oiladagi zo‘ravonlik – bu yuqumli illat ekan. Bolalarga qarshi zo‘ravonlikning ba’zi ko‘rinishlari barcha muhitlar uchun umumiydir. Jismoniy jazo berish hamda shavqatsiz yoki tahqirlovchi jazolashning boshqa turlari ota-onalar va oilaning boshqa a’zolari tomonidan uylarda, bolalar parvarishi bo‘yicha mas’ul shaxslar tomonidan tarbiya muassasalarida, o‘qituvchilar tomonidan maktablarda qo‘llaniladi va shu bilan birga bolalarga qonun bilan bo‘lgan kelishmovchiliklarda singdiriladi.

“Bolalarga nisbatan zulm” tushunchasi butunjahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti tomonidan 1999-yilda taklif etilgan quyidagi ta’rifga tayanadi.

“Zulm” yoki “...bolalar bilan qo‘pol munosabatda bo‘lish”, “bolaning sog‘ligiga, yashashiga, rivojlanishi va layoqatiga amaliy zarar keltiradigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan barcha turdagi jismoniy yoki emotsional salbiy munosabat, jinsiy zulm, ehtiyotsiz yoki befarq munosabat, kommersiya yoki boshqa maqsadlardagi ekspluatatsiya”ni anglatadi.

Xalqaro amaliyotda qabul qilingan “bolaga nisbatan zulm” atamasi o‘zida “ehtiyotsiz munosabat” hamda “tashlab qo‘yilganlik” tushunchalarini o‘zida mujassam etadi.

O‘zbekistonda “Bolalarga nisbatan zulm va ehtiyotsiz munosabat” tushunchasi qonuniy asosga tayanadi .

Bolaga nisbatan zulm – bolaning ixtiyoriga zid ravishda yoki uning ko‘makka muhtoj holatidan foydalanib, uning shaxsiy daxlsizlik huquqini buzuvchi jismoniy, jinsiy va ruhiy ta’sir ko‘rsatishdir. Mazkur ta’rifga binoan, zulmning jismoniy, jinsiy va ruhiy ko‘rinishlari ajratib ko‘rsatiladi.

Bolalarga nisbatan sodir etiladigan zo‘ravonlik turlariga alohida to‘xtalib o‘tmoqchimiz:

Jismoniy zo‘ravonlik – bolaning qiynalishiga sabab bo‘luvchi va uning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi zo‘ravonlik va boshqa noinsoniy hatti-harakatlarning boshqa turlari (jismoniy og‘riq yetkazish, urish, tishlash, kuydirish, bolani maqsadli ravishda bo‘g‘ish yoki cho‘ktirish, shuningdek, bolaga zahar va noto‘g‘ri dori berish bilan bog‘liq hodisalar).

Jinsiy (seksual) zo‘ravonlik – kattalarning jinsiy ehtiyojlarini qondirish uchun bolalardan foydalanish, bolani jinsiy faoliyatga jalb qilish uchun tahdid, kuch va ayyorlikni ishlatish.

Bolalardan pornografik mahsulotlar tayyorlash maqsadida foydalanish, shuningdek, ularga pornografik mahsulotlarni namoyish qilish. Bolalarni fohishabozlikka jalb qilish.

Emotsional zo‘ravonlik – bolaning o‘ziga hurmat va ishonch hissining yo‘qolishiga sabab bo‘luvchi, unga nisbatan doimiy e’tiborsizlik va bemehrlik, tahdid va ahmoqlik qilishdir. Bolaga yoshiga mos kelmaydigan va bajara olmaydigan talablarni qo‘yish. Kattalar tomonidan yolg‘on ishlatilishi va va’dalarning bajarilmasligi, bolada ishonchsizlik uyg‘otish.

Ehtiyotsiz munosabat – bolaning uy-joy, oziq-ovqat, kiyim kechak, dori-darmonga bo‘lgan ehtiyojlarining qondirilmasligi. Bolani qarovsiz qoldirish.

Ekspluatatsiya – boladan shaxsiy manfaatlari yo‘lida foydalanish – bolalar mehnati, seksual ekspluatatsiya, trafik – (bolalarni ekspluatatsiya maqsadida olib chiqib ketish, sotish) zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan, shuningdek, tashlab qo‘yilgan bolalarning faoliyat yuritishining barcha darajalari – sog‘ligi, ongini o‘stirish, xulq-atvorini, jismoniy, emotsional va intellektual rivojlanishining buzilishini qamrab oluvchi turmush tarzi va rivojlanishida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.

Oilaviy zo‘ravonlik vaziyatiga bolalar jalb qilinishining asosiy uch turini ajratish mumkin:

1. O‘tkazilgan tadqiqotlar bolaga nisbatan beshafqat munosabat va erning xotiniga bo‘lgan zo‘ravonlikning o‘zaro bog‘liqligini tasdiqlaydi. O‘z turmush o‘rtog‘iga bo‘lgan tajovuzkor harakatlar, bevosita bolaga ham o‘tkaziladigan zo‘ravonlik hisoblanadi.

2. Bolaning yuqorida ko‘rsatilgan jalb qilinishi uning zo‘ravonlik holatiga bilvosita jalb qilinishi bilan bog‘liq. Bunday vaziyatda bola oiladagi barcha nizolar, janjallarning guvohi bo‘ladi. Oiladagi muhitdan kelib chiqqan ijtimoiy-psixologik dezadaptatsiya, bolani uydan tashqarida, turli o‘smirlar guruhlarida taskin topishga majbur qiladi.

3. Boladan qurol sifatida foydalanish uni zo‘ravonlik holatiga jalb qilishning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Odatda, xafa bo‘lgan bir oila a’zosining boshqa oila a’zosi ustidan hukmronlik o‘rnatish shaklida ifodalanadi. Bolaga nisbatan ham zo‘ravonlik ishlatilishi mumkin, lekin ushbu harakatlarning asosiy maqsadi boshqa oila a’zosini dilini og‘ritishdir.

Zo‘ravonlik tufayli bolaning ruhiyatidagi buzilishlar avvalo quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– emotsional beqarorlik;

– emotsional befarqlik;

– salbiy hissiyotlarning ijobiy hissiyotlardan oshib ketishi.

Emotsional beqarorlik, salbiy va ijobiy hissiyotlar o‘rtasidagi keskin og‘ishlar tashlab qo‘yilgan bolalarga hos bo‘lib, yana ularga emotsional befarqlik va depressiya ham xos bo‘ladi. Zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan bolalarda salbiy hissiyotlar ijobiylaridan yuqori bo‘ladi, ijobiy hissiyotlar kamdan kam kuzatiladi. Ularda asosan g‘azab, tahli-

ka, qo‘rquv, xavfsirash hissiyotlari mavjud bo‘ladi. Bunda agar bola o‘zida zo‘ravonga nisbatan mavjud bo‘lgan hissiyotni bostirsa yoki inkor etsa, boladagi g‘azab ichkariga yo‘naladi va o‘zidan nafratlanishga hamda dipressiyaga olib keladi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga ko‘ra, o‘z bolalariga nisbatan jismoniy yoki emotsional (ruhiy) va jinsiy zo‘rlik ishlatgan ota-onalarning aksariyati o‘zlari ham bolaliklarida mana shu zo‘rlikni his qilishgan.

Erkak va ayol oilada o‘zlariga xolis baho bergan holda bir-birlarini qadrlab, hurmat qilsalar ziddiyatning oldini olib bartaraf etish uchun imkoniyat vujudga keladi. Oiladagi sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhit, xotirjamlik, ibratli munosabat, o‘zaro totuvlik bola shaxsining ijobiy xatti-harakatlarida o‘z aksini topadi.

Darhaqiqat, ota-ona yoki bolani tarbiyalayotgan boshqa shaxslar o‘z qobiliyatlari va moliyaviy imkoniyatlari doirasida bolaning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan turmush sharoitini ta’minlashga asosiy javobgardir. Mana shu xususiyatlar barqaror bo‘lgan oilalarda zo‘ravonlik holatlari sodir etilmaydi, bolalarga nisbatan hurmatli munosabat qaror topadi.

Bolaga nisbatan beparvolik, unga jismoniy, emotsional (ruhiy) va jinsiy zo‘rlash ishlatish juda achinarli va dahshatli hodisadir. Bunday ishlar bolalar bilan sodir bo‘lmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi, lekin hamma vaqt ham har bir vijdonli, hamiyatli inson bu zo‘ravonliklarning kelib chiqish sabablarini o‘rganishi va kelib chiqishi ma’lum bo‘lgan hollarda zudlik bilan kerakli tashkilotlarga xabar berishi, oldini olish uchun chora-tadbirlar qo‘llashi kerak bo‘ladi. Tegishli mutasaddi tashkilotlarga xabar yetkazish juda ham katta javobgarlikni va to‘g‘ri yondashish, ma’lumotlarni aniq to‘plashni talab qiladi, chunki bola xavfsizligi va butun oilaning farovonligi xavf ostida qolishi mumkin. Ruhiy zo‘ravonlik bola hissiyotlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, natijada bola fe’l-atvorida salbiy o‘zgarishlar paydo bo‘ladi. Oilada ota-onalar o‘rtasidagi ziddiyatli munosabat bolaga nisbatan ruhiy zo‘ravonlik sodir bo‘lishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fayzieva M.X. Azim Jabborov “Oilaviy munosabatlar psixologiyasi” “Yangi asr avlodi”. –T., 2007 140-bet

2. Фрейд З. Семейный роман невротиков / Зигмунд Фрейд. – Москва: Азбука, 2023. – 224 с.

3. Фоминых, Е.С. Психологические механизмы виктимности // Концепт. 2014. №5. – С. 1-7. URL:

4. Голод С.И. Семья и брак: Историко-социологический анализ. - СПб.: 1998.

5. Голод С.И. Личная жизнь: отношения полов. Л. : Знание, 1990. -32с.

Akmal XAMIDOV,
mustaqil izlanuvchi

O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARDA O‘Z-O‘ZINI ADEKVAT BAHOLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA GENDER YONDASHUVDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada o‘smirning o‘zini bilishi unda kognitiv xarakterdagi o‘z-o‘zini anglash konsepsiyasining shakllanishi va gender o‘z-o‘zini anglash yaxlit tizimni tashkil etib, muayyan tarkibiy qismlari ochib berilgan. Muallif o‘smirlarda ruxiy-ijtimoiy muvofiqlikning vujudga kelishi, o‘smirning o‘z-o‘zini anglashi haqida fikr yuritib o‘tgan.

Tayanch so‘zlar. O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalari, munosabat, vakili sifatida gender tasavvurlar, kognitiv harakter.

В статье самопознание подростка раскрыты те или иные компоненты формирования концепции самосознания познавательного характера и гендерного самосознания, образующие целостную систему. Автор размышлял о возникновении у подростков психосоциальной совместимости, о самосознании подростка.

Ключевые слова. Навыки адекватной самооценки у учащихся подросткового возраста, отношение, как представитель гендерных представлений, познавательный характер.

The article reveals the self-knowledge of a teenager in which the formation of the concept of self-awareness of a cognitive nature and gender self-awareness form a holistic system, revealing certain components. The author reflected on the emergence of ruxian-social conformity in adolescents, the self-awareness of the adolescent.

Key words. Self-adequate assessment skills in adolescent students, attitude, as a representative of gender imagery, cognitive character.

Gender tushunchasi o‘g‘il va qiz bolalarning ruxiy hamda biologik o‘ziga xosligini ifodalaydi. Gender konsepsiyasida qiz va o‘g‘il bolalarning o‘ziga xosligi asoslab berilgan. O‘g‘il va qiz bolalarning jinsiy belgilari ijtimoiy holatiga qanday ta’sir ko‘rsatishini ham asoslash lozim. Shaxsning gender xususiyatlari shaxslararo ijtimoiy munosabatlarga qay tarzda ta’sir ko‘rsatishini ham aniqlab olish talab etiladi.

Ba’zi belgilar xotin-qizlarga xos bo‘lsa-da, ularga mansub rollarni bajarish alohida o‘ziga xoslik kasb etadi. Gender ijtimoiylashishning muayyan tizimi orqali loyihalashtiriladi va tizimlashtiriladi. Gender farqlar mehnatning taqsimlanishi hamda jamiyatda madaniy rollar, me’yorlar hamda stereotiplarga amal qilishda namoyon bo‘ladi.

Jamiyatda gender me’yorlar va stereotiplarga amal qilish muayyan darajada shaxsning psixologik sifatlari, layoqatlari, faoliyat turi, jinsi bilan bog‘liq kasblarini aniqlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy madaniy kontekst bilan bog‘liq holda gender rollar vujudga kelib o‘zgarib turadi. Ayollik va erkaklik turli davrlarda, turli din va madaniyatlarda turli ijtimoiy qatlamlar uchun o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Ayollik va erkaklik orasidagi farqlar bir vaqtning o‘zida psixologik hamda ijtimoiy madaniy yo‘nalishlarga ega. Real vaziyatlardagi shaxslararo munosabatlarda insonlarning biologik xususiyatlari kamdan-kam hollarda gender xususiyatlarga bog‘lanadi.

Ayollar va erkaklar orasidagi barcha psixologik munosabatlar biologik munosabatlar bilan kamdan-kam hollarda bog‘lanadi.

Gender o‘z-o‘zini anglash yaxlit tizimni tashkil etib, muayyan tarkibiy qismlariga ega.

Birinchi navbatda, kognitiv, bu shaxsning maskulinlik va femininlikning muayyan modeliga muvofiqligini anglashida namoyon bo‘ladi. Emotsional – shaxsning mazkur tizimga mos kelishi yoki kelmasligini anglashi. Irodaviy – shaxsning muayyan jamiyatdagi gender modelga muvofiq kelishi yoki kelmasligini anglashida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, gender identivlik va dinamiklikning statistik komponentlarini farqlash.

Femininlik va maskulinlik gender jihatdan o‘zini anglashning asosiy shakli hisoblanadi. Bu muayyan gender tipga mansublik haqida fikr yuritishni ifodalaydi. Muayyan gender g‘oyani loyihalash, ijtimoiy faoliyatning ko‘plab turlarida uni taqdimot qilishda namoyon bo‘ladi.

Har bir sinfda turli xarakterdagi qiz va o‘g‘il bolalar tahsil oladilar. Ular muvaffaqiyat qozonishga ishonch va qattiyat bilan intiladilar, ochiq va qattiy harakatlar amalga oshiradilar, sokin harakatlanadilar, optimist yoki juratsiz bo‘ladilar. Ular jazolarga nisbatan sezgirlik bilan munosabatda bo‘ladilar. Qo‘rqoq, sertashvish va xavotirli, ishonchsiz, jizzaki bolalar o‘zlarining jinsiy identivliklari bilan farqlanib turadilar.

Mardlik sifatlariga ega bo‘lgan o‘g‘il va qiz bolalar o‘zlarining kuchli jihatlari bilan ajralib turadilar. Ular yutuqlarga erishish yo‘lida qattiy harakat qilib, o‘zlarining yetukliklarini namoyon etadilar. Shu bilan bir qatorda, o‘zining agressiv harakatlari bilan liderlikka intiladilar. Ular uchun musobaqalashish ruhi xos bo‘lib, o‘z tengdoshlari bilan avtoritar munosabatda bo‘ladilar.

Ayollik sifatlariga ega bo‘lgan o‘smirlar esa, o‘zlarida itoatkorlik, juratsizlik, tortinchoqlik, ehtiyotkorlik, tashabbuskorlik va boshqalarga qarab yo‘nalish olish kabi sifatlarni namoyon etadilar. Ular birgalikdagi faoliyat jarayonida minimal darajada tashabbus ko‘rsatadilar. Bunday o‘smirlar kattalar bilan munosabatda rang-barang xulq-atvor stereotiplariga ega ekanliklarini ko‘rsatadilar. Bular uchun an’anaviy me’yorlarga bog‘lanib qolish xos emas. Ular vaziyatlar haqida real fikrlaydilar, qiyinchiliklarni mustaqil engishga intiladilar. Bunday o‘smirlar yuqori darajada ijtimoiy faollik ko‘rsatadilar. Ulardagi erkak va ayollikka xos sifatlar konstruktiv xarakterga ega. Bunday o‘smirlar qarorlar qabul qilishda qat’iyatlilik, mustaqillik, yuqori darajadagi aniq yutuqlarga erishish boshlagan ishlarida muvaffaqiyat qozonishga intiladilar.

O‘zaro farqlarga ega bo‘lmagan o‘smirlar ham ayollarga ham, erkaklarga xos bo‘lgan xulq-atvor stereotiplariga ega bo‘ladilar. Ular jinsga xos rollarni bajarishda muayyan bo‘shliq mavjudligini namoyon etib, o‘z xatti-harakatlarini aniq modellashtira olmaydilar. Bunday o‘quvchilar o‘z jinslariga oid rollarni bajarishda qiyinchiliklarga uchrab, mazkur rollarni o‘zlashtirmaydilar. Qizlarga xos sifatlarga ega bo‘lgan o‘g‘il bolalar tengdoshlari bilan samarali munosabat o‘rnata olmaydilar, o‘z fikrlarini bayon qilishga tortinadilar, jamoada faollik ko‘rsatmaydilar.

Shaxsning shakllanishida o‘smirlik davri alohida ahamiyatga ega. O‘smirlik davrining chegarasi psixologlar tomonidan aniq belgilab berilmagan. U o‘smirning rivojlanish darajasi va ontogenez bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Ilk o‘smirlik davri 10 yoshdan boshlanib, 14 yoshgacha davom etadi. Katta o‘smirlik yoshi esa 14-16 yosh davriga to‘g‘ri keladi. Aksariyat psixologlar o‘z tadqiqotlarida o‘smirlik davrining murakkab, ziddiyatlarga boy davr ekanligini ta’kidlaganlar. O‘smirlik davri uchun xarakterli xususiyatlardan biri o‘zini kattalardek xis etishidadir. Bu davrda o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini baholash rivojlanadi. O‘smir o‘ziga shaxs sifatida qiziqish

bildirib, layoqatlari va imkoniyatlarini yuqori baholaydi.

Shaxsning har bir yosh davri o‘ziga xoslikka ega bo‘lib, rivojlanishning muayyan qonuniyatlariga tayanadi. Bu asosiy yutuqlar, shakllanish va qayta shakllanish imkonini beradigan holatlar, ruxiy rivojlanishning muayyan bosqichlariga xos sifatlarning namoyon bo‘lishi, o‘zini anglash layoqatining o‘ziga xos jihatlarining ifodalanishida ko‘rinadi.

O‘smirlarda 10-12 yoshdan boshlab o‘zining kichik olamiga qiziqish boshlanadi. Asta sekin o‘z-o‘zini bilish jarayoni bosqichma-bosqich murakkablashadi. O‘smir o‘zi uchun ichki dunyosini kashf etadi. Yangi munosabatlar bilan bog‘liq holda yangi kechinmalar, shaxsiy sifatlar, xatti-harakatlar rivojlanib o‘z-o‘zini tahlil qilish ko‘nikmalari barqarorlashadi. O‘smir o‘zining qanday bo‘lishini tasavvur eta boshlaydi, xarakterli jihatlarini namoyon etadi.

O‘smirning o‘z-o‘zini anglashlariga sinfdoshlari, yaqin do‘stlari ko‘maklashadi. U o‘z xatti-harakatlarini ularniki bilan qiyoslaydi. Kattalar orasidan o‘ziga yaqin xamfikrlarni izlab, ularga ergasha boshlaydi. O‘smirning o‘zini bilishi unda kognitiv xarakterdagi o‘z-o‘zini anglash konsepsiyasining shakllanishiga asos bo‘ladi.

Ruxiy-ijtimoiy muvofiqlikning vujudga kelishi o‘smirning o‘z-o‘zini anglashini ifodalaydi. Bu 3 ta asosiy vazifa bilan ajralib turadi:

– bolalikdan o‘tmishga aylanishi va o‘z kelajagini tasavvur qilish loyihasiga ega bo‘lish hamda o‘smirning shaxsiy o‘zligini anglashning shakllanishiga erishish;

– o‘zining ota-onasidan farqli jihatlarini anglashga intilishning tarkib topishi;

– o‘smir shaxsining o‘zligini anglashini ta’minlaydigan qadriyatlar tizimini amalga oshirish.

Gender o‘z-o‘zini anglash – shaxsning integral tavsifi bo‘lib, o‘zida shaxsiy o‘zligi, “Men” konsepsiyasi, gender stereotiplar, gender ustanovkalar, gender xulq-atvor, gender o‘z-o‘zini anglash va gender rollarni mujassamlashtiradi.

Yangi shakllangan o‘smirlik yoshining tanqidiy bosqichi o‘zini kattalarday xis qilish va o‘z-o‘zini anglashning yaqqol ifodalanishida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda o‘smirlar atrofdagilar bilan munosabat o‘rnatib, o‘z rivojlanish yo‘llarini tanlaydilar. O‘smir yoshdagilar kattalarga taqlid qilib, ularning xulq-atvorlarini qabul qila boshlaydilar. Aksariyat hollarda alohida odatlar, ya’ni chekish, alkogollarni iste’mol qilish, nazoratdan qochish kabi xatti-harakatlari bilan kattalarga taqlid qiladilar.

O‘smir yoshdagilar o‘z-o‘zlarini o‘zgartirib, kattalardek tutishga intiladilar. Shuning uchun ham ular kuchli tarzda o‘z-o‘zlarini shakllantirish, mustaqil bilim olish va o‘z-o‘zlarini anglashga intiladilar. Bu ularning tashqi tomondan kattalarga o‘xshashlari, kiyinish, pardoz-andoz anjomlarini yoqtirishlarida o‘z ifodasini topadi.

O‘smir yoshidagi qizlar pop-modellarga o‘xshash, baland poshnali oyoq kiyimlarini kiyish, noan’anaviy soch turmaklarini qo‘llash, modaga qarab kiyinish, turli xonandalar, kino yulduzlariga o‘xshab gapirish xatti-harakatlarini bajarishga moyil bo‘ladilar.

O‘g‘il bolalar esa, jismoniy jihatdan baquvvat, rivojlangan bo‘lishni istaydilar. Ulardagi o‘zini anglash hissining mazmuni jismoniy quvvatini namoyon qilish va kuchli qiyofaga ega bo‘lishdan iborat. Ular o‘zlarining jismoniy quvvatlarini muntazam nazorat qilib, ko‘proq sport bilan shug‘ullanish, o‘z kuch-quvvatlarini tengdoshlari orasida yaqqol namoyon qilishga moyil bo‘ladilar. Ular o‘zlarining gavdalari va yuz qiyofalarini munosib baholashga qiynaladilar. O‘smir yoshdagi o‘g‘il bolalar o‘z gavdalarining barcha tarkibiy qismlari birday rivojlanishini xohlaydilar va bunga harakat qiladilar.

Baholashning bunday shakli boshqalarni baholash orqali amalga oshiriladi. Rivojlanish jarayoni o‘smir yoshdagi o‘g‘il bolalarning o‘zliklarini muvofiq tarzda anglash

konsepsiyasida o‘z aksini topadi. O‘smirning gavda tuzilishi haqidagi fikrlar har doim real bo‘lavermaydi. Ular ba’zan bir-birini inkor qilishi ham mumkin. O‘smirlar uchun o‘zini erkaklik va ayollik nuqtai nazaridan baholash etalon hisoblanadi. Hech kimga sir emaski, o‘smir yoshdagilar uchun gavdaning o‘sib borishi asosiy ahamiyat kasb etadi.

O‘g‘il bolalar sportning turli turlari bilan shug‘ullanishni xush ko‘radilar. Ular uchun mashg‘ulotlar jarayonida o‘z jismoniy kuchlarini ko‘paytirish, erkaklik qiyofasini egallashga urinish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘smir yoshdagi qiz bolalar uchun esa, badiiy gimnastika, raqs bilan shug‘ullanish maroqli bo‘lib, mazkur mashg‘ulotlarda ular ayollik qiyofasiga xos bo‘lgan nozik qaddi-qomat, nafis harakatlarga ega bo‘lishni maqsad qilib qo‘yadilar.

O‘z-o‘zini anglash va o‘zlikning rivojlanishi o‘smir yoshdagi qizlarning etuklikka intilishidan dalolat beradi. Ularda jismoniy jihatdan ulg‘ayish belgilari namoyon bo‘lib, atrofdagilarni e’tiborini jalb qiladi.

O‘smirlarning ichki tuyg‘ulari o‘zgarishi barobarida ularning ijtimoiy rollari ham kengayadi. Bunday vaziyatda “Men kim?” degan savol ko‘ndalang bo‘lib turadi.

O‘smir yoshdagi o‘g‘il va qiz bolalar orasida bir-biriga nisbatan jinsga xos o‘zgacha munosabat va qiziqish vujudga keladi. O‘smir yoshdagilar uchun atrofdagilarning munosabati muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular o‘zlarining tashqi qiyofalariga alohida e’tibor qarata boshlaydilar. Shu tariqa ularda o‘z jinsining vakili sifatida gender tasavvurlar vujudga keladi.

Ular o‘zlarini atrofdagi tengdoshlari bilan qiyoslashlari natijasida o‘z-o‘zlariga bo‘lgan baholari pasayib boradi. Bu ularning yoshlariga xos bo‘lgan o‘zgaruvchanlik varivojlanish jarayoni bilan bevosita bog‘liq.

Aksariyat qiz bolalar o‘z bo‘ylarining xaddan tashqari uzun, o‘g‘il bolalar esa kalta bo‘lishidan tashvishlanadilar. O‘g‘il bolalar semirib ketishdan qochib, ovqatlanish masalasida o‘zlarini cheklay boshlaydilar, parxez tutishga harakat qiladilar. Qizlar o‘zlarining tashqi ko‘rinishlariga alohida e’tibor qaratadilar, boshqalarning fikri ular uchun muhim hisoblanadi. Bunday qizlar ularning bo‘y-basti haqida bildirilgan turli munosabatlarga nisbatan qat’iylik bilan munosabat bildiradilar. Ular o‘z ustilaridan kulishlari yoki tanqid qilishlariga murosasizlik bilan munosabatda bo‘ladilar. Qizlarning kamchiliklarini yuziga solganda ular qattiq ranjiydilar.

O‘g‘il va qiz bolalar o‘zlarining ruxiy sifatlarini baholashga nisbatan turlicha munosabatda bo‘ladilar. O‘g‘il bolalar o‘zlarini kuchli, qo‘rqmas, jasur deb biladilar. Qizlar esa o‘zlariga ko‘proq tanqidiy munosabatda bo‘ladilar. O‘g‘il va qiz bolalarning har birida yetuklik maromi turlichadir.

14 yoshli o‘smir qizlar o‘zlari va o‘g‘il bolalar orasida ko‘proq mavqega ega bo‘lishni xohlaydilar. Jismoniy jihatdan zaif bo‘lgan o‘g‘il bolalar o‘zlarini to‘laqonli shakllangan deb hisoblamaydilar. Ularda o‘zlariga nisbatan salbiy munosabat, tobelik hissi kuchli bo‘ladi. Rivojlanishdan orqada qolayotgan qizlarda esa, ruxiy kechinmalar boshqacha tarzda namoyon bo‘ladi. Yaxshi rivojlanayotgan tengdoshlariga nisbatan ularda xavotir xissi kuchli bo‘ladi. Bunday xavotirlilik ularning jismoniy rivojlanishi bilan bog‘liq tarzda vujudga keladi. Shunday rivojlanishga ega bo‘lgan o‘g‘il bolalar esa, qiyinchiliklarga duch kelmaydilar.

Gender identivlik muammosi oilada vujudga kelad. Aynan oila o‘smir yoshdagi o‘g‘il va qiz bolalarga asosiy ijtimoiy ta’sir ko‘rsatadigan omil hisoblanadi. O‘smir yoshdagi o‘g‘il va qiz bolalarning ruxiy jihatdan muvaffaqiyatli rivojlanishlari uchun oilada qulay muhit yaratilishi lozim. Bunday muhitning mavjud bo‘lmasligi esa, o‘g‘il va qiz

bolalarning ham ruxiy, ham jinsiy muvofiqliklarini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalarning shaxsiy sifatlari ham o‘smirlarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. O‘smir yoshdagilar uchun oilaning to‘liqligi muhim ahamiyatga ega. O‘smirning hayotida ota-onaning o‘rni beqiyos bo‘lib, to‘liq oilada kamol topayotgan o‘smirlar ruxiy jihatdan sog‘lom bo‘ladilar.

Otaning yo‘qligi o‘smir qizlar ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Namunali otalar o‘z qizlariga o‘g‘il bolalar bilan samarali muloqot va munosabatga kirishishlariga ko‘maklashadilar. Psixologlarning ta’kidlashiga ko‘ra, qizlarga nisbatan o‘g‘il bolalarning jinsiy identifikasiyasi murakkab kechadi. Bunga, asosan, o‘smirlarning otaga nisbatan ona bilan ko‘proq munosabatga kirishishlari sabab bo‘ladi. Bundan ko‘rinadiki, o‘g‘il va qiz bolalarning yetuklikka intilishida otaning o‘rni muhim bo‘lib, ular uchun otalari bilan muloqotga kirishish jozibali hisoblanadi.

O‘smir yoshdagi ayrim qizlar bog‘lanib qolish, bo‘ysunish, o‘z-o‘zini baholashda passivlikka moyil bo‘ladilar. O‘smirlarning shaxsiyatlaridagi yetishmasliklariga e’tibor qaratishlari natijasida sustkashlik ko‘rsatishga moyillik vujudga keladi. O‘smirlardagi o‘zlikni anglash hissi atrofdagilarning etukligini tan olish natijasida vujudga keladi. O‘smirlarning o‘z-o‘zlarini boshqarishlarida ideal darajasidagi gender obrazlar ham muhim rol o‘ynaydi. O‘smir o‘g‘il bolalar uchun “haqiqiy erkak” timsolidagi ideal o‘zida kuchlilik, jasorat, mardlik, sadoqatlilik, do‘stlikni qadrlaydigan sifatlarni mujassamlashtiradi.

O‘smir yoshdagi qizlar uchun esa, his-xayajon, boshqalarning nigoh tashlashi, o‘zini katta ayollardek his qilish, dugonalariga sadoqat ko‘rsatish, kattalar bilan muloqot qilish, jozibador bo‘lish, o‘zini yuqori mavqega ega bo‘lgan ayollardek tutishga intilish xosdir. O‘smir yoshdagi o‘g‘il bolalar o‘zlarining jismoniy rivojlanishiga e’tibor bilan qaraydilar. Ular 5-6-sinflardan boshlab, ijtimoiy, jismoniy mashqlarni bajarishga kirishadilar. Bunday mashqlar o‘zining kuch-quvvatini ko‘paytirish, baquvvat bo‘lishga qaratilgandir. O‘smir qizlar esa o‘zining tashqi qiyofasiga ko‘proq e’tibor qaratib, kattalarning pardoz buyumlari, kiyim-kechaklariga qiziqa boshlaydilar.

O‘smir yoshdagi o‘g‘il bolalarda axloqiy ideallar ko‘proq umumlashgan xarakterga ega. U rasional tafakkurda o‘z ifodasini topib, axloqiy ideal sifatida namoyon bo‘ladi. O‘smir yoshdagi qiz bolalar esa, o‘z ideallarini atrofdagilar timsolida ko‘radilar. Ular birinchi navbatda his-tuyg‘ulariga tayanadilar. O‘smir yoshdagi o‘g‘il bolalar esa uni keng ko‘lamda tasavvur qilib, rasional fikrlarga tayanadilar. O‘smir yoshdagi qizlarda ziddiyatlar ularning o‘zligi bilan ta’lim muasasasidagi qat’iylashgan me’yorlar orasida vujudga keladi. O‘smir qizlar maktab ta’limining nisbatan oxirgi yillarida qat’iylashgan me’yorlardan uzoqlashib, tabiiylikka ko‘proq intiladilar. Ularning ongi rivojlanib, egosentrizmga xos xatti-harakatlar vujudga keladi. O‘smirlarning rang-barang nuqtayi nazarlari o‘zgarib, ular birgina dalil – betakror mavjudlik dalili tomon intiladilar. Natijada, ular shaxsiy nuqtai nazarlarini yuqori qo‘yishga harakat qiladilar. Ular o‘zlarining xatti-harakatlarini tahlil qilib baholaydilar va balandparvoz hayollar ta’sirida, atrofdagilar ham ularni baholayaptilar deb hisoblaydilar. Shuning uchun ham o‘smir yoshdagi qizlar soatlab ko‘zgu oldida turib, sochlarini turlicha shaklda turmaklashga harakat qiladilar.

Shuning uchun ham ular atrofidagilar, bir xil nuqtai nazarga ega bo‘lgan tengdoshlari bilan ko‘proq muloqot qilishga intiladilar. O‘smirlarda kuzatiladigan shaxsiy egosentrizmning ko‘rinishlaridan yana biri betakrorliklarini tan olishdir. Ular o‘zlari haqida xayollar suradilar, o‘z-o‘zlari bilan gaplashadilar va kundaliklariga kechinmalarini yozib boradilar. O‘smirlar xayolan o‘zlarini eng oliy o‘ringa qo‘yadilar va har gal “men yagonaman” degan fikrni takrorlaydilar. Ular barcha ko‘ngilsizliklar boshqalar bilan

sodir bo‘ladi, deb ularni tanqid qilishga intiladilar.

Bunday bolalar o‘zlarini tan olmaydilar, imkoniyatlarini etarlicha baholamaydilar. Bir guruh o‘smirlar esa o‘zlarida salbiy sifatlar bilan bir qatorda ijobiy sifatlar ham mavjud deb hisoblaydilar. Ularning o‘zlariga nisbatan bergan baholarida salbiy xulq-atvor ko‘rinishlariga egaliklari yaqqol namoyon bo‘ladi. Aksariyat o‘smirlar o‘zlarida kamchiliklar mavjudligini tan oladilar, ayniqsa kichik o‘smir yoshidagilarning bergan tavsiflarida salbiy xissiy fon ustunlik qiladi.

O‘smir yoshidagi qizlar o‘z kechinmalarini yaxshiroq ifodalab, ko‘proq so‘z zaxirasiga ega bo‘lganliklari uchun ham o‘z-o‘zini anglashning o‘ta nozik va murakkab jihatlarining shakllanishi oson kechadi. O‘smir yoshdagi o‘g‘il bolalarda esa emosional jihatlar kuchli bo‘lib, ular bu haqida ko‘p gapirmaydilar. Ular o‘z his-tuyg‘ularini shartli ravishda ba’zan esa musiqa yordamida ifodalaydilar. Biroq so‘zlab berishni xoxlamaydilar. Shunga ko‘ra pedagogik jarayonda ayniqsa, o‘smirlarda o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmasini tarkib toptirish jarayonida o‘g‘il va qiz bolalarning gender xususiyatlarini alohida hisobga olish talab qilinadi.

O‘zini anglash tushunchasini hadislar va faylasuflar qarashlari vositasida o‘rganish bejiz emas. Chunki ularning orasida uzviy bog‘liqlik bor. Shuningdek, ularning dolzarblilik darajasi bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Suqrot: “Men hech narsa bilmasligimni bilaman” deya odamlarni o‘zini anglashlikka undagan. U o‘zini anglashlikni “ichki tuyg‘ularingni, yashirin qudratingni tushunib yet” deb ham ifodalagan. Ichki intilish esa haqparvarlik, adolat, jasurlik, tartib-intizom va rostgo‘ylik bilan bir qatorga qo‘yilgan. U xayollardagi va amallardagi rostgo‘ylikning eng yorqin misoli bo‘lib qolaveradi.

O‘z-o‘zini adekvat baholash tarixiga nazar tashlasak, odamlar uni mukammallashtirish uchun turli usullardan foydalanishgan. O‘tmishda ham bu muammo olimlarni o‘ylantirgan muhim masala bo‘lgan. Oqibatda shamanlikka asos solingan. O‘zini anglash, o‘z-o‘zini baholash haqidagi tadqiqotlarga asosan sharqiy davlatlar − Xitoy va Hindiston olimlari katta hissa qo‘shgan. Bu mamlakatlarda sehrgarlik va shamanlik ta’limotlari gullab yashnagan. Ularning orasida mashhur bo‘lgan ko‘plab yo‘nalish va maktablar, jumladan, ushu, sigun, so‘fiylik bor edi. Undan tashqari o‘zlikni anglash uchun yo‘lga qo‘yilgan ibodat, tavba, ro‘za kabi turli diniy usullardan ham foydalanish haligacha davom etmoqda. Ushbu zamonaviy usullar ruhiy tarbiyada muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy ruhiy tahlil maktablari ham shakllangan bo‘lib, ularda yangi to‘lqin ruhiy tahlili nomini olgan neyrolingvistik dasturlash usullaridan foydalaniladi. Lekin o‘zini nazorat qilishning yuqoridagi barcha shakllari mukammallashib borgani sari, insonning o‘zi ham murakkablashib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akramova F.A. Yuqori sinf o‘quvchilarida sevgi-muhabbat hislari namoyon bo‘lishining ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari. Dis. ... ped. fan. nom. – T.: 1997. – 184 b.

2. Андреева, Наталия Ивановна. Формирование гендерной культуры в современном обществе: философско-культурологический анализ: автореферат дис. ... доктора философских наук: 09.00.13 / Рост. гос. ун-т. - Ростов-на-Дону, 2005. - 43 с.

3. Musurmonova O. Yuqori sinf o‘quvchilari ma’naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped.f.d. ...dis. – T.: 1993. − 364 b.

4. Молчанова, О.Н. Психология самооценки: учебное пособие для вузов / Москва: Издательство Юрайт, 2023. - 308 с.

Go‘zalxon SALOHIDDINOVA,
Alfraganus universiteti “Pedagogika va psixologiya”kafedrasi katta o‘qituvchisi

OILALARDA O‘SMIR YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGI ILMIY MUAMMO SIFATIDA

Ushbu maqolada “ijtimoiy-siyosiy faollik” tushunchasi va uning komponentlariga alohida ta’rif beriladi. Yosh avlodning siyosiy motivlari va qadriyatlari, ularning saylovdagi afzalliklari tahlil qilinadi. Yoshlar siyosati davlat tomonidan o‘smir yoshlarning o‘zlari, yoshlar va bolalar jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari pedagogik hamkorlik asosida ishtirok etgan taqdirdagina samarali amalga oshirilishi mumkinligi haqida so‘z yuritiladi.

Tayanch so‘zlar. Faollik, shaxs va jamiyat, ijtimoiy-siyosiy faollik, saylov sohasidagi faollik, siyosiy jarayon, siyosat sohasidagi faollik, individual faollik, jamoaviy faollik, davlat boshqaruvi, ijtimoiy institutlar hamkorligi.

В данной статье рассматривается понятие «общественно-политическая активность» и ее компоненты. Кроме того, анализируются политические мотивы и ценности молодого поколения, их электоральные предпочтения. Также говорится о том, что государство может эффективно реализовывать молодежную политику только в случае участия самих подростков, молодежи, детских общественных организаций и других институтов гражданского общества на основе педагогического сотрудничества.

Ключевые слова. Активность, личность и общество, общественно-политическая активность, активность в сфере выборов, политический процесс, активность в сфере политики, индивидуальная активность, групповая активность, государственное управление, сотрудничество социальных институтов.

This article observes the concept of "socio-political activeness" and its components. Furthermore, the political motives and values of the young generation, their electoral preferences are analyzed. It also discusses that the state can effectively implement youth policy, only in the case of teenagers themselves, youth, children’s public organizations and other institutions of civil society participate based on pedagogical cooperation.

Key words. Activeness, individual and society, socio-political activeness, activeness in the field of elections, political process, activeness in the field of politics, individual activeness, group activeness, public administration, cooperation of social institutions.

Mamlakatimizni modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichi o‘smir yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini, uning murakkab, ko‘p qirrali va qarama-qarshi hodisa sifatida g‘oyasini yangi ilmiy tushunishga ehtiyoj tug‘dirmoqda. Tadqiqot muammosining ilmiy ahamiyati o‘smir yoshdagi bolalar muhitida sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi.

Siyosatshunoslikda “faollik” tushunchasi siyosat sharoitida shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishning bir qismi sifatida qaraladi. Siyosiy sohada amalga oshiriladigan ijtimoiy faoliyatning eng muhim turi sifatida ijtimoiy-siyosiy faoliyat – bu ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tartibni, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy institutlarni takomillashtirish yoki o‘zgartirish istagi bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy guruhlar yoki shaxslarning faoliyati.

“Ijtimoiy-siyosiy faollik” tushunchasining boshqa ta’riflari mavjud. Siyosatshunos M. Kaazening fikricha, ijtimoiy-siyosiy faollik siyosiy tizimning turli darajalarida qarorlar qabul qilishga ta’sir o‘tkazish maqsadida fuqarolar tomonidan ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladigan har qanday faoliyat bilan bog‘liq. O.A. Koryakovseva ijtimoiy-siyosiy

faollikni “subyektning umuman siyosiy jarayonda, shuningdek, siyosiy faoliyatning individual shakllari doirasida ishtirok etish intensivligi” deb tushunadi. Mualliflarni o‘smir yoshlarning faoliyati o‘zgaruvchan bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar sub'ekti sifatida qarashlari birlashtiradi.

Ilmiy adabiyotda ijtimoiy-siyosiy faollikning eng ko‘p ishlatiladigan ta’rifi D.V. Olshanskiyga tegishli bo‘lib, uni “... mavjud siyosiy yoki ijtimoiy-iqtisodiy tartibni va tegishli siyosiy institutlarni o‘zgartirish istagi bilan o‘z ehtiyojlari va manfaatlarini shakllantirish va ifodalash bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy guruhlar yoki shaxslarning faoliyati” deb ta’riflaydi. Ushbu ta’rifdan kelib chiqadiki, ijtimoiy-siyosiy faollik faoliyat sifatida ushbu hodisaning mazmunini tashkil etuvchi individual komponentlar to‘plamidir.

Yuqoridagi ta’rifga asoslanib, tadqiqotchilar O.M. Karpenko va I.A. Lamanov siyosat sohasidagi faollik mazmunini tashkil etuvchi beshta komponentni aniqlaydilar: aqliy, saylov, stixiyali-ommaviy, tarkibiy va kasbiy.

Birinchi komponent aqliy faollik bo‘lib, u turli siyosat subektlarining o‘z ehtiyojlari va manfaatlarini shakllantirish faoliyatini anglatadi. Bu siyosiy faollikning psixologik tarkibiy qismidir. O‘smir yoshlarning aqliy faolligining o‘ziga xos ko‘rinishlariga – o‘z manfaatlari va ehtiyojlarini shakllantirish, siyosat va siyosiy tuzilmalarga munosabatni shakllantirish, mafkuraviy ishonchning mavjudligi kiradi.

Biroq barcha siyosiy sub'ektlar bunday faollikni namoyish eta olmaydilar. G. Almond fikriga ko‘ra, siyosatdagi faollik darajasi aholining siyosiy madaniyati darajasiga bog‘liq. U siyosiy madaniyatning uch turini aniqlaydi: patriarxal, bo‘ysunuvchi va faol, ularning har biri siyosiy sub'ektlarning ma’lum bir toifasiga to‘g‘ri keladi.Muallifning so‘zlariga ko‘ra, faqat “bo‘ysunuvchilar” va “ishtirokchilar” kundalik hayotda aqliy faollikni namoyish etadilar. “Bo‘ysunuvchilar” siyosiy jarayonda qatnashmaydi, balki ularning manfaatlari va ehtiyojlarini shakllantiradi. “Ishtirokchilar” – siyosiy faoliyatning aqliy va boshqa tarkibiy qismlarini namoyish etadi.

Siyosiy faollikning eng keng tarqalgan tarkibiy qismi bu saylov faoliyati. Saylov faolligi – bu turli siyosiy sub'ektlarning saylov jarayonidagi ishtiroki bilan bog‘liq faoliyati. Zamonaviy jamiyatda saylovlar fuqarolarning siyosiy ishtirokining asosiy mexanizmlaridan biri va hukumatga ta’sir o‘tkazishning eng samarali vositasidir. Shu munosabat bilan saylov faolligining namoyon bo‘lishi jamiyatdagi siyosiy faollik darajasining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘ladi.

Siyosiy faollikning uchinchi tarkibiy qismi stixiyali-ommaviy faoliyat bo‘lib, u turli siyosiy subyektlarning ommaviy siyosiy harakatlarni tashkil etish va ishtirok etishdagi faoliyati hisoblanadi. Ommaviy stixiyali faollikning namoyon bo‘lishi, xususan, rasmiy saylovlar yoki qonunni buzgan holda kuzatiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 128-moddasida shunday deyilgan: “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o‘z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi” [1].

Siyosiy faollikning asosiy tarkibiy qismlaridan biri – bu tarkibiy faollikdir. Tarkibiy faollik deganda, turli siyosiy sub'ektlarning siyosiy tashkilotlardagi ishtirokiga asoslangan faoliyati tushuniladi. Jamiyatdagi tarkibiy faollikning namoyon bo‘lishi siyosiy harakatlar asosan siyosiy tashkilotlardan kelib chiqishini anglatadi. D.V. Olshanskiy siyosiy tashkilotni ma’lum bir dastur yoki maqsadni birgalikda amalga oshiradigan va muayyan tartib va qoidalar asosida harakat qiladigan odamlar birlashmasi sifatida belgilaydi.

Siyosiy tashkilotning eng keng tarqalgan turlaridan biri – bu yoshlar siyosiy tashkiloti .

Siyosiy faollikning so‘nggi tarkibiy qismi – bu kasbiy faollik, turli siyosiy sub'ektlarning kasbiy sohalardan biri sifatida siyosiy hayotdagi ishtiroki. Bunday holda, siyosat o‘z ehtiyojlari va manfaatlarini ifodalash bilan bog‘liq hayot sohasi sifatida emas, balki kasbiy bandlik sohasi sifatida qabul qilinadi. Kasbiy siyosiy faollikka misol sifatida siyosiy tashkilotlarda yuqori lavozimlarni egallash, saylovda qatnashish, davlat va boshqaruv organlarida ishlash va siyosat sohasidagi tadqiqotlar kiradi.

Ijtimoiy fanlarda ko‘rsatilgan tarkibiy qismlar bilan bir qatorda ijtimoiy-siyosiy faollik darajalari ham mavjud. Har bir daraja faol bo‘lgan aniq siyosat ishtirokchilarining ishlashini nazarda tutadi.

Faollikning individual va jamoaviy darajalari mavjud. Shaxsiy darajada ijtimoiy-siyosiy faollik – bu shaxsning hayotiy faoliyatining turli shakllarining kombinatsiyasi bo‘lib, unda uning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etish, siyosiy huquq va manfaatlarini himoya qilish istagi namoyon bo‘ladi. Jamoviy darajada shaxslarning aniq birlashmalari faol bo‘lib, ularda guruh, tashkiliy va ommaviy faollik darajalari ajralib turadi.

Siyosiy faollikning guruh darajasi umumiy manfaatlar asosida birlashgan kichik guruhlarning siyosiy faolligining namoyon bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Tashkiliy darajada siyosiy tashkilotlar siyosiy jihatdan faol bo‘ladi. Ular dasturiy hujjatlarga muvofiq harakat qilishadi, bu ularga institutsional xarakter beradi. Ommaviy darajada siyosiy faollik ommaviy siyosiy harakatlar va yirik ijtimoiy guruhlar faoliyati bilan bog‘liq. Bunday holda, siyosiy faollik ko‘pincha tartibsiz bo‘lib, uning namoyon bo‘lishi o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi.

Mamlakatning o‘smir yoshlarining ijtimoiy-siyosiy faolligi darajasini belgilovchi immanent (ichki) omillar tashqi ijtimoiy muhit sharoitlari bilan bir qatorda shaxsning shakllanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu holat yoshlarni axloqiy va vatanparvarlik tarbiyasi, aholining ushbu toifasini ijtimoiy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, ushbu sohalarni ilmiy tushunish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda hisobga olinishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonuni. www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. www.lex.uz

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi “2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini «Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-209-sonli Farmoni. www.lex.uz

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. www.president.uz

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko‘maklashish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2013 yil 12 dekabrdagi PQ-2085-son qarori. www.lex.uz

Zahro MUHAMMADIYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Ijtimoiy fanlar fakulteti
Tarix yo'nalishi talabasi

BUXORO XONLIGIDA MADRASA VA MASJIDLAR FAOLIYATI

Annotatsiya

Maqolada Buxoro madrasalari faoliyati tarixiga oid maxsus tizimga solingan ma'lumotlar XX asr boshlaridayoq paydo bo'la boshlagandi. Abdurauf Fitrat, Muhammad Sharif maxdum Sadri Ziyo, Sadriddin Ayniy, Muhammad Ali Baljuvoniy, Sayyid Mansur Olimiykabi mualliflar Buxoro madrasalari haqida qimmatli ma'lumotlar berishadi. Lekin ulardagi axborotlar birlashtirilganida ham mavzuning ko'p qismi, ayniqsa, ta'lim tizimi tarixi qorong'iligicha qolaveradi.

Tayanch so'zlar. Buxoro, madrasa, masjid, mudarris, xonaqoh, vaqf mulklari, qozi ul quzzot, Mir Arab, hujjat, kutubxona, kitobdor, Ko'kaldosh, mufti qozi, muarrix, devonbegi.

Специально систематизированные сведения по истории деятельности бухарских медресе стали появляться еще в начале XX века. Такие авторы , как Абдурауф Фитрат, Мухаммад Шариф Махдум Садри Зия, Садриддин Айни, Мухаммад Али бальджувани, Сайид Мансур Алими, дают ценную информацию о бухарских медресе. Но даже когда информация в них объединена, большая часть темы, особенно история системы образования, остается темной.

Ключевые слова. Бухара, медресе, мечеть, мударрис, Ханака, поместья Вакфа, Кази уль куззот, Мир Араб, док, библиотека, китабдор, Кукалдаш, муфтий Кази, муаррих.

Information on the history of the activities of Bukhara madrasas, put into a special system, began to appear as early as the beginning of the 20th century. Authors such as Abdurauf Fitrat, Muhammad Sharif Makhdum Sadri Ziyo, Sadriddin Ayniy , Muhammad Ali Baljuwani , Sayyid Mansur Olimi provide valuable information about Bukharan madrasas. But even when the information in them is combined, much of the topic remains dark, especially the history of the educational system.

Key words. Bukhara, madrasa, mosque, mudarris, khonakah, Waqf Estates, Qazi ul quzzot, Mir Arab, document, library, bookkeeper, Skyscraper, mufti Qazi, muarrix.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 24-may kuni "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2995-sonli qarorni imzoladi. Qarorga keltirilgan sharhda tushuntirilishicha, hujjat yosh avlodni vatanparvarlik va tarixga chuqur hurmat ruhida tarbiyalash hamda O'zbekistonning jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan mamlakat sifatidagi xalqaro obro'-e'tiborini yanada mustahkamlash, boy yozma merosni saqlash, o'rganish va keng targ'ib qilish ishlarini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga yo'naltirilgan[1].

Ma'lumki, Buxoro xonligi vujudga kelishi bilan uning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida ko'plab o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Buxoro savdosi shahar hayotida katta va muhim o'rin egallagan. Ko'p sonli manbalar, sayyohlarning yozganlari, elchilik

1 Taraqqiyot yo'limizning shiddati oshaveradi.O'zbekiston RespublikasiPrezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasidan. // Xalqso 'zigazetasi. 2018-yil 28-dekabr.

hujjatlari, elchilarning hisobotlari, statistik hisobotlar va ilmiy adabiyotlar xonlikning savdo munosabatlari haqida ma'lumot beradi. Buxoro xonligi tarixi yoritilgan adabiyotlarni shartli ravishda guruhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Rossiya imperiyasi hukmronligi davriga oid tadqiqotlar.
2. Sovet davri adabiyotlari.
3. Mustaqillik davrida nashr etilgan ilmiy tadqiqotlar.
4. Buxoro xonligiligi tarixining ayrim masalalarini o'zida aks ettirgan horijlik mualliflarning asarlari.

Buxoro xonligi tarixining turli masalalariga oid tadqiqotlar olib borgan olimlar jumlasiga L.Yu.Mankovskaya, G.A.Jo'raeva, A.Muhammadjanov, K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova, R.Hasanov, I.Z.V.Krayskaya, L.Myaskovakabilarning asarlarini kiritish mumkin. Buxoro xonligi tarixiga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu davrda yaratilgan asarlar turli ijtimoiy guruhlarga mansub mualliflar tomonidan yozilganligi, ularda xonlik siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tavsifiga asosiy e'tibor qaratilganligi, mamalakatdagi savdo munosabatlarini tahlil etishga bag'ishlangan maxsusu tadqiqot yaratilmaganligi, bu asarlar asosan informativ xarakterga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Maqolani yozish davomida ilmiy, adabiyotlar tahlili, qiyoslash, analiz, umumlashtirish, tarixiylik metodlaridan foydalanildi. Po'latjon Aminovning 1950 – 1970-yillarda Buxoro madrasalari tarixiga doir to'plagan ma'lumotlarini topdik. Ularni ahamiyati jihatidan yuqorida nomlari keltirilgan mualliflar ishlariga qo'shish mumkin. Lekin Po'latjon Aminovning axborotlari tartibsiz, turli sahifalarga sochilib, aralashib yotibdi. Ishda aniq qoida va izchillik yo'q. Ish tadqiqotning birinchi – boshlang'ich bosqichning quyi holatida qolgan. Shunga qaramay, bugungi tadqiqotchiga ularning foydasi tegadi.

XVI – XVII asrlarda rasmiylashtirilgan ko'pchilik vaqf hujjatlarining asl nusxalari saqlanmagan. Bu davrlarga tegishli ko'plab vaqf hujjatlari Amir Shohmurodbiy tashabbusi bilan qayta ko'chirilgan va uning muhri bilan tasdiqlangan.Yana bir qancha vaqf hujjatlariga Amir Haydar, qozikalon Mir Abul Hasanxoja ibn Isomuddin muhrlari bosilgan. XIX asrda mudarrislarni ishga tayinlash va o'qitish ishlari bilan bog'liq boshqa murojaat arizalari ham mamlakat hukmdori nomiga yozilgan. Ish davomida shu turdagi hujjatlardan keng foydalanildi. Ikkinchi oliy bo'g'in – qozi nazorati. Oldingi davrlardagi singari ta'lim tizimi nazoratining muhim va asosiy bo'g'ini edi.

Tashkiliy ishlar to'liq uning zimmasida bo'lgan. Qozikalon Mir Muhammad Fuzayl, Mir Abul Hasan ibn Isomuddin, Abdushukur ibn Abdurasul , Abduhamid ibn Boqi Muhammad, Mir Sadriddin, Mir Badriddin ibn Sadriddin kabi qozi ul-quzzot mansabida ishlagan shaxslar muhrlari hujjatlarda ko'p uchraydi. Ta'lim tizimiga doir barcha turdagi hujjatlar oliy hukmdor e'tiboriga qozi ul-quzzot orqali taqdim qilingan. Buxoro tumani va boshqa viloyatlarda qozilar ham aynan ushbu vazifani bajargan. Sadr Buxoro shahri va uning atrofida 1 farsax masofada joylashgan vaqf mulklari boshqaruvidagi muammolarni hal etishga mas'ul edi. Shahar hududiga kiruvchi o'quv dargohlarining iqtisodiy faoliyatini ham u taftish qilib turardi. Sho'rolar inqilobiga qadar mazkur amaldor vazifasi o'zgarishsiz qolavergan. Turli hujjatlarda sadrlar muhrlari ham uchraydi. Mulla Abdushukur ibn Abdurasul qozi ul-quzzot mansabiga ko'tarilgunga qadar sadrlik amalida ishlagan. Hujjatlarning birida uning muhri ham turibdi. Sudur Buxoro shahri boshqaruvidan tashqaridagi madrasalar faoliyati uchun xuddi sadrlar singari vazifalarni bajarardi. Olimlar yasavuli (matnda "yasavuli ulamo"). Boshqaruvdagi bu mansab XVI asrdan keyin paydo bo'lgan. Yasavul dastlab chingiziylar davrida "yasa" ijrosini nazorat qilgan. O'rta asrlar oxirlarida xon saroyidagi maxsus topshiriqlarni bajaruvchi kichik

amaldor edi. A.A.Semyonov viloyat hokimlari o‘rdasida ham yasavul amali bo‘lganini ta’kidlaydi. Manbalarda uchrayotgan ma’lumotlar yasavul vazifasini bir paytning o‘zida turli mansabdagi bir qancha kishi bajarganini ko‘rsatmoqda. Olimlar yasavuli boshqaruvning yuqori bo‘g‘inlariga rasmiy murojaat xati yozib, mamlakatda o‘quv mavsumining boshlanishi va yakunlanayotgani, madrasalarda mudarrislarning boshqa mansabga o‘tishi, bo‘sh qolgan dars o‘rinlariga o‘qituvchilarni tayinlash ishlaridan qozi va oliy hukmdorni xabardor qilib turgan. Ko‘rib chiqilgan hujjatlarda xuddi shunday vazifani bajargan mulla Sharof miroxo‘r yasavuli ulamo, Mirzo Kalon qorovulbegi yasavuli ulamo, Mirzo Nuriddin qarovulbegi yasavuli ulamo, Odam Muhammad Zarif yasavuli darvozai Arki Oliy shakllarida uchradi. Mutavalli Oldinroq uning ta’lim boshqaruvidagi o‘rni haqida aytib o‘tildi. XVI asr va undan keyingi davrlarda mutavallining mavqei o‘zgarishsiz qoldi. Sho‘rolar saltanati o‘rnatilishi va mamlakatda yangi ta’lim tartibi joriy qilinishi munosabati bilan bu mansab ham boshqalari qatorida barham topdi. Ta’lim tizimida vaqfsiz madrasalar ham bor edi. Ularning boshqaruvini qozikalon va qozilar davlat tomonidan belgilangan tartibda nazorat qilgan. Zarur vaziyatlarda yetarli ilmga ega iste’dodli, tajribali mudarrislar tanlab olinib, tuman hamda viloyatlarga qozi va boshqa muhim mansablarga yuborilgan. Ijtimoiy munosabatlar vositasi o‘quv dargohlari faoliyati vaqf, arznoma, mutavallining hisob-kitob daftari, shikoyatlar, madrasalar ro‘yxati, tibbiy tekshiruv, yorliqlar va boshqa hujjatlar vositasida amalga oshirilgan[2].

Olimlar yasavuli (yasavuli ulamo) madrasalarda o‘quv mavsumi boshlanishiga fursat yetganini bildirib oliy hukmdorga arznoma yozgan va undan o‘qishlarni boshlashga quyidagi tartibda ijozat so‘ragan. Maqtovlar egasi Tangri nomi ila Kamtarin banda, zarradek joni fido g‘ulomingiz olimlar yasavuli Mirzo Abdurahim qorovulbegi samimiy rizolik bilan arz qilgay. Oliy hazrat muhtaram sayyidim, yaxshiliklar homiysi sohibimiz va mavlomiz Alloh taolo sizni salomat asrasin! Janob hazrat mavlomizga ming bora ajzu odob ila so‘zimiz maqbul bo‘lishidan umidvormiz. Bandaparvar sohibim, janob mavlomiz va hazrat sayyidimizning muborak boshiga jonim sadqa bo‘lsin. Tangri janob olampanohimizni qalbidagi muborak maqsadlariga yetkazsin va hamisha xursandchilikda omon saqlasin!. Sohibim, tasadduqingiz bo‘lay, adolatpesha va raiyatparvar janobi oliy lari ilm ahlining tahsil kunlari yetib kelganini yaxshi bilgay. Milodiy sentyabr oyining o‘n ikkinchisiga muvofiq muazzam sha’bon oyining o‘n yettinchisida chorshanba kuni, mezon oyining boshida o‘qish mavsumi boshlanadi. Janobi oliyning davlati sharofati va saodatiga muyassar bo‘lgan va hamisha buyrug‘ingizga muntazir ushbu g‘ulomingiz Buxoroi sharif madrasalari darsxonalarida chorshanba kuni mashg‘ulotlar boshlanishi haqida ilm talabidagi jamoaga xabar beradi.

O‘quv mavsumining boshlanishiga oid yana bir hujjat bilan tanishdik. Unda olimlar yasavuli Mirzo Kalon qorovulbegi xuddi shu tartibda oliy hukmdorga arz qiladi. Bu hujjatda mezon oyining boshlanishi rabi ul-avvalning 13-kuniga to‘g‘ri kelgan[3]. Abdullaxon g‘arbiy madrasasiga kigiz sotib olish uchun vaqf mulkidan yiliga oltmish tanga ajratgan. Kalabod madrasasi mutavallisi, vaqf hujjati shartiga ko‘ra, har 2 yilda masjid va madrasa darsxonasi uchun o‘nta kigiz, har yili yangi bo‘yra sotib olishi lozim bo‘lgan. Jo‘y bori Kalon madrasasi vaqf hujjatida mutavalli o‘quv dargohi tarkibidagi masjid uchun har ikki yilda o‘nta kigiz, har yili keragicha bo‘yra sotib olishi shart qilingan edi.4 Gavkushon madrasasi masjidi uchun har ikki yilda kigiz va bo‘yra sotib olingan.

2 АбдуллахожаАбдий. Тазкиратуш-шуаро. – Душанбе: Дониш, 1983. – 292 б.

3 ЎзР МДА. И-126. 1-2001-3.

4 O‘zR MDA. I-323. 14-1; 55-16. Kalabod madrasasi vaqf hujjati.

Ko‘kaldosh madrasasi mutavallisi zaruratga qarab madra sa va masjid uchun bo‘yra, kigiz, sham sotib olishga pul ajratadi. Mir Sano Abdulloh ibn Mir Abul Atoxoja ismli kishilar Xoja Nihol, Sitorai Moh xonim madrasasi, Boloyi hovuz xona qohi to‘shamchilari va chirog‘i uchun mablag‘ ajratadi. Chiroq – Kalabod madrasasi mutavallisi masjidga sham sotib olish uchun har oyda muazzinga 1 tanga berib borgan. Asiriy madrasasi uchun Ravg‘angarlik va Rangrezlik guzari dagi baqqollik do‘konlari vaqf qilinib, ulardan tushgan mablag‘ chiroq, yog‘ kabi zaruratlarga ishlatilgan. Mavlona Miskin madrasasi mutavallisi hosilni taqsim lashdan oldin masjid va darsxonaga chiroq, to‘shamchi xarid qi lish uchun keragicha mablag‘ olib qolgan. Nadr devonbegi madrasasi mutavallisi har yili jome masjidi hamda madrasa masjidiga to‘shamchi va chiroqlar sotib olish uchun 150 tanga sarf qilgan. Agar vaqf hosili yuqorida ko‘rsatilgan to‘lovlardan ko‘proq yig‘ilgan bo‘lsa, imkoniyat darajasida vazifadorlar ulushiga qo‘shib berilgan. Hosil kam yig‘ilgudek bo‘lsa, ularning haqi kamaytirilmagan. Faqat xatm qilish, to‘shamchi va chiroqlar uchun ajratilgan mablag‘ qisqartirilgan.

Buxorodagi madrasalarning nufuzi va ilmiy salohiyati yuqori bo‘lgan. Shu sabab-dan omma orasida turli mintaqalardan bu yerga kelib ta’lim olishga qiziqish katta edi. Muarrix Abu Sa’d Abdulkarim ibn Muhammad Samoniy (1113 – 1167) “Kitab al-ansob” (Nasabnoma) asarida uning ilm-ma’rifat markazi ekanini quyidagicha ta’riflaydi: “Buxoro shon-shuhrat makoni, saltanat ka’basi va zamonasining ziyolilari jamlangan, Yer yuzi adiblarining yulduzlari porlagan hamda fozillarga panoh bo‘lgan maskan edi”. Buxoro madrasalarida diniy ilmlardan tashqari nahv va sarf (morfologiya va grammatika), adab (adabiyot), xatoba (notiqlik), riyoziyot (matematika), handasa (geometriya), jugrofiya (geografiya), falsafa kabi fanlar o‘qitilgan. Ayrim ixtisoslashgan madrasalarda aniq va tabiiy fanlar maxsus o‘rgatilgan. Xususan, tibbiyotga ixtisoslashgan madrasalarda Abu Ali Ibn Sino, Abu Bakr Roziy kabi buyuk allomalarning asarlari o‘rganilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Taraqqiyot yo‘limizning shiddati oshaveradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2018-yil 28- dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasidan.// Xalq so‘zi gazetasi. 2018-yil 28-dekabr.

2. Abdullaxoja Abdiy. Tazkiratush-shuaro.– Dushanbe: Donish, 1983. – 292 b. O‘zR MDA. I-126. 1-2001-1. Yasavuli ulamo Mirzo Abdurahim arznomasi hijriy 1325 – 1327 yillar (1907 – 1909) atrofida yozilgan.

3.O‘zRMDA.I-126.1-2001-3.

4. O‘zR MDA. I-323. 14-1; 55-16. Kalabod madrasasi vaqf hujjati.

5. O‘zRMDA. I-323.15,115. Jo‘ybori Kalon madrasasi vaqf hujjat

Shuhrat HAMROYEV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti kafedra mudiri, pedagogika fanlari nomzodi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SAVOL-JAVOB O'YINLARINI O'TKAZISH TAJRIBASIDAN

Annotatsiya

Maqolada ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlarining tizimli yo'lga qo'yish va bu yuksak samaradorlikka erishish shuningdek, sinfdan tashqari vaqtda o'quvchilar bilan tarbiyaviy va xulqiy ko'nikmalarni olib borish haqida so'z yurtilgan.

Tayanch so'zlar. Sinfdan tashqari ishlar, tarbiyaviy ishlar, axloq-odob, bayramlar, muhim sanalar, jamiyat hayoti, savol-javob o'yinlari, boshlang'ich ta'lim, o'qish, matematika, tashkil qilish, o'tkazish, o`qituvchi.

В статье речь идет о систематическом налаживании духовно-просветительской работы и достижении этой высокой эффективности, а также о проведении воспитательных и поведенческих занятий с учащимися во внеурочное время.

Ключевые слова. Внеклассная деятельность, образовательная деятельность, нравственность, праздники, важные даты, общественная жизнь, игры в вопросы и ответы, начальное образование, чтение, математика, организация, проведение, учитель.

The article talks about the systematic implementation of spiritual and educational work and achieving this high efficiency, as well as carrying out educational and behavioral skills with students at extracurricular times.

Key words. Extracurricular activities, educational activities, morals, holidays, important dates, community life, question and answer games, primary education, reading, mathematics, organizing, conducting , teacher.

